


HAYDAROV  
ZAHRIIDDINBOBIR  
UMAROVICH

# NOMODDIY MADANIY MEROΣ



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**


**IJTIMOIY-IQTISODIY FAKUL'TETI**

**«IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT» KAFEDRASI**

**«NOMODDIY MADANIY MEROS»  
fanidan**

***MA'RUZALAR MATNI***

Bakalavriat yo`nalishi: 5610400–ijtimoiy- madaniy faoliyat yo`nalishi talablari uchun



«Nomoddiy madaniy meros» darsi oliy o`quv yurtlari talabalarining bilimlarini va madaniyatini oshirish, o`zbek milliy nomoddiy madaniy merosining yorqin sahifalarini o`rganishga qaratilgan. Ushbu ma`ruzalar matnida folklor va uning janrlari, o`zbek xalq tomosha san`ati, o`yinlari, an`ana, urf-odat, marosim va udumlari hamda O`zbek xalqi an`anaviy turmush marosimlar va madaniyati bilan bog`liq masalalar qamrab olingan. Bu esa o`z navbatida ularning bo`lajak kasblariiga ijodiy yondoshishlariga xizmat qiladi.

«Nomoddiy madaniy meros» bo`yicha tayyorlangan ma`ruzalar matni ijtimoiy madaniy faoliyat yo`nalishi talabalariga mo`ljallangan.

**Tuzuvchi:** tarix fanlari nomzodi Zahreddinbobir Haydarov

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari nomzodi, dotsent Mo'minjon Sulaymonov  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent Farida Karimova  
tarix fanlari nomzodi Ma'rufjon Qayumov

Ushbu “Nomoddiy madaniy meros” fanidan tayyorlangan ma`ruzalar matni Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasining 2014-yil 26-martdagи (bayonnomma № 9) yig`ilishida muhokama qilingan va universitet o`quv-uslubiy Kengashiga ko`rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

Ushbu ma`ruzalar matni NamDU o`quv-uslubiy Kengashining 2014-yil 26-aprel (bayonnomma № 8) yig`ilishida ko`rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

21393

## MUQADDIMA

O'zbek xalqining o'tmishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu davr ichida xalqning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyati jahon sivilizatsiyasining o'lmas namunalariga aylandi. Xususan, o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi asrlar osha ajdodlar tomonidan sayqallanib, xalqning bebaho mulki bo'lish bilan bir qatorda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sub'ektisifatida baholandi. Zero, nomoddiy madani meros insonni tarbiyalaydi, ulug'laydi. Tabiat va xayot go'zalligini ochib beradi. Unga mehr – muxabbat munosabatini oshiradi. Shu bilan birga nomoddiy madaniy meros muhim aqliy vazifani ham bajaradi. «Biz har qanday qobiliyatda yozilgan asarni», - deb yozadi Gyote – Ona xayotimizdagи faktlarni o'rganishga ko'maklashganligi uchun qadrlaymiz va e'zozlaymiz.”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o'zining bir qator asarlarida milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini hal qilishda asosiy vazifa sifatida ma'naviyatni shakkllantirishga ta'sir ko'rsatadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilish, ularning bu jarayondagi o'rni va rolini yaxshi anglab yetish lozimligini alohida ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga har qanday xalq yoki millatni unga tegishli bo'lgan ma'naviyat, tarix, o'ziga xos urf-odat va an'analar, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligi qayd etildi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda milliy madaniyatni, xususan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoida. Chunonchi, 1999 yilda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan YuNESKO tomonidan xalq og'zaki ijodining nodir durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostonining 1000 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 14 martdagи Farmoniga asosan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" unvoni ta'sis etildi, bu esa xalqimizning madaniy merosiga bo'lgan yuksak ehtiromning yorqin misolidir. 2001 yil 30 avgustda "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish ishlarini yangi bosqichga ko'tardi, tarixiy va madaniy yodgorliklarni har tomonlama o'rganish, ommalashtirish hamda targ'ib etishga yordam berdi.

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilyotgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etishga qaratilgan ishlarning izchilligini ta'kidlash joizdir.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2009 yil 7 apreldagi qo'shiqchilik yunalishida har yili "Yagonasan, muqaddas Vatan!" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish haqidagi Qarori buning dalilidir.

Mustaqillik va Navro'z bayramlarining mamlakatimizda davlat miqyosida keng nishonlanishi, mazkur bayramlarga bag'ishlangan asosiy tantanalarning poytaxtda chet elliq mehmonlar, diplomatik korpus vakillari ishtirokida o'tkazilishi, shuningdek, bu tadbirlarning telekanallar orqali dunyoning o'nlab mamlakatlariga translyasiya qilinishi milliy nomoddiy madaniy merosimizni xalqaro miqyosda targ'ib etishning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasi 2007 yil 1 dekabrda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiyani ratifikatsiya qildi va 2008 yil 29 apreldan boshlab uning to'la huquqli ishtirokchisiga aylandi. Mamlakatimizda 2003 yil 17 oktyabrda Parij shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Bosh konferensiyasida (Yunesko) qabul qilingan Konvensiya qoidalarini bajarish yuzasidan muayyan ishlar olib borilmoqda.

O'zbek xalqi umumjahon madaniyati rivojlanishiga o'zining sezilarli xissasini qo'shgan va ayni vaqtida umuminsoniy madaniyatdan oziq olib rivojlangandir. Albatta buning zamirida o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi va uning o'lmas namunalari turgan.

Qadim o'tmishimizda ham ajdodlarimiz nomoddiy madaniy merosimizga boshqacha mexr bilan qarashgan.

Ijtimoiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlari tufayli vujudga keladigan yangiliklar voqelikka aylanadi. Bu yangi narsa eskidan olinib, mukammalroq bo'ladi. Oqibat natijada, xalq ijodiyotining ajoyib namunalari har bir davrda rivojlanib yangilanib boradi. Xalq ijodi ayni vaqtida bu jarayon insoniyatning badiiy tajribasidagi an'analarni o'zlashtirish bilan ham bog'liqdir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lif yo'nalishida talabalarga o'qitilayotgan nomoddiy madaniy meros kursini o'qitishdan maqsad shuki talabalarning o'zbek xalqi nomoddiy madaniy merosidan foydalanish, uni tanqidiy o'zlashtirish, ayni vaqtida uni yanada rivojlantirish va boyitishdan iboratadir. Bu maqsadda erishishda mazkur ma'ruba matni dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

## **“Nomoddiy madaniy meros” kursiga kirish**

**Reja:**

1. “Nomoddiy madaniy meros” fanning maqsad va vazifalari
2. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va uning mazmun mohiyati
3. Ijtimoiy-madaniy faoliyatda nomoddiy madaniy meros masalalari

Nomoddiy madaniy meros tushinchasi - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o’zgacha madaniy qimmatga ega bo’lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so’z, raqs, musiqa, tomsha san’ati), o’ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko’nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog’liq jihozlar, predmetlar, artafeftlar va madaniy makonlarni aks ettiradi.

Nomoddiy madaniy meros fanining maqsadi yoshlarning ongida o’zbek xalqining asrlar mobaynida sayqal topib o’zgacha ahamiyat kasb etib qadriyat darajasiga yetgan urf-odatlari, xalq ijodiyoti hamda ular bilan bog’liq bilim va ko’nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Quyidagilar nomoddiy madaniy meros fanining asosiy vazifalari sanaladi:

▼ Ijtimoiy-madaniy faoliyat talabalarini talab darajasida nomoddiy madaniy meros turlari, shakllari va bu boradagi bilim va ko’nikmalarni shakllantirish;

▼ Xalq og’zaki ijodi namunalari asosida talabalarda bu borada yetarli ko’nikmalar xosil qilish;

▼ Xalq tomasha san’ati, o’yinlari to’g’risida yetarlicha tasavvurga ega bo’lishini ta’minlash;

▼ O’zgacha madaniy qimmatga ega bo’lgan urf-odatlar yuzasidan talabalar bilimini yanada mustahkamlash;

▼ Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma’muriy boshqaruv tizimini o’rgatish.

▼ Nomoddiy madaniy meros targ’ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanishni o’rgatish.

«Ijtimoiy-madaniy faoliyat» va «nomoddiy madaniy meros» iboralari iste’molga kirib kelganiga uzoq vaqt bo’lgani yo‘q. «Ijtimoiy-madaniy faoliyat» iborasi o’z davrida juda keng qo’llanilgan «madaniy-oqartuv ishlari» iborasining o’rnini to’ldirish maqsadida qo’llanila boshlagan bo’lsa, «madaniy-oqartuv ishlari» iborasi o’rnida yana bir ibora — «madaniy-ma’trifiy ishlar» ham qo’llanilmoqda. Ushbu yangi iboralar hozirgi kunda bir-birini qaytaruvchi sifatida emas, balki bir-birini to’ldiruvchi iboralar sifatida qo’llanilib, turli o’quv, ilmiy adabiyotlar va vaqtli matbuot satrlarida alohida ma’nolarni anglatishi tabiiy holga aylanib qoldi. «Nomoddiy madaniy meros» iborasi esa nisbatan kechroq foydalilanayotganligadan

ko‘pchilik tomonidan tushunilishi bir oz qiyinroq kechayotganligi bois ushbu iboraning jahon leksikoniga kirib kelish tarixi to‘g‘risida bir oz to‘xtalalmiz.

Yunesko tomonidan 2003 yil 17 oktyabrdagi «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish» to‘g‘risidagi Konvensiya, 2005 yil 20 oktyabrdagi esa «Madaniy ifoda shakllarining turfa xilligini muhofaza qilish va qo‘llab-kuvvatlash» to‘g‘risida Konvensiyaning qabul qilinishi ushbu iboraning to‘laqonli istemolga kirib kelish jarayonini yakunladi.

Aslida, nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKO ning 1989 yildagi «An'anaviy madaniyat va folklorni muhofaza qilish» bo‘yicha Tavsiyalaridan boshlangan edi. 1994 yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarining rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko‘magini tashkil etish maqsadida «Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari» Dasturi boshlandi.

1997-1998 yillarda YUNESKO tomonidan «Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonalarini e’lon qilish» Dasturi ham ma’kullandi va bu orqali dunya xalqlari tomonidan saqlab kelinayotgan nomoddiy madaniy meros durdonalarinting ro‘yxatini tuzish va e’lon qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu ro‘yxatga O‘zbekistondan birinchilardan bo‘lib 2001 yilda «Boysun madaniy muhiti» va 2003 yilda «Shashmaqom» kiritilganligini yaxshi bilamiz.

O‘tgan asrning 90-yillarida ekspertlar xulosasi asosida mavjud nomoddiy madaniy merosni muhofazasi bo‘yicha keskin, qat‘iy choralar ko‘rish lozimligi aniqlandi va ushbu yo‘nalishdagi ishlar yanada jadallashtirildi. Buning natijasida YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001 yilda bo‘lib o‘tgan 31-sessiyasida yangi xulqaro normativ mehanizm vazifasini o‘tovchi Konvensiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003 yil 17 oktyabrdagi 32-sessiyasida «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish» Konvensiyasi qabul qilindi.

Ushbu Konvensiyada «nomoddiy madaniy meros», uning namoyon bo‘limi sohalari hamda muhofazasi bo‘yicha quyidagi ta‘riflar berilgan.

«Nomoddiy madaniy meros» tushunchasi urf-odatlarni, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko‘nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihatlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o‘z navbatida hamjamiyatlar, guruxlar, alohida holatlarda esa rnuayin shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi<sup>1</sup>. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruxlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o‘z tarixiga bog‘liq holda yaratiladi va bu ularda o‘ziga xoslikni, vorislik tuyg‘usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning xurmat qilinishiga ko‘maklashadi.

<sup>1</sup> Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro Konvensiyasining 2-modda, 1-bandi

Nomoddiy madaniy meros quyidagi sohalarda namoyon bo‘ladi<sup>2</sup>:

- a) o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an‘analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til - nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;
- b) ijro san‘atida;
- v) jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari;
- g) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig‘indisi;
- d) an‘anaviy xunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

«Muhofaza» so‘zi nomoddiy madaniy meros hayotiyligini ta‘minlash,

shu bilan birga uni identifikasiyalash, hujjatlashtirish, tadqiq qilish, saklash, himoya qilish, ommalashtirish, rolini oshirish, targ‘ib qilish choralarini, asosan rasmiy va norasmiy ta‘lim yordamida amalga oshirish hamda bunday merosning turli jihatlarini qayta barpo etish degan ma‘noni anglatadi<sup>3</sup>.

Mazkur Konvensiyaning O‘zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bo‘yicha harakat 2005 yildan boshlangan edi. Konvensiya har tomonlama o‘rganib chiqilishi natijasida tegishli takliflar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlisga kiritildi va buning oqibatida 2007 yil dekabr oyida «Nomoddiy madaniy merosni muxofaza qilish» Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Xalqaro normalarga ko‘ra, ratifikatsiya hujjatlari taqdim etilgandan olti oydan keyin, ya’ni 2008 yil 29 apreldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatiga aylandi.

Xalqaro hujjatlarni qabul qilish qoidalariga asosan O‘zbekistondagi mavjud qonunchilikdagi nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq masalalar qayta ko‘rib chiqilishi va lozim bo‘lgan hollarda tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi zarur edi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi boshchiligidagi ishchi guruhi tuzilib, 2001-yilda qabul qilingan «Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Ushbu takliflar Oliy Majlisning Senatida ham o‘rganib chiqildi va oxir oqibat 2009 yilning 9-oktyabrida «Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida» O‘RQ-228-sonli Qonuni qabul qilindi.

Milliy qonunchilikni xalqaro normalar asosida qayta ko‘rib chiqish jarayoni bilan bir qatorda nomoddiy madaniy merosni o‘rganish, uning muhofazasini tashkil etish va kelgusi avlodga yetkazish jarayoni tashkil etildi. Xususan, 2008 yil fevral-mart oylari davomida «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish» Konvensiyasi qoidalaring Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda xalq deputatlari mahalliy kengashlarida amal qilinishi masalasi o‘rganildi. Maxsus komissiya tomonidan

<sup>2</sup> Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro Konvensiyaning 2-modda, 2-bandi.

<sup>3</sup> Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro Konvensiyaning 2-modda, 3-bandi.

o'rganilgan ma'lumotlar asosida 2008 yil 30 aprelda ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori va kuyi palata vakillari ishtirok etgan maxsus yig'ilishda muhokama etildi va tegishli qaror qabul qilindi. Ushbu qarordagi eng asosiy vazifalardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Davlat dasturi loyihasini ishlabchiqish vazifasi yuklandi. 2010 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nomoddiy madaniy merosni muhofazasiga bag'ishlangan Davlat dasturini ishlab chiqish bo'yicha maxsus Farmoyishi e'lon qilindi va 2010 yil iyun oyida ushbu Davlat dasturining loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. 2010 yilning 7 oktyabrida Vazirlar Mahkamasining «2010— 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 222-sonli qarori qabul kilindi.

Davlat dasturidagi vazifalar quyida aks ettirilgan 8 ta yo'nalish tarkibida jamlangan.

1. Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish.

2. Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni xujjalashtirish.

3. Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish.

4. Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari.

5. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari.

6. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish.

7. Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish.

8. Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish.

Davlat dasturi jami 57 banddan iborat va unda kelgusi 10 yil davomida nomoddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanishning eng asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Yugorida qayd etilganlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish masalalari milliy qonunchiligidizda o'z aksini topdi. Xalqaro Konvensiya va milliy qonunchiligidizda aks ettirilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish shu sohaga ixtisoslashgan tashkilot va muassasalar va ulardagi mutaxassislarning zimmasiga yuklanadi.

«Nomoddiy madaniy meros» iborasi, yuqorida qayd etganimizdek, yaqin kunlarda kirib kelgan bo‘lsa-da, biz an'anaviy ravishda «xalq ijodiyoti», «folklor» ibora va so‘zlar bilan ifodalab kelgan milliy merosimizni saqlash, uni kelgusi avlodga yetkazish, undan yoshlar tarbiyasida unumli foydalinish masalalariga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq katta e’tibor berila boshlangan edi. Dastlab viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan folklor-etnografik jamoalar va qadimiy musiqa cholg‘ulari ijrochilarining Toshkent shahrida o‘tkazilgan Navro‘z va Mustaqillik umumxalq bayramlariga bag‘ishlangan tadbirlarga jalb etilib, ularga mamlakatimizning eng katta sahnasidan joy berilishi bilan boshlangan ishlar izchil davom ettirilib, xalq ijodini o‘rganish, havaskorlik san’atini rivojlantirish masalalari maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab ta’limning barcha bosqichlariga joriy etildi. Buning natijasida yurtimizning nafaqat har bir tuman va shahari, balki deyarli barcha bo‘g‘in ta’lim muassasa-larida havaskor folklor jamoalari shakllandi: Hozirgi kunda oliv ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Xazina», «Meros», «Barhayot an'analar» ko‘rik-tanlovlarinining an'anaviy ravishda tashkil etilayotganligi buning isbotidir.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan «Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro‘yxati»ga kiritilgan nomoddiy madaniy meros ob‘ektlari (O‘zbekistondan kiritilgan «Boysun madaniy muhiti» hamda Tojikiston bilan birgalikda kiritilgan «Shashmaqom»)ning barchasi yangi - «Nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro‘yxati»ga o‘tkazildi. Ana shu ro‘yxatga 2009 yilda O‘zbekistondan tavsiya etilgan «Katta ashula» nomzodi va boshqa 7 ta davlat bilan birgalikda tavsiya etilgan «Navro‘z» nomzodlari ham kiritildi. Shunday qilib, hozirgi kunda Reprezentativ ro‘yxatda O‘zbekiston bilan bog‘liq 4 ta nomoddiy madaniy meros bo‘lib, bunday ko‘rsatkich sobiq ittifoq hududidagi birorta ham davlat kuzatilmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi nomoddiy madaniy merosning 4 ta alohida ro‘yxatini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bular:

1. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarining ro‘yxati.
2. Jahon nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritish uchun tavsiya etiladigan nomzodlar ro‘yxati.
3. Nomoddiy madaniy merosning milliy ro‘yxati.
4. Nomoddiy madaniy merosning mahalliy ro‘yxatlaridan iboratdir. Yuqorida qayd etilgan barcha ro‘yxatlar doimiy ravishda yangilanib, to‘ldirilib borishi taqozo etiladi. Xususan, zudlik bilan muhofaza choralar ko‘rilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga tushgan ob‘ektdagi xavf tugatilgandan keyin u ushbu ro‘yxatdan chiqariladi<sup>4</sup>. Yoki mahalliy ro‘yhatga kiritilgan ob‘ekt tarixiy-madaniy ekspertiza natijalariga ko‘ra,

<sup>4</sup> Abdullayeva M. va boshqalar. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at - Toshkent, 2006, 70-bet.

Milliy ro'yxatga kiritilishi tavsiya etilsa, u oldingi ro'yxatdan chiqarilib, boshqasiga o'tkaziladi va hokazo.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning jamiyat a'zolarining ma'naviyatini shakllantirishdagi muhim o'rnnini xisobga olgan holda bevosita nomoddiy madaniy meros bilan bog'likdigi yuqorida keltirilgan misollardan yaqqol sezish mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida keltirilganidek, globallashuv jarayonida G'arbdan bostirib kirib kelayotgan «ommaviy madaniyat»ga qarshi o'zimizning milliy nomoddiy madaniy merosimiz bilan kurashishimiz lozim bo'ladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining «2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdikdash to'g'risida»gi 222-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturi haqiqiy dasturilamal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### *Nazorat savollari:*

1. Nomoddiy madaniy meros fani nimani o'rganadi?
2. nomoddiy madaniy meros faning maqsad va vazifalari qanday?
3. Nomoddiy madaniy meros ob'ektlariga nimalar kiradi?
4. Nomoddiy madaniy merosni o'rganish zarurati nimada?
5. Nomoddiy madaniy merosni asrash va o'rganishning huquqiy asoslari nima?
6. Nomoddiy madaniy meros ob'ektlar kimning tasarrufida turadi?

#### **Folklor va uning o'ziga xos xususiyatlari**

Reja:

1. O'zbek folklorining vujudga kelishi
2. Folkloarning o'ziga xos xususiyatlari
3. O'zbek folklorini ilmiy asosda o'rganilishi
4. Folkloрni o'rganish va targ'ib qilishning ahamiyati

Ijodkor xalq badiiy so'zni yosh avlod tarbiyasidagi xulq va jozibasiga qadim zamonlardo yoq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyodga keltirgan.

Badiiy so'z – xalqning barcha boyliklarini abadiylashtirgan.

Xali yozuv nimaligini bilmagan vaktlarda ham odamlar uyin – kulguni, surhat chizishni bilgan.

Xalq og`zaki badiiy ijodini o`rganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristik deb yuritiladi.

Folkloرنi o`rganish tarixi unga nisbatan faqat ilmiy maqsadlarda yondoshilganlikni kuzatish bilan cheklanmaydi, balki insoniyat tafakkuri taraqqiyotida unga turlicha munosabatda bo`lgan ilm-fan va madaniyat arboblarining adabiy qiziqishlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Shu ma`noda folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyoohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to`g`risidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Folklor namunalarini yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab ko`zga tashlanadi. Mashhur Koshg`ariyning «Devonu lug`atit-turk» asaridagi folklor namunalari bunga misoldir.

Arab xalifaligi hududlaridagi xalqlar ertak va rivoyatlarining yig`indisi bo`lmish «Ming bir kecha» kitobini ham folklor namunalarini yig`ishda o`ziga xos tajriba deyish mumkin.

Evropada folkloргa nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida xalq ijodi namunalarini to`plash va nashr etishning jadal rivojlanishi va uni chinakamiga o`rganishni boshlab berdi.

O`zbek folkloridan ayrim namunalarni dastlab yozib oluvchi, tekshiruvchi va nashr etuvchilar o`tgan asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan Evropa sayyoohlari, elchilari, olimlari bo`ldilar. Ularning kundaliklari va asarlarida o`zbek xalqining maishiy turmushi, urf-odati, og`zaki ijodi bo`yicha muhim qaydlar mavjud; xalq o`yinlari, masxarabozlik, qiziqchilik, sayllar haqida taassurotlari bayon qilingan; ba`zi og`zaki dramalarning, ayrim ertaklarning tafsilotlari qayd etilgan. Jumladan, A. A. Kushkevich «Farhod va Shirin», N. Ya. Lyapunova «Shirin qiz» afsonalarini, A. Vasil`ev «Xirsitdin polvon», «Shahzoda Nazar Muhammad va malika Nazar Bibi», A.N. Samoylovich «Annamurod bobo», «Erni er qilgan xotin» ertaklarini nashr ettirganlir. A.F. eynxgorn va V.V. Leyseklar bir qancha xalq kuylarini yozib olganlar.

O`zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari hamda og`zaki teatr namunalarini to`plash va nashr etishda rus missioneri N. P. Ostromovning xizmatlari ham salmoqlidir. U bir necha marta o`zbek xalq ertaklarini nashr etti, topishmoqlar to`plamini tuzdi. O`zbek xalq teatri etnografiyasiga oid bir qancha maqolalarini e`lon qildi. Xuddi shu davrda o`zbek folklorlarining ayrim namunalarini dunyo miqyosida ham tanila boshhladi. Bunda major olimi va sayyohi Herman Vamberining xizmatlari katta bo`ldi. U 1867 yilda Leyptsigda nashr etilgan «Chig`atoj tili darsligi» majmua qo`llanmasida yuzdan ortiq xalq maqollarini, «Yusuf va Ahmad» dostonidan olingan parchalarni nemischa tarjimasini arab imlosidagi o`zbekcha matn bilan birgalikda nashr etdi. 1911 yilda esa «Yusuf va Ahmad» dostonining Xorazm variantini to`laligicha nashr ettiradi.

XIX asrda ayrim folklor va kitob ishqibozlari, shuningdek, baxshilar tashabbusi bilan xalq dostonining ayrim qo'lyozma nusxalari yuzaga kela boshlaydi va ular nusxa ko'chirish, keyinroq tosh bosma, tipografiya usulida nashr etish orqali xalq o'rtaida keng tarqatildi. Bunday asarlar qatorida «Hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Yusufbek bilan Ahmadbek», «Tulumbiy», «Chor darvesh», «Rustami Doston», «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sanobar», «Bo'z o'g'lon», «Bahrom va Gulandom», «Dilorom», «Hurilqo va Hamron», «Gulfarah», «Bo'z yigit», «Aldar ko'sa» va boshqalarini eslash mumkin.

Folklorshunoslik fanining uch asosiy yo'nalishi bo'lib, shu yo'nalishlar fanning maqsad va vazifalarini belgilab beradi:

1. Folklor namunalari yig'ish - to`plash va yozib olish.

2. Folklor namunalarining mukammal nusxalarini nashrga tayyorlash va chop etish.

3. Folklor namunalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish.

Mana shu uch yo'nalishda olib boriladigan ishlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, folklorshunoslikning nazariy va amaliy asoslарini belgilaydi.

XX asrning yigirmanchi yillarda o'zbek xalq ijodini to`plash, o'rganish ishlari jiddiy boshlanib ketdi. 1922 yilning yozida G`ozi Olim Yunusov Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarda ilmiy safarda bo'lib, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, juda ko'p dialektologik va etnografik materiallarni to`pladi.

1921-1922 yillarda G'ulom Zafariy Farg'ona vodiysiga, elbek Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumaniga safar qildilar va turli qo'shiqlar, laparlar, og'zaki drama namunalarini yozib oldilar. Shuningdek, Bekjon Rahmonov tomonidan Xorazmdan to`plangan besh yuz oltmissiz to'rt maqol va matallarni o'z ichiga olgan, «O'zbekcha otalar so`zi» to`plami 1923 yilda nashr etildi.

1926 yilda «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalida «O'zbek el adabiyotiga tegishli ma'lumotlarni to`plaguvchilarga qo'llanma» bosilib chiqdi. G`ozi Olim Yunusovning qator maqolalari e'lon qilindi. 1926 yildan boshlab deyarli har yili O'zbekistonning turli joylariga folklor ekspeditsiyalari uyuşhtirib kelinmokda. Folklor ekspeditsiyalari davomida E. D. Polivanov, A. K. Barovkov, G'.O. Yunusov, N.P. Potapova, Hodi Zarif kabi atoqli olimlar rahbarligida turli joylarda ish olib borildi. Keyinchalik bunday ekspeditsiyalar F.M. Karomatov, M.X.Qodirov, M.S. Saidov, M. Murodov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, K. Imomovlar boshchiligidagi ham amalgalashirildi.

O'zbek folklorshunosligi o'zining dastlabki yillaridayoq katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Olimlarimiz xalq ijrochilariga ijodkor sifatida qarab, original kuzatishlar olib bordilar. epik asarlarni to'g'ridan-to'g'ri u kuyylanayotgan joy, sharoit va kuylovchining o'zi bilan bog'liq ravishda o'rganish kerakligi g'oyasini ilgari surdilar. Xalq ijodini o'rganishga metodologik jihatdan bunday to'g'ri yondashish Hodi Zarif (1905-1972)ning xalq baxshilari haqidagi maqolalarida ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'zbek folklorshunosligining shakllanish davriga xos xarakterli xususiyatlardan yana biri folklor matnshunosligining ishlanishiga e'tibor berilishidir.

Xalq ijodini to'plash, o'rganish bilan bir qatorda uni nashr etish, xalqqa qayta taqdim qilish ham zarur. Bunda G'ozzi Olimning ergash Jumanbulbuldan yozib olgan «Alla» termasini, Hodi Zarifning Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olgan «Toshkent» va Po'lkan aytgan «Shayboniyxon» dostonini namuna qilib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, 20-yillarning 2-yarmida o'zbek folklorshunosligi Fani o'zining ilmiy yo'naliishiga ega bo'ldi va uning asosi yaratildi.

30-yillarning 2-yarmida o'zbek folklorshunosligiga Mansur Afzalov, Sharifa Abdullaeva, Yusuf Sultonov kirib keldilar. G'.G'ulom, H. Olimjon, M. Shayxzoda va boshqa yozuvchilar, shoirlar ham folklor bilan shug'ullandilar.

Mansur Afzalov (1910-1973) atoqli o'zbek baxshisi Islom Nazar o'g'li bilan uzoq yillar davomida ish olib bordi. Uning repertuarini, ijodini qunt bilan o'rgandi. Shoirdan «Orzigel» dostonini yozib olib, uni 1941 yilda nashr ettirdi.

Bu davrda folklorshunos Buyuk Karimov (1906-1945) ham o'zbek xalq ertaklari ustida samarali tadqiqotlar olib bordi. 1939 yilda «O'zbek xalq ertaklari»ni nashr ettirdi. Mazkur kitob ertaklar bo'yicha tuzilgan birinchi yirik to'plam edi.

30-yillarning 2-yarmida folkloarning deyarli barcha janrlarini o'rgagishga va yozib olishga e'tibor kuchaydi. Sharif Rizo o'zbek xalq latifalarini to'plashga kirishdi va so'z boshi yozib, 1941 yil 240 ta latifani 6 ta kitobcha holida nashr ettirdi. U «Guliston» jurnalining 1940 yil 4-sonida bosilgan maqolasida birinchi bo'lib qiziqchilar bilan askiyachilar bir-biridan farqlanadi deb yozadi. Olim maqolalarida Qo'qondagi bir guruhi askiyachi va qiziqchilarining ijodiy faoliyatini yoritadi.

30-yillarning oxiriga kelib xalq dostonlariga jiddiy e'tibor berila boshlandi. H. Olimjon, M. Shayxzoda, Hodi Zarif, Shokir Sulaymon, M. Afzalov, B. Karimov, Yu. Sultonov va boshqalar «Alpomish», «Shirin bilan Shakar», «Orzigel», «Murodxon», «Rustamxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malikai ayyor» kabi o'zbek eposining eng yaxshi namunalarini nashr ettirib, o'quvchilar hukmiga havola etdilar.

Urush davrida ham o'zbek folklorlarini o'rganish ishlari davom ettirildi. Bu yillarda yaratilgan ulkan tadqiqot, shubhasiz, V.M. Jirmunskiy bilan Hodi Zariflarning Moskvada 1947 yilda nashr etilgan, «O'zbek xalq qahramonlik eposi» kitobidir. Bu kitobda o'zbek folklorshunoslik fanining 40-yillarga qadar qo'lga kiritgan yutuqlari bir qadar umumlashtirilgan edi. Mazkur asar xalqimizning boy og'zaki badiiy ijodini dunyoga tanitishda asosiy rol' o'ynadi va 1958 yilda Germaniyada nemis tilida bosilib chiqdi.

1956 yil 20-25 sentyabrda Toshkentda «Alpomish» eposi muhokamasiga bag'ishlangan hududi kengash bo'lib o'tdi. Kengashda «Alpomish» dostonining g'oyaviy mazmuni, xalqchilligi borasida qimmatli fikrlar bayon etildi. Bu ulkan eposning qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird, oltoy, tojik tarimoqlari haqida jiddiy

muhokamalar yuritildi. «Alpomish» dostoni zararli emas, aksincha xalq uchun juda zarur, foydali asar ekanligi isbotlandi.

1960-1980 yillarda o'zbek folklorini ilmiy-nazariy o'rghanish sohasida juda ko'p va yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrga kelib xalq og'zaki ijodining badiiyat masalalarini tadqiq qilish birinchi darajali ish bo'lib qoldi. Atoqli folklorshunos olimlar Muhammadnodir Saidov «Malikai ayyor» dostoni» (1964), «O'zbek xalq dostonlarida badiiy mahorat» (1969), To'ra Mirzayev «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» (1968) monografiyalarini, Malik Murodov «Go'ro'g'li» turkumi haqidagi tadqiqotlarni yaratdilar. Ayniqsa, Hodi Zarifning «O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari» (1976) kabi maqolalari fan taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi.

Bundan tashqari, o'zbek xalq og'zaki ijodining ayrim masalalari bo'yicha T. Ashurov, T. G'oziboev, X. Abdullaev, O. Madayev, T. Zufarov, A.Qahhorov, S. Ro'ziboeva, O. Sobirov, M. Obidova, S. Yo'ldosheva, M. Mirzayev, K. Imomov, A. Musaqulov, M. Jo'raev, M. Boboevlarning ilmiy maqola va kitoblari e'lon qilindi.

Bu yillarda xalq baxshilari ijodi va repertuarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Hodi Zarif, Mansur Afzalov, Muzayna Alaviyaning tadqiqotlaridan keyin T. G'oziboevning «Fozil Yo'ldosh o'g'li» (1968), O. Sobirovning «Islom Nazar o'g'li» (1967), «Umr shoir Safarov» (1982), T. Mirzayevning «Xalq baxshilarining epik repertuari» (1979), M. Murodovning «Sarchashmadan tomchilar» (1986), M. Qo'shmoqovning «Chechanlikda so'zga suvdayin oqib» (1978), «Baxshilar xazinası» (1981) kabi monografiyalarini yaratildi.

Folklorshunos K. Imomovning «O'zbek satirik ertaklari» (1974) monografiyasida bu xildagi ertaklarning janr xususiyatlari, ulardagi an'anaviy sinov motivi, komik qahramon, ijtimoiy motiv va konflikt, satirik ertaklarning badiiy xususiyatlari va taqdiri, ertak va doston munosabatlari kabi muhim masalalar yoritilgan. G. Jalolovning «O'zbek xalq ertaklari poetikasi» (1976) monografiyasida esa sehrli-fantastik ertaklarning genezisi va morfologiysi masalalari tahlil qilinadi.

O'zbek folklorining ikkinchi epik turi-ertaklar haqidagi birinchi yirik tadqiqot M. Afzalovning «O'zbek xalq ertaklari haqida» kitobidir (1964).

Keyingi yillarda K. Imomovning «O'zbek xalq latifalarida Nasriddin Afandi obrazi» (1979), B. Sarimsaqovning «O'zbek adabiyotida saj» (1978), M. Alaviyaning «O'zbek xalq marosim qo'shiqlari» (1974) kabi asarlari nashr etildi. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rghanishda K. Ochilov («Mehnat qo'shiqlari»), Sh. Turdimov («Lirik qo'shiqlar»), U. Jumanazarov («Tarixiy qo'shiqlar»),

J. Qobilniyozov («Xorazm xalq qo'shiqlari»), A. Musaqulov («O'zbek xalq lirikasi») kabi olimlarimiz olib borgan tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

Xalq maqollarini o'rganish, sistemalashtirish va nashr etishdagi eng katta yutuq, shubhasiz, «O'zbek xalq maqollari» ikki tomligining yuzaga kelishidir (1987-1988), deya olamiz. Bu nashrga xalqimizning o'n uch mingga yaqin maqollari kiritilgan.

Adabiyot va folkloarning o'zaro munosabatlarini o'rganish o'zbek folklorshunosligida asosan 60-yillardan boshlandi. Bu borada N. M. Mallaevning «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» monografisi (1974) katta ahamiyatga ega edi. Bu asarda A. Navoiyning folklorga munosabati, Navoiy va mifologiya, «Xamsa» qahramonlarining folklordagi zamini, Navoiy dostonlarining xalq variantlari, xalq og'zaki ijodida Navoiy obrazi kabi masalalar atroficha yoritilgan. O'zbek folklorshunosligi fani taraqqiyotiga namanganlik olimlar ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu o'rinda Tojiboy G'oziboev, Malik Murodov, Odiljon Nosirov, Mahmudjon Ma'murov, Dehqonboy Qozoqov, Abdushukur Sobirov kabi olimlarimizning, Robiddin Ishoqov, Umarjon Sarimsoqov, Otash Xolmirzayev kabi shoir va o'qituvchilarning xizmatlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimiy turi hisoblanadi. O'zbek folklori jahondagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bo'lgani kabi bir qator o'ziga xos belgilari ega. Bu belgi-xususiyatlar asosan og'zaki shakldagi so'z san'ati namunalarining yozma adabiyot asarlaridan farqlovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ularning tartibi haqida folklorshunos olimlarning fikrlari turlicha. Masalan, O. Madev an'anaviylikni folkloarning birinchi xususiyati deb hisoblaydi. Biz quyidagi tartib tarafdarlarining fikriga qo'shilamiz:

1. Og'zakilik va badihago'ylik.
2. Jamoaviylik va ommaviylik.
3. An'anaviylik.
4. Ko'p nusxalilik va tarmoqlilik.
5. Anonimlik.

Og'zakilik va badihago'ylik og'zaki ijod asarlarining shakliy ko'rinishi bilan bog'liqidir. Asrlar davomida bizgacha etib kelgan doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa asarlar og'zaki tarzda yaratilgan, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tgan va xalq madaniyatining og'zaki merosiga aylangan. Ko'p yillardan buyon og'zaki ijod namunalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatuvalar og'zakilikning ijobi va salbiy jihatlari borligini tasdiqlamoqda. Bizningcha, og'zakilik xalq ijodining omma orasiga tarqalishida va keng tus olishida ijobi ahamiyatga ega. Chunki asarlarning bu shaklda ijro etilishi ijrochi zimmasiga ortiqcha mas'uliyat yuklamaydi. Ammo masalaning ikkinchi tomonini ham qayd etmoq lozim, xususan, ayrim ijod namunalarini aynan og'zaki tarzda ijro etilganligi uchun ijrochining vafoti bilan asarning hayoti ham to'xtaydi, unutiladi. Ayrim ijod namunalarining shogirdlar tomonidan o'zlashtirilmaganligi yoki olimlar tomonidan yozib olinmaganligi oqibatida vaqt o'tish bilan esdan chiqadi, asar yo'qolib ketadi.

Badihago`ylik xalq og`zaki ijodidagi bevosita og`zakilik xususiyatidan kelib chiqadigan belgidir. Badihago`ylik yozma ijodda yo`q, chunki yozma jarayon individual ijod bilan bog`langandir. Badihago`ylik esa tinglovchi auditoriyasi bilan bog`langan holda namoyon bo`ladi. Xalq og`zaki ijodidagi askiya janrini badihago`yliksiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Shuningdek, doston, ertak va boshqa folklor namunalarining ijrosi jarayonida ijrochi asar matniga yo`l-yo`lakay o`zgarish kiritishi, ba`zan yangi lavhalarni o`ylab topishi, ayrimlaridan voz kechishi mumkin.

Folklor ekspeditsiyalari jarayonida ba`zi badihago`y shoir-qo`schiqchilar ekspeditsiyaning har bir a`zosiga atab alohida-alohida to`rtliklar to`qiganiga guvoh bo`lganmiz. Aytish mumkinki, doston, ertak, umuman, fol`kor namunalarining yangi nusxalarini yaratishda ham badihago`ylikning ahamiyati sezilarli.

Jamoaviylik va ommaviylik tushunchasi ham xalq og`zaki ijodida muhim belgi hisoblanadi. Bu o`rinda asarning yaratilishi jamoa bilan, uning tarqalishi xalq orasida yashashi ommaviylik bilan bog`liqligini ta`kidlab o`tish zarur. Xalq og`zaki ijodidagi har bir asarning vujudga kelishi, janr sifatida takomillashuvi, so`z san`atining namunasi sifatida xalqqa ta`sir etishi unda jamoaviyning ishtiroki bilan belgilanadi. Folklordagi jamoaviylik tushunchasi bilan biron jismoniy mehnatni amalga oshirishdagi jamoaviylik tushunchasi o`rtasida farq bor. Folklorshunos olimlarning ta`kidlashlariga ko`ra jamoa bo`lib paxta terish mumkin, imorat qurish mumkin, lekin bevosita jamoa bo`lib asar yaratish mumkin emas. Doston, ertaklarning, shakllanishida jamoaviylik tushunchasi nisbiy ma`noga ega bo`ladi. Chunki folklor asarining yaratilishida birinchi vazifani ijod qilish iqtidoriga ega bo`lgan shaxs bajaradi. Ammo shaxs yaratgan dastlabki asar ko`rinishi yillar davomida og`zaki usulda ijro etilishi natijasida, xalqning boshqa iqtidorli farzandlari tomonidan unga qayta-qayta o`zgarishlar kiritiladi, natijada jamoa ijodi sifatida shakllanadi.

Olimlarning kuzatishlari shuni tasdiqlayaptiki, hatto tinglovchilar ijro davomida asardagi tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan o`zlarining qiziqishlarini bildirishlari orqali ham mazkur asar nusxasiga o`zgarishlar kiritar ekanlar. O`ylaymizki, ana shu jarayonni ham folklordagi jamoaviylik belgisi bilan bog`lash mumkin bo`ladi. Binobarin, xalq og`zaki ijodida jamoaviylik va individual ijod tushunchasi bir-birini inkor etmaydi. Ommaviylik esa yaratilgan folklor namunasining xalq vakillari istiqomat qiluvchi hamma hududlarda tarqalishi bilan bog`liqdir. To`g`ri, bu hududlar ba`zan tarixiy - etnografik jihatdan chegaralangan bo`lishi mumkin. Masalan, doston, ertak, askiya va boshqa janrlardagi asarlar O`zbekistonning hamma viloyatlari bir xil ijro etilmaydi. Ammo shunga qaramay, asarlar tarqalishidagi ommaviylik har bir namunaning o`zbek xalqi madaniy merosiga taalluqli ekanini tasdiqlayveradi.

An`anaviylik xalq og`zaki badiiy ijodining asrlar davomida hayot tajribasida sinalgan asosiy xususiyatlaridan biridir. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, folklorshunos

olim Omonilla Madayev an`anaviylikni folklorning asosiy va birinchi xususiyati, deb hisoblaydi.<sup>5</sup> Gap shundaki, xalqning hordiq chiqarishida, madaniy dam olishida asosiy vosita hisoblangan doston, ertak, qo'shiq, askiya, topishmoq ijrolari qadim zamonlardan buyon ma'lum an'anaga bo'ysunadi. Bu holatni bir necha yo'nalishda qayd etish mumkin:

1. Folklor asarlarining og'zaki usulda yaratilishida.
2. Og'zaki ijod asarlarining matnida.
3. Ijroning shaklida.

Folklorshunos olimlar B. Karimov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, Z. Husainovalarning ma'lumot berishicha, og'zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat'iy odatlarga amal qilganlar. Xusan, ertak aytuvchilar tinglovchilari yig'ilganidan so'ng o'z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho'p va boshqalarni ma'lum tartibda qo'yib ertak aytishni boshlaganlar. Topishmoq aytishda esa g'olib va mag'lub taraflarni belgilovchi shartlar e'lon qilingan. Doston ijrosida Samarqand, Xorazm, Farg'ona, (Namangan) an'analari mashhur bo'lgan. Demak, turli janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an'analalar muhim rol' uynagan. Shubhasiz, folklorshunoslikda matniy an'analarga e'tibor berish muhimroq hisoblanadi. Biz bu o'rinda doston, ertak janrlariga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an'anaviy o'rirlarni nazarda tutamiz. Adabiyotshunoslikda obraz yaratish, konflikt badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar etakchi xususiyatlar sanaladi. Xalq qo'shiqlaridan tortib dostonlarigacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayon qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilar o'ziga xos ko'rinishlarga egadir. Shuning uchun xalq orasidan etishib chiqqan va alohida iqtidorga ega bo'lgan ijodkor - ijrochilar o'zları yaratgan asarlarini har bir janr an'anasini hisobga olgan holda ijod qilganlar. Natijada, ular yaratgan yangi asar an'ana jihatdan original bo'limgan. Shuninig uchun ham yangi ertak yoki doston yaratuvchi shaxs o'z nomini muallif sifatida eslashga jur'at etmagan. Shunday qilib, an'anaviylikni xalq og'zaki ijodning o'ziga xos muhim belgilaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Variantlilik (ko'p nusxalilik) va versiyalilik (tarmoqlilik) yozma ijodda deyarli ko'zga tashlanmaydi. Chunki bir asarning bir muallif tomonidan turli o'zgarishlar bilan o'quvchiga taqdim etilishi son va sifat jihatidan variantlilikning vujudga kelishiga imkon bermaydi. Ba'zi hollardagina yozma adabiyotdagi variantlilik haqida fikr yuritish mumkin. Jumladan, adabiyotshunoslarning ma'lumot berishicha, Said Ahmadning «Ufq» romani «Sharq Yulduzi» jurnali va alohida nashr variantiga ega. Vaholanki, og'zaki ijodda bir asarning baxshilar tomonidan ijro etilishi o'nlab

<sup>5</sup> Madayev O, Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik, majmua. - T.: «Sharq», 2004. 13 – bet.

variantlarni vujudga keltiradi. Folklorshunoslikka «Algomish» dostonining 100 ga yaqin varianti ma'lum bo'lib, shulardan 30 dan ortig'i yozib olingan.

Shunday qilib, variantlilik deganda, bir asarning bir xalq doirasida syujet va kompozitsion o'zgarishlar bilan ijro etilishi tushuniladi. Har bir ijrochi o'zi ijro etayotgan asarga mahalliy sharoitdag'i o'zgarishlarni, o'z dunyoqarashini, aholi o'rtasida alohida esda qoladigan voqealarни singdirib borishi oqibatida o'z nusxasini yaratadi. Bu nusxa boshqa ijrochilarnidan voqealarni ifodalash, obrazlarni yaratish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish jihatlariga ko'ra o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Olimlarning eslashicha, «Algomish» dostonini ergash Jumanbulbul sevgi dostoni qilib, Fozil Yo'ldosh o'g'li qahramonlik dostoni sifatida kuylaganlar.

Versiyalilik variantlilikdan ko'ra kengroq tushunchadir. Versiyalikni bir badiiy asar doirasida qahramonlar nomidagi o'xshashlik, ayrim voqealar bayonidagi umumiylig tashkil etadi. Masalan, «Algomish» dostonining Qo'ng'iroq, Oltoy, Qipchoq, O'g'uz versiyalari bor. Bu versiyalarni asosan asar qahramonlarining farzandsizligi, keyinchalik farzandga ega bo'lishlari, bu farzandning qahramonlik ko'rsatishi, tutqunlikda bo'lishi, ozodlikka chiqishi kabi ayrim umumiylig voqealargina birlashtirib turadi. Hatto asarning nomlanishidan ham farqlar aniq seziladi. Shuningdek, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning O'zbekiston va Kavkazorti versiyalari mavjudligini ta'kidlash lozim.

Anonimlik xalq og'zaki ijodi asarlarini yaratgan dastlabki muallif nomining ma'lum emaslidigidir. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'nlab doston va ertaklardan, yuzlab qo'shiqlardan, minglab maqol hamda topishmoqlardan tashkil topgan, lekin an'anaviy og'zaki ijod namunalariga taalluqli asarlarning birortasi uni yaratgan muallif nomi bilan yuritilmaydi, chunki unday aniq muallifning o'zi yo'q. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, og'zaki asarlarni yaratuvchi ijodkorlar o'zlarining nomlarini e'lon qilmaslikni ma'qul topganlar. Folklorshunoslikda bu odad xalq farzandlarining ijobiyl fazilatlari sifatida ta'kidlanadi.

Anonimlikni ijtimoiy hayotdag'i anonim tarzda yoziladigan «yumaloq xat»lar bilan aralashtirmaslik lozim. Chunki anonim xatlar fisq-fasod, g'iybat oqibatidir. Og'zaki ijoddagi anonimlik esa xalq farzandining o'z xalqiga ko'rsatgan iltifoti namunasidir.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodi yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, beshta o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar og'zaki ijod asarlarini yozma adabiyotdan va ayni chog'da xalq ijodini san'atning boshqa turlaridan farqlab turuvchi belgilarni hisoblanadi.

Shuningdek, folkloarning yozma adabiyotdan farqlanadigan boshqa xususiyatlari ham borligini ta'kidlashimiz zarur. Masalan, folklorda nisbatan romantik va fantastik tasvir uslubi ustunlik qiladi. Aksariyat folklor asarlari ko'tarinki ruh bilan nihoyasiga etadi. Aytaylik, o'zbek ertaklaridagi an'anaviy xotimalar: «Etti kecha, etti kunduz

to'y - tomosha qilib, murod-maqsadlariga etibdilar», «Chol - kampir murod - maqsadlariga etib, uvali-juvali bo'lib, o'sha yurda yashab yurgan emishlar».

### *Nazorat savollari:*

1. Folklorshunoslik nima?
2. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ?
3. O'zbek folklorini XX asrga qadar kimlar o'rgangan ?
4. O'zbek folklorshunosligi qachon maydonga kelgan ?
5. Namanganlik folklorshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
6. Folklorlarning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?
7. Og' zakilik nima? Badihago'ylik deganda nimani tushunasiz?
8. Jamoaviylik va ommaviylik deganda nimani tushunasiz?
9. An'anaviylik va anonimlik deganda nimani tushunasiz?

### **Qadimgi davr folklori va uning yozma manbalari**

Reja:

1. O'zbek folklori tarixini davrlashtirish.
2. Qadimgi mif va afsonalar.
3. Turkiy xalqlarning qadimgi ishonchlari.
4. Qadimgi davr folklorining yozma manbalari.

O'zbekiston Respublikasida fan-texnika taraqqiy etgani sayin, xalqning madaniy hayoti, turmush tarzi milliy madaniyat negizlaridan uzilib qolmadi, aksincha ular bilan qorishib yangi qiyofa aks eta boshladi. Biroq qadimgi davr hayoti doim o'rGANIB kelindi. Jumladan, qadimgi davr folklori deganda ham qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlarini nazarda tutamiz. Tabiiyki, bu davrda yaratilgan folklor asarlarini qaysi manba orqali o'rGANAMIZ yoki boshqalardan qanday ajratamiz degan savol tug'iladi. Qadimgi davr folklori haqidagi ma'lumotlarni bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalardan, arxeologik topilmalardan o'rGANAMIZ.

Qadim zamonlarda bugungi kunda qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, o'zbek, turk va h.k. deb atalayotgan turkiy xalqlar bir qavm hisoblanganlar. Shuning uchun XVII asrgacha «turkiy» deb nomlangan atama ilmiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. «Avesto», «O'g'uznomha», «Kitobi Dadam Qurqut» kabi asarlar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining yodgorliklaridir. To'g'ri, «Avesto»da forsiy xalqlar hayoti ham o'z ifodasini topgan. Ammo bu kitobda qadimga

ajdodlarimiz ijodi ham aks etgan. «Avesto»ning muallifi esa Xorazmlik yurtdoshimiz Zardusht bo'lganligi diqqatga sazovordir. «Avesto» yubileyining YuNESKO miqyosida nishonlanishi munosabati bilan bu haqdagi bilimlarimizga yanada aniqlik kiritildi va uning o'zbekchaga o'girilishi katta yutuq bo'ladi.

XI asrdan boshlab «Qutadg'u bilig», «Hibat - ul haqoyiq», «Devonu lug'atit-turk» kabi yozma yodgorliklar ham vujudga kela boshladi. Bu asarlarga o'sha davr folklori ta'siri juda kuchli bo'lganligi yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari, qadimgi davr turkiy xalqlar folklorini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan manbalar asosida qadimgi davr folklorida quyidagi janrlar mavjudligi aniqlanadi: mif, afsona, rivoyat, qo'shiq, maqol va marosim qo'shiqlari.

Mif - ibtidoiy jamoa a'zolari tomonidan olam va odamning paydo bo'lishi haqida to'qilgan eng qadimgi hikoyalari hisoblanadi. Islom dinidan avval ajdodlarimiz tasavvurida ezgulik va yovuzlik ruhlari, shuningdek, quyosh, hosil, urush va boshqa narsalarning ma'bud hamda ma'budalari bo'lgan. Natijada miflarda insонning inson sifatida shakllanish jarayoni o'z ifodasini topadi. Sharq ilmiy adabiyotlarida miflar arabcha asotir, forscha afsona, turkiy tilda sav atamalari bilan ham yuritiladi. Ammo jahon folklorshunosligida «mif» atamasini qo'llash an'ana bo'lganligi uchun ham biz qadimgi hikoyalarni ana shu nom bilan ataymiz. Miflar qadimgi ajdodlarimizning quyidagi qarashlari natijasida paydo bo'lgan:

1. Totem.
2. Fetish.
3. Anim.

1. Totem - ajdodlarimiz qadim zamonlardan topinib kelgan hayvonlar, qushlar, o'simliklar.

Totemizm - ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan dinning alohida shakli bo'lib, odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch - e'tiqodini anglatadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining ota-bobolari burgut, ilon, ot, tuya, ayyq, bo'ri, yo'lbars, arhar, qaldirg'och, g'oz, chinor, tut kabi jonli va jonsiz predmetlarga e'tiqod qo'yanlar. Ular bo'rini balo-ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi va ezgulik yaratuvchi jonzod deb bilganlar.

Qadimgi manbalarda keltirilgan turk afsonalarida bo'ri turk urug'ining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo'ridan va dushman tomonidan qirilgan urug' ichida tirik qolgan 10 yoshli o'g'il boladan tarqalgan. Hatto Ashina ismli turk urug'larining birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq ham bo'lgan.

Bo'ri bilan bog'liq bo'lgan e'tiqodning asosida yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvani ehtiyoitlash, ekinlarni yovuz kuchlar

ta'siridan saqlash kabi ishonchlardan iborat bo'lgan. Bo'ri totemiga aloqador «Bo'ri qiz», «Cho'loq bo'ri» kabi ba'zi ertaklar hozirgi kunga qadar xalq orasida aytib kelinadi.

Ot totemi ham qadimgi kishilarning turmushi - tirikchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida foydalanish davomida yuzaga kelgan. Arxeologik qazishmalarda topilgan yarim ot, yarim odam ko'rinishidagi maxluqlar rasmi, hozirgacha ekin maydonlarining chetida otning kalla suyagini qo'riqchi sifatida qo'yilishi va boshqalar ibtidoiy kishilar ongida saqlanib qolgan ot totemi haqidagi e'tiqodning timsolidir. O'zbek xalq dostonlarida G'irot, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko'k, Ko'kdo'nan kabi epik ot timsollarining g'oyat katta o'rın tutishi ham shundan.

2. Fetish - qadimgi ajdodlarimiz topingan jonsiz narsa - predmetlardan iborat bo'lib, quyosh, oy, tog', suv, non, tandir, supra, o't (olov), yoy, qilich, raqam, rangtus, so'z, kitob kabilalar turkiy xalqlarda fetish hisoblangan. Binobarin, xalq doston va ertaklarida bu narsalarni uchrashi bezijz emas.

Xalqimiz qadimdan o't, suv, tuproqni muqaddas deb bilgan: o't va suvgga axlat, umuman, iflos narsalarni tashlamaslik, erni urmaslik, tepmaslik, maboda bu narsalarni qilsa yomon bo'lishi haqidagi o'gitlar fikrimizning dalilidir.

- insонning tabiatdagи g'ayri tabiiy voqeа-hodisalarga ishonch bildirish xususiyati bilan bog'liq e'tiqoddir. Masalan, qadimgi paytlarda safarga chiqqan yo'lovchi oq tuyali karvonga duch kelsa, o'z safarining muvaffaqiyatli tugashiga ishongan bo'lsa, tushida egarlangan oq ot minib sayr qilib yurganini ko'rgan kishi hayot tashvishlaridan ozod bo'lishiha ishongan.

«Oq bilakxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, «Ochil, ochil, qamishlar»da qizning qamish orasiga kirib ketishi, «Yoriltosh»da toshning yorilishi va qizning bag'riga olib yana yopilishi, «Yalmog'iz kampir» ertagida odamlarning toshga aylanib yotishi, «Qilich botir»da qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar bevosita animistik tushunchalardir.

«Yoriltosh», «Ochil, ochil qamishlar», «Sim-sim, och eshigingni» kabi iltijoli yolvorishlar o'sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. Bunday tushunchalar va qarashlar qadimgi dunyodaning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, hindlarda va Sharqning boshqa xalqlarida hozir ham sigir, ilon, ot kabi hayvonlarga, olov, tog', o'rmon va suvgga sig'inish mavjud.

Mifologiyada totem, fetish, anem tushunchalar ko'pincha bir-birini to'ldirgan holda uyg'un ifodalanadi.

Qadimgi kishilar dunyoni ikki qismga: yaxshilik va yomonlik kuchlariga ajratib tasavvur qilganlar.

«Avesto»da ikki yaratuvchi kuch - yaxshilik va yomonlik Axuramazda (Xurmuzz) va Ahriaman (Angra Manyu) qiyofasida namoyon bo'ladi. Mazkur kitob g'oyasiga

ko'ra, tabiat va jamiyatdagi hodisalar ikki yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqqan.

Axuramazda yaxshilik, yorug`lik, obodonchilik va ezhulik kuchlarining ma'buditir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga xizmat qiladi. U o'z yordamchilar orqali olov, chorva, metall, er - suv va o'simliklar dunyosini boshqaradi.

Ahriman (Angra Manyu) barcha yozuvlik va yomonlikning rahnamosidir. U Axuramazdaga qarshi kurashadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat mashaqqat, kulfat keltiradi. Ahriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsada, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doim mag'lubiyatga uchraydi.

«Avesto»da yorug`lik manbai quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov quyoshning bir parchasi bo'lganligi uchun ham inson olovni muqaddas hisoblaydi.

Mitra - quyosh va yorug`lik ma'budi, Noxit (Noxid) obodonchilik va farovonlik ma'budi, Humo - baxt, to'le va davlat ma'budi, Anaxita va Xubbi (Er Xubbi) - suv ma'budi, Mirrix-urush va g'alaba ma'budi, ezhulik esa Qayumars (Gavomard), Yima (Jamshid), Gershasp kabi mirfologik obrazlarda mujassmalashgan.

«Avesto»da Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini mahkam bog`lagan, to`g`ri so`z, marhamatli go`zal qiz sifatida tasvirlangan. U - kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo`lishini ta`minlovchi ma'buda. Anaxita haqidagi ma'lumotlarni ko`zdan kechirish shuni ko`rsatadiki, u suv va hosildorlik homiysi bo`lib, o'zbeklar orasida Anbar otin shaklida saqlanib qolgan. Farg`ona vodiysisidagi xushmanzara joylardan biri Shohimardondagi Qubbon ko`li (ko`li Qubbon)bo`lib, u aslida «Xubbilar ko`li» degan ma`noni anglatadi. Xubbi yoki erxubbi qadimgi adodlarimizning tushunchalariga ko`ra suv va suv havzalari bilan bog`liq narsalarning homiysi bo`lgan.

Xalqimiz orasida mavjud bo`lgan Kayumars (Gayya Martan, Gavomard), Yima (Jamshid) haqidagi afsonalr ham «Avesto» orqali bizga qadar etib kelgan.

Turkiy xalqlar folklorida afsona va rivoyatlar juda ko`p. Olimlarning ta'kidlashicha, real hayotda ro'y berishi mumkin bo`lmagan voqealar haqidagi hikoyalari afsonalar deb yuritiladi, lekin hamisha ham bu mezonga amal qilingan emas. Hayotda ro'y berishi mumkin bo`lgan hayratli voqealar rivoyat nomi bilan yuritilan. Ma'lum bo`ladiki, afsona va rivoyatlar o'rtasida aniq chegarani belgilash mushkuldir.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning ta'biri bilan aytganda, «Afsonalar haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir».

Xalqimiz orasida bugungi kunda ham fazoviy jismlar, hudud nomlari, rasm - rusumlar, tarixiy voqe - hodisalar bilan bog'liq afsona, rivoyatlar yashab kelmoqda. Hatto ular orasida hajviy ruhdagilari ham uchraydi.

Tariximizda avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan To'maris, Shiroq, Rustam, Zariadr va Odatida, Guldursun, Dalvarzin, Qonqus, Kuyganyor, Chuli-chuli kabi afsona va rivoyatlar madaniy merosimizning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz tarixi bilan bog'liq qadriyatlarining qayta tiklanishi yo'lida bir qator ezgu ishlar amalga oshirildi.

Navro'z bayramining ommaviy nishonlanishi, O'zbekiston televideniyasida xalqimiz qadimdan afsona va rivoyatlar to'qib kelayotgan Burgut, Ot, Tuya, Ilon, Qaldirg'och, G'oz, Laylak kabi jonivorlar hamda parrandalar haqida uyuştirilgan bir qator ko'rsatuvlar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar fikrimizning dalilidir. Mif va afsonalar mohiyatini his qilish ularda ifodalangan voqe - hodisalarning asosini belgilash imkonini yaratadi.

Qadimgi adabiy merosimiz juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki har bir mif va afsona xalqimiz orzu-armonlarini ifodalash bilan birga biror bir tarbiyaviy g'oyani ham ilgari suradi.

Masalan, «Shiroq», «To'maris», «Rustami Doston» afsonlarida vatanparvarlik, chet ellik bosqinchilarga nisbatan nafrat ruhi bo'rtib turadi. «Avesto»dagi misflarda esa ezgulikning jaholat, zulm va zo'rlik ustidan g'alabasi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbek xalq og'zaki juda qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan turkiy tilda so'zlashuvchi elatlari og'zaki ijodining bir qismidir. Bu namunalarning tarixi 3-4 ming yil avval yaratilgan yozma manbalardan ma'lum bo'ladi. Bunday yozma manbalar qatoriga Zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto»ni, qadimgi pahlaviy tilda yaratilgan «Bexistun», «Bundaxishn», «Denkart» kabi kitoblarni, O'rxun-Enasoy yodgorliklarini, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» deb nomlangan asarlarini, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobini kiritamiz. Bular qatoriga yana shuningdek, qadimgi yunon tarixchisi Geradotning «Tarix», qadimgi Rim tarixchisi Polenning «Harbiy hiylalar» kabi tarixiy kitoblarini ham kiritish mumkin.

Avesto kitobi muallifi yashagan hudud va kitob yaratilgan joy masalasi bir necha o'n yillar davomida turli munozaralarga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda tarixchi va qadimshunos olimlarimizning fidokorona mehnatlari chuqur ilmiy izlanishlar olib borishlari natijasida bu muqaddas kitobning vatani O'zbekiston, aniqrog'i Xorazm ekanligi isbotlandi. Tarixiy haqiqat qaror topdi.

Abu Rayhon Beruniyning xabar berishiga qaraganda Makedoniyalik Iskandar bostirib kelgan paytda Buxorodagi kutubxonada Avestoning 12 ming qora mol terisiga oltin suvi bilan yozilgan noyob nusxasi bo'lgan. Aleksandr bu kitobning

tabobatga oid bo`lgan va o`zi zarur deb bilgan qismini yunonistonga yuborib, qolgan qismini yondirib yuborgan. Avestoda ezgulik va yovuzlik kuchlari o`rtasidagi kurash Axura Mazda – Xurmuzd (yaxshilik dunyosi) hamda Angra Manyu – Axriman (yovuzlik dunyosi) timsolida aks ettirilgan. Bu kurash abadiy davom etadi va oxirida ezgulik kuchlari g`alaba qozonishi bashorat qilingan.

«Avesto»da suv, havo, olov va tuproq ulug`langan. Shu to`rt unsurni toza va pok saqlash odamlarning muqaddas burchi deb uqtirilgan. Professor Hamidjon Homidov va Baxtiyor Do`schenovlarning «Avesto va tibbiyat» risolasida ta`kidlanishicha yuqoridagi to`rt narsani iflos qilgan kishi ayovsiz jazolangan. Xalqimiz orasida yosh avlodga nasixat tarzida hozirgi kunda ham suvgaga, o`tga, osmonga tupurma, axlat tashlama, erni (tuproq) iflos qilma, erni tepma shaklida aytilayotgan o`gitlarning qadimiyligi ildizlari «Avesto»ga borib bog`lanadi, desak mubolag`a bo`lmaydi.

«Avesto»da ko`p o`rinlarda tilga olingen Mitraga xos xususiyatlar keyinroq folklorimizdagи boshqa timsollarga ko`chganligi ham sir emas. O`rxun-Enasoy yodgorliklarida qadimgi ajdodlarimizning ona-yurt mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari yuqori pafosda tasvirlanadi. Turk xoqonligining Tunyuquq, eltarish, Kultegin, Bilga xoqon singari mard farzandlari Tabg`ach hukmdorlariga qarshi fidokorona kurash olib boradilar va g`alabaga erishadilar. Bitiktoshda VII-VIII asrlarda bo`lib o`tgan tarixiy voqealar badiiy shaklda o`z aksini topgan. Ularda o`nlab xalq maqollar, ibratli so`zlari keltirilgan. Bir so`z bilan aytganda bu toshbitiklarni Vatan ozodligi haqidagi qo`schiq deb atash mumkin.

Mahmud Qoshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida bundan ming yil muqaddam turkiy xalqlar og`zaki ijodida mavjud bo`lgan maqol, matal, afsona, rivoyat va qo`schiqlardan namunalar keltirilgan. Adabiyotshunos olim A.Abdurahmonovning ta`kidlashicha bu kitobda keltirilgan she`riy parchalar Alp er Tunga – Afrosiyob haqidagi jangnomaning qismlaridir. Shu o`rinda «Devon»da keltirilgan maqollarning ayrimlari hozirgi kunda ham nutqimizda qo`llanilayotgani diqqatga sazovordir. Masalan: «Osh totig`i tuz», «Yilqi olasi tashdin, odam olasi ichdin», «Bir qarg`a bilan qish kelmas», «Ko`sov uzun bo`lsa, qo`l kuymaydi» kabi maqollar hozir ham aynan ishlatiladi.

Abu Rayhon Beruniyning bir qator asarlarda xalqimiz o`tmishiga oid qimmatli ma`lumotlar keltirilgan. Shu jumladan Nav-ro`z bayrami tarixiga oid keltirilgan fikrmulohazalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O`zbek folkloriga oid ma`lumotlarning bir qismi chet ellik mualliflarning qalamiga mansub kitoblar orqali ham etib kelgan. Bu o`rinda Herodotning «Tarix», Polenning «Harbiy hiylalar» nomli kitoblarni va boshqa manbalarni eslash kifoya. Xomerning «Iliada», «Odisseya» dostonlari bilan «Alpomish»ni qiyosiy o`rganish haqida G`izi olim Yunusov 1923 yoldayoq eslatgan edi.

Keyingi yillarda televidenie orqali namoyish etilgan Hind xalqining mashhur eposlari asosida suratga olingan «Ramayana», «Mahobhorat» kabi teleserillardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqining qadimgi qahramonlik eposlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar jahonning boshqa xalqlari qarashlari bilan chambarchas bog'liq va mushtarakdir.

### *Nazorat savollari:*

1. O'zbek folklori tarixi qanday davrlarga bo'linadi?
2. Qadimgi davr folklori janrlarini ayting?
3. Mif, afsona, asotir nima?
4. Animizm, fetishizm va totemizm nima?
5. Qahramonlik eposlaridan qaysilarini bilasiz?
6. «Avesto»ning o'zbek folklorida qanday izlari saqlanib qolgan?
7. «Devoni lug' otit turk» da qanday maqollar etib kelgan?
8. O'rxun – enasoy tosh bitiklarida qanday iboralar qo'llangan?
9. O'zbek fol'lorining qanday xorijiy manbaalarini bilasiz?
10. Abu Rayhon Beruniyning qanday tarixiy asarlari bor?

### **Bolalar va o'zbek marosim folklori**

Reja:

1. Bolalar folklori, uning janrlari va badiiy xususiyatlari.
2. Bolalar folklorining harakatli o'yinlar bilan bog'liqligi.
3. O'zbek marosim folklori va uning o'ziga xosligi

Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvini oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Uning yaratishda kattalar ham bolalar ham barobar hissa qo'shishgan. Kattalar bolalarni erkalash badiiyatini yaratishganki, alla-olqish kabi erkalash motiviga limmo-lim bu janrlar onalik folklori namunalari sifatida xarakterlanadi, chunki bu janrlarga mansub asarlarning yaratuvchilari asosan onalar bo'ladilar.

Qisqa qilib aytganda, kattalar tomonidan bolalar uchun yaratilgan folklor namunalari va bolalarning o'zlari tomonidan yaratilgan va turli o'yinlar paytida ijro etiladigan folklor asarlarini bolalar folklori deyish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar folkloriga quyidagi janrlarni kiritish mumkin:

*Allalar.*

*Erkalama va ovutmachoqlar.*

*Aytish-olqishlar.*

*Bolalar qo'shiqlari.*

*Hukmlagichlar.*

*Aytishuv.*

*Tegishmachoqlar.*

*Sanamachoqlar.*

*Tez aytishlar.*

*Chandish va aldamachoqlar*

Bizning fikrimizcha, bolalar folklori janrlariga yana quyidagi larni ham kiritish mumkin:

1. Bolalarbop ertaklar.
2. Bolalarbop maqollar.
3. Bolalarbop topishmoqlar.

Chunki ayni kunlarda ertaklarning aksariyat qismi bolalar uchun ijro etilmoqda. Shuningdek, bolalar tarbiyasiga oid maqollar va ularning zehnini oshirish maqsadida aytildigan ko'plab topishmoqlarni e'tibordan soqit qilmasligimiz kerak.

Allalar ijtimoiy-estetik qimmatiga ko'ra ikki vazifani bajaradi: birinchisi - bolalarni uxlatish, aslida «alla» so'zining lug'aviy ma'nosini professor Shavkat Rahmatullaevning ta'didlashicha, «qadimgi turkiy tildagi «tinchlanish» ma'nosini bildirgan ala (ala - ala) undov so'zidan o'sib chiqqan» (Mahmud Koshqaray DLT, I, 118) bo'lib, ovutib, avaylab uxlatishdan iborat. Allaning ikkinchi qimmati uning tarbiyaviy - estetik mohiyat kasb etishida ko'zga tashlanadi. Bu uning emotsiyonal ta'sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyatlardan iborat bo'lib, bolani kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma'nosini anglashiga yo'l, shu zaylda estetik didini shakkantirish va o'stirish maqsadiga qaratilganligidir. Abu Ali ibn Sino allaning shu xususiyatini ming yil ilgariyoq payqab, shunday yozgan edi: «...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biribolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi-uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi».

Allalar, odatda, bolalarning emizikli davrlaridan to uch yoshga to'lgunlaricha aytildi. Bolalarning ana shu yoshi bilan bog'lanishi allalarning beshik qo'shig'i sifatida xarakterlanishini belgilaydi. Allalar onalarning minglab ajdodidan bir-biriga o'tib, sayqal topib, onalik mehrini, armonini ifodalab kelayotganiga qaramay, ularning qachon paydo bo'lgani o'zbek folklorshunosligida haligacha aniqlangan emas.

Allalar faqat kuylanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadigan janrdir. Bir xil ohang bilan kuylash o'zbek allalari uchun mushtarak xususiyatlardir. Onaning kayfiyati chog' kezlarida allaning monoton ohangida xush yoquvchi mayin yumshoqlik mayli sezilib tursa, xafaligida, iztirob chekayotgandagi ma'yus tortuvchi hazinlikka moyil ohang bo'ladi. Bola uchun allaning so'zi bilan birga kuyi yoqimli va muhimdir. Alladagi so'zlar ona uchun ham muhim, chunki ular ona qalbining nidolaridir.

Jismoniylar harakat bolaning muttasil o'sishini, organizmning chiniqishini ta'minlovchi muhim vosita bo'lsa, allalarining ohangi shu jismoniylar rivojlanishni ma'naviy ulg'ayishga ulaydigan vosita bo'lib, bola ruhiy faoliyatini harakatga solishga va faollashtirishga xizmat qiladi.

Allalarining kompozitsion butunligini so'z, ohang va harakat birligi, shu so'zlarning o'zaro mantiqiy aloqadorligi nuqtai nazaridan tekshirish kerak. Shunday qaralganda, onalar repertuarida uchlik, beshlik, otilik, ettilik va sakkizlik tarzida bir butun tugallangan allalarining anchagini ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Masalan,

Allayo, alla,

Oppoq qizim, alla,

Qaymoq qizim, alla,

Go'zal qizim, alla,

Asal qizim, alla,

Oqcha qizim, alla,

Zog'cha qizim, alla,

Sanam qizim, alla,

Tam-tam qizim, alla,

erka qizim, alla,

Serka qizim, alla.

Tilla qizim alla,

Pila qizim alla.

Otin qizim alla,

Oltin qizim alla.

Bu alla erkalamaga xarakteriga ega bo'lib, barcha qofiyadosh so'zlar sifatlash vazifasini bajargani uchun aksariyat satr boshida kelgan.

Onalar, o'zlarini xush yoki noxushliklaridan qat'iy nazar, farzandlariga hamisha mehribonlik qiladilar: farzandlarida eng nafis ranglarni tanlashga, shu ranglarni g'oyat nazokat bilan ishlashga alohida e'tibor beradilar.

O'zbek allalarini kompozitsion jihatdan voqeaband va parokanda allalarga bo'lish mumkin. O'zbek allalarida radif qonuniydir: alla so'zi har satr yoki satr osha, goho komponentli shaklda - alla-yo, alla tarzida takrorlanaveradi.

Erkalamaga va ovutmachoqlar suyish qo'shiqlarning bir-biridan farq qiluvchi janrlaridir. Ovutmachoqlar kichkintoylarning g'ashligi tufayli aytilsa, erkalamalar kayfiyatning ko'tarinkiligida ijro etiladi. erkalamalar mehr tufayli tug'iluvchi badihalardir. Ovutmachoqlar vaziyat taqozosiga ko'ra aytilsa, erkalamalar kayfiyat taqozosi tufayli ijro etiladi.

Ha, dursa-dursa, dursa,

Otasi bozorga borsa,

Go'shtu gurunch keltirsa,

Onasi pazanda bo`lsa,

Bolasi xo`randa bo`lsa ... kabi aytildigan qo`sishqlar erkalamaning bir turidir. Shuningdek, erkalamalarning «Ha, lo`tti, lo`tti», «Ha, kishta-kishta, kishta» singari turlari ham bor.

Ovutmachoqlarga misol:

Vo`y-vo`y, shuginani kim urdi?

Vo`y-vo`y, shuginaga kim lab burdi?

Yig`lama, oppoqqinam,

Boshimdag'i qalpoqqinam.

Bolalar qo`sishqlari ham bolalar folklorlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Bu qo`sishqlar aksariyat harakatli o`yinlar paytida ijro etiladi. Shu o'rinda hammamizga qadrdon bo`lgan «Oq terakmi, ko`k terak?» qo`shig`ini eslatish muhimdir. Shuningdek, «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «Laylak keldi» kabi bolalar mavsumiy qo`sishqlari ham mashhur ekanligini ta'kidlash lozim.

Yomg`ir yog`aloq,

Echki tuvaloq.

Boyning xotini,

Qorni yumaloq... qo`shig`ida hazil mutoyiba sezilib turadi.

Hukmlagichlar ham qadimgi ajodolarimizning totemistik e'tiqodlariga daxldor marosim qo`sishqlarining davrlar o'tishi bilan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ta'sirida o`zgarishlarga uchrab, asta-sekin bolalar repertuariga o`tib, bolalarcha mushohadakorlik asosida qaytadan sayqallanib, yangi motivlar, yangi timsollar hisobiga to'lishib, ularning mavsum, marosim she'riyatida barqarorlashgan namunalari sanaladi.

Jonivorlarga, parrandalarga, qurt-qumursqlarga, o'simliklarga nisbatan to`qilgan, fol ochish, sehr-jodu qudratiga ega deb bilish va hokazolar hukmlagichlar mohiyatini belgilaydi. Aytishuvlarning kompozitsion asosini savol-javob tashkil etadi. Savol-javob bolalarning hali o`zlariga noma'lum voqelikni o'rganish, o`zlashtirish, qolaversa, kashf etish yo'llari bo`lib, o'ynoqi ritmga solinganligi tufayli poetik mohiyat kasb etadi.

Tegishmachoqlar qofiyadosh laqablardan o'sib chiqib, bolalarning bir-birlariga va kattalarga hazilkashliklari, tegishishlaridan tug'iladigan goh mutoyibali, goh mulozamatli, goh madhiyali yumoristik badihalar hisoblanadi. Ular tuzilishi jihatdan ixcham: ikki, uch, to`rt, besh, olti va sakkiz satr atrofida bo`ladi. Tegishmachoqlarning quyidagi turlari mavjud: 1. Laqab - tegishmachoqlar. 2. Portret - tegishmachoqlar. 3. epigramma - tegishmachoqlar. 4. Uyaltiruvchi - tegishmachoqlar.

Sanamachoqlar keng tarqalgan o`yinboshi badihalari bo`lib, o`yin boshlanishi oldidan navbatda turuvchini aniqlash, galda qoluvchini belgilash vazifasini bajaradi.

Ular o'yinda kompozitsion qismining asosi bo'lolmasalar - da, muqaddima sifatida uning kompozitsion qismini tashkil etadi va o'sha o'yinning umumiy yo'nalishiga poydevor quradi. Sanamalarda sanash ohangi qo'l yoki oyoq harakatlari bilan to'ldirilib, tasdiqlanib turiladi. eng so'nggi so'z kimning chekiga tushsa, o'sha navbatda qoladi.

Bir-ikki, olma dikki,  
Safar oyi, sariq chumchuq.  
Bog`da turmay, tezroq uchib chiq,

Sen turib, sen chiq!

Bolalar folklorining sanama janri folklorshunos olim Sobit Avezov tomonidan maxsus tadqiq etilgan (2004).

Tez aytishlar vositasida bolalar ona tilidagi tovush va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlar ohangdorligini, so'zlarining nozik ma'no bo'yoqdorligini his va idrok qilish, anglash hamda ilg'ab olishni mashq qildilar. Shu ma'noda tez aytishlar tovush va so'zlar ustidagi poetik mantiqiy mashqlar hisoblanadi. Tez aytishlar nutq tovushlarining uyg'unligiga asoslangan janr bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birliklarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoki bu so'z talaffuzida chalg'ish va tutilish natijasida yuzaga chiquvchi ma'no o'zgarishi negizida maydonga keladi: «Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopoq», «Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish» yoki «Tyan' Shan' tog'inining tagida to'qson to'qqizta traktor tirillab turibdi» va hokazo.

Tez aytishlar qadimdan mavjud bo'lgan. Atoqli adibimiz Abdulla Qahhorning mashhur «O'tmishdan ertaklar» qissasida tez aytishni «tutal» deb qo'llangan va ikkita namunasi keltirilgan: «Tutning tomirini turp tutib turipti, turpning tomirini tut tutib turipti» va «Bir tokchada uch tokcha, uch tokchasi bir tokcha». Bu tez aytishlarni adibning «jadid usuli»da o'qitgan ustozи Muhammadjon qori domlasi o'rgatgan ekan.

Chandishlar ham keng tarqalgan ma'naviy o'yinlardan bo'lib, ular so'zda laqqilatish, chandib olish hisobiga «g'aflatdag'i» raqibini hushyor torttirish, shu asosida so'zga, so'z ma'nosiga, ohangiga sezilarli reaktsiya uyg'otish hamda so'zga ohangdosh hozirjavoblikka shaylash maqsadini ko'zlaydi.

Aldamachoqlar-chandishlar gohida onaboshi va o'nlab o'yinchilarning she'riy savol-javobi shaklida bo'lishi mumkin.

Bolalar xilma-xil janrlardagi ana shu qo'shiqlarning qay birini shovqin solib, qay birini jo'r bo'lib, qay birini raqsga tushib, qay birini yakka holatda, qay birini yurib yoki sakrab turib, hakkalab chopgancha aytishni ham yaxshi biladilar.

Huddi shu asosda bolalar folklori navqiron avlodning yosh psixologiyasi xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning voqealikka munosabatlari, estetik-axloqiy qarashlari va rang-barang

tuyg'u-kechinmalari o'z aksini topgan. Binobarin, bolalar folklori yosh avlod tarbiyasida juda katta ahamiyatga egadir.

Xalq maishiy va iqtisodiy hayoti jarayoni mavsumiy hamda oilaviy rasm-rusumlar bilan hamisha bog'liq bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Al osorul boqiyax») asarida Navro'z bayramini ma'naviy meros sifatida tilga oladi. Shuningdek, xalqimiz bahor faslida dala ishlarining boshlanishi, kuz faslida hosil yig'ish, qish faslida turli marosimlar o'tkazish amallarini bajarib kelgan. Bu haqda filologiya fanlari doktori, prof. B. Sarimsoqov 1986 yil «Fan» nashriyotida chop etgan «O'zbek marosim folklori» kitobida mukammal fikr yuritgan. Muallifning e'tiborni jalb etadigan mulohazalaridan biri xalqimiz amalga oshirgan mavsum va marosimga oid tadbirlarning birontasi ham so'z san'ati namunalarisiz o'tmagan. Xususan, «Sust xotin», «Yada»(«Jada»), «Choy momo», «Yas-yusun», «Shamol chaqirish» kabi marosimlarning hammasida mavsum qo'shiqlari etakchi hisoblanadi. Bu qo'shiqlarda xalqimiz so'zning magiyasiga alohida ishonch bilan munosabatda bo'lgan, amalga oshuviga to'la ishongan. Shuning uchun ham umid bildiriladigan misralar mazkur qo'shiqlarning mohiyatini belgilagan.

Yomg'ir chaqirish marosimi.

Lalmikor deqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishilar bahor oylarida bo'ladigan yog'ingarchiliklarga qarab olinadigan hosilning cho'g'ini chamlaganlar. Bahor yomg'iri el-yurt to'kin sochinligini ta'minlashda juda katta ahamiyat kasb etgan. Agar bahorda yog'in kam bo'lsa, odamlar yomg'ir so'rab osmon ma'budlariga hamda avliyo va anbiyolarga sig'inganlar, har xil marosimlar o'tkazganlar. O'zbeklar orasida qadimgan yomg'ir chaqirish marosimlari o'tkazib kelingan. Ularning ikki ko'rinishi bizga qadar etib kelgan. Birinchisi yada (jada) toshi vositasida o'tkaziladigan marosim, ikkinchisi esa yomg'ir tangrisi sust xotin bilan bog'liqidir.

Yada so'zi qadimgi turkiy tildagi jat – jodugarlik so'zidan olingen bo'lib, sehrli kuch-qudratga ega bo'lgan predmetga nisbatan qo'llangan. Yada toshi obi-havoga ta'sir ko'rsata oladi deb tushunishgan. Shuningdek, bu toshning ayrim kasallarga davo bo'ladi deb ham hisoblashgan.

«Sust xotin» marosimi O'zbekistonning Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlardagi ayrim qishloqlarda saqlanib qolgan. Bu marosimda 10-15 ayol ishtirok etib, poliz qo'riqchisiga o'xshagan qo'g'irchoq yasashgan, unga keksa ayolning kuylagini kiydirganlar. Qo'g'irchoqni shoir tabait ayollardan biri ko'tarib yurgan boshqa ayollar esa unga ergashganlar. Qishloq bo'ylab aylanib yurishgan, barcha xonadonlarga kirib Sust xotin qo'shig'ini ijro etishgan.

«Sust xotin, suzma xotin,

Ko'lankasi maydon xotin,

Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,

*Eru jahon ko'l bo`lsin.  
Maysalar qulqoyozsin,  
Sutu qatiq mo'l bo`lsin!»*

Ayrim joylarda masalan, Jarqo'rg'on tumanidagi Qorliq qishlog'ida bu marosim faqat erkaklar tomonidan o'tkazilgan va «Sust xotin» so'zi o'magi «So'z xotin» shaklida ishlatalig'an.

*Havolarni yog`dirgin, So'z xotin,  
Bug`doylarni bo`ldirgin, So'z xotin.  
Yomonning uyi kuysin, So'z xotin,  
Dehqonlarga qut bergin, So'z xotin.*

Buxoro oblastining Qorako'l va Olot tumanlarida yomg'ir chaqirish marosimida aytildigan qo'shiq «Chala xotin» deb yuritiladi.

Yomg'ir chaqirish marosimida tilga olingan Sust xotin o'zining tarixiy ildizlariga ega. U zarbushiyyining muqaddas kitobi «Avesto»da madh etilgan osmon suvlari tangrisi Tishtiriyaning xalq o'rtaida keng tarqalgan nomlanishidir.

«Sust xotin» qo'shig'i matnidan shu narsa ayon bo'ladiki, qo'shiq ijrochilar o'zlarining yil davomidagi umidlarini ham bayon etishga imkon topganlar.

«Choy momo» marosimi. Bu marosim hozirda Janubiy Qozog'istonda yashovchi o'zbeklar orasidagina saqlanib qolgan. Bu yozga marosim turiga kiradi, surunkali davom etgan qattiq shamollarni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan.

Sayram qishlog'i atrofida o'tkazilgan marosimlarda asosan keksa ayollar ishtirot etishgan. Ikkita kampir eski – tuski kiyimlarni kiyib, yuzlariga qorakuya surtib qo'llariga hassa olib, kaltakdan yog'och ot qilib minib, «Choy momo» qo'shig'ini aytishib, qishloqni aylanib yurishgan. Ularning orqasidan boshlariga qizil sholcha yopingan 5 ta bo'yiga etgan qizlar yurib qo'shiqqa jo'r bo'lishgan. Ulardan keyin 7-8 yoshlardagi bola eshakni minib xonadonlardan berilgan xayr-sadaqalarni xurjunga solib borgan.

*Choy, choy, Choy momo,  
Choy momosi o'libdi,  
O'g'li etim qolibdi,  
Bosa-bosa beringlar,  
Bosilib qolsin bu shamol.  
Uga-uga beringlar,  
Ugilib qolsin quv shamol.  
Allahu, Allahu.*

Kuzgi marosim folklori orasida shamol chaqirish alohida ajralib turgan. Bu marosimning Farg'ona vodiysi, Toshkent, Jizzax, Samarqand va Buxoro atroflarida aytiluvchi qo'shig'ining 4 misrasigina saqlanib qolgan, xolos.

*Haydar, ota-onang o'libdir,*

*Moli senga qolibdir.  
Bolang suvg'a ogibdir,  
Shamoliningi qo'yvor.*

Qo'shiqda shamol homiysi sifatida murojaat qilinayotgan Haydar Muhammad alayhissalomning kuyovi Hazrat Alining nomlaridan biridir.

Agar qish, yoz, bahor, kuz fasllari bilan bog'langan Navro'z, Mehrjon, Hosil bayramlarini umumxalq nishonlaydigan marosimlar deb atasak, nikoh, sunnat, murt, beshik to'yulari, aza marosimlarini oilaviy chegara bilan belgilaymiz.

Shox moylar marosimi bahor faslida dalaga qo'sh chiqarilganda o'tkazilgan. Odatda qishloq oqsoqollari bu marosimga bosh-qosh bo'lsalarda, butun qishloq aholisi faol ishtirok etgan. Marosim o'tkaziladigan paytda oqsoqol barcha to'planganlarga «Ishlaringga, boshlaringga kushoyish bersin; tanisihatlik, xotirjamlikni bersin; xudo yor, pirlar madadkor bo'lsin, Bobo dehqonning o'zi tarbiyat qilsin» deb duo qilgan. Shundan keyin qo'shga olib chiqilgan xo'kizlarning shoxlariga «Yomon ko'z tegmasin» deb zig'ir moyi surtiladi hamda yomon ruhlardan pok bo'lsin, deb isiriq solinadi.

Bahor faslida Sharq xalqlarida, jumladan, o'zbeklar orasida qadim-qadimdan Navro'z bayrami keng nishonlangan. Navro'z bahorgi teng kunlik 21 martdan boshlanib 25 martgacha davom etgan. Navro'z bayrami haqida juda ko'p afsona va rivoyatlar to'qilgan. Hatto yozma adabiyotimiz tarixida ham Navro'z bilan bog'liq baytlarni ko'plab uchratamiz. Masalan, Nosiriddin Rabg'uziy shunday yozadi:

*Kun hamalg'a kirdi ersa keldi olam Navro'zi,  
Ketdi bahman zamharir qish qolmadi qori bo'zi.*

Alisher Navoiy esa:

*Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lsin Navro'z, deb yozgan edi.*

Prof. B. Sarimsoqov xalq turmushida o'rin egallagan marosimlarni ikki yirik turga ajratadi:

1. Umumxalq tomonidan amalga oshiriladigan ommaviy xalq marosimlari.
2. Oilaviy marosimlar.

Yuqorida tilga olgan marosimlar umumxalq tomonidan amalga oshiriladigan ommaviy marosimlardir.

Oilaviy marosimlarning keng tarqalgan turlari to'y marosimlaridir. Bu marosimning «Beshik to'yi», «Xatna (sunnat) to'yi», «Nikoh to'yi» kabi turlari mavjud. O'zbeklarning Nikoh to'ylari kuy-qo'shiqlarsiz o'tmagan. Nikoh to'ylarida ko'pincha lapar, yor-yor va o'lan, kelin salomlar ijro etilgan.

Laparlarni odatda tarafma-taraf bo'lib aytilgan. Dastlab laparni yigit tomon boshlagan, keyin qizlar davom ettirgan. Yor-yorlar esa asosan qiz-juvonlar tomonidan ijro etilgan.

*Yig'lama, qiz, yig'lama,*

*To'y seniki, yor-yor.*

*Ostonasi tillodan,*

*Uy seniki, yor-yor.*

*Hay-hay o'lan, jon o'lan,*

*O'lanchi qiz, yor-yor.*

*Va'dasida turmagan,*

*Yolg'onchi qiz, yor-yor.*

Motam marosimi folklori asosan yig'iyo'qlovlar va motam yor-yorlaridan iborat.

Bu insoni umrining oxirini qayd etuvchi mungli marosimda ijro etiladigan motam qo'shiqlaridir. Yig'iyo'qlovlarining qadim-qadim zamonlardan mavjudligi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan Alp er Tunga – Afrosiyob haqidagi marsiyadan bilishimiz mumkin:

*Alp er Tunga o'ldimi?*

*Essiz dunyo qoldimi?*

*Yomon o'chin oldimi?*

*Endi yurak yirtilur.*

Oilaning boshi ota, mehriboni ona vafoti munosabati bilan aytildigan yig'iyo'qlovlar o'zbek xalqi orasida juda keng tarqalgan. Ularda otaning vafotidan izardirobga tushgan farzandning tuyg'ulari, mehribon ona siymosi aks etadi:

*Kiygan to'ni yalang qat, voy otam,*

*Jon saqladi omonat, voy otam,*

*Omonat joning bor ekan, voy otam,*

*Kimga berding omonat, voy otam.*

*Mozor yo'li andadur, voy onam,*

*Tuproqlari maydadur, voy onam,*

*Shirin-shakar onamni, voy onam,*

*Endi ko'rmoq qaydadur, voy onam.*

Xalqimiz orasida bevaqt vafot etgan farzandlarga bag'ishlangan yig'iyo'qlovlar ham mavjud. Agar uylanmagan yigit yoki turmushga chiqmagan qiz vafot etsa, motam yor-yorlari ham ijro etilgan.

#### *Nazorat savollari:*

1. Bolalar folklori kim tomonidan yaratiladi?
2. Bolalar folklorini kimlar ijro etadi?
3. Alla nima?
4. «Alla» haqida Ibn Sino nima degan?

5. Tez aytishlarning qanday ahamiyati bor?
6. Bolalar qo'shiqlarining qanday ahamiyati bor?
7. Marosim fol'lori nima?
8. Qanday mavsiumy marosimlar bor?
9. «Sust xotin» marosimi qanday o'tkaziladi?
10. Qanday oilaviy marosimlarni bilasiz?
11. Marosim fol'lori qanday tarixiy ahamiyatga ega?

### **O'zbek xalq maqollari va topishmoqlari**

Reja:

1. Maqollarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Maqollarning turlari va tasnifi.
3. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.
4. Topishqamoqlarning turlari.

Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. Maqol arabcha qavlun- gapirmoq, aytmoq, so'zidan olingen bo'lib, ayтиb yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llanadi. Maqol og'zaki ijodimizning kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Folklorshunoslikda kichik janrlarni paremiya deb atash ham qabul qilingan. maqollar hajm jihatidan ixcham bo'lsada, fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi.

Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'limgan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi.

Bizning taxminimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratlvi voqeanning ahamiyati kattadir. Ana shunday hayot lavhasiga guvoh bo'lgan dono odamlardan biri ko'rgan-kechirganlariga xulosa yasab, maqolnamo gapni o'ylab topgan. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytigan fikr asta-sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo'lishi kerak. Bunday asosga ega bo'limgan maqolning umri qisqadir. Jumladan, O'zbekistonda «Er haydasang-kuz hayda, kuz haydamasang- yuz hayda» maqoli mashhur. Ammo bu maqol Xorazm viloyatining aksariyat hududlarida tilga olinmaydi. Chunki Xorazmda er qatlami tuzilishida er osti suvlarini yaqin bo'lganligi sababli dehqonchilik bilan shug'ullanadigan odamlar o'z erlarini kuzda haydamaganlar. Ma'lum bo'ladiki, faqat hayot tajribasida tasdiqlangan vaziyat haqidagi maqol xalq orasida yashaydi.

Xalq maqollarining o'z va ko`chma ma`nolari bor. Masalan, «Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi» maqoli ham o'z, ham ko`chma ma`noda qo'llanishi mumkin. Ammo «Chumchuq so`ysa ham qassob so`ysin» maqoli ko`pincha ko`chma ma`noda qo'llanadi.

Maqol qator xususiyatlari bilan xalq og`zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Chunki xalq doston va ertaklari, afsona va rivoyatlari naql va latifalari voqealikni epik usulda, rang-barang obrazlarning xatti-harakati, kechinmalari orqali aks ettirsa, maqollar voqealikni xalqning bevosita ana shu voqeylek haqida xulosalari, hukmlari orqali aks ettiradi.

Qo'shiq, lapar, o`lan, yor-yor kabi lirik janrlarda voqelik shaxsning kechinmalari fonida o'z ifodasini topsa, xalq maqollarida ana shu kechinmalar haqida lo`nda xulosalar ifodalananadi. Lirik janrlarda kechinmadan hukmga qarab intilish etakchilik qilsa, maqollarda hukmdan kechinmaga qarab intilish etakchilik qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal tushunchasini bir-biri bilan jalkashtirish mavjud. Hatto «O'zbekiston Qomusi»da ham, bizningcha, «maqol» maqolasiga matal, «matal» maqolasiga maqol misol sifatida keltirilgan. Aytib o'tish lozimki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o`rtasida farq borligini ko`rsatmoqda. Jumladan, maqol alohida qo'llanganda tugal fikrni bildiradi va hayotda uchrab turadigan o'xhash lavhani izohlaydi. Matal alohida qo'llanganda, mustaqil ma`no ifodalamaydi va notiq fikrining badiyiligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu o'rinda bir misolni eslash maqsadga muvofiqli. Xalqimiz orasida «Yaxshi so`z bilan ilon inidan, yomon so`z bilan pichoq qinidan chiqar» degan maqol bor. Agar shu maqoldagi fikriy qismlarni ajratgan holda quyidagi shaklga keltirsak, matalga ega bo`lamiz: «Ahmad ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» bu gapda «ilon inidan chiqadigan» so`z birikmasi alohida qo'llanganda mustaqil ma`no anglatmaydi. Ma'lum bo`ladiki maqol va matal, aslini olganda, xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarini ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat tarixiy jarayon natijasida ularning biri maqol bo`lib shakllangan, ikkinchisi matal sifatida yashay boshlagan.

Bu o'rinda rus xalq og`zaki ijodidagi maqol va matal janrlarini eslash ma`quldir. Ruslar maqollarni (poslovitso`), matallarni (pogovorki) deb ataydilar. Bu janrlarga xalqning bergan ta`rifi ibratlidir: «Pogovorki-tsvetochki, poslovitso`-yagodki». Demak, o'zbek maqol va matallarining farqini ham gul va meva bilan izohlash mumkin bo`ladi, - deb yozadi folklorshunos olim O.Madayev.

Maqol va matallarning matnlari badiiy jihatdan juda mukammal hisoblanadi. Maqollarda istiora, o`xhatish, sifatlash, qiyoslash kabi tasviriy vositalardan ko`p foydalilaniladi. Shuningdek, tazod san`ati faol ishtirop etadi:

*Yaxshi topib gapiradi,  
Yomon qopib gapiradi.*

*Kattaga hurmatta bo'l,  
Kichikka izzatta bo'l.*

Maqollarda shakliy va mazmuniy san'atlarni qo'llashda mutanosiblikni kuzatish mumkin. «Boy boyga boqar, suv soyga oqar» maqolini tahlil qilib ko'raylik. Avvalo, bu maqolda katta hayot tajribasi o'z ifodasini topgan. Bu tajriba qarindoshurug`chilik, mahalliychilik, tanish-bilishchilik bilan bog'liq ma'nolarda qo'llanadi. Bu maqolda bir shaxsnинг o'ziga yaqin odam tarafini olishi suvning soyga qarab, ya'ni qiya, pastlikka qarab oqishiga qiyoslanadi. Shaklan esa maqoldagi boy, soy, boqar, oqar so'zлari tashqi va ichki qofiyani tashkil etgan. Ayni paytda, maqolda «», «d», «y», «s» kabi tovushlarning qayta-qayta takrori o'ziga xos tovushdoshlikni hosil qiladi. Tovushlarning uyushib kelishi adabiyotshunoslikda maxsus sa'nat hisoblanadi. Bir misol bilan cheklanamiz: *Yolg'iz yog' och yalinsang ham yonmaydi*.

O'zbekiston Fanlar Akademisiyaning Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot instituti xodimlari tomonidan nashrga tayyorlangan ikki jildlik xalq maqollarini to'plamida bunday misollarni ko'plab uchratish mumkin. Xalq maqollarini o'rGANISH ushbu janrnning jahon xalqlari ijodi bilan eng ko'p mushtaraklikka ega janr ekanligini tasdiqlamoqda.

Ayni paytda folklor janrlari orasida kundalik turmushimizda eng ko'p qo'llanadigan janr maqol ekanligini eslatib o'tish joizdir. eng kam maqol biladigan odam ham o'z nutqida 10-15 ta maqol qo'llaydi.

Folklorshunos olimlarimiz maqollarni quyidagi jihatlariga ko'ra tasnif qilishadi:

5. Alfavit tartibiga ko'ra.
6. Mazmuniy tasnif.
7. Poetik tasnif.
8. Tarixiy tasnif.
9. Tuzilishiga ko'ra.

Maqollarni qo'llashdan asosiy maqsad didaktika bo'lib, maqollar juda katta ta'limiylar-yaviy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda maqollarning roli juda muhim.

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik va ommabop hamda xalqaro janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr yosh avlodni hayotni bilishga, borliqdagi narsa-buyumlarning xususiyatlarini yodda saqlab qolishga o'rgatadi. Qadimda topishmoqlar cho'pchak, topmachoq, matal, bayt, jumboq, topar kabi nomlar bilan yuritilgan. Olimlarning ma'lumot berishga qaraganda, turkman, qozoq, qirg'iz kabi turkiy xalqlar singari o'zbeklarda ham qadimdan topishmoq aytish an'analari mavjud bo'lgan. Bir-biriga o'xshash ikki predmet, narsa yoki hodisa nomi yashirilib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilari asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy tuzilishida berilgan savol yoki topshiriq topishmoq deb yuritiladi.

Topishmoq atamasi «top» buyruq fe'liga «- ish» va «-moq» qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilingan.

Topishmoqlarning mohiyati asosan metafora bilan bog'liq bo'lib, ularda topilishi lozim bo'lgan narsa-buyumning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Bu xususiyatlardan topishmoq janrning xalq orasida keng ommalashuviga sabab bo'lган.

Topishmoq, Aristotel' ta'biri bilan aytganda, «eng yaxshi metafora tuzish usulidir».

Topishmoqlar o'ziga xos shakliy va mazmuniy xususiyatlarga ega bo'ladi. Aksariyat topishmoqlar bir yoki ikki qatorli she'r ko'rinishida shakllanadi.

*Tepdim terakka chikdim.*

*Bir qop un ichida ustun.*

*Bir yog`idan qor yog`adi, bir yog`idan do'l yog`adi.*

An'anaviy bo'lib qolgan topishmoqlarning aksariyati qofiyalanadi: «O'zi yo`qday, uni o`qday», «Otdan baland, itdan past», «Pak-pakana bo`yi bor, mallagina to`ni bor», «Qator-qator g`isht terdim, jiyyon otni bo`s h qo`ydim» kabi.

Topishmoqlarning bir yoki bir necha narsalarni topish nazarda tutilgan namunalari ham bor. Masalan, «Er tagida oltin qoziq» topishmog'ining javobi bitta sabzi bo`lsa,

*«Tog`da talaymonni ko`rdim,*

*Suvda Sulaymonni ko`rdim.*

*Tuzsiz pishgan oshni ko`rdim,*

*Yumalab yotgan toshni ko`rdim».*

Topishmog'ida bo`ri, baliq, xolvaytar (sumalak), toshbaqa nomlarini topish lozim.

Topishmoq aytishning ham qat'iy an'analari, o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan. Folklorshunos olima Zubayda Husainovaning yozishicha, o'zbek xalqi orasida ham juda qadimda biror muayyan vaqtida, biror marosimda topishmoq aytish rasm bo'lgan bo`lishi mumkin... Samarqand viloyati Gulbuloq qishlog`ida yashovchi Roziya momo shunday deydi: «Qishning kechasi uzun bo'ladi, ayollar yig'ilib urchuq yigiradi, olacha to`qiydi, shu vaqtida yoki kechasi yotgandan keyin topishmoq aytish odati bo'lgan. Samarqand viloyatining shimoliy tumanlaridagi o'zbeklar yashagan qishloqlarda to'yga boshqa qishloqdan kelgan odamlarni qo`ni-qo'shilarnikiga qo`ndirganlar. Yig'ilgan mehmonlar o'rtasida chaldirmoq, jumboq aytish ham bo'lgan.

Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi, ikki guruhi yoki topishmoq aytuvchi va uni echuvchilar, javobini topuvchilar bo'lishi kerak. Topishmoqlar navbatma-navbat aytigelan. Avval bir taraf, topishmoq javobi topilgach esa ikkinchi taraf topishmoq aytgan.

Xalq o'rtasida «O'zi mitti, urdi - yiqitdi», «Ko'k ko'yakka g'o'za yoydim», «Qoziq ustida qor turmas» kabi topishmoqlar borki, ularning javobini darrov topish

mumkin. Ammo ba`zi topishmoqlarning javobini topish qiyin, hatto katta turmush tajribasiga ega kishilarni ham o`ylantirib qo`yadiganlari borki, shunday hollarda javobni topishni engillashtiruvchi qo`shimcha ma`lumotlar beriladi. Agar javob topilmasa «shahar» yoki «qo`rg`on» beriladi. Kim ko`p shahar olsa, o`sha o`yinda yutib chiqqan hisoblanadi. Topishmoqlar topilishi kerak bo`lgan narsalarning paydo bo`lgan davriga ko`ra ikki xil bo`ladi:

10.Qadimgi-an`anaviy topishmoqlar.

11.Yangi topishmoqlar.

An`anaviy topishmoqlar ko`pincha mo`ri, tandir, egar, o`choq, qozon kabi narsalar haqida bo`lsa, yangi topishmoqlarning mavzulari radio, televizor, kitob, samolyot, parovoz kabilar bilan bog`liqidir. Topishmoqlar boshqa folklor janrlari tarkibida ham bo`lishi mumkin. Ayrim o`zbek ertak, afsona va rivoyatlarida ham topishmoqlarni uchratishimiz mumkin. Bu hodisa dunyodagi boshqa xalqlarning og`zaki ijodida ham uchraydi. Masalan, yunonlarning «Edip shoh» haqidagi afsonalarida Sfinks degan maxluqning topishmog`ini topib, taxtga o`tirgan edip haqida, hindlarning «Mahobhorat» jangnomasida qiyin topishmoqning javobini to`g`ri topib, birodarlarini qutqarib olgan Panduzoda haqida hikoya qilinadi.

Folklor janrlari orasida hozirgi kunda eng ko`p qo`llanilayotgan va yaratilayotganlardan biri topishmoqdir. Topishmoqlarning zamona viy turlari juda ko`payib bormoqda. Bizningcha, gazeta va jurnallardagi boshqotirma, rebus, krassvord, chaynvord va boshqalar, shuningdek, televideniedagi «Sirli sandiq», «Mo`jizalar maydoni», «7x7» va hokazo o`yinlar ham topishmoqlarning bugungi kundagi avlodidir.

#### *Nazorat savollari:*

1. Maqol nima?
2. Maqollar qanday tasnif qilinadi?
3. Maqollar qanday shaklga ega?
4. Maqollarning qanday badiiy xususiyatlari bor?
5. Matal va topishmoq nima?
6. Topishmoq aytishning qanday shartlari bor?
7. Topishmoqlarning qanday badiiy xususiyatlari bor?
8. Topishmoqlarning turlari.
9. Topishmoqlarning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?

## O'zbek xalq qo'shiqlari va termalari

Reja:

1. O'zbek qo'shiqlarining o'rganilishi va tasnifi..
2. Qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati.
3. Termalarning yaratilishi va ularning turlari.
4. Termalarning badiiy xususiyatlari, tarixiy ahamiyati.

Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodimizning qadimiylarini lirik janridir. «Qo'shiq» atamasi qadimgi turkiy tildagi «qo'shdii» fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, she'r to'qish ma'nolarini anglatadi va bu atama ikki ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda u og'zaki lirika turini anglatadi va bu ma'no, ya'ni she'riyat, qasida, qo'shiq ma'nolari Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asarida ham qayd etilgan (DLT. 1-tom, 1960, 357). Tor ma'noda qo'shiq atamasi og'zaki lirik turga mansub mustaqil janrni anglatadi.

Xalq qo'shiqlarida voqelik yakka shaxsning kechinmalari orqali aks etadi. Biroq bu kechinmalar jamoa his-tuyg'ulari bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Chunki xalq og'zaki ijodida yakka shaxsning kechinmalari jamoa kechinmalarini ifodalashning bir vositasi bo'lib hisoblanadi.

Qo'shiqlar xalq ma'naviyatining qudratini, fidokoroan mehnatini, omma irodasining bukilmasligini ifodalab, kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlik va elparvarlikka, vatanparvarlik va do'stlikka, sevgida sadoqatga chorlaydi.

Qo'shiq asosan mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'ri namunasidir.

Qadimgi qo'shiqlarning dastlabki namunalari Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1072 yilda tuzilgan «Devonu lug'atit-turk» asarida uchraydi. Qo'shiq xalq og'zaki ijodidagi deyarli yagona lirik janr hisoblanadi. Ma'lumki, lirikada asar yaratuvchining atrof-muhitda ro'y berayotgan voqealarga nisbatan his-tuyg'ulari orqali bildirgan munosabati aks etadi. Demak, qo'shiqlarni qo'shiq aytuvchining ruhiy holati ifodasi sifatida ham qabul qilish mumkin. Chunki hayot taqozosi bilan ro'y bergen voqe-hodisalardan xursand bo'lgan shaxs ham, xafa bo'lgan kimsa ham o'z mammunligini va dardini lirika orqali ifodalashga intiladi. Tabiiyki, xursand kishi g'amgin qo'shiq va aksincha xafa odam sho'xchan qo'shiq kuylamaydi. Shuning uchun ham xalq maishiy hayotida muhim hisoblangan to'y ham, aza ham qo'shiq san'ati bilan chambarchas bog'liqidir. Qo'shiqning xalq san'atining keng tarqalgan ijod namunasi sifatida tushunilishiga ham ana shu yuqoridaq xususiyatlar sabab bo'lgan.

Bu janrga mansub asarlar asosan to'rt misradan iborat bo'ladi va ab-ab yoki aa-ba tarzda qofiyalanadi. Har bir to'rtlikda ma'lum ruhiy holat haqida tugal fikr ifodalananadi. Masalan:

*Daryolarning ul yuzidan sel keladi,  
Sel bilan ikki o`rdak teng keladi.  
O`rdakka o`rdak munosib, g`ozga-g`oz,  
Yigitga qayliq munosib, qizga noz.*

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asaridagi qo'shiqlar mavzu va mazmun jihatidan bir necha turlarga bo'lingan. Ular orasida lirik, ov va chovachilik bilan bog'liq, fasllar munozarasi kabi qo'shiqlar uchraydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, bu she'riy parchalarni adabiyotshunos olim Abdurashid Abdurahmonov «Alp er Tunga (Afrosyob) jangnomasi»ning qismlari deb isbotlashga harakat qilgan. Shunday fikr boshqa adabiyotshunoslар tomonidan ham ilgari surilgan. Bizningcha ham, bu she'riy parcha-to'rtliklar shaklan xalq qo'shiqlariga o'xshasa ham, aslida yaxlit bir asarning saqlanib qolgan namunalaridir. Ular A. Abdurahmonov ta'kidlaganidek, «Alp er Tunga (Afrosyob) jangnomasi» yoki marsiyasining yoxud boshqa bir asarning qismlari bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda o`zbek xalq qo'shiqlari quyidagicha tasnif qilinmokda:

1. Lirik qo'shiqlari.
2. Mavsum qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.
4. Mehnat qo'shiqlari.
5. Tarixiy qo'shiqlari.

Lirik qo'shiqlar inson ruhida tashqi muhit ta'sirida vujudga kelgan histuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalovchi vosita hisoblanadi. Lirik qo'shiqlarning mazmunini oddiy so'zlashuv tarzida, ya'ni fikrni sodda so'zlar bilan bayon etgan holda ifodalash mumkin emas. Ba'zi lirik qo'shiqlarni esa izohsiz tushunib bo'lmaydi. Ammo o`zbek qo'shiqlari qatoridagi bu she'riy parchalarni o`zbeklar ruhan tushunganliklari uchun izohini surishtirib ham o'tirmaydilar. Masalan xalq orasida:

*«Oq ilon, oppoq ilon,  
Oydinda yotgoning qani?  
Men yomondan ayrilib,  
Yaxshini topgoning qani?»*

deb «Tanovor» kuyida aytildigan qo'shiq bor. Unda oq ilonning oydinda yotishi haqida fikr bildirilgan. Bu qo'shiqni ijro etadigan o'zbeklarning ko'pchiligi «Oq ilonning oydinda yotishi» ma'nosini bilmaydilar. Olimlarning qayd etishicha, qadimgi rivoyatlarga ko'ra oq ilonning oydinda yotganini ko'rgan har bir kimsa baxtli bo'lar ekan. Mazmuni izohlanayotgan mazkur qo'shiqda ana shu rivoyatga

ishora mavjuddir. Qo'shiqda oq ilonning oydinda yotmagani bilan qo'shiq to'qiyotgan shaxsning baxtli bo'lolmagani paralell qo'yiladi. O'z sevgilisiga etisha olmagan kimsa ruhan bu dunyoda baxtli odamning umuman yo'qligini ta'kidlashga harakat qiladi. Agar biz:

*Men bu erda o't yoqsam, Andijonda tutuni,  
Bu dunyoda bormikan yurak bag'ri butuni.  
Bu dunyoda bor bo'lsa, yurak bag'ri butuni,  
Qog'ozdan o'choq yasabo, guldan qilay o'tini.*

deb kuylanuvchi qo'shiqni esga olsak, fikrimizning to'g'riliqi yanada aniqroq ko'rinadi.

Ma'lum bo'ladiki, xalq qo'shiqlarida inson tabiatiga xos bo'lgan ichki kechinmalarni ifodalashga urinish yaqqol seziladi. Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan ayrimlari va XX asrda ijod etgan adiblarimizning ko'pchiligi o'z xotiralarida, badiiy asarlarda, maqola va tadqiqotlarida xalq qo'shiqlarining aynan ana shu fazilatlarini bo'rttirib ko'rsatishni ma'qul ko'rganlar.

Lirik qo'shiqlar ularning boshqa turlari kabi qadim tarixga egadir. Xususan, ikki yoshning dil so'zлari ifodalangan dastlabki qo'shiq namunalari Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asarida ham uchraydi. Navoiyning xalq qo'shiqlaridan keltirgan namunalarida ham, bizningcha, o'ta ta'sirchan ruhiy vaziyat o'z ifodasini topgan. Masalan ulug` mutafakkir o'zining aruz she'r tizimiga oid «Mezon ul - avzon» asarida quyidagi misralarni keltirgan:

*Qaysi chaman soridin keldi sabo yor - yor,  
Ki damidin tushti o'tjonim aro yor - yor.*

Alisher Navoiy «Xamsa» asarining oxirgi dostoni «Saddi Iskandariy»da Iskandar bilan Ravshanakning to'yida «Yor-yor» aytigelanini ta'kidlaydi:

*Men aytarman jon qardoshim yor-yor,  
Sen aytarsan mungli boshim yor-yor.*

Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, lirik qo'shiqlarga oddiy ko'ngil ochish yoki shunchaki vaqt o'tkazish vositasi sifatida munosabatda bo'lish aslo mumkin emas. Chunki:

*Yurakkinamning taftiga tandir qiziydi,  
Ko'zginamning yoshiga o'rdak suziydi,*

kabi misralarda qo'shiq to'qiyotgan shaxsning yuragida qatlanib yotgan alam va dard ta'sirida jigaridan oqayotgan zardob belgilari namoyondir.

Shunday qilib lirik qo'shiqlarda xalqimizning hissiyotlari badiiy ifodasini topganligini alohida qayd etish lozimdir.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asarida Alp er Tunga - Afrosiyob vafoti bilan bog'liq marsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda o'tkaziladigan nikoh to'ylaridagi yor-yorlar, kelin salomlar ham oilaviy marosimlarga taalluqlidir.

Bu qo'shiqlarda xalq oila hayotida ro'y bergan ko'ngilli yoki ko'ngilsiz voqeaga nisbatan o'z munosabatini bildirganiga guvoh bo'lamiz. Agar «Yor-yor» va «Kelin salom»larda xursandchilik kayfiyati etakchi bo'lsa, marsiyalarda inson boshiga tushgan kulfatning naqadar og'irligi ifodalananadi.

Inson hayoti davomida muttassil mehnat bilan shug'ullanadi. Chunki haqiqi ma'nodagi inson uchun faqat mehnat turmush kechirish manbai hisoblanadi. Qadimgi zamonalarda ham shunday bo'lgan, hozir ham shunday, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Shuning uchun xalq qo'shiqlarining salmoqli qismini mehnat bilan bog'liq namunalar tashkil etadi. Folklorshunos olimlar mehnat qo'shiqlari o'z tarkibida ham turlarga bo'linishini qayta-qayta ko'rsatib o'tganlar. Shartli ravishda ularni o'rim, xo'p hayda, yorg'ichoq, turey-turey, churiya, sog'im, kashta kabilarga ajratish mumkin. Aslini olganda, bu qo'shiqlar hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar mehnati bilan bog'liqdir. Shuning uchun ba'zi bir adabiyotlarda mehnat qo'shiqlari chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandichilik kabi nomlari bilan ajratib ko'rsatiladi. Bu qo'shiqlarning vujudga kelishi va ijro etilishi sabablarini mehnat jarayoni bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Chunki ajdodlarimizning shug'ullangan mehnat turlarida muttassil ravishda takrorlanadigan zerikarli harakat ustun turgan. Odamlar bu zerikarli mehnatni ma'lum darajada ruhiy jihatdan osonlashtirishni istaganlar va qo'shiq aytishni o'ylab topganlar:

*O'rog'im olmos,*

*O'rishdan qolmas.*

*Sira ham tolmas,*

*O'rmasam bo'lmas.*

*Xo'p hayda-yo, xo'p hayda, maydayo-mayda.*

*Qalqon qulog'im, hayda, maydayo-mayda.*

*Temir tuyog'im, hayda maydayo-mayda.*

*Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda.*

Yuqorida qayd etilgan namunalarda, bizningcha, ham xalqimizning qilayotgan mehnatiga munosabati, ham har bir kichik imkoniyatdan poetik fikrlashga harakat qilishi seziladi. Qizig'i shundaki, o'zbeklar ham mehnat qurollariga, ham mehnatlarini osonlashtirayotgan hayvonlarga nisbatan o'ta hurmat bilan qaraganlar. Yuqoridagi parchalardan o'rin olgan «O'rog'im olmos, o'rishdan qolmas», «Qalqon qulog'im, Temir tuyog'im» kabi misralar fikrimizning dalilidir.

Xullas, mehnat qo'shiqlarida xalqimiz o'zining mehnat faoliyati tarixini ifodalagan, desak xato bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida xalqning tarixi aks etadi, deganda tarixiy qo'shiqlarni ham nazarda tutamiz. To'g'ri, qo'shiqlarimiz namunalari tarkibida tarixiy qo'shiqlar soni ko'p emas. Ammo bugungi kunda to'plangan

ma'lumotlar bu tur qo'shiqlarni alohida ajratish imkonini beradi. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, tarixiy voqealarning badiiy ifodasi sifatida vujudga kelgan qo'shiqlarni tahlil etish bu tarixiy voqealarning xalq hayotida alohida o'rinnegallaganini ko'rsatadi.

Masalan: Muhammad Rahimxon-Feruzdan keyin Xorazmda xonlik qilgan Xeva xoni Asfandiyor zamonida aholining hayoti o'ta og'ir bo'lgan. Ana shu zamonlarda quyidagi qo'shiq yaratilgan.

*Asfandiyor xon bo'ldi,  
Yurak - bag'rimiz qon bo'ldi,  
Emishimiz chigit non bo'ldi,  
O'lar bo'ldik bu xonlarning dastidan.*

Ma'lumki, 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi o'zbek xalqining minglab farzandlari hayotiga zomin bo'ldi. Chor Rossiyasi tomonidan ming-minglab pul hisobida olingan mollar etmaganidek, xalq farzandlari ham xo'jalik ishlariga tortildilar, ya'ni Rossiya o'rmonlarida ishlash uchun mardikorlikka olindilar. Bu voqeadan Turkistonda biron bir oila zarar ko'rmay qolmaydi. Oqibatda xalq orasida bir qator qo'shiqlar paydo bo'ldi. Xususan:

*Poyizingni jildirgan  
O'txonasi bilan do'ngalagi.  
Divinskaga ketgan edi,  
Mard yigitning bir bo'lagi.  
Divinskiga ketmas edi,  
Mard yigitning bir bo'lagi,  
Divinskiga ketkazgan,  
Nikolay podsho zambaragi.*

Folklorshunos olimlarning aniqlashicha, bosmachilik harakati deb nomlangan, asli milliy ozodlik uchun olib borilgan fuqarolar urushi davrida va undan keyin jamoa xo'jaliklari tashkil qilinayotgan davrlarda ham o'nlab tarixiy qo'shiqlari vujudga kelgan.

Xalq qo'shiqlari vazn jihatidan barmoq she'r tizimiga to'g'ri keladi. Lekin aruz vaznida yarailgan xalq qo'shiqlari ham borligini inkor qilmaymiz. Darhaqiqat, xalq qo'shiqlarining ayrim namunalari aruz tizimidagi vaznlarga ham mos keladi. Masalan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Navoiy o'zining «Mezonul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») asarida xalq she'riyatining aruzga muvofiq vaznlari haqida to'xtalganda qo'shiq janriga ham alohida urg'u beradi va quyidagi baytlarni misol qilib keltiradi:

*Qaysi chaman soridin keldi sabo yor-yor,  
Ki damidin tushdi o't jonim aro yor-yor.*

Xalq qo'shiqlarida shakliy va mazmuniy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan. Ularda favqulodda go'zal o'xshatishlar, ruhiy holat tasvirida mubolag'alar, sifatlashlar o'rinni olgan. Bizningcha, xalq qo'shiqlaridagi tovushdoshlik fazilatini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek qo'shiqlari juda katta tarbiyaviy va juda muhim tarixiy hamda adabiy ahamiyatga ega. Avvalo, xalq qo'shiqlari xalqimizning uzoq davrli tarixining bir qismi sifatida asrlar davomida estetik zavq bag'ishlash vositasi sifatida yashab kelayotganini ta'kidlash joizdir. Ikkinchidan, qo'shiqlar juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Chunki qo'shiqlarda xalq ruhiyati aks etganligi tufayli ular ma'lum ma'noda tajriba hosilasi ham sanaladi. Biror bir nasihatomuz fikr uqtirilayotganda xalq qo'shiqlaridan dalil, isbot sifatida foydalanilgan hollarni ko'p kuzatamiz.

Terma o'zbek xalq og'zaki ijodida qo'shiq va doston janrlarining orasida ko'priq vazifasini o'tovchi kuyga solib aytildigan she'riy asar bo'lsa - da, folkloarning mustaqil janri hisoblanadi. Termalarning yaratilishida baxshilarining roli juda kattadir. Ko'pincha termalar doston kuylovchilarning shaxsiy ijod namunasi bo'ladi.

Terma deb asosan pand – nasihat, axloq - odob, soz va badiy so'z haqida yaratilgan, hayotdagi turli hodisalar, biror shaxs yoki jonivorning ta'rifni yoki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10 – 12 misradan 150 – 200 misragacha, ba'zan undan ham ortiq hajmdagi lirik, liro – epik asarlarga aytildi. Bu atama terib, tanlab olish degan ma'noni anglatadi. Baxshilarining o'zları ham «Terma shu, terib aytib borasan» deyishadi. Termalar 3, 4, 5, 6 misrali bandlardan tuzilishi mumkin. Odatda termalar dostonlarni ijro etishdan odin «Nima aytay?» deb boshlanadi. Ba'zan buni «Doston terish» deb ham yuritiladi. Shuning uchun ham termalarni doston ijro etish jarayonida kirish qism deyish mumkin. Ayrim hollarda dostonlardan olib aytilgan parchalar ham terma deb yuritiladi.

Termalarning keng tarqalgan turi «Nima aytay?» she'ridir. Bu termaning hajmi doston kuylovchining mahorati va tajribasi bilan bog'liq. Baxshi tinglovchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortish, doston eshitishga tayyorlash maqsadida terma kuylay boshlaydi va o'zi sevib kuylaydigan dostonlar qahramonlarining ayrim belgilarini tinglovchilar yodiga soladi:

*O'n beshida oyday to'lgan,  
Olmosini belga solgan.  
Go'ro'g'liga xizmat qilgan,  
Qirq yigitni girdga olgan,  
So'rab o'tdi Avaz polvon,  
Avazzondan aytayinmi?*

Termalarning ko'pgina qismini baxshilarining tarjimai holi bilan bog'liq «Kunlarim», «Do'mbiram», «Dutorim» kabi asarlar tashkil etadi. Masalan, Po'lkan shoir shunday kuylagan:

*Yangi tor tortayin toringni uzib,  
Undan so'ng so`ylarsan suyaging qizib,  
Odamlar ketmasin majlisni buzib,  
Maskov, Nijniy, Qozon, No`g`oyni kezib,  
Shaharni qidirib yurgan do`mbiram.*

Shoir sozinini o'zining yordamchisi, do'sti deb biladi:

*Uch-to`rt og`iz maqtab qo`yay mann sani,  
Qovurg`angdan qirib solgan randani,  
Xonish qilsam yolg`iz qo`ymaysan mari,  
Xonishimga yordam bergen do`mbiram.*

Ba`zan shoirlar hazil-mutoyiba qilib tinglovchini kayfiyatini ko'tarishga harakat qiladi:

*Nomard yigit bu majlisga bo`ylamas,  
Avji kelsa Nurman gapni o`ylamas,  
Yorib yoqsam biror choydish qaynamas,  
Senday yog`och o`tin bo`lgan do`mbiram.*

Mashhur folklorshunos olimlar Hodi Zaripov, Buyuk Karimov, G'ozzi Olim Yunusov, Mansur Afzalov, Malik Murodov o'nlab xalq baxshilarining tarjimai hollari bilan bog'liq termalarni yozib olganlar. Jumladan ergash Jumanbulbul o'g'lining «Tarjimai hol», Fozil Yo`ldosh o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Razzoq baxshi Qozoqboy o'g'li, Abdulla shoirlarning «Kunlarim» nomli liro-epik dostonlari zamonaviy termalarning eng yaxshi namunalaridir.

Termalarning aksariyati didaktik xarakterga ega. ergash shoir termasidagi yaxshilik va yomonlikni anglash, so'z vasuhbat qadriga etish haqidagi quyidagi satrlar g`oyatda ibratlidir. Masalan: *Har narsadan suxan qimmat yoronlar,*

*Yaxshi so`zni qiling hurmat yoronlar,  
Vaqtingizni qadrin bilib o`tkazing,  
Baridan shu dam g`animat, yoronlar.  
Bu dunyoda shirin, do`sstar, tiriklik,  
O`z tengingiz bilan suhbat yoronlar.  
Yaxshiga yonashib odam ayiring,  
Har nokasga bo`lmang ulfat, yoronlar.  
Yaxshiman yomonni so`zman biladi,  
Tildan chiqar dilga niyat, yoronlar.*

Baxshilar repertuarida boylar, eshonalar, tekinxo'rlarni ayovsiz savalagan satirik termalar ham tez-tez uchrab turadi. Jumanbulbul yaratgan manna bu terma shunga yaxshi misol bo'ladi:

*Agar tuya bo`lganiningda jo`ng bo`laring,  
Otdan keyin, eshakman teng bo`laring,  
Qantar og`may xarish bo`b ag`nab yotib,  
Qarg`a bilan quzg`unga em bo`laring.  
Agar yilqi bo`lganda o`tmas eding,  
Bahong qirq besh, ellikka etmsa eding,  
Har kim olsa o`zingni aynib berib,  
Chir aylanib ovuldan ketmas eding.*

### *Nazorat savollari:*

1. Qo`shiq nima? Qo`shiqlarning qanday turlari bor?
2. Qadimgi qo`shiqlarning mavzulari qanday bo`lgan?
3. Marosim, mavsum qo`shiqlari nima, mehnat qo`shiqlari-chi?
4. Chorvachilik qo`shiqlari nomini sanang?
5. Yig`i yo`qovlar nima? To`y qo`shiqlariga qaysilar kiradi?
6. Terma deb nimagan aytildi?
7. Termalar qachon ijro etiladi?
8. Termalar qanday mavzularda yaratiladi?
9. Zamonaliv mavzuda yaratilgan qanday termalarni bilasiz?
10. Termalarning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?

### **O'zbek xalq ertaklari. Afsona va rivoyatlar** Reja:

1. Ertaklar va ularning turlari.
2. Ertaklarning badiiy xususiyatlari hamda tarbiyaviy ahamiyati.
3. Afsona janri va uning turlari.
4. Rivoyat janri.
5. Afsona va rivoyatlarning tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati.

Ertak xalq og`zaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. To`g`ri, ayrim ertak matnida kichik-kichik lirik she`rlar uchrab turadi. Ammo bunday ertak namunalari juda kam bo`lib, ertakchilik haqidagi tasavvurimizga alohida ta`sir ko`rsatmaydi.

Ertaklar o`ziga xos mavzu va g`oyaviy yo`nalishi hamda ta`limiy-estetik funktsiyasi bilan ajralib turadi. Ideal qahramonning g`ayri tabiiy kuchlarga qarshi chiqishi, mo`jizaviy narsalarni o`zga yurtlardan olib kelishi, devlar olib qochgan qizlarni qutqarishi, o`zga yurt malikalari, parizodlarga oshiq bo`lishi, bedavo dardlarga davo topishi kabilar ertaklarning mavzu doirasini belgilaydi.

Ertakning o`ziga xos xususiyati voqeabandlik, biror voqeani mukammal hikoya qilish tarzida ko`zga tashlanadi. ertaklar vogelikni hayotiy va xayoliy o`ydirmalar vositasida kishilarda badiiy zavq uyg`otadigan shaklda aks ettirish bilan xarakterlanadi.

Ertak uchun ham xalq og`zaki ijodiga xos barcha sifatlar: og`zakilik, jamoaviylik, an`anaviylik, anonimlik, versiya va variantlilik xosdir.

Fantastika ertak mezoni, uning joni va qonidir. ertaklar fantastikaning tutgan o`rniga va me`yoriga qarab ikki guruhga bo`linadi:

1. Fantastika ustun bo`lgan ertaklar.
2. Hayotiylik ustun bo`lgan ertaklar.

Ertak atamasi Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`atit-turk» asarida «etuk» shaklida qo`llangan. Xalqimiz orasida hozirgi paytda ham cho`pchak, o`tuk, matal, varsaqi, bayt kabi so`zlar ertak ma`nosini anglatadi. ertaklar xalqning ijodkor vakillari tomonidan hayotiy, maishiy, sarguzasht, ba`zan ijtimoiy voqealarini to`qib qiziqarli tarzda bayon etishi natijasida vujudga kelgan. Ularda xalqning tarixi, dunyoqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurash falsafasi aks etgan.

Ertaklarning paydo bo`lishida qadimiy urf-odat, marosimlar va miflar hal qiluvchi rol` o`ynagan. ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibridoiy tushunchalar xayoliy shaklda ifodalangan davrlardan boshlangan. Chunki bu davrlarda aniq voqe va hodisalar, urug` va qabilalar turmushi bilan bog`liq miflar, an`anaviy urf-odatlar o`z kuchi va maishiy vazifasini yo`qotib, kishilar ongida g`aroyib narsa bo`lib anglashila boshlagan edi. ertak motivlarining dastlabki namunalari ta`limiy-didaktik xarakterda bo`lib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy mohiyat kasb etgan.

Qadimgi zamonalardan og`izdan-og`izga o`tib kelayotgan ertaklar zamonalning o`zgarishi natijasida ro`y bergen yangiliklarni ham o`ziga singdirib boradi. Xalq og`zaki ijodini o`rganuvchi olimlarning ta`kidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlarda keng tarqalgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilishida umumiy o`xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. ertaklarning bu turi qadimdan yaratilganligidan, turli xalqlar maishiy hayotida o`xshashliklarning ko`pligidan darak

beradi. Ammo bu degan so`z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar mavzuidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida, maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida, kasb – hunarlar ta`rifida milliy til, milliy ruh alohida aks etadi. Xalq ertaklarining ommaviyiligi va yashovchanligini ham asosan ularning ana shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin. O`zbek xalq ertaklari Buyuk Karimov, Fattoh Abdullaev, Mansur Afzalov, Komiljon Imomov, G`ayrat Jalolov, Xudoyberdi egamov, Tojiboy G`oziboev, Ro`zimboy Safarov kabi olimlar tomonidan o`rganilgan bo`lib, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o`g`li, Husanboy Rasul o`g`li, Nurali Nurmat o`g`li, Rahmon buva kabi o`nlab ertakchilardan ertaklarni yozib olganlar, tahlil qilganlar va nashrga tayyorlaganlar. Folklorshunos olimlar xalq ertaklarini quyidagicha tasnif qiladilar:

3. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
4. Sehrli ertaklar.
5. Hayotiy-maishiy ertaklar.

Aslini olganda sehr va mo`jiza umuman ertak janrining mohiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. ertaklarning boshlanish qismidagi «Bir bor ekan, bir yo`q ekan» so`zlaridan iborat boshlanma («zachin»)dayoq hikoya qilinadigan voqeaga ishonish yoki ishonmaslik tinglovchi ixtiyororda ekani anglatiladi. Ammo ertakning keyingi bayoni inson ruhiyati bilan shu qadar uyg`un amalga oshiriladiki, tinglovchi er ostidagi shaharlarga, kiyikning tuyog`idan sachrayotgan olmoslarga mutloq ishongan holda o`z munosabatini bildiradi. Binobarin, sehr va xayoliy mushohada yuritish ertak janrining yaratilishida etakchi o`rin egallaydi, deyishga asosimiz bor. Tabiiy savol tug`iladi: ertaklarning tasnifi qanday nazariy asosga ko`ra amalga oshiriladi? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: ertaklarning tasnifini amalga oshirishda ularning mazmuni bosh mezon hisoblanadi. ertak mazmunidagi tasnifda qayd etilgan qaysi masala yuzasidan hikoya qilingan voqealar olib tashlanganda, ertak mazmuniga ortiqcha zarar etsa, ertak tasnifi shu mavzu bilan belgilanadi. Masalan, «Mohistara» ertagida sehrli voqealar bilan bir qatorda maishiy masalalar, ishq-muhabbat, uylanish muammolari ham o`z ifodasini topgan. Ammo bu ertakda sehr ta`siri alohida o`rin egallagan. Agar undan sehrli voqealar olib tashlansa, ertak o`z mohiyatini mutlaqo yo`qotadi. Shuning uchun bu ertak tasnifi jihatdan sehrli ertaklar qatoridan o`rin oladi. Xalq ertaklari bir ko`rinishda xalqning ovunchog`i, hordiq chiqarish vositalaridan biri sifatida ko`zga tashlansa ham, ularning falsafiy asoslarini, ijtimoiy muhitning badiiy in`ikosi sifatidagi ahamiyatini e`tibordan soqit qilish mumkin emas. Folklorshunoslikka shunday ertaklar ham ma`lumki, ularda maishiy hayot masalalarigina emas, balki muhitning ijtimoiy muammolari ham o`z ifodasini topadi. Biz bu o`rinda «Kambag`al qiz», «Uch yolg`onda qirq yolg`on» kabi asarlarni nazarda tutamiz. Xalq o`zi yashayotgan ijtimoiy hayot sharoitidan qadim o`tmishda rozi emasligini aynan mana shu ertaklar vositasida bildirgan. Xususan,

inson hayotining o'tkinchiligi va dunyoning bevafo ekanligi, charxpalakning teskari aylanishi maqollarda, qo'shiqlarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. ertaklar ham bundan mustasno emas, «Uch yolg'onda qirq yolg'on» ertagidagi bir bolaning o'lib-o'lib uchta bo'lgani, baliq suyagining olovdan hil-hil bo'lib badaniga issiq o'tmagani aynan zamonning teskariligiga ishoradir. Qizig'i shundaki, ertakdagagi voqealar tinglovchida kulgi uyg'otish maqsadida bayon etilayotgandek tuyuladi. Ammo ertak mazmuniga tajribali inson nuqtai nazaridan munosabatda bo'linsa, mazkur asarning falsafiy asosida juda muhim mulohaza yotgani ma'lum bo'ladi. ertak yaratilishidan ijodkor nazarda tutgan bosh maqsad ham ana shu mulohaza bilan bog'liqidir. Jahon xalqlari og'zaki ijodida, umuman, o'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan, ertaklarning syujet va kompozitsiyasida an'anaviy mifologik holatning mavjudligi folklorshunos olimlar tomonidan isbotlangan. Ularning fikricha tom ma'noda ertak janriga mansub bo'lgan har bir asar asosan uch tarkibiy qismdan iboratdir:

6. Ertakning intsial qismi, ya'ni boshlanmasi. Folklor-shunoslikda bu qism ko'pincha «zachin» nomi bilan yuritiladi.
7. Medial qismi. Bu qismda ertakda hikoya qilinayotgan voqeal to'liq bayoniga ega bo'ladi va ertakning qaysi tasnif turkumiga mansub ekanligi dalillanadi.
8. Final qismi. Bu qismda ertakning yakuniy xulosasi o'z ifodasini topadi.

Ertakning intsial qismi odatda, zamon, vaqt, makon va asar qahramoni haqidagi dastlabki ma'lumotlarni berishga bag'ishlanadi. Medialda esa etishmovchilik, safar, vazifa, raqib, taqiq, kurash kabi omillar an'anaviy unsurlar sifatida ishtirok etadi. Final, ya'ni ertakning tugallanma qismi asosan qahramonning murod-maqsadiga etishidan iborat bo'ladi. Ammo bu voqeanning o'zini shartli ravishda safardan qaytish, to'y, raqibni jazolash, murod-maqsadiga etish kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligini ko'rsatish zarur. Yuqorida qayd qilganimizdek, o'zbek xalq ertaklari tasnifiga ko'ra, sehrli, hayotiy - maishiy, hayvonlar haqidagi kabi turlarga bo'linadi. Inson tabiatan o'z oldidagi har qanday muammoni iloji boricha osonlik bilan hal etishga moyil bo'ladi. Uzoq va xatarli masofalarni tez fursatda bosib o'tish, ko'rishni istagan yaqin odamning holidan xabardor bo'lish, to'kin hayot kechirish, xoin odamga jazo berish, tez fursatda katta boylikka ega bo'lish havasi asrlar davomida insonga tinchlik bermagan. Natijada odamlar mana shunday muammolarning echimini xayol bilan vujudga keltirish mumkin bo'lgan sehr - jodudan va mo'jizadan axtarganlar. Bu echim oxir-pirovardida og'zaki ijodda humo, dev, ajdar, pari, yalmog'iz, shayton, nahang, baliq, uchar gilam, uchar ot, sirli xum, ur to'qmoq, nina, taroq, oyna kabi o'nlab obrazlarning paydo bo'lishi uchun zamin bo'lgan. Muhimi shundaki, ertakdagagi voqealar shu qadar qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi darajada to'qilganki, tinglovchilar ertakchining hikoyalarini haqiqat sifatida qabul qilganlar. Qahramonlar bilan safarda bo'lganlar, yovuz raqiblar bilan kurashganlar, ertak yakunidagi to'ylerda ishtirok etganlar. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ajdodlarimiz

xayolda yaratilgan fantaziyalar asta-sekin real hayotdan o`z tatbig`ini topa boshladi. Shuning uchun juda ko`p fan arboblari elektr asbollarining, mashina, parovoz, samolyot, kosmik kemalar, televizorning vujudga kelishini xalq ertaklaridagi sehr-fantastika elementlariga bog`laganlar. Shunday qilib, sehrli ertaklarda xalqning orzu-havasi, keljak hayotga bo`lgan umidi o`z ifodasini topgan.

O`zbek ertaklarining salmoqli qismini hayvonlar haqidagi og`zaki hikoyalar tashkil etadi. Ammo hayvonlar haqidagi ertaklar asar mazmunida ishtirot etayotgan personajlarning o`rniga ko`ra faqat sof hayvonlar haqidagi ertaklar va odamlar ham ishtirot etadigan ertaklarga bo`linadi. Bu ertaklarning bosh mazmuni bevosita hayvonlar bilan bog`liq bo`lgani uchun ular tasnifida mana shu turga mansub asarlar sifatidan qayd etilgan. Mazkur ertaklarda har bir hayvonning tabiiy xususiyatini bo`rttirib ko`rsatish etakchi o`rinda turadi. Bo`rining vahshiyligi, tulkingin ayyorligi, eshakning befahmili, sherning o`rmon podshosi ekanligi biz nazarda tutgan ertaklar mazmunining asosini tashkil etadi. Bu ertaklarda hayot majoziy ham aks etishi mumkin. Chunki xalq hayvonlar obrazini ertakda tasvirlash orqali insonlar o`rtasidagi munosabatlarni aks ettirish maqsadini ham nazarda tutgan.

Hayotiy-maishiy ertaklarga tinglovchilarining ehtiyoji alohida sezilarli bo`lgan. Bunday ertaklar o`zbek xonardonlaridagi farzand va ota, farzand va ona, o`gay ona va farzandlarning an`anaviy tarzdagi o`zaro munosabatlarni aks ettirgan. ertakning har bir tinglovchisi ijro etilayotgan asarlardan o`z hayotini izlagan, o`z taqdirini ko`rishga intilgan. Hayotiy ertaklarda hunar o`rganish, ilm olish, odamlarga yaxshilik qilish, yovuz kuchlardan asranish kabi turmush masalalari o`z badiiy in`ikosini topgan. Ko`pincha ertakning yakuni xalqning birorta maqolidan iborat bo`lgan. Jumladan, bunday ertaklar «Hunar, hunardan unar» yoki «Shuning uchun xalqimiz yaxshilik qil, suvgaga sol, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar» kabi jumlalari bilan yakunladi. Xalq ertaklari nasriy janr turi sifatida o`ziga xos badiiy mahorat sirlarini mujassam etadi. Agar ertaklardagi obrazlar tizimiga murojaat qilsak, aksari hollarda boy, shahzoda, podsho kabilarning no`noq, uquvsizligi ko`rsatilsa, kal, nochor, kambag`al o`g'ilning tadbirkorligi, ishbilarmonligi ifodalananadi. Asar qahramonlariga bo`lgan bunday munosabat xalq estetik tamoyillari bilan izohlanishi mumkin. Chunki hayotda ko`zga yorqin tashlanmaydigan odamning qahramonlik ko`rsatishiga qadar ko`rimsiz bo`lib, keyin g`alaba qozonishini tinglovchi qiziqarliroq qabul qilgan. Xalq ertaklarida ikkilantirish, uchlantirish kabi badiiy usullar ham mavjuddir. Bunday usullar, asosan, asar qahramonlarining hayotdagи boshqa odamlardan ijobji tomonga farq qilishini ko`rsatish uchun o`ylab topilgan. Masalan, biron qahramon o`z safarida uchta yo`l oldidan chiqadi. Birinchisi - borsa kelar, ikkinchisi - borsa xatar, uchinchisi - borsa kelmas. Qahramon bu uch yo`ldan eng murakkabini tanlaydi. Aslini olganda, qahramon safar yo`lining o`zi «borsa kelmas»dan iborat bo`lishi mumkin. Ammo ertak ijodkori o`z qahramonini oddiy inson emasligini, har qanday murakkab

qiyinchiliklarni engishga uning quvvati etishini ta'kidlash maqsadida biz nazarda tutgan uchlantirish usulini qo'llagan. e'tibor beraylik, «Uch og'a-ini botirlar» ertagida uch aka-uka, uch kun, uch tun, har tunning uch qismi, uch opa-singil, uch jumboq kabi vaziyatlarning takrorlanishi bejiz emas. Demak, xalq ertaklaridagi uchliliklarning har biri maxsus estetik yuklamani bajarishi bilan e'tiborga loyiq. So'z san`atining boshqa turlarida bo'lgani kabi xalq ertaklarida ham badiiy asarlarda uchraydigan o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, istiora kabi san`atlar mavjud. Mazkur tasvir vositalari xalq ertaklarining badiiy qimmatini belgilashda muhim ormil hisoblanadi.

Ertaklar yana bir jihattan - tarkibida jumboq, topishmoq bor-yo'qligiga ko'ra ham tasnif qilinadi:

9. Oddiy ertaklar.

10. Topishmoqli ertaklar.

Oddiy ertaklarda topishmoqlar yoki jumboqlar bo'lmaydi.

Topishmoqli ertaklar o'zbek folklorida oz bo'lsa ham uchrab turadi. Shunday ertaklardan biri «Dono yigit» yoki «Aqli yigit» deb nomlanadi. Kambag'al yigit mehmonga kelgan podshohga «Topilsa bitta bilan, topilmasa ikkita bilan mehmon qilaman» deydi.

Yana bir ertakda podshoh bilan keksa otaxon suhabatida jumboqli iboralar qo'llanadi:

- To`qqizni uchgaga urmadingizmi?
- O'ttiz ikki qo`ymadi-da?
- Bir g`oz yuboraman, patini yulasizmi?
- Xo`p bo`ladi, shohim.

Topishmoqli ertaklar oddiy odamlarning zukkologini ulug`lovchi asarlardir.

Ertaklar tarkibida hajv elementlari ishtirok etishiga qarab ham ikki turga bo'lindi: 1. Jiddiy ertaklar. 2. Hajviy ertaklar.

Jiddiy ertaklarda hajv elementlari bo'lmaydi.

Hajviy ertaklarda esa satira va yumorga xos xususiyatlar mavjud bo`ladi. Bunday ertaklarning qaxramonlari kal, ko`knori, Aldar ko`sса, tulki, bedana, tentak va boshqalar bo`lishi mumkin.

Ertaklar juda katta tarixiy, ta'limiy-estetik ahamiyatga egadir. Chunki ertaklar juda qadim zamonalarda mavjud bo`lgan dunyoqarashlarning davomidir yoki aytish mumkinki, zamonaviylashgan shaklidir. Ayni kunlarimizda ertak tinglamagan va ertakni yoqtirmaydigan bolajonlarni uchratish qiyin. Ayniqsa, hayvonlar haqidagi va sehrli ertaklarni sevib tinglaydigan, o'qiydigan bolalar har bir xonadonda bor, desak mubolag'a emas.

Ertaklar ayni kunlarda kattayu kichik barobar qiziqish bilan tomosha qiladigan mult'fil'mlarga zamin bo`lib xizmat qilmoqda: «Senimi, shoshmay tur, quyon!», «Tom va Jerri», «Oloviddinning sehrli chirog'i», «Qirol Sher» va hokazolar ertaklar

asosida yaratilganligini ta'kidlash lozim. Demak, ertaklar yangi-yangi shakkarda yashashni davom ettiradi.

Afsona forscha so'zdan olingen bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo'lган nasriy hikoyalarni bildiradi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodining eng qadimgi va ommaviy janrlaridan biridir. O'zbek folklorida ham qadimiylaridan biri hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarida caw so'zining quyidagi ma'nolarini keltirgan: caw – otalar so'zi; caw - qissa, qadimgi voqealardan xabar berish, aytish; caw – hikoya, biror voqeani aytib berish; caw – risola, kichik kitobcha; caw – so'z, nutq; caw – ilgarigi xabarlar, yangiliklarni etkazuvchi. Shu bilan birga olim «hikoyalarda faqat o'tganlar haqida aytilishi shart emas», deb uqtiradi. Demak, qadimda afsona atamasi o'rnila caw so'zi ishlatilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel' ta'biri bilan aytganda, afsonalar «haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir». Afsonalarni qadimgi yunonlar miflar deb ham atashgan. Ammo afsonalarni miflardan farq qilish lozim. Miflarda ma'bud va ma'budalar ishtirok etadi hamda olamning va odamning yaratilishi haqidagi ilohiy fikrlar asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham miflarni sharqda asotirlar deb atash rasm bo'lgan.

Afsonalar mavzu jihatdan rang-barang bo'ladi. Osmon, er, suv, shamol kabilarning homiyлари, eзгулик va yovuzlik ruhlari o'rtasidagi to'qnashuvlar er yuzida odamning paydo bo'lishi, narsa yoki hodisalarga taalluqli alomatlarni maydonga kelish sabablari afsonalar mavzu doirasini tashkil etadi. Osmon, samo jismilar: quyosh, oy, yulduzlar haqidagi afsonalarni folklorshunos olim Mamatqul Jo'raev «Samoviy afsonalar» deb ataydi.

Afsonalar g'oyaviy mazmuniga ko`ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) mifologik afsonalar. 2) tarixiy voqeа hodisalar haqidagi afsonalar.

Mifologik afsonalarga ajdodlarimizning qadimgi e'tiqodiy qarashlari tufayli paydo bo'lgan tushunchalar bilan bog'liq afsonalarni kiritish mumkin. Masalan «Kayumars», «Odami Od», «Er Xubbi», «Anbar Ona», «Hazrati Xizr» singari afsonalar ibridoiy dunyo qarash bilan chamcharbas bog'liq. Mifologik afsonalarning qadimgi namunalari Abu Rayhon Beruniy asarlarida saqlanib qolgan «Kayumars»dir. Bu afsona odamning paydo bo'lishi haqida yaratilgan qadimgi miflar asosida yuzaga kelgan.

Mifologik afsonalarning Xizr nomi bilan bog'liq namunalari ham xalqimiz orasida juda ko'p tarqalgan. Ularda hikoya qilinishicha Hasti Xizr cho'l piyri, hosildorlik homisi, sehr-jodu kuchiga ega bo'lgan o'lim bilmas, zarb o'tmas, o'tda yonmas afsonaviy qahramon sifatida tasvirlanadi. Iskandar Zulqarnayn Xizr va Ilyos payg'ambarlar bilan birgalikda umriboqiylik baxsh etuvchi obi-hayot mavjud quduqqa boradilar. Bu suvdan Iskandar ichib ulgurmeydi, Xizr va Ilyos

payg`ambarlar bu suvdan ichib o`lim bilmas xislatga ega bo`ladilar. O'shandan buyon ular dunyoni kezib yurishadi. Xizr alayhissalom quruqlikda, Ilyos payg`ambar esa suvda yo`lovchilarga ko`mak berishadi.

Xalqimiz orasida tarqalgan afsonalarning katta qismi tarixiy voqealarning hodisalar haqida bitilgan. Jumladan, «Devqal'a», «Shirin qiz», «Kaltaminor», «Ilonbuzgan» kabi afsonalarni keltirishimiz mumkin. Bu afsonalar ma'lum bir tarixiy joylar, qal`alar haqida yaratilgan bo`lsa-da, ularning syujetini ko`proq hayoliy epizodlar tashkil qiladi.

Devqal'a afsonasi sharqda mashhur bo`lgan «Farhod va Shirin» afsonasi bilan bog`liq holda yaratilgan. Afsonada aytishicha bahaybat Devqal'ani Farhod nomli dev qurgan emish. U Xorazm shohining qizi Shirinni sevib qoladi hamda uylanmoqchi bo`lib sovchi qo'yadi. Qizini devga berishni xohlamagan podshoh jodugar kampirdan najot so`raydi. Jodugar esa Farhodga Qoraqum cho`lining o`rtasida toshdan qal'a qurishni topshiradi. Dev uzoq tog`lardan tosh keltirib qal'ani qura boshlaydi. Qal'a bitay deb qolganda jodugar podshohga maslahat beradi. Bu maslahatga ko`ra 9000 ta yangi tug'ilgan bo`taloq, shuncha toychoq, buzoq hamda qo`zichoq so`yishni maslahat beradi. Belgilangan vaqtida jodugar dev oldiga boradi, shu payt Xorazm tomondan dahshatli hayqiriqlar eshitiladi. Bu bolalari so`yilayotgan hayvonlarning ovozi edi. Farhod jodugardan «Bu qanday yig'i?» deb so`raydi. Shunda jodugar: «Malika hozirgina vafot etdi, Shirinning o`limiga butun Xorazm aza tutmoqda», - deb javob beradi. Bu xabardan dahshatga tushgan dev so`nggi toshni osmonga uloqtiradi. Tosh tushib Farhodni halok etadi. Devni sevib qolgan Shirin ham fojea ro'y bergen erga etib keladi va sevgilisining murdasini tepasida o`ziga pichiq sanchib halok bo`ladi.

«Shirin qiz» afsonasida esa go`zallikda tengi yo`q Shirin ismli qizning go`zal sifatlari, iffatli ayollarga xos axloq namunasi o`z ifodasini topgan. Aytishlaricha Shirinning go`zalligi olamga mashhur bo`ladi. Oy u bilan bahslashmoqchi bo`lib, taroziga chiqib bahs sinashadi. Shirin o`ng oyog`ini qo`yan tarozining pallasi og`irlik qiladi. Oy laylak bo`lib osmonga uchib chiqib ketadi. Hali hozirga qadar oy hijolatdan erga qaytib tusha olmay, osmonda qolgan. «Oyda nima uchun dog` bor?» afsonasi ana shu voqeaga ishora qiladi.

Xalqimiz orasida islom dini bilan bog`liq bo`lgan «Hazrat Ali», «Yusuf alayhissalom» kabi afsonalar ham mavjud.

Rivoyat hayotiy vogelarni hayotiy uydirmalar vositasida tasvirlovchi og`zaki ijod janridir. Rivoyatlar afsonalardan haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi. Rivoyatlarda aniq tarixiy voqealarning ildizi mavjud bo`ladi. Rivoyatlarni ikki turga bo`linadi: 1) tarixiy rivoyatlar. 2) toponimik rivoyatlar.

Tarixiy rivoyatlarda qadimgi ajdodlarimizning yurt ozodligi yo`lidagi mardonavor kurashlari va jasorati hikoya qilinadi. Masalan, To'maris, Shiroq, Jaloliddin

Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur haqidagi rivoyatlarni eslashimiz o`rinlidir. Shuningdek, mashhur olimlar, shoirlar haqidagi rivoyatlar ham ko`plab yaratilgan. Bu o`rinda Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Ulug`bek, Alisher Navoiy, Mashrab, haqidagi rivoyatlar diqqatga sazovor.

Alisher Navoiy bilan bog`liq rivoyatlarda ulug` shoirning xushyorligi, tadbirkorligi, adolatparvarligi madh etiladi.

Ibn Sino bilan bog`liq rivoyatlarda buyuk tabibning o`ziga xos davolash usullari, zukkoligi va tadbirkorligi haqida fikr yuritiladi.

Toponimik rivoyatlar joy nomi bilan bog`liq bo`lib, hikoya qilingan voqealar o`tgan zamonda sodir bo`ladi. Bu rivoyatlarda izohlangan fikrlar har doim ham to`g`ri bo`lavermaydi. Ularni xalq etimologiyasi deyish ham mumkin. Xalqimiz orasida «To`rabekxonim maqbarasi», «Anda jon qoldi», «Odinajon», «Qo`rg`iroq», «Malik», «O`sh» singari mashhur rivoyatlar mavjud.

Afsona va rivoyatlar qadimgi ajdodlarimizning o`y-fikrlari, dunyoqarashi, shuningdek, o`zi yashab turgan hudud nomini bilishga bo`lgan qiziqishining namunasi sifatida ham qadrnidir. Bu afsona va rivoyatlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, odillik, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik singari ezgu fazilatlar ulug`lanadi, ansincha, johillik, takabburlik, xiyonatkorlik, dangansalik, yovuzlik kabilar beayov qoralanadi.

Shuni ham ta`kidlash joizki, zamondosh adiblarimiz qadimgi afsona va rivoyatlardan unumli foydalanib, o`z asarlarining mazmunini boyitishga harakat qildilar hamda muvaffaqiyatga erishdilar.

### *Nazorat savollari:*

1. Ertak nima?
2. Ertaklar qanday paydo bo`lgan?
3. Ertaklarning badiiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Ertak qahramonlari kimlar?
5. O`zbek ertaklarini qaysi olimlar o`rgangan?
6. Afsona deb nimaga aytildi?
7. Afsonaning qanday turlari bor?
8. Rivoyat deb nimaga aytildi?
9. Qanday tarixiy rivoyatlarni bilasiz?
10. Afsona va rivoyatlarning qanday ahamiyati bor?

## **Mavzu: Latifalar va loflar**

**Reja:**

1. Latifa haqida ma'lumot.
2. Latifalarda Nasriddin Afandi timsoli.
3. O'zbek latifalarining mavzulari.
4. Loflarning badiiy xususiyatlari.
5. Latifa va loflarning tarbiyaviy ahamiyati.

Latifa - og'zaki janrning ma'lum va mashhur janrlaridan biri. U hajman kichik, mazmunni lo'nda ifodalovchi bir yoki ikki epizoddan tashkil topgan bo'lib, asosida o'tkir hajv yoxud engil humor yotadi. Tanqid yoki humor esa so'z o'yini yoki turli xildagi qochirimlar vositasida yuzaga keladi.

Latifa atamasi arabcha «lutf» so'zidan olingan bo'lib, muloyimlik, yaxshi muomala, yaxshilik qilmoq, marhamat ko'rsatmoq, sharaflamoq ma'nolarini anglatadi. Ammo latifa janrining mohiyatida o'rtaqa tashlangan biron fikrning tinglovchi o'ylamagan, o'ziga xos echimini topish ma'nosini kuchliroqdir. Shu o'rinda «Sizni lutfan taklif qilamiz» iborasi noo'rin ekanligini ta'kidlash lozim. Aksincha lutfan tashrif buyurishingizni so'raymiz bo'lishi kerak.

Latifa janrning yuzaga kelgan davri qadim zamonalarga borib taqaladi. Uning alohida janr sifatida shakllanib, gullagan davri taxminan IX-XI asrlarga to'g'ri keladi deb ta'kidlashadi folklorshunos olimlar.

Latifalar satira va humorga asoslanadi. Bu uning o'ziga xos belgilaridan biri. Darhaqiqat, voqeа va hodisalar echimida satira va humor hal qiluvchi rol' o'ynaydi - qahramonning g'alabasini, ayni paytda qarshi tomondagи kulgili holatning mag'lubiyatini ta'minlaydi.

Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag'ishlangan bo'ladi. Ular ko'pincha maishiy hayotdagi kamchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Ularda nutqiy dialog ko'rinishi etakchilik qiladi. Sharq xalqlari og'zaki ijodidagi latifalarning o'z qahramonlari mavjuddir. O'zbeklarda Nasriddin Afandi yoki Xo'ja Nasriddin, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda Nasriddin Afandi va Jo'xi, turkmanlarda, Mirali ismlari mashhur. Shuni ta'kidlash lozimki, Sharq xalqlari yaratgan latifalar mohiyati jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Bir latifaning o'zi o'zbeklarda Nasriddin, hindlarda Birbol, qozoqlarda Aldarko'sa nomi bilan yuritiladi. Bunday vaziyatning vujudga kelishi sharq xalqlarining tarixan bir-biriga yaqin yashaganliklari izohlanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida Nasriddin obrazining vujudga kelishi asosan XIX asrning ikkinchi yarmida matbaaning rivojlanishi bilan bog'liqidir. Qrimda nashr etilgan «Tarjumon» gazetasida kichik-kichik latifalarning

asosiy qahramoni Xo'ja Nasriddin Afandi edi. Turkistonda litografiyaning paydo bo'lishi natijasida xalq kitoblarini nashr etish ham ommaviy tus oladi. Bundan yuz yil muqaddam o'zbek latifalar «Nasriddin Afandi latifaları» nomi ostida kitob holida nashr etiladi. Shundan so'ng bu nom qadimgi latifalaridagi qahramonlar ismi - Mashrab, Kal, Aldarko'salarni siqib chiqardi.

O'zbek latifalaridagi Nasriddin obrazini ikki tomonlama talqin qilish mumkin: birinchidan, Nasriddin Afandi har qanday og'ir hayotiy vaziyatlarda aqli, tadbirkorligi, tez fikrashi natijasida echim topa oladigan dono faylasufdir. U shoh saroyidagi kamchiliklarni tanqid qila oladi, boylarni, amaldorlarni, yomon xulqli odamlarni keskin kulgi ostiga oladi, o'zining xaq ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchidan, Nasriddin Afandi - o'ta sodda, hayot tajribasiga ega bo'limgan, landavur inson. Bu Nasriddin o'zining go'lligi bilan tinglovchini lol qoldiradi. Echimini topish talab qilingan vaziyatlarda noo'rin harakat qiladi. O'zining mazkur harakatini beo'xshov mulohazalari bilan asoslaydi. Agar talabchan podsho oldida mantiqiy fikr yuritish bilan uni mot qilgan Afandi birinchi talqinga mos kelsa, ko'cha bolalarini aldamoqchi bo'lib, keyin ularning ketidan o'zi ham chopib, o'zining gapiga o'zi aldangan Afandi ikkinchi talqinni esga soladi.

Latifalar turmushdagi hamma sohalar haqida yaratilishi mumkin. Latifalarning mazmuniga qarab qadimgi latifalar va zamonaviy latifalarga ajratamiz. Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirga qadar nashr etilgan «Afandi latifaları», «Latifalar» kitoblariga kiritilgan aksariyat namunalarda zamonasozlik ko'zga tashlanadi, ya'ni Afandi boylargacha, qozilarga, domla-imomlarga, podsho-vazirlarga qarshi qo'yiladi.

Latifalar ba'zan anekdod tarzida ham qo'llanadi, bu atama ko'proq so'zlashuv nutqida, asosan, Evropa hayotiga oid latifalarga nisbatan ishlataladi.

Latifalar ayni kunlarimizda eng ko'p yaratiladigan folklor janri xisoblanadi. Chunki zamonning kamchiliklarini oshkora aytish, yozish mumkin bo'limgan bir paytda latifa tarzida tanqid qilish mumkin. Keyingi kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, eng mushkil davrlarda, hatto, repressiya, qatli om davrida ham latifalar to'qish va aytish davom etgan:

37-yilda qamalgan bir kishidan so'rashdi:

- Senga necha yil berishdi?
- Yigirma yil.
- Nima qiluvding?
- Hech narsa.
- Bekor aytibsan, hech narsa qilmaganlarga 15 yil berishadi.

Lof - o'zbek xalq nasrining mustaqil janrlaridan biri bo'lib, o'zining tuzilishi, hajv va yumorga asoslanishi bilan latifa va askiya janrlariga yaqin turadi. Shuning uchun ham u yoki bu lofbozning so'zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Loflar syujeti

dialog asosiga qurilgan bo`lib, hajv va engil yumorga moyilligi, voqeа va hodisalar o`ta mubolag`ali tasvirlanishi bilan ajralib turadi.

Lof janri, asosan, qiziqchi va askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. Binobarin, har bir lofda notabiyy voqealar, salbiy belgilar kulgu ostiga olinadi. Lof aytish mubolag`ali epizodga mantiqiy javob qaytarish, so`zga chechanlik musobaqasi shaklida o`tadi. Masalan:

Paxsakash lofchi narvonchi lofchiga:

- Bir joyda shunday paxsa urayapmanki, balandligi ettinchi qavat osmon bilan barobar keladi, - deb maqtanibdi.
- Men ham shunday bir narvon yasayapmanki, u o`n to`rtinchi qavat osmonga etadi, - debdi narvonchi lofchi.
- Qo`ying-e, - debdi paxsakash lofchi.
- Rost, rost, bo`lmasa siz urayotgan paxsa uyning devoriga narvonlarsiz chiqib bo`ladimi, - debdi narvonchi lofchi.

Bu lofda lofboz raqiblar o`zaro bir-birlarini noshudlikda aylab, kamsitish orqali engil humor hosil qiladi. Lof kompozitsiyasi nihoyatda sodda bo`lib, bahslashuvchi tomonlarning so`zamollik bobida tortishuvi bevosita asarni yuzaga keltiradi. Syujet ixcham, savol-javob tarzida kechgan, ikki qismning mantiqiy birikuvidan tashkil topadi va hech qanday kirishsiz boshlanadi. Syujet echimi latifalarda bo`lganidek favqulodda yuz beradi.

Syujetning birinchi qismida voqeа yoki hodisa boshlovchi lofchi tomonidan bo`rttirilgan holda bayon qilinadi. Ikkinci qismida esa zukko lofchi o`z javobida aytmoqchi bo`lgan voqeа va hodisalarni yanada oshirib-toshiradi. Demak, savol tarzida aytilgan lofga javob so`zga chechanlik, hozirjavoblikni talab etadi. Lof syujetining ikkinchi qismi birinchi qism voqealari bilan birikkan holda o`ziga xos yaxlit kompozitsiya yaratadi. Ko`rinadiki, syujet voqealari savol-javob shaklida kechadi va asarda ilgari surilgan g`oya zukko lofchi javobida oydinlashadi.

Loflarning mavzu doirasi ham rang-barang bo`lib, ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu o`rinda ijobiy fazilat ulug`lansa, ikkinchi o`rinda salbiy belgilar fosh etiladi.

Voqealikni mubolag`alash asosida bayon etish lof janriga xos badiiy -tasviriy usul hisoblanadi. Chunki mubolag`a u yoki bu narsa yoki hodisani oshirib, bo`rttirib tasvirlashning o`ziga xos usulidir.

Loflar tuzilishi yumorga asoslanishi, voqeа va hodisalarning favqulodda echilishiga ko`ra latifalarga o`xshab ketadi. Bu o`xshashlik har ikki janring o`zaro ta`siri natijasida yuzaga kelgan. Lofning belgilari, xususan, mubolag`alash usuli ertak va dostonlarda ham uchrab turadi.

Xulosa qilib aytganimizda, o`zbek latifalari va loflari o`zining uzoq yillik tarixi davomida xalqimiz ma`naviyatining o'sishiga barakali ta`sir qilib keladi. Hayotda

uchrab turadigan ayrim nuqson va kamchiliklarni, yomon odatlarni tuzatishda, yosh avlodni umumbashariy qadriyatlar, insoniylik ruhida tarbiyalashda latifa va loflarning, shubhasiz, o`rni beqiyosdir.

### *Nazorat savollari:*

1. Latifa nima?
2. Latifa qahramonlari kimlar?
3. Nasriddin Afandi obrazi qachon paydo bo`lgan?
4. Lof nima? Lof musobaqasining maqsadi nima?
5. Loflar qanday ahamiyatga ega?

### **O`zbek xalq dostonlari.**

Reja:

1. Doston haqidagi ma`lumot.
2. Doston kuylovchilar va doston kuylash tartibi.
3. Dostonlarning tasnifi.
4. Dostonlarning badiiy xususiyatlari.
5. Dostonchilik maktablari

Doston o`zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma`naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari,adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi g`oyalari bilan chambarchas bog`liq.

«Doston» so`zi qissa, hikoya, sarguzasht, maqtov va ta`rif, shon-shuhurat, mashhurlik ma`nolarida ishlataladi. Adabiy atama sifatida bu so`z xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarni anglatadi. V.M.Jirmunskiyning yanada aniqroq ifodasiga ko`ra «Epos-bu xalqning qahramonlik g`oyasi ko`lamidagi jonli o`tmishidir». Uning ilmiy-tarixiy qimmati, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir.

Folklorshunos Olim Muhammadnodir Saidovning ta`kidlashicha, doston murakkab san`at asari bo`lib, uning doston bo`lishi uchun quyidagilar bo`lishi zarur:

- a) Ma`lum adabiy matn.
- b) Matnga mos musiqa.
- c) Kuylovchi xushovoz xonanda bo`lishi.
- d) Kuylovchi musiqa asboblaridan birini - sozni chala olishni bilishi.
- e) Kuylovchi shoirlik iqtidoriga va kuchli xotiraga ega bo`lishi.

Bu ta`riflarning biri ikkinchisini to`ldiradi. Shuning uchun ham dostonlar sinkretik - omuxta janr hisoblanadi.

Xalq dostonlarining ijrochilari O`zbekistonning turli hududlarida turli nomlar bilan yuritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida baxshi, yuzboshi, Janubiy Tojikiston o`zbeklari orasida jirov, jirchi, irchi, oqin, oxun, sannoch yoki sannovchi, shoir, xalfa, kampir va hokazo.

Baxshilar - doston ijrochilari sifatida mashhur, iqtidorli, shoortabiat odamlar. Hodi Zarifning yozishicha, baxshi so`zi mo`g`ulcha va buryatcha baxsha, bag`sha so`zlaridan olingen bo`lib, ustod, ma`rifatchi degan ma`nolarni beradi. O`zbeklarda baxshi keng ma`noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan-naslga etkazuvchi san`atkordir. Xalq orasida baxshi so`zi turlicha xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo`llangan.

1. Doston kuylovchi.
2. Folbinlik qiluvchi.

Uzoq o`tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajargan.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, ko`p erlarda do`mbira, ayrim joylarda qo`biz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa dostonlarni, asosan dutorda, torda ijro etadilar. Ularga g`ijjak va balomonda sozandalar jo`r bo`ladilar. 30-yillardan boshlab Xorazm baxshilari dostonlarni asosan tor va rubobda kuylay boshladilar. Xorazmda ba`zan epik asarlarni yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham uchraydi. Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingen parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar, deb yuritiladi. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgan. Bibi shoira, Xonimjon `xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova, Roziya Matniyoz qizi, Saodat Xudoberganova, Poshsha Saidmamat qizi, Anbarjon Ro`zimetova, Anorjon Razzoqova kabilar xalfachilikda nom qozonganlar. Xalfalar ko`proq «Oshiq G`arib va Shohsanam», «Oshiq Oydin», «Asilxon», «Hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissai Zebo», «Tulumbiy», «Zavriyo», «Duransho», «Bozirgon», «Xiromon», «Xirmon dalli» kabi dostonlarni hamda Maxtumquli she`rlarini ijro etganlar.

O`zbek dostonchiligidagi an`anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uyuşhtirilgan. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga barcha tinglovchilar yig`ilib, qo`r tashlab o`tirishgan. Baxshi to`rda o`tirgan. Doston kuylash kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Baxshi dastlab bir yoki bir necha terma kuylagan. Asosan, «Nima aytay?» («Doston terish») termasi bilan tinglovchilarga murojaat qilgan. So`ng tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko`ra biror doston ijro etiladi. Odatda doston kuylash tongga ulanadi. O`zbek xalq dostonlarining ko`pchiligi bir kun kuylashga mo`ljallangan. «Alpomish»dek ulkan asarlar ikki va undan ortiq kechalar ijro etilgan.

Dostonni kuylash juda ham qiziqarli o`ringa, avj pardalarga etganda, yarim tunda dam olish uchun tanaffus e`lon qilinadi. Buni baxshilar «Do`mbira to`ntarmoq» deb aytadilar. Bunda baxshi eshituvchilarga yoki do`mbirasiga murojjat tarzida bir necha qistirma misralar to`qib, ijroni to`xtatadi.

Baxshi taklif qilingan qishloq yoki xonadonda dostonchilik kechalari ba`zan bir necha kun davom etadi. Maxsus dostonchilik kechalaridan tashqari to`y-hashamlarda, oila tantanalarida, bayramlarda baxshilarning ishtirok etishi odatdaggi hol bo`lgan.

XX asrga kelib, shaharlarda baxshilar xizmatidan foydalanish yo`qoldi. Ammo qishloqlarda bu an`analar hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Asrimizning ulkan qurilishlarida - umumxalq hasharlarida, masalan, Kattaqo`rg'on suv ombori, Katta Farg`ona kanali qurilishida, bayram-sayllarda doston va undan parchalar tinglash odat tusiga kirgan.

Muayyan doston varianti ko`pinchilik va yakka ijod birligi jarayonida yuzaga kelgan maxsus asar ekan, unda kuylovchining ijomotlik va ijodkorlik faoliyati asrlar davomida shakllangan epik an`analar doirasida namoyon bo`ladi. Bu hol hamma baxshilar uchun umumiylar tomonlarni, muayyan dostonchilik qoliplarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, har bir dostonchi yoki dostonchilar guruhi o`ziga xos poetik yo`li, uslubi bilan bir-biridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, umumlashgan puxta epik an`ana doirasida ma`lum baxshi yoki baxshilar guruhiba xos alohida ijodiy xususiyatlari, yo`llari, uslublar o`zgachaligi mavjud. Folklorshunoslikda buni shartli ravishda dostonchilik maktablari deb yuritiladi. Hozirga qadar o`zbek folklorshunosligida quyidagi dostonchilik maktablari aniqlangan:

*Bulung`ur.*

*Sherobod.*

*Qo`rg`on.*

*Janubiy Tojikiston.*

*Shahrisabz.*

*Xorazm.*

*Narpay.*

*Farg`ona (Namangan).*

Bulung`ur dostonchilik maktabi vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo`lganlar. Sodda, yuksak, o`ta an`anaviy, nisbatan arxaik (eskirgan) bo`lgan qahramonlik eposini kuylash uslubi bu dostonchilarning poetik yo`li hisoblanadi. Bu matabning so`nggi talantli vakili Fozil Yo`ldosh o`g`li (1872-1955), undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf va Ahmad» kabi o`nlab ajoyib dostonlar yozib olingan.

Fozil Yo`ldoshning ustozи Yo`ldosh shoир bo`lgan, u esa Yo`ldosh bulbulning shogirdi bo`lgan. Bu matab Amin baxshi, Chini shoир, Tovbuzar, Qurbonbek, Sultonmurod, Suyar, Rahimbulbul, Jo`ra, Yorlaqab kabi o`nlab dostonchilarni birlashtirgan. Mazkur matab vakillari Chortoqdagi Ko`libuqon dostonchilik an`analariga ham ijobiyligi ta`sir ko`rsatganlar.

Qo'rg'on dostonchilik maktabining so'nggi talantli vakillari ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) va Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan (1874-1941) hisoblanadi. Bu baxshilardan «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug'mish», «Qironxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi» kabi o'nlab dostonlar yozib olingan.

Mang'ishtovdan Nurotaga qadar cho'zilgan silsila tog'larning, ayniqsa, Oqtovning shimoliy va janubiy etaklarida yashovchi shoirlar Qo'rg'on dostonchilik maktabiga mansubdir. Bu mакtab Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Jolmon, Bo'ron, Yorlaqab, Jassosq, Qulsamat, Bo'ta, egamberdi, Mardi kabi baxshilarni, Sulton kampir, Tilla kampir singari ayol ijrochilarini birlashtirgan. Mazkur mакtab shoirlari ko'proq ishqiy-romanik dostonlarni kuylaganlar. O'ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, she'riy bezaklar, tafsilotlarni atroficha ishlash, noziklik va jimjimadorlik Qo'rg'on mакtabi uslubining asosiy belgilaridir.

XIX asrda mavjud bo'lgan yana bir epik markaz Shahrисabz dostonchilik mакtabidir. Bu mакtabning so'nggi namoyandasi Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957) bo'lib, u XIX asrning yirik dostonchisi Rajab shoирning shogirdi bo'lgan. Ushbu baxshilar dostonlarni sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytishlari, kuylarining yoqimiligi bilan ajralib turadilar.

Atoqli shoir Islom Nazar o'g'li (1874-1953) Narpay dostonchilik mакtabining vakilidir. U XIX asrning ulkan dostonchisi Rajab shoирning shogirdi bo'lgan. Talantli xalq shoiri Nurmon Abduvoy o'g'li ham (1862-1940) shu mакtabga mansubdir. Ulardan «Orzигul», «Sohibqiron», «Erali va Shereli», «Kuntug'mish», «Zulfizar bilan Avazxon», «Gulixiromon» kabi o'nlab dostonlar yozib olingan. Bu dostonlarda xalqchillik keng o'rın olganini sezamiz.

O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar Sherobod dostonchilik mакtabi bilan bog'liq. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida yashagan Shernazar Beknazar o'g'li bu mакtabning mashhur vakili bo'lib, bir qancha shogirdlar etishtirgan. Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Madrayim baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Yusuf O'tagan kabi o'nlab baxshilar bu mакtabga birlashganlar. Surxondaryo, Qashqadaryo ba'zan janubiy Tojikiston baxshilari o'zaro doimiy aloqada bo'lganlar va ularning ko'pchiligi Sherobod bilan bog'langan. Bu mакtab vakillari repertuarida mavjud bo'lgan «Oltin qovoq», «Malla savdogar», «Ollonazar Olchinbek» kabi dostonlar boshqa joylarda uchramaydi.

Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek - laqay baxshilari ham repertuari, badiiy tasvir vositalari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu baxshilar Jorubqo'i qishlog'i bilan bog'liq. Bu erda Haybat Shamol o'g'li, Qunduz Soqi degan mashhur baxshilar o'tgan. O'zbek-laqay baxshilari repertuarining asosiy qismini «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari tashkil etgan.

Xorazmdagi o'zbek dostonchilik san'ati boshqa maktablarga mansub baxshilar uslubidan tubdan farq qiladi. Bu erda badihago'ylik asosiy rol' o'ynamaydi, matn tom ma'noda variant bermaydi, balki musiqa etakchilik qiladi. Ko'pchilik hollarda doston ijrochilarining qo'llarida yozma matn ham bo'ladi. Shu bilan birga yakka ijrochilik qatorida jamoa bo'lib ijro etish ham keng tarqalgan. Bunda 3-5 kishidan iborat ijrochilar guruhi tuziladi. Dostonni ustoz torda boshlaydi, qolganlari unga g'ijjak va bolomonda jo'r bo'ladir. Naqoratni esa hamma birligida ijro etadi. Xorazm baxshilarining kuylari ko'p va xilma-xil. Dostondagi har bir qo'shiq alohida kuya ijro etiladi. Dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadilar. Xorazm dostonchiligi repertuar tizimi jihatidan ham o'ziga xos bo'lib, asosan «Oshiq G'arib va Shohanam», «G'o'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlar kuylangan. Bu erda «Algomish» dostoni juda kam kuylanadi. Xorazm baxshilarini kuylaydigan ishqiy-romanik dostonlarining aksariyati O'zbekistonning boshqa hududlarida kuylanmaydi.

Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analarini o'rganish XX asrning 50-60 yillariga to'g'ri keladi. Bu matabni o'rganishda dotsent Tojiboy G'oziboev, professorlar: Malik Murodov, Odiljon Nosirov, o'rta maktab adabiyot o'qituvchilari: Umarjon Sarimsoqov, Otamirza XolMirzayevlar o'z hissalarini qo'shganlar. Shuningdek, bu xayrli ishlarda Robiddin Ishoqov, Mahmudjon Ma'murov kabi shoir va jurnalistlar faol qatnashganlar.

Namangan folklori namunalarini o'rta maktablarda o'rganish sohasida tadqiqot ishlari olib borgan adabiyotshunos olim Abdushukur Sobirov «Adabiyot darslarida mahalliy materiallardan foydalanish» (Folklor namunalarini asosida) mavzuida 1996 yil nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Folklorshunos olimlar tomonidan Namangan viloyati hududida quyidagi dostonchilik markazlari aniqlangan:

- |                       |                     |                             |
|-----------------------|---------------------|-----------------------------|
| <i>1. Ko'libuqon.</i> | <i>2 Sayram.</i>    | <i>3. Araqmo'yin.</i>       |
| <i>4. elatan.</i>     | <i>5. Go'ravon.</i> | <i>6. Yakka ijrochilar.</i> |

Namangandagi eng mashhur dostonchilik markazi - Ko'libuqon qishlog'i bilan bog'liq. Ko'libuqon qishlog'i Chortoq tumanidagi Alixon va Yangiqo'rg'on tumanidagi Bekobod qishloqlari orasida joylashgan. Hozir uning nomi Orzumobod deyiladi. Bu maraz o'z safiga Chortoqning shimoliy hududida, shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanining Bekobod, Birlashgan, G'ovazon, Xo'jasho'rken qishloqlarida yashab ijod etgan baxshilarni birlashtiradi. Ular qatorida Haydar sannovchi Boychaev, Cho'tivoy sannovchi, Suvon sannovchi, Razzoq shoir Qozoqboy o'g'li, Alimqul baxshi Niyozovlarning nomini keltirish mumkin. Mashhur sannovchi Cho'tivoy baxshining o'g'li Mahmud buva Cho'tboevning, otasi aytib bergen ma'lumotlar asosida hikoya qilishicha, bu dostonchilik markaziga Samarqand viloyati Miyonkol qishlog'idan kelgan Begijon baxshi asos solgan. U XIX asrning

70-80 yillarda Ko'lbuqonga keladi va doston kuylashga qiziqqan yoshlarni atrofiga to'plab baxshilik sirlarini o'rgatadi. Haydar sannovchining hikoya qilishicha, Begijon baxshi: «Doimiy ustozim Yo'ldosh, shogirdim Shonazar, o'zim Samarqandning Miyonkolidanman», - deb aytib yurar ekan.

Folklorshunoslarning fikriga ko'ra, Begijon baxshi va uning ustozlari Bulung'ur mактабининг вакилари бо'лганлар. Chunki Yo'ldosh ismi бaxshilar boshqa maktablarda uchramaydi. Ammo Mahmud buva Cho'tboevning ma'lumotiga ko'ra Begijon baxshi Xorazmlik bo'lgan. Uning otasi Cho'tvoy sannovchi shunday deb gapirib yurar ekan.

Begijon baxshi tarbiyasida etishib chiqqan Cho'tivoy va Suvon sannovchilar asrimizning boshlarida juda mashhur bo'lganlar. Keyinchalik ularning shogirdlari Haydar sannovchi va Razzoq shoirlar mashhur dostonchi sifatida nom chiqarishdi. Ularning shogirdlari Alimqul baxshi, Mamasodiq baxshi va boshqalar bo'lishgan. Ko'lbuqon dostonchilik markazida 30 dan ortiq baxshilar yashab ijod etishgan. Bu markaz vakillaridan «Alpomish», «Yusuf va Ahmad», «Avazxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi» kabi 20 dan ortiq dostonlar yozib olingan.

Sayram dostonchilik markazi To'raqo'rg'onga qarashli Sayram qishlog'i va uning atrofida yashab ijod etgan baxshilar nomi bilan bog'liq. Bu markazga Umurzoq baxshi asos solgan. Umurzoq baxshining Abduvohid shoir, Anor baxshi, Ibrohim Otaboev kabi shogirdlari bo'lgan. Sayram dostonchilik markazi vakillari asosan «Alpomish», «Yusuf va Zulayho», «Go'ro'g'lining tug'ilishi» kabi bir necha dostonlarni kuylaganlar.

Ariqmo'yin (Ariqbo'y) dostonchilik markazi. Bu markazga mansub baxshilar Chust tumanidagi Olmos qishloq fuqarolar kengashiga qarashli Ariqmo'yin qishlog'ida va uning atrofida yashagan baxshilardir. Bu markazga Ariqmo'yin qishlog'ida yashagan Arslon baxshi Murodov asos solgan. Uning bir necha shogirdlari bo'lib, shulardan biri Mamadrayim baxshi Boltaboev juda mashhur bo'lgan. U asli Kosonsoy tumanining Qorasuv qishlog'ida yashagan, keyin Arslon shoirdan baxshilik sirlarini o'rganadi. Bu baxshilar repertuarida ham «Alpomish», «Qunduz va Yulduz», «Avazxon» singari o'nlab dostonlar mavjud.

Elatan dostonchilik markazi asoschisi Usmon baxshi Mamatqul o'g'li. Usmon baxshi elatan qishlog'ida yashab ijod etgan. U XX asrning 30-40 - yillarda el orasida shuhrat qozongan. Katta Farg'ona kanali qurilishida doston va termalar aytib mashhur bo'lgan. Undan yozib olingan dostonlar alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutning folklor sektorida saqlanadi.

Go'ravon dostonchilik markaziga - Namangan viloyati Uchqo'rg'on va Norin tumanlarida yashagan baxshilar bilan birga Andijon viloyati Baliqchi tumanida yashab ijod qilgan shoirlar ham kiradi. Bu markazning yirik vakili Husan baxshi Rajab baxshi o'g'li. Bu hududda asosan «Alpomish» dostoni kuylangan. Namangan

viloyati hududida biror dostonchilik markaziga mansub bo`limgan yakka ijrochilar ham mavjudligi aniqlangan. Uchqo`rg`onlik adabiyot muallimi Xalq maorifi a`lochisi Jo`ramirza Otaxonov Katta Farg`ona kanali qurilishida Uchqo`rg`onlik «Alpomish ova» (ova so`zi shevada amaki ma`nosini anglatadi) nomi bilan mashhur bo`lgan shoir o`tganligini xabar beradi.

Yangiqo`rg`on tumanining Bekobod, Birlashgan, Uychi tumanining Yorqo`rg`on, Namangan tumanining Toshbulog`ida faqat «Yozi bilan Zebo» dostonini kuylaydigan yakka ijrochilar ham bo`lgan. Bular qatoriga Hojiakbar Ko`chimov va uychilik Dehqonboy Bahromovlarni kiritish mumkin. «Yozi bilan Zebo» dostoni asosan yoz paytida bug`doy o`rimi mavsumida kuylangan. Chortoq tumanining Saroy qishlog`ida yashovchi Asatulla O`rmonov, Kosonsoylik To`lanboy Hoshimovlar asosan «Oshiq G`arib va Shohsanam» dostonini kuylaganlar. To`lanboy Hoshimov asli Qo`qimboydan. U dostonchilikni yakka ijrochilardan o`rgangan. Uning yana bir ustozi Mallaboy shoir. U «Go`ro`g`li» dostonlarini kuylagan. Asatulla O`rmonov juda ko`p xalq ertaklari va qo`schiqlarini yod biladi.

Namanganlik mashhur baxshilardan biri Razzoq shoirdir Qozoqboy o`g`lidir. 1998 yilda uning 100 yilligi Namanganda keng nishonlandi. U 1898 yil 25 mayda Chortoqning Oraliq qishlog`ida tug`ilgan. Razzoq shoir yoshligida Cho`tiboy baxshi va amakisiga shogird tushgan. Uning ta`kidlashicha, amakisi 50ga yaqin xalq dostonlarini yod olgan. Razzoq shoirdan «Alpomish» va «Go`ro`g`li» turkumidagi 20ga yaqin dostonlar yozib olingen. Shoir qo`shti Qirg`izistonda ham bo`lib, hatto «Manas» episidan parchalarni kuylagan. Razzoq Qozoqboy o`g`lidan juda ko`p: «Abduvali», «Yorginam», «Temirxon» singari dostonlar yozib olingen. U axloq va odob mavzulariga oid «Kunlarim», «Ayrildim», «Toshkentim», «Terimchi qizlar», «Pishqo`rg`onim», Navoiyga bag`ishlab «Buyuk Alisher» singari termalarni kuylagan. Razzoq shoir 1983 yil 85 yoshida vafot etgan.

Haydar sannovchi Boychaev 1890 yil Ko`lbuqon qishlog`ida tug`ilgan. U 14-15 yoshidan boshlab doston kuylashni o`rgangan. Haydar shoir keyinroq qo`shti G`avazon qishlog`ida yashab ijod qilgan. Haydar sannovchidan 20 ga yaqin dostonlar yozib olingen. Shuningdek, turkum dostonlardan «Alpomish» dostoni yozib olingen.

Haydar shoirdan o`nlab ertaklar ham yozib olingen. Bulardan «Ilonpari», «Oqbo`ri», «Sakparast», «Echkining o`ch olishi» kabi ertaklar «Gulpari» (Namangan ertaklari) to`plamiga kiritilgan. Shoirdan «Do`mbiram», «Dangasa», «Yosh o`g`il-qizlarga», «Mehnat bilan» kabi zamonaviy termalar yozib olingen.

Shoirning 70 yillik yubileyi Chortoq va Yangiqo`rg`on tumanida katta to`y qilib nishonlandi. U 1954 yil xalq ijrochilari konkursida ishtirok etadi. Shoir 1966 yil G`avozonda vafot etadi. Haydar sannovchingin kampiri ham dostonlardan parchalar kuylaganligini keksalar ko`p eslashadi.

Alimqul baxshi Niyozov 1912 yilda Ko'lbuqonda tug'ilgan. U Haydar sannovchining jiyani va shogirdi bo'lgan. Uning o'ziga xos tomoni bir necha yillar Uchqo'rg' onda yashab ijod etgan va doston kuylagan. Umrining oxirgi yillarda Yangiqo'rg'onning Navkent qishlog'ida yashadi. Undan asosan «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlar yozib olingen. Alimqul baxshi, adabiyotshunos Otamirza XolMirzayevning hikoya qilishicha, doston kuylayotgan paytida ehtirosga berilib syujetga kirishib ketar ekan. Xulosa qilib aytganda, dostonlar o'zbek folklorining eng go'zal namunalari sifatida juda katta tarbiyaviy, tarixiy, estetik adabiy qimmatga ega bo'lib, yosh avlodni ma'naviy jihatdan etuk va barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Nazorat savollari:*

1. Doston atamasining ma'nosi, janr xususiyatlari nima?
2. Doston kuylovchilar kimlar?
3. Dostonlar qanday tasnif qilinadi?
4. Doston kuylash tartibi qanday?
5. Dostonlarning badiiy xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
6. Dostonchilik maktabi nima?
7. Samarqanddagi qanday dostonchilik maktablarini bilasiz?
8. Sherobodlik mashhur baxshilar kimlar?
9. Xorazm dostonchilik an'analarining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Namanganlik doston ijrochilaridan qanday dostonlar yozib olingen?

**Xalq tomosha san'ati**

*reja:*

1. "Xalq tomosha san'ati" tushunchasi va uning mazmun mohiyati
2. Raqs san'ati
3. Turfa o'yinlar
4. O'zbek qiziqchilik san'ati
5. Ot o'yin
6. O'zbek askiya san'ati
7. Qarsak o'yin

Uzoq yillar davomida folklorshunosligimiz katta va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, ijtimoiy fanlar qatoridan munosib o'rin egalladi. Uning rivojlanish yo'li tekis, sip-silliq bo'limgan, albatta. Folklorshunoslik xalq ijodini ideallashtiruvchi yoki, aksincha, mutlaqo inkor etuvchi, Alpomish dostoni, Shashmaqom muzikasi singari og'zaki ijod namunalarini yozib olishda, nashr ettirishda va ilmiy tadqiqot ishlarida maqtansa arzigulik yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ammo rostini aytganda, o'zbek folklorshunosligi ko'p vaqtgacha bir tomonlama (adabiyotshunoslik va etnografiya bir bo'lagi sifatida) rivojlanib keldi. Bu holga, asosan, "folklor" terminini noto'g'ri tushunish sabab bo'ldi.

Mana yuz yildirki, "folklor nima?" degan savol atrofida qizg'in bahs boradi. Rus folklorshunoslari masalani xiyla oydinlashtirgan bo'lsalar-da, bahslar hamon davom etib kelmoqda. Yanglishuvlar aksariyat "folklor" deb ataladigan voqyelikni turlicha tushunishdan kelib chiqadi. Ilgari folklor tushunchasiga qadimgi zamonalarning urf-odatlari, maqollari va shu kabilar kiritilgan. Keyingi davrlarda folklor ob'ektini, tushuncha doirasini belgilashda bir-biriga zid ikki tendensiya paydo bo'ldi: biri butun xalq madaniyatini folklor deb qarab, tushuncha chegarasini nihoyatda kengaytirib yubordi, ikkinchisi folklor obektini faqat badiiy so'zga oid asarlar bilangina cheklab, tushuncha doirasini nihoyatda toraytirib qo'ydi. Birinchi tendensiya folkloini etnografiya bilan qorishtirib yuborsa, ikkinchisi uni faqat adabiyotshunoslik pozitsiyasidan turib talqin qiladi. Ikkala tendensiya ham to'g'ri emas, albatta. So'nggi yillarda folkloini "xalq ijodi", "xalq og'zaki ijodi", "xalq san'ati" deb ta'riflash boshlandi. Shulardan, bizningcha, "xalq san'ati" tushunchasi folklor mohiyatini to'g'riroq ifoda qiladi. Ammo shunda ham folklor butun xalq san'ati emas (masalan, xalq amaliy-dekorativ san'ati bunga kirmaydi), balki folklorshunos V.ye.Gusev ta'rifi bilan aytganda, xalq san'atining borliqni kollektiv xalq ijodining so'z-musiqiy -xoreografik va dramatik formalarida badiiy aks ettiruvchi qismidir. Boshqacha qilib aytganda, folklorshunoslik fan sifatida xalqning badiiy so'z ijodigina (maqol, latifa, ertak, doston, afsona, topishmoq kabi) emas, balki muzika ijodi (qo'shiq, kuy, yalla, ashula, yor-yor, alla, xalq cholg'ulari va xakozo) bilan xalq tomosha san'ati (xalq teatri, raqsi, sirk singari) ni ham o'rganishi lozim.

O'zbek folklorshunosligida ham bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch asosiy obekt bo'yicha ish olib boruvchi filologik, musiqiy va "sahna" (teatr) yo'nalishlari qaror topdi. Bu yo'nalishlarning xizmati, saviyasi, obro'-etibori bir xil emas. Shundan H.T.Zarifov asos solgan filologik folklorshunoslik o'nlab yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'lib, fanning yig'ish, o'rganish va nashr etishdan iborat yetakchi sohalarida ko'pgina muhim ishlarni amalga oshirdi, katta ilmiy tajriba orttirdi va maktab sifatida shakllandi. V.M. Belyaev, V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov,

ye.ye.Romanovskaya, Yu.Rajabiy, Il.Akbarov, F.M.Karomatov, K.A.Ahmedova kabi muzikashunoslarning xalq muzikasi bo'yicha izchil olib borgan ishlari tufayli musiqiy folklorshunoslik ham shakillandi. Og'zaki an'anadagi professional teatr, marosim, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan "sahna" tomoshalari, xalq raqlari va sirk o'yinlari bilan shug'ullanish u qadar izchil bo'lmadi. Lekin so'nggi yigirma yil ichida teatrshunoslardan olib borilgan ekspeditsiya va ilmiy-tadqiqot ishlari folklorshunoslik hamda teatrshunoslik bazasida o'ziga xos "sahna" folklorshunosligining maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

Avvalo "xalq tomosha san'ati" tushunchasi xaqida. O'tmishda xalq san'atkorlari navro'z bayrami, hosil shodiyonasi, xalq marosimlari, bayramlari va to'ylari munosabati bilan tomosha bergenlar. Ming-minglab odam to'planadigan sayilgohlar va to'yxonalarda birga yoki yonma-yon namoyish qilinadigan masxaraboz hamda qiziqchilarining chiqishlari, qo'g'irchoq o'yin, dorbozlik, uloq, poyga, kurash, ko'z bog'lash, nayrangbozlik, muallaq, raqs, mavrigixonlik, ayiq, echki, fil, maymun, ilon o'ynatish, qo'chqor, xo'roz, bedana urishtirish va hokazolar shular jumlasidandir. Ular aslida an'anaviy teatr, xalq raqsi, sirk san'ati va hatto sportga oid hamda har qaysisi o'zicha mustaqil bo'lsa-da, tomosha formasi (tomoshaviyligi va qiziqrilik), ommaviy tomoshabinga mo'ljallanganligi bilan yaxlit bir badiiy organizmni hosil qilib turgan. Shu sababli ularni "xalq tomosha san'ati" deb atasa bo'ladi.

Albatta, xalq san'atkorlari o'z xaq-xuquqi uchun kurashib keldilar. Ilg'or fikrli olimu fuzalolar, shoirlar, allomalar ularning yoniga kirib, qo'llaridan kelganicha ularni nohaq tuhmatlardan, ta'na toshlaridan, ta'qib va tazyiqdan asrashga urildilar, san'atga, xalq tomoshalariga nisbatan demokratik qarashlarni targ'ib etdilar. Ammo xalq san'tkori ta'qib va tazyiqdan, ta'na-dashnomidan baribir qutulmadi, g'aribu benavolikda kum kechirib keldi. Xalq san'atini tashkil etish, rivojlantirish, unga rahbarlik qilish hyech kimni qiziqtirmadi.

O'zbek xalqining tomosha san'atini o'rganishda uch davr ko'zga tashlanadi. Birinchi-yozuvchilik va san'atkorlik bilan bog'liq bo'lgan amaliy davr. Bu davrda X.X.Niyoziy, undan so'ng A.Qodiriy, G'.Zafariy, K.Yashin, S.Abdulla va boshqalar ijtimoiy hayotni to'g'ri aks ettiruvchi, o'quvchi va tomoshabinga manzur bo'la oladigan badiiy asarlar yaratishga bel bog'lar ekanlar, xalq hayoti, urf-odatlar, og'zaki ijodiyotini o'rgandilar, shu bilan bog'liq holda tomosha san'atining ham birinchi tadqiqotchisi sifatida namoyon bo'ldilar. Yozuvchilarining tomosha san'atiga oid kuzatishlari, bilimlari, yozib olgan namunalari aksar asarlari mazmuni va formasiga singdirib yuborilgan. Xamzaning "Maysaraning ishi" komediysi bilan A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanini bunga yorqin misol bo'la oladi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi va san'atkorlar o'zbek xalqining tomosha san'ati xaqidagi fikr-mulohalarini maqola tarzida ham bayon etishga uringanlar. Bu o'rinda G'.Zafariyning "O'zbek xalq teatrusi", A.Qodiriyning "Kulgu xaqida" (1926 y.)

nomli maqolalarini tilga olish kerak. Zero, ularda ilk marotaba tomosha san'ati, uning yetakchi turi bo'lmish masxaraboz va qiziqchilar teatri to'g'risida ob'ektiv fikr yuritiladi. Xususan A.Qodiriyning mulohazalari e'tiborli, chunki u kulgi, ya'ni satira va humor bilan bog'liq bo'lgan san'at ko'rinishlarini ijtimoiy hayot, sinfiylik nuqtai nazaridan talqin etishga intiladi.

Tomosha san'atini o'rganishdagi ikkinchi davr etnografik-folkloristik davrdir. Shu to'g'rida so'z borarkan, A.K.Borovkovning "Dorboz" M.F.Gavrilovning "O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri" nomli risolalari, A.L.Troitskayaning "O'zbekistonda xalq teatri", ye.B.Baxtaning "Katta o'yin" nomli yirik qo'lyozmatadqiqotlarini ta'kidlamasdan o'tib bo'lmaydi. Mazkur ishlarning fazilati shundaki, ularda tomosha san'atining rasm-rusumlari bilan bog'liq holda ta'riflanadi. Shu bilan bir qatorda ularda har bir san'atga xos spetsifik xususiyatlarni ocha olmaslik, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni ko'ra bilmaslik va nihoyat, shu soha san'atkorlarining mahoratini tahlil qilishda ojizlik ko'rsatish kabi kamchiliklar uchraydi. Etnografik-folkloristik ishlarning ayrimlarida esa tomosha san'ati turining o'tmishdagi hayotini o'zgarmas, sobit, bir hodisa sifatida talqin etish maylini ko'rish mumkin. Shuningdek, ba'zan u yoki bu san'at turi kelib chiqishiga ko'ra Eronga tobe qilib ko'rsatilib, uning mustaqilligi shubha ostiga olinadi. Bunga A.L.Troitskayaning xalq teatri va sirkiga bag'ishlangan ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Uchinchi davr san'atshunoslar davridir. Tomosha san'atini o'rganishda etnograflar to'plagan xazinaga tayangan va uni qo'lidan kelganicha boyitishga intilgan san'atshunoslar . Hamza nomidagi San'atshunoslik institutini O'zbekiston Fanlar akademiyasi qaramog'iga olish bilan boshlandi. Bu yillar ichida tomosha san'ati sohalarini mutaxassis sifatida chuqur biladigan teatrshunos, san'atshunos, muzikashunos, raqsshunos olimlar yetishib chiqdi. Ular yaratgan qator ilmiy asarlar tomosha san'ati tarixini ilmiy metodologiya asosida o'rganishda muhim ahamiyat kasb etish bilan bir qatorda respublikamizda san'atshunoslik fanlarining shakllanishi va rivojlanishiga munosib hissa qo'shdi. Shu jihatdan M.Rahmonovning "O'zbek teatri", "O'zbek teatri tarixi", M.X.Qodirovning "O'zbek teatri an'analari", "Xalq qo'g'irchoq teatri", T.X.Obidovning "Dorbozlar qissasi", "O'zbek sirk ustalari", T.Tursunovning "Karim qiziq", L.A.Avdeevanining "O'zbekistonda raqs san'ati", "Tamaraxonim", "Mukarama Turg'unboeva", R.Karimovaning "Farg'ona raqsi", "Xorazm raqsi", "Buxoro raqsi" kabi qator monografiya, broshyura, ocherk va qo'llanmalarini eslab o'tish o'rinnlidir.

#### *Raqs san'ati*

Raqs san'at turi bo'lib, unda badiiy obraz tana harakatlari va holatlari vositasida yaratiladi. Raqs insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan emotsiyonal taassurotlari bilan bog'liq holda maydonga kelgan. Xalqlarning istedodli vakillari

tomonidan yaratilgan raqlar asrlar davomida murakkablashib, badiiy umumlashib, keng tarqalib barqaror shakllarga ega bo'lib boradi.

Raqs san'ati insонning ma'naviy va ruhiy olamini yoritishga qaratilgan, u tomoshabinlarga kuchli g'oyaviy-emotsional ta'sir ko'rsatadi. Garmonik harakat, holatlar, plastik ifodaviylik, yuz imo-ishoralari, ritm va temp, makonda shakl yaratish hamda kompozitsiya raqs san'atining asosiy vositalaridir. Kostyum raqs obrazlariga aniqlik bag'ishlaydi.

Har bir xalqning o'z raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari shakllanadi. Avvaliga u xalq raqsi sifatida namoyon bo'ladi. San'atning qadimiy turlaridan biri bo'lib kelgan xalq raqsi xalq hayotining tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlari ta'siri ostida tarkib topib, rivojlanib kelgan. Shu sababli unda xalq an'analari, psixologiyasi, badiiy idrok xususiyati, davr va muhit ta'siri o'z tamg'asini qoldiradi. Xalq raqsi san'atning ko'pgina turlari, ayniqsa, muzika bilan uzviy bog'langan, shuningdek, xalq marosimlari va bayramlarining tarkibiy qismi bo'lib kelgan.

Qator Sharq mamlakatlarda musiqiy-raqsiy va pantomimik tomoshalar qadimdan keng tarqalgan.

Xalq marosimlari bilan bog'liq holda xorovodlar va marosim o'yinlari paydo bo'ladi. Xorovodlar asta-sekin marosim qobig'idan xalos bo'lib, xalq turmushining ayrim tomonlarini aks ettira boshlaydi. Xalq raqsida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan mavzular, xalqlarning bosqinchilarga qarshi kurashi mavzui hamda lirik mavzular o'z aksini topadi. Kollektiv ijodi bo'lmish xalq raqsi ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga o'tib, yoyilib va takomil topib boradi. Ularda oyoq, qo'l, bosh va tana harakatlari umumiy ritmga bo'ysunib, bir-biri bilan uzviy bog'lanadi. Ammo G'arbiy yevropada oyoq harakatlari muhim bo'lib, qo'l va tana harakatlari ularga jo'r bo'ladi. Sharqda esa qo'l va tana harakatlari plastik ifodalilikning asosiy vositalaridir. Har qanday xalq raqsida ritm muhimdir. Ritm muzikada o'z ifodasini topadi va tepki, qarsak, zang yordamida ijrochilar tomonidan ham qayd etib boriladi. Ba'zan ijrochi o'ziga-o'zi jo'r bo'ladi. Ayrim o'yinlar ro'mol, piyola, taqsimcha, qadah, shamdon, shlyapa kabi buyumlar bilan o'ynaladi.

### O'zbek raqsi

O'zbek raqsi Sharqning madaniyat tarixi ming yillar bilan o'lchanadigan Xindiston, Eron, Yaponiya singari mamlakatlarda ravnaq va shuhrat topib kelgan raqs san'atidan sira qolishmaydigan darajada yaxshi rivojlangan barkamol, kattakon bir san'atdir.

O'zbek raqsining qadimiyligini O'zbekiston territoriyasidagi qoyalardan topilgan tasvirlar va arxeologik topilmalar asosida aniq isbot qilib berish mumkin. Toshlarga chizilgan xilma-xil ibtidoiy suratlar orasida tosh va bronza davriga taalluqli niqob

kiygan raqqos hamda bir guruh o'yinchilarning tasvirini ko'rish mumkin. Hamza nomidagi San'atshunoslik institutining professori G.A.Pugachenkova rahbarligidagi ekspeditsiya qatnashchilari topgan bebaho san'at asarlari orasida eramizdan avvalgi III asrdan eramizning VIII asrgacha bo'lган davrga oid san'atkorlar haykalchalari bo'lib, ular ichida o'yinchilar ham uchraydi. Shu nuqtai nazardan xususan S.P.Tolstov ekspeditsiyasi topgan Xorazmdagi Qo'y qirilgan qal'a (eramizgacha IV asrdan eramizning IV asrgacha bo'lган davrga oid.) topilmalari e'tiborlidir. Ushbu qadimiy qo'rg'onning arxeologlar "O'ynayotgan niqoblilar zali" deb atagan manzilidagi niqob kiyib o'yinga tushayotgan erkak va ayollarning ommaviy raqsi aks etgan tasvirlar ajdodlarimizning yuksak raqs san'atidan govohlik beradi. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent raqqosa va raqqosalarining shuhrati V asrdayoq butun Sharqqa yoyilganligi, o'zbek raqs ustalarining Sharq xalqlari raqlaridan ta'sirlanish bilan bir qatorda ularga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi to'g'risida aniq dalillar mavjud. O'zbek raqs san'ati xalq raqsi va professional raqs sifatida asrlar davomida rivojlanib kelgan. Professional raqs dastlab marosimlar bilan bog'liq bo'lган, taxminan IV asrdan boshlab marosimlardan chiqib, inson faoliyati va ruhiy olamini aks ettiruvchi san'at sifatida ko'zga tashlandi. Arablar va mo'g'ullar istilosini raqs san'ati rivojiga ham keskin zarba berdi. XIV asrning ikkinchi yarmidan professional raqs yana o'z qaddini tiklay boshlaydi. Xususan Navoiy zamonda Xuroson va Mavorounnaxrda raqs taraqqiy topdi. Professional raqs bilan bir qatorda xalq o'yinlari saqlanib, rivojlanib bordi.

Xullas, raqs san'atimiz mehnat, marosim va etiqod bilan bog'liq badan o'yinlaridan "Katta o'yin", "Maqom o'yin", "Qarsak o'yin" kabi monumental raqs turkumlarigacha bo'lган katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, xalqimizning avlod-ajdodlari ma'naviy-madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Hukmdorlar, bosqinchilar mehnat ahli orasidan yetishib chiqqan iste'dod egalari yaratgan raqs san'atini o'z maskululari tomon burishga, undan o'z manfaatlari, ayshu ishratlari yo'lida foydalanishga, raqqos va raqqosalarni kansitish, tahqirlash, insoniy huquqlarini poymol qilishga tinmay urindilar. Ruhoniylar esa raqs san'atini shakkoklik deb e'lon qildilar. Ammo xalq raqsi o'z egasi-mehnatkash ommasiga xizmat qilishda davom etdi, uning ilg'or an'analarini avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yashadi va bizgacha yetib keldi.

O'zbekistonda XIX asr va XX asr boshida mehnat hamda marosim bilan bog'liq bo'lган, shuningdek, tog'liklar orasida rasm bo'lib kelgan qadimiy o'yinlardan tashqari xalq-professional raqs san'ati ham mavjud bo'lib, unda ko'pgina xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qilib turuvchi Farg'ona, Buxoro, Xorazm uslub-maktablari qaror topdi.

Har bir o'zbek raqs maktabining o'zi bir olam. Ularga sodda va lo'nda qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: Farg'ona raqlariga goh sho'x va tetik, goh mayin

oquvchi harakat, gavdani bir oz oldinga egib erkin, nafis tutish, xilma-xil ma'no kashf etuvchi chirolyi qo'l harakatlari xos bo'lgan. Buxoro o'yinchilar esa odatda tovonni urib-urib, tizzani bukib, ayni chog'da gavdani g'oz tutib, viqor bilan, kift titratib, aniq shaklli, puxta qo'l harakatlari bilan o'ynaganlar. Buxoro raqsida katta doiradagi charxlar muhim o'rin tutgan. Xorazm raqsi uchun esa tizzalarmi sal-pal bukib, kiftlarni tik tutib, butun tanani harakatga keltirib, bilak va barmoqlardan turli-tuman chirolyi shakllar yasab, o'ynoqi, sho'x, otashin o'ynash xarakterlidir. Xorazmda qayroq bilan o'ynash keng rasm bo'lgan. Ammo umuman o'zbek raqlarida obrazlilik, mazmundorlik hal qiluvchi rol o'ynaganki, bu yetakchi xususiyat barcha maktab va uslublarni bir-biriga bog'lab, yagona o'zbek raqsini maydonga keltirgan.

Har biri bir olam, kattakon tarix bo'lmish bu maktablarning vujudga kelishi, kamol topishi, muayyan shakl hamda qonuniyatga ega bo'lishida xalq baletmeysterlari-g'oliblar hamda o'sha zamон zo'ravonlari tomonidan tahqirlangan raqqos va raqqosalarning xizmati beqiyosdir.

Raqs uslub va maktablari bir-biriga ta'sir ko'rsatib, ularning vakillari bir-birlari bilan ijodiy tortishib kelishgan, albatta. Xalq o'yinchilar, xususan, Farg'ona raqqos va raqqosalari ijodiy faoliyatining mazmuni boyib, ahamiyati oshdi. Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi bir qator shaharlarda nisbatan yirik raqs to'plari (ansambllari) tashkil bo'ldi, qaysiki O'rta Osiyodagina emas, undan tashqarida ham o'zbek raqs san'atini munosib namoyish etdi. Jumladan, 1905 yilda shahrixonlik Asqar hoji Haydaraliev rahbarligidagi raqs ansambl Zakavkaze mamlakatlarida uzoq gastrolorda bo'ldi. Ansambl programmasini o'z davrining dongdor raqqosasi Hamdamxonning chiqishlari bezadi. U o'zbek klassik raqlarining butun boyligi va nafosatini yuksak saviyada tarannum etish bilangina cheklanib qolmay, O'zbekistonga bir qator ozarbayjoncha, lezgincha, gruzincha o'yinlar o'rganib qaytdi.

Umuman olganda, o'tmishdag'i o'zbek raqsi ikki katta nahrdan iborat bo'lib, asrlar davomida yashab kelgan: bir nahr-bu xalq orasida iste'molda bo'lib kelgan "o'yin" deb ataluvchi raqlar, ikkinchi nahr-professionallar tomonidan ijro etilib kelingan va ko'pincha turkum xarakteriga ega bo'lgan raqlar.

Shubha yo'qliki, xalq orasidagi o'yinlar xiyla qadimiydir. Professional raqlar ham aslida ana shu xalq san'ati negizida shakllangan va rivojlanib kelgan. Shu sababli, avvalo, xalq o'yinlari xususida so'z yuritamiz.

### Turfa o'yinlar

Xalqimiz orasida qadimdan insonni qurshagan tabiat va muhit bilan, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan turfa o'yinlar rasm bo'lib kelgan.

Mazkur o'yinlarda bedana, kaklik, bulubul, xo'roz, laylak, kaptar, chag'alloq singari qush-parrandalarning; bo'ri, ayiq, qo'chqor, toshbaqa, kalamush, yumronqoziq singari xayvonlarning tovushlari va xatti-harakatlariga taqlid qilinadi. Ularda ko'pincha tomoshabinlarning qarsak chalish bilan hosil qilgan ritmlari

asosida, uncha murakkab bo‘limgan plastik va mimik harakatlar vositasi bilan qush hamda hayvonlarning obrazlari, o‘zaro munosabatlari namoyon bo‘ladi. Ijrochilar bunday o‘yinlarni ko‘rsatishda maxsus grim, niqob va g‘iloflardan foydalanganlar.

Mazkur o‘yinlar orasida mehnatning to‘ng‘ich turlari bilan, ajdodlarimizning totemistik va animistik qarashlari bilan bog‘liq holda maydonga kelgan, ammo davrlar ta’sirida o‘zining dastlabki ma’nosini yo‘qtib, oddiy tomoshaga aylangan o‘yinlar oz emas. Shulardan biri Zarafshon va Qashqadaryoning yuqori rayonlarida tanilgan “Laylak ilonni ovladi” o‘yinidir.

Yig‘indagi yigitlar bir maromda qarsak chalib, quyidagi baytni takrorlab turadilar:

Laylak ilonni ovladi,  
Ovlasayam ololmadi.

O‘yinchi ohang va usulga mos harakat qiladi. U qulochini yozib lapanglatishi, bo‘ynini cho‘zib, silkitib o‘ynashi, qo‘llarini “ko‘zacha” qilib oldinga uzatishi, bir oyog‘ini ko‘tarib, sakrab-sakrab o‘ynashi bilan laylakning shartli badiiy obrazini yaratishga erishadi.

“Laylak ilonni ovladi” o‘yini o‘z rivojida uch davrni bosib o‘tgan deb o‘ylaymiz. Avvaliga u muqaddas qush hisoblangan laylakka bevosita taqlid sifatida maydonga kelgan. Ijrochi niqob va g‘ilof kiyib, laylak qiyofasiga kirar ekan, ma‘bud-totemning ko‘nglini ovlashni o‘ylagan. Keyinroq laylakning ilon ovlashini ko‘rsatishga o‘tilgan, natijada soddagina syujet hosil bo‘lib, o‘yin rituallik qobig‘ldan chiqib, tomoshaga aylangan. Zamonlar o‘tishi bilan natural ifoda va niqob o‘mini pantomimik hamda plastik harakatlar egallagan. “Laylak ilonni ovladi” bosib o‘tgan bu yo‘l, nazarimizda, o‘ziga xos qonuniyat bo‘lib, O‘zbekistonda yaratilgan aksar xalq o‘yinlariga taalluqlidir. Misol sifatida “Yumronqoziq” o‘yinini ko‘rsatish mumkin.

Masxaraboz yuziga qorakuya surtib, qo‘l va oyoqlarini gajak qilgan holda yumronqoziq qiyofasiga kiradi. Tomoshabinlar orasidan kuchli va novcha bir odam chiqib, to‘rt oyoqlab turib yumronqoziqning “ini” bo‘ladi. To‘rt besh tomoshabin bir usulda qarsak chalib (ba‘zida doira ham qo‘shiladi), bayt aytib turadi. Ijrochi-“yumronqoziq” bu ohangga mos turli harakatlar qila boshlaydi. U bukilgan qo‘llarini ko‘zları oldiga keltirib, oyoqlarini justlab sakraydi, ko‘zlarini yaltiratib atrofiga alanglaydi, tumshug‘ini o‘ynatadi, goh iniga kirib, u joydan atrofga mug‘ombirona mo‘ralaydi, goh ini atrofida aylanib qoladi, goh ini ustiga chiqib olib na’ma qiladi, u chinqiradi, to‘satdan tomoshabinlar oldiga sakrab kelib, ularni qo‘rqitadi, yana sakraydi, iniga kiradi, inidan chiqadi va hokazo. Shunday qilib, o‘yinchi dehqonchilikning zararli maxluqi-yumronqoziqning qiyofasi, xatti-harakatini real tavirlaydi. Kishilar mazkur tomoshada konkret zararkunanda obrazinigina emas,

dehqon hosiliga sherik bo'luvchi noinsof va xiyonatkor amaldorlarning majoziy satirik tasvirini ham ko'rganlar.

Farg'ona vodiysida keng yoyilgan "Kichkinajon" o'yini ana shu "Yumronqoziq" kabi raqsiy pantomimalar asosida yuzaga kelgandir. Fikrimizcha o'yinlarning qurilishi va yumronqoziq bilan kichkinajon obrazlarining bir-biriga o'xshashligi tasdiqlaydi. "Kichkinajon" da davradagi odamlar qarsak chalib, sho'x sho'x kuylab turishadi:

Kichkinajon, kichkina,  
Tariqdanam kichkina....

Qarsak usuliga ba'zan doiradastlar ham qo'shiladi. Usta o'yinchilar "Kichkinajon"ni xilma-xil baytlar bilan ijro etadilar. Shu narsa diqqatni jalg'ib etadiki, kichkinajon bo'lib o'rtada o'ynovchi qiziqchi oyoqlarini sal bukkan, qo'llarini gajak, barmoqlarini g'uj qilagan holda goh yuziga anqovlik, qo'rquv, dahshat, shodlik, jahl, quvlik, yirtqichlik kabi turli -tuman ifodalar berib, og'zaki qiyshaytirib, goh cho'zilib, goh qisqarib, tomoshabinlar va baytchining ritmiga, ohangiga mos harakatlar yasaydi, o'ziga xos, takrorlanmas obraz yaratadi. "Kichkinajon" da insoniy xarakterlar namoyon bo'ladi. Kichkinajon obrazi goh ijobiy, goh salbiy talqin qilingan. Bu ijrochining o'z oldiga qanday vazifa qo'yanligiga bog'liq. Qo'qonlik qiziqlardan Komilqori Quljonov, Aka Buxor Zokirov va Xalil qiziq Abdullaevlar kichkinajonini tomosha qilarkanmiz, birini yuz xil tovlanib turuvchi makkor, razil, ikkinchisini qo'rqaq, anqov, uchinchisini muloyim va sho'x kishi qiyofasida ko'ramiz.

Xorazm "Lazgi"sining ayrim variantlarida ham "Yumronqoziq" muqallidining harakatlaridan foydalanilgan.

Samarqand va Buxoro oblastlarining ayrim qishloqlarida hozirgacha ko'rsatib kelinayotgan "Kadi badbaxt" o'yini ham qadimiyligi tomoshalardan hisoblanadi. U g'ayri tabiiy kuchlarga e'tiqod qilishdek juda ko'hna noilmay tasavvurlar bilan bog'liq holda maydonga kelgan va zamonlar o'tishi bilan oddiy o'yinga aylangan.

Biz ko'p martalab ko'rgan "Kadi badbaxt" o'yinida ijrochi yuziga niqob kiyib chiqadi. Niqob odatda shunday yasaladi: qovoq idish ikkiga bo'linib, bir pallasi olinadi va undan keksa kishining ajabtovr yuzi hosil qilinadi. Mana shunday niqobni kiyib olgan ijrochilar raqs harakatlari bilan chol kishining xarakterini berishga intiladilar: biri cholni darmonsiz qilib ko'rsatsa, biri sho'x, o'yin-kulgi shaydosi qilib ko'rsatadi. Bir masxarabozning o'yinida chol badqovoq, odam yoqtirmas bo'lsa, boshqa birining talqinida u yoqimtoy va nuroniyligi. Ba'zan o'yinda ikki kishi ishtirok etib, ular o'rtasida soddagina syujet paydo bo'ladi.

Bir qator xalq o'yinlari borki, ularda yoqimli, jarangli tovush chiqaruvchi qayroq, qoshiq, zangila-qo'ng'iroq kabi o'ziga xos cholg'ulardan ohangdor ritmlar hosil qilish va shu bilan raqlarning jozibali chiqishiga erishish uchun foydalanilgan.

Biroq “Tayoq o‘yin» bilan “Pichoq o‘yin” ulardan ajralib turadi. Chunki bulardagi tayoq va pichoqlar ritm hosil qilish uchungina emas, balki, asosan, raqs mazmunini ochish, ma‘lum badiiy obraz yaratish uchun kerakdir.

Shu kungacha o‘zbek xalqida jangovar raqlar yo‘q, bo‘lsa ham saqlanmagan degan fikr hukm surib kelardi. Bundan buyon xalqimiz ajoyib jangovar raqlarga ega bo‘lgan deb baralla aytishimiz mumkin. Fikrimizni bazga ma‘lum bo‘lgan “Pichoq o‘yin” yaqqol isbotlab bera oladi. “Pichoq o‘yin” chaqqonlik, jasorat va botirlikni namoyish etuvchi chinakam jangovar raqsdir. Shamshir, nayza, tayoq bilan o‘ynaladigan o‘yinlar ham ana shunday jangovar raqlardan hisoblanadi.

Raqsimizning dovrug‘i jahonga ketdi. O‘zbekiston raqs san‘atining bundan keyin ham yaxshi rivojlanishi uchun Farg‘ona, Buxoro, Xorazm raqlarining butun uslub go‘zalligini saqlagan holda, ularni yangi mazmunlar bilan boyitib rivojlantirish, yigitlar raqsini tiklab, unga keng yo‘l ochib berish, an‘analar asosida qayroq va zang, shuningdek, qoshiq, tayoq, piyola hamda boshqa buyumlar bilan o‘ynaladigan, mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi, omma kayfiyatini ifoda etuvchi chinakam zamnaviy raqlar kashf etish va keng yoyish zarur. Eng muhimi, biz ta‘rifini qilgan va hali ko‘pchiligi aniqlanmagan chinakam xalq o‘yinlarini negizida o‘zbek xoreografiyasi madaniyatini yanada boyitishimiz kerak.

#### Qiziqchilik

Kulgi kirgan har bir xonadondan gam – andux, urush – janjal, giybat – buxton, dardu – alm kochadi. Chexralar yorishib, xushmuomalalik va axillik kuchayadi. Xatto, ba‘zi xasta kishilarning ogriklari kolib, shifo topganday baladilar. Xonadonga kut – baraka, fayz kiradi.

Azaldan Fargona vodiysi kulgiga, kuy – qo‘shiqka boy bo‘lgan. Ming yillardan beri bu vodiyya askiyabozlik va qo‘shiqchilik davom etib keladi. O‘zbek utmishdagi askiyalar va kizikchiliklar yozib olinmaganligi tufayli bizgacha yetib kelmagan. Xatto yakin utmishdagilarni ham eslay olmaymiz. Bular xalq og‘zaki ijodiyoti bo‘lganligidan ogizdan – ogizga kuchgan, kolganlari esa kolib ketavergan.

Bugungi kunda kishilar uchun kulgi xuddi non tuzdek zarur bo‘lib kolmokda. Chunki hammaga ma‘lum, xozir bozor iqtisodiyotiga utayotgan bir pallada hamma narsaning narx – navosi balandligi sababli odamlarimiz ancha asabiylashgan. Shuning uchun kulgi xozirda judayam zarur. Zozirda go‘zal Fargona vodiysisida ham kup kizikchilarimiz xalqimizga sidkidildan tanish bo‘lgan ajoyib mashxur kizikchi A. Akbarov, Yusufjon kizik Shakarjonov, Oxunjon kizik Zuzurjonov kizikchilik matabining xogirgi kundagi davomchilaridan biri. Margilonlik kizikchi Xotamjon Teshaboev, Rishtonlik kizikchi deb nom olgan kizikchimiz Abduraxmon Siddikovlar xozirda xalqni shodligiga shodlik kushishmokda. Bulardan oldin ham ancha mashxur kizikchilarimiz utgan. Bulardan hammamiz uchun juda yaxshi tanish bo‘lgan Yusufjon kizik Shakarjonov, Oxunjon kizik xuzurjonov, Muxiddin kizik Darveshov

**kabilar mashxur bo'lgan.**

Yusufjon kizikning bolaligi juda murakab davrda kechadi. Xonlikda tugilib usayotgan shaxri Margilonda siyosiy voqealar, jangu jadallar, o'zgarishlar kup katori uning murgak kalbida ham uz ildizini topdi. U yoshligidan ham ziyrak, har bir narsaga kizikuvchan, odamoxun, shux bo'lib usadi. Ayniqsa, tomoshaga uch bo'lgan. Duvrugi butun xonlikka taralgan sozanda ashulachi va xofizlar, askiyachi va kizikchilar bilan axolining bagri butun, ruxi ko'tarilib, kiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tadi. U childirmani chertib kurar, nigoralarining zilbomlariga maxliyo bular, besuyakka taklik kilib dumbalok oshar, saatlab dor uyunlarini tomosha kilar edi. Uning otasi ham gapga chechan, suxbati shirin xunarmandlardan bo'lgan ekan. Shu sababdan xalq orasida Shokirjon ismi Shakarjon bo'lib ketgan, deyishadi. Bobosi Rizoni ham yaxshi xofiz bo'lgan deyishadi. Uning bolaligi "Shum" liklari ogizdan – ogizga utib shu kungacha yetib kelgan. Aytishlaricha, u bir kun maxalla machitidagi mактабга kuchikchasini kuyniga tикиб оlib boribdi. Bolalarning "Alif, be, te, se, " siga jur bo'lib kuchigi xurib, pinakka ketgan domlaning xayolini kochiribdi. Axiyri, yakin o'rtada yurgan mushukvachchaning miyovlashini eshitib, Yusufjonning kuynidagi kuchik mushukvachchani kuylab ketibdi.

Jaxongashta kizikchilarning mashakkatlari, lekin uz mazmuni va muddaosi bilan olivjanob, sarguzashtlarga boy bo'lgan xayoti Yusufjon kizikning tamomila o'ziga rom kilib kuygan. Usha yillar ichida Yusufjon xajv va kulgu san'atining repertuarini, ijrochilik maxorati va saxnalashtirish koidalarini mukammal egallay boradi. Kizikchilikning kichik, yordamchi rollardan boshlaydi, "karfarmon" (rejissyor) darajasiga ko'tariladi. Shu bilan birga u milliy raskni barcha sir va qonuniyatlarini, tur va usullarini yaxshi uzlashtirib yetuk raqqos bo'lib yetishadi. Zotan, an'anaviy teatrda musiqa, raks, tsirk shu kadar chatishib ketgan ediki, ularni bir – biridan ajratib bulmas edi. Yusufjon kizik ham "Katta uyin", "Xona bazm" deb ataluvchchi Fargona raks turkumlarini puxta uzlashtirib, bir necha yil uynab xalqni o'ziga maftun etgan. Rakslarning fakat harakatlarini bilish bilan cheklanmay, ularni usullarini ham uzlashtirib yuborgani.

U ayniqsa, badiiy suzga, suz ijrochiligi san'atiga kizikan. Bu soxadagi barcha ijodkorlarning san'ati maxorati repertuarini puxta egallahsga harakat kiladi.

Odamlarni, yahni uz muxlislarini xaqiqiy kulgi bilan kuvnatar va kuldirardi. Yusufjon kizik baxtli, piru badavlat san'atkor edi. Chunki, u 90 yil umr kurib, shundan 83 yilini elu yurtga, san'atga bagishladi. Uzining mana shu barakali umrida u uch xil tuzumni ko'rgan, yahni xonlik davri, mustamlaka davri va sovet davrini ko'rgan, katta xayot va ijod yulini bosib utgan san'atkordir. Yusufjon kizik kulami ken, noyob san'atkor edi. Sahdi Maxsum Yusufjon kizikka shunday yullanma bergen ekan: "Xunaringiz bor, riskingiz albatta topilur. Xayotga yul ko'rsatdik, uz san'atingiz bilan xalqni xursand kiling" – deb aytgan ekan.

Xalqimizning boy, rang-barang va sertarmoq ijodiyotida uzoq tarixga, o‘z an‘analari va xususiyatlariiga ega bo‘lgan ajoyib bir tur bor. U ham bo‘lsa masxarabozlar, qiziqchilar va qo‘g‘irchoqbozlar san‘ati, ya‘ni an‘anaviy teatrdir.

Masxarabozlik bilan qiziqchilikni (bir zamonlar bu tushunchalar “masxara” “muqallid” shaklida ifoda qilingan) nega teatr deymiz? Chunki ularda o‘ziga xos dramaturgiya bor, qahramonlar qiyofasini o‘z qobiliyati, aqli, mijozsi, hissiyoti, tanasi, harakatlari bilan gavdalantiruvchi aktyorlar bor, ularning o‘yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo‘yingki, teatr san‘atining barcha alomatlari muhayyo. Bu teatrning hozirgi zamon teatridan ayirmasi shundaki, uning maxsus binosi va sahnasi yo‘q, xalq aktyorlari o‘z spektakllarini istagan vaqtida, turli sharoitlarda gir atrofi tomoshabinlar bilan qurshalgan o‘ziga xos xalqa – “sahna”da ko‘rsatib ketaverганлар.

Masxarabozlik va qiziqchilik - o‘tkir komediya, muqallid, serzavq hikoya, hajviy qo‘sishq, kulgili o‘yin degani; bu-yomonlarga nisbatan gurzi bo‘lsa, yaxshilarga optimistik kayfiyat, kulgi, g‘ayrat, rohat baxsh etuvchi ajoyib xalq san‘ati. Bu teatr artistining masxaraboz (masxara), qiziqchi (qiziq), taqlidchi (muqallid) deb nom olgani ham bejiz emas. Masxaraboz, qiziqchi va muqallid-hajv va tanqid, hazil va taqlid, qahqaha va xanda ustasi demak. Zotan ularning san‘ati komedik-hajviy yo‘nalishga ega, asosiy quroli satira va yumordir. Ana shu qurol bilan aksar mehnatkash xalq ommasi pozitsiyasida turib zolim, sudxo‘r boylarni, poraxo‘r amaldorlarni masxara va fosh qilgandar. Uning ilmiy adabiyotda “xalq teatri” deb atalishi ana shundan kelib chiqqan.

Ammo masxarabozlik va qiziqchilik – bu xalqning marosimlari, urf-odatlari bilan tutashib ketgan ibtidoiy shakldagi teatr emas, balki og‘zaki an‘anadagi professional teatrdir. Shu bois bu san‘at o‘zbek an‘anaviy teatri deb atagan ma‘qul. Bu aktiv faoliyat ko‘rsatayotgan badiiy havaskorlikning oliy shakli hisoblanmish xalq teatrlari bilan almashtirib yubormaslik uchun ham juda muhimdir.

O‘zbek an‘anaviy teatri tarixi o‘nlab asrlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilarni esa, asosan, an‘anaviy teatrning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshigacha bo‘lgan hayoti, o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsad qilib olindi.

Ko‘p yillik folkloristik izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek an‘anaviy teatrida uch lokal gruppa, ya‘ni Buxoro, Xorazm masxarabozlari teatrlari va Farg‘ona qiziqchilarini san‘ati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Buxoro teatri qishloq va shahar masxarabozlari san‘atidan tarkib topgan. Qishloq masxarabozlari ko‘pincha 4-5 kishi bo‘lib (ba‘zan yakka) tomosha bergenliklari sababli, asosan, kichik hajm va maishiy mavzudagi masxarabozliklarni ijro etganlar, ijroda so‘zdan ko‘ra ko‘proq harakatga, mimikaga e’tibor bergenlar. Qashdaryo oblast Shahrисабз rayonidagi Miraki tog‘ qishloqlarida faoliyat ko‘rsatgan Mizrob masxara (1848-1918) to‘pigina bundan mustasnodir.

Shahar masxarabozlari kichik hajmli, maishiy komediyalarni mehmonxonalarda o‘ynagan. Sayil, chavki, katta to‘ylarda esa yirik tomoshalar ko‘rsatilgan. Xususan salbiy personajlarga ijtimoiy tavsiflar berish, ularni fosh etishda shahar masxarabozlari so‘zdan unumli foydalangan. Shahar truppalari orasida Buxorodagi To‘la masxara (1842-1916) to‘pining faoliyati o‘z mazmundorligi bilan ajralib turgan.

Xorazm masxarabozlari teatr avvalombor “Xatorli o‘yin” nomli katta yig‘inlarga mo‘ljallangan turkumning nisbatan yaxshi saqlanganligi, repertuarida hayvonot olami va xalq turmushini aks ettiruvchi pantomimalarning yetakchi o‘rinda turishi bilan alohida ajralib turadi. Xorazm masxarabozlarining qariiyb barcha tomoshalarida dialog bilan bir qatorda kuy, qo‘sish, raqs, muallaq, pantomima juda katta rol o‘ynagan. XIX asr oxiri-XX asr boshida ko‘pgina yirik masxarabozlar taftish va tazyiqdan qochib, Mang‘itning Qipchoq, Qilichvoy qishloqlarida joylashganlar. Ular orasida Quvvat kalta Matyoqub ko‘r, Boltaqul masxaraboz, Kirkin, aka-uka Eshamat va Do‘samat kabi butun Xorazm vohasiga tanilgan masxarabozlar bo‘lgan.

Farg‘ona qiziqchilari teatri bizni ko‘proq qiziqtiradi. Zotan Buxoro yoki Xorazm teatrlariga qaraganda uning saviyasi baland, yaxshi taraqqiy etgan hamda o‘zbek teatrining paydo bo‘lishi va rivojlanishida xizmati nisbatan katta.

Qo‘qonda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida Zokir eshon (1815-1885) boshliq qiziqchilarining katta bir to‘pi shuhrat qozongan edi. Mazkur to‘pda, asosan, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlari va ular atroflaridan to‘plangan Sa‘di maxsum, Mulla Hoshim, Usmon qiziq, Abulhasan Qashg‘ariy, Marasul qora, Normat og‘zi katta, Abduaqiz qiziq, Bahromboy, Hasan bukri, Kalsariq, Mo‘min qishloqi, Rizo kuyik, Xolmat mesh, Rahimbek hyez, Halimjon, Mulla Abduqodir, Rustamjon, Abdahas, Baxtiyor bo‘qoq, Davlat novcha kabi yigirmadan ziyod qiziqchi bo‘lgan. Ular Farg‘ona vodiysida o‘z davrining eng yirik, eng iste’dodli va keng tanilgan, mehnatkash xalq orasidan chiqqan, xon saroyida xizmat qilgan vaqtlarida ham xalqdan hyech uzilmasdan uning manfaatlarini qo‘riqlab kelgan, o‘z qobiliyati, mahorati bilan teatr san‘atini bir pog‘ona ko‘targan yirik san‘atkorlar edi.

O‘zbek an'anaviy teatrida ulkan ijtimoiy-siyosiy kuchga ega bo‘lgan satirik tomoshalar bilan bir qatorda mehnatkashlar turmushidagi ayrim nuqsonlarni yengil va do‘stona hajv qiluvchi yumoristik qiziqchiliklar ham muhim rol o‘ynagan. Hunarmandlar hayotiga bag‘ishlangan “Bo‘z do‘kon”, “Novvoylik”, “Sartaroshlik”, xalq marosimlari va tomoshalar shular jumlasidandir. Johillik, farosatsizlik, dangasalik, qaysarlik, uquvsizlik, mahmadanalik, maqtanchoqlik, anqovlik, shuningdek, ayrim kulgili holatlar, nojo‘ya harakatlar, g‘alati qiyofalarni yumor vositasida aks ettiruvchi bunday tomoshalar kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan bo‘lib, tomoshabinlarga bir olam kulgi va xursandchilik baxsh etgan.

Yumoristik asarlar orasida “kulki-hikoya” yoki “to’kma” degan kulgili sarguzashtlar haqida hikoya qiluvchi tomoshalar alohida ajralib turgan.

Xullas, an'anaviy teatr repertuarida turli davrlarda yaratilgan oddiygina taqlid va parodiyadan tortib ko‘p epizodli komediyagacha uchraydi. Tanqid, muqallid, kulki-hikoya janrlari, kichik va katta davralarga mo‘ljallangan ikki turkum tomosha keng rasm bo‘lgan.

Dastavval shuni aytish kerakki, an'anaviy teatrda hozirgi tushunchadagi sahna, tomoshabin bilan teatrni keskin ikkiga bo‘lib turadigan ayirma bo‘lmagan. Xalq aktyorlarining to‘rt tomonidan qur solib turgan tomoshabinlar davrasida o‘ynashi an'anaviy teatr spetsifikasini belgilagan, shartlilik ham ko‘p jihatdan shunga bog‘liqdir.

An'anaviy teatrimizning muhim prinsiplaridan biri voqyea o‘mi va paytining shartli ko‘rsatilishidir. Ma'lumki, masxaraboz va qiziqchilarning spektakllari tomoshabinlar davrasida o‘ynaganki, bu maxsus dekoratsiyalardan foydalanishga imkon ham, xuquq ham bermagan. Tomoshabinlar voqyea qaysi paytda, qaerda sodir bo‘layotganini ijrochilarning dialogi va ayrim shurtli harakatlardan bilib olganlar. Aktyorlarimiz diametri 4-10 metr keladigan aylana “sahna” da o‘n chaqirimlab yo‘l bosganlar, bir qishloqdan ikkinchi qishloqqa o‘tganlar, xayolan uy qurbanlar, daryo, ariq xosil qilganlar va xakazo. Bunga aktyorlarning lozim bo‘lgan ishonarli xatti-harakatlari tufayli erishilgan. Saraton, sovuq, bahor, peshin, oqshom, qorong‘ulik, yorug‘lik tasavvuri ham shunday hosil qilingan. O‘g‘rilarni xajv qiluvchi komediyalarda, masalan, qop-qorong‘i tun ijrochilarning paypaslab, sekin-asta yurishi, nimalargadir qoqilib yiqilib tushishi orqali ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, an'anaviy teatrda hozirgi ma’nodagi dekoratsiya bo‘lmagan. Faqt harakat davomida juda zarur bo‘lgan ko‘rinish va buyumlarni berishga to‘g‘ri kelgan, lekin shunda ham ular shartli ko‘rsatilgan. Komediyalardagi to‘g‘on, mozor, tandir, to‘quv dastgohi, tol, devor, tegirmon, objuvoz kabi ko‘rinish va buyumlar statist-ijrochilar tomonidan gavdalantirilib, “jonli dekoratsiya” hosil qilingan.

“Mozor” spektaklida egilib turgan ijrochi-statistning ustiga bir yengini tepaga qilib chopon yopishadi, latta-puttalar ilingan bir novdani haligi yeng ichiga tiqilib qo‘yishadi. Shu zayl avliyoning tug‘li mozori hosil bo‘ladi. To‘quvchilarga bag‘ishlangan bir qator komediyalarda dastgoh-do‘kon odatda ikki kishi tomonidan shakllantirilgan: ular bir-biriga yuzma-yuz yoki orqama-orqa turishgan, ikki uchi tugilgan o‘rama belbog‘ yoki sallani ularning boshiga tarang qilib kiydirib qo‘yishgan. “Mirob”, “Mirobboshi”, “Qozibozlik” komediyalarda bir odam yerda yotib ariq bo‘lib turadi, uning tanasi ariq, oyoqlari irmoqlar vazifasini bajaradi.

Qiziq shundaki, “jonli dekoratsiya” voqyeaga aralashib, kulgi manbai bo‘lib turadi. Masalan, “Tol sotdi” masxarabozligida davradan bir kishi chiqarilib, unga tol daraxt bo‘lishi, tomoshada o‘zini qanday tutishi kerakligi tushuntirilib, voqyea

davomida uni yiqitadilar, chopadilar, arralaydilar. Spektaklning eng qizg'in joyida kutilmaganda "tol" azob berayotganlardan shikoyat qilib qoladi. Xaridor esa "tol"ning odamlarnikidek qo'l-oyog'i, burni, ko'zlarini borligini ko'rib ajablanadi. Avliyoning "qabri" esa ("Mozor" komediyasida) yuradi, gapiradi, ustida mingan shakkoklarni jahl bilan irg'itadi. Bu bilan masxarabozlar shayx u yoqda tursin, avliyonи ham masxara qilib tashlaydilar. "Novvoylik" spektaklida qorniga barkash bog'lab, to'rt oyoq bo'lib tandir suratiga kirgan aktyorning holati, xatti-xarakatlari undanam kulgili. Novvoy "tandir" ichiga boshini tiqib qaraydi, olov yoqadi, xayolan non yopadi, suv sepadи. Oxirida novvoy "tandir" ga qisilib qolib, "tandir" bilan qo'shsha bo'lib dumalaydi.

Mana shulardan ma'lum bo'ladiki, shurtlik an'anaviy teatr aktyorlariga istagancha fantaziya qilish uchun imkoniyat yaratib beradi, shuningdek, dekoratsiyaning obrazli hal etilishiga xizmat qiladi. Eng muhimmi, ayrim ko'rinish va buyumlarning shartli qilib, jonlantirib berilishi an'anaviy teatr tabiatiga nihoyatda mosdir. Agar aytaylik, shartli tasvir o'mida haqiqiy, natural dekoratsiyalar ishlatilganda noestetik, qo'pol, quruq, jonsiz, zerikarli chiqishi, aktyorlarga qulaylik yaratish o'rniga xalaqit berishi mumkin edi. Hammadan ham ashyoviy dekoratsiya an'anaviy teatr spetsifikasini buzib, uning harakatchanligi va tomoshaviyligiga putur yetkazgan bo'lardi. Shartli tasvir metodi tufayli «dekoratsiyalar» ijrochilarga yordamchi omil bo'libgina qolmasdan, voqyeaga bevosita aralashgan, hajviy to'qnashuvni kuchaytirgan, spektaklning tomoshaviyligini oshirganki, natural dekoratsiya vositalari bilan bularga erishuv amrimahol edi. Shu narsani alohida qayd qilib o'tmoq kerakki, dekoratsiyaning shartli-jonli qilib tasvirlanishi ijrochilarga badihago'ylik va harakatchanlikda katta yutuqlarga erishish uchun lozim sharoit, sabab, qulaylik yaratib beradi. Bu tushunarli, chunki "jonli dekoratsiya" badiiy formaning tarkibiy bo'lagi sifatida og'zaki dramaturgiyaga tayangan an'anaviy teatr mazmuni talabalariga to'la javob beradi.

Masxara va qiziqlar sahnaga jonivorlarni chiqarish zarur bo'lib qolgan taqdirda ham shartlilik talabidan chetga chiqmaganlar. Oddiy bir cho'p xalq aktyori qo'lida goh jiyron otga, goh o'jar eshakka aylanardi. Hayvon va qushlarga bag'ishlangan barcha muqallidlarda ham aktyorlar shartlilik uslubidan ustalik bilan keng miqiyosda foydalanim, o'ziga xos badiiy obraz yaratishga muvaffaq bo'lganlar.

Ha, an'anaviy teatr to'g'risida gap borar ekan, avvalo iste'dodli, san'at shaydosi bo'lgan masxaralar, qiziqlar mahorati ko'z oldimizga keladi. Chunki bu yerda hal etuvchi aktyor, uning ijrochilik mahorati, san'atidir. To'g'ri, masxaraboz va qiziqchilar teatrda xalq rejissyori-korfarmonlar ham xizmati katta bo'lgan. Ammo korfarmonlar birinchi galda zo'r iste'dod va ulkan tajribaga ega bo'lgan aktyordirlar. Ular truppadagi aktyorlar, shogirdlar bilan mashqlar o'tkazar, spektakldarni pishitar

yoki yangisini o'rgatar ekanlar, ularga o'zlarining va ustozlarining tajribasini, uslubini singdirishga intilganlar.

Xalq aktyori chaqqon, otashin, sezgir, kuzatuvchan, xayolga boy, hofizasi baquvvat bo'lishi lozim. Shuningdek, u gapdon, dono, o'ziga xos notiq bo'lishi zarur, toki uning nutqi erkin, ravon, tabiiy bo'lib quyilib kelaversin, har xil narsa xususida bir jahon kulgili, qiziqarli va g'alati gaplarni terib to'qib tashlayversin.

### Ot o'yin

Xalqimiz sirk san'ati "ot o'yin" deb ataydi.

Xo'sh, sirk nima? Sirk – bu jasurlik, kuch, chaqqonlik va quvnoqlikni tarannum etuvchi ajoyib ommabop san'at. San'atkorning gavdasi, epchil harakatlari, kuchi va mohirligi hamda tili uning quroli bo'lganligidan sirk hammaga tushunarlidir. U til bilishni talab qilmaydigan, tabiatga ko'ra, internatsioanal san'atdir. Xalqlarning o'zaro ta'siri va madaniy aloqalarida, san'atning boshqa turlariga qaraganda, sirkning o'rni kattaroq. Shu sababdan bo'lsa kerak, jahonning turli burchaklaridagi sirkchilarning tomoshalari bir-biriga o'xshab ketadi.

Sharqdagi ko'p xalqlar qatori o'zbeklar ham sirk san'ati bo'yicha faxrli an'analarga ega. Ayrim tarixiy va adabiy manbalar hamda arxeologik qazilmalarning ko'rsatishicha, sirk turlari O'zbekistonda juda qadim zamonlardan buyon yashab keladi. Ammo xalq madaniyatining bu sohasini o'rganishga o'tmishda hyech kim e'tibor bermagan. Chunki ulamolar sirkka shunchaki nayrangbozlik, befoyda mashg'ulot, ilmdan olis bir narsa deb qragan. Aslida esa minglab chidamli – sabotli, iste'dodli va sadoqatli kishilarning umri, ijodi, kuch-g'ayrati bilan yaratilgan sirk san'ati asrlar davomida xalqimiz madaniy-estetik hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu sababli biz uni o'rganishga kirishdik. Bu yerda biz Hamza nomidagi San'atshunoslik institutining ekspeditsiya materiallari, shuningdek, klassik adabiyotga, rus sayyoohlari va etnograflari yozib qoldirgan ma'lumotlarga tayangan holda, asosan, xalq sirk haqidagi umumiyligi tushuncha berish niyatidamiz.

Sirkning xalq orasida keng yoyilgan bir qancha turlari bor. Har tur o'z xususiyati, o'z tarixi, o'z san'atkorlariga ega. Shunga ko'ra, ular haqida ayrim-ayrim hikoya qilmoqchimiz.

Xalq sirkning eng qadimgi turi ot o'yindir. Sirkning xalqimiz orasida "Ot o'yin" deb yuritilishi ham shundan dalolat beradi.

Ot – xalqqa eng qadimgi zamonlardan beri qadrondan hayvonlardan biri. Uning og'irni yengil qilishi, chopqirligi, qo'rmasligi, sezgirligi, egasiga sadoqati, tashqi ko'rinishi va chiroyli harakatlari asrlar davomida kishilarni maftun qilib kelgan. Ot haqida afsonalar to'qilgan, dostonlarda madh etilgan. Go'ro'g'lining otboqari Soqibulbulning G'irot xaqidagi bir shingil maqtovini eshititing ("Intizor" dostonidan):

Oyoqlarng qoqqan qoziq

Sag'ring bukush bag'ring yoziq

Badanlaring qizdan nozik  
Seni mingan topar murood  
Aqling odamdan xam ziyod  
yeming kishmish to'rvang banot

Otdagi mana shu sifatlar poyga, uloq chopish, chavgon kabi sport tomoshalarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Buning natijasida ot "tili"ni tushunadigan, kuchli va jasur, moxir va chaqqon chavondozlar maydonga chiqqan. Chavondozlar bora-bora ot o'ynatishni o'zlariga xunar qilib olib, sayilgoxlarda tomosha ko'rsata boshlaganlar. O'yinchi ot chavandoz buyrug'ini tinglagan xamda bajargan, ikki oyoqda yurgan, pillapoyadan yuqoriga ko'tarilgan, tomoshabinlarga ta'zim qilgan va.x.k. Chavandoz xam ot ustida turli muallaq kombinatsiyalar ko'rsatgan.

"Ot o'yin" deganda yana bir sirk tomoshasi ko'z oldimizga keladi. Bu o'yinchi ot va chavandoz xarakatlariga masxarabozlarning parodiyasidir. Bir bo'lak yog'ochdan otning tanasi va bosh qismi yasalib ustidan o'yinchi sig'adigan joy qoldirilib, yaltiroq (qizil, yashil, sariq rangli) mato bilan qoplangan. Unga dum yasalib yugan solingen, qo'ng'iroqchalar osilgan. Yasama soqol taqib, yuziga un surtgan. O'yinchi "Ot"ni beliga bog'lab olgan xolda yuganni tortib qamchin chotib, o'yinchi ot va chavandoz xarakatlariga taqlid qilib o'ynaydi. O'yinchining oyoqlarini sollanib turgan mato yashirgan, "Ot" ustiga esa soxta oyoqlar qo'yilgan. O'yinchi chinakam ot ustida o'tirganday, barcha xarakatlarni ot bajarayotganday taassurot paydo bo'lgan. "Ot" yo'rg'alaydi, lo'killaydi, chopadi, xurkiyd, xujm qiladi, aylanadi, tepinadi, yotadi, og'zini ohib tomoshabin xadiyalarini oladi va xatto kishnaydi xam. Ayrim rayonlarda o'yinchi yog'och otda uloq xam chopgan. Davraga gijinglagan, o'yanoqi otlarga minib olgan ikki yoki bir necha "Chavandoz" kirib kelgan. To'y egasi o'rtaga "uloq" (odatda molning o'pkasini) tashlagan. «Chavandozlar» cholg'u sadolari ostida ko'pkari – uloqchilikda turli shiddatli, qaltis harakatlarga taqlid qilib o'ynaganlar. Xullas, yog'och ot va masxaraboz chavandozlar to'y, sayil hamda bayramlarni bezagan, xalqni xushnud qilgan.

Xalq sirkchilari yovvoyi hayvonlardan ayiq bilan maymunni, uy hayvonlaridan ot bilan echkini asrash va turli xil o'yinlarga o'rgatishga ishqiboz va hunarmand bo'lishgan. Ayiq, maymun va echki artistlik, ayiqboz, maymunboz, echkiboz ularga ishboshi – korfarmonlik qilgan. O'zbekistonda fil va tuyalar o'ynatilganligi to'g'risida ham ma'lumotlar bor.

Har xolda, xalq sirkchilarining eng sevimli hayvoni ayiq, echki va maymundir. Tuya sirkda juda kam o'ynalitgan.

XIX asrda Buxoroda Ikrom bobo degan mashhur ayiqboz o'tganligi ma'lum. Bu haqda rus elchisi I.L.Yavorskiy o'z sayohatnomasida qiziq sahifa yozib qoldirgan. Ikrom boboning o'ynatadigan bir qora ayig'i, ikki maymuni bo'lgan. Ayiq egasining buyurganlarini itoatkorlik bilan bajarib, tomoshabinlarga yengilgina o'kirib, boshini

sarak-sarak etib ta'zim qilar, ikki old oyog'ini ko'targan holda davra aylanar, raqsga tushar, ayiqboz bilan kurashar, maymunlar bilan quvlashardi. Bundan tashqari, u tannoz xotinning oynaga qarab pardoz qilishi, dangasaning yotishi, kelinning bola emizishi, sakson yashar kampir holati kabi kulgili o'yinlarni bajargan. Maymunlar esa goh yerda, goh ayiq ustida o'ynagan, yugurgan, sakrigan, dumalagan, yig'lagan, bolalarning do'ppilarini olib kiygan, pul yiqqan va hokazo. Ayiq bilan maymunlarningodamlarday harakat qilishi tomoshabinlarga shavq-zavq bag'ishlagan.

Buxorolik Qudrat bobo degan boshqa bir kishi echki o'ynatishda tanilgan. Uning oq takasi muallaqda, topog'onlikda, "donolik"da mohir ekan. Oq takaning uchta g'aroyib o'yini bo'lgan. Biri shuki, Qudrat bobo bir qarichdan keladigan sakkizta g'o'lacho'pni navbat bilan birining ustiga birini tik tergan, taka esa har yangi cho'p ustiga to'rt tuyog'ini juftlab chiqib, ancha vaqt o'z muvozanatini saqlab turgan. Keyin echkiboz "Sudxo'r qanday jon beradi" deb so'ragan, echki gandiraklab davrani bir aylanib chalqancha yotib qolib, to'rt oyog'ini yuqoriga ko'tarib bir nafas titraganu, o'lganga o'xshab jimb qolgan. Bobo nima va'da qilmasin, echki tirilmagan. "Ana qarzdor pul olib kelyapti", -degan zahotiyoyq irg'ib o'midan turgan. Uchinchi o'yinda egasining gapi bilan moshovoxo'mi, atalaxo'rni, palovxo'mi topgan, oq joma, ko'k joma, qora joma kiygan odamlarni tutgan. Ayniqsa, takaning oti aytilgan shaxslarni topishi, o'g'rini, qimorbozni ushlashi qiziqarli bo'lgan. O'yinchı echki o'g'rini tutadigan episod Navoiy zamonda ham ko'rsatilar ekan. Buyuk shoirimiz o'zining "Hayratul abror" dostonida riyokor va tekinxo'r shayxu qalandarlarni fosh etar ekan, ularni nayrangboz echkiga o'xshatib quyidagilarni yozadi:

Turfa choqolin osibon kulgidek,  
Ikki yig'och uzra chiqib o'chkudek.  
O'chkucha ham yo'q ishida to'g'riliq,  
Ul tutib o'g'ri, bu qilib o'g'riliq....

Muhimi shundaki, hayvonlar va qushlar yordamida ko'rsatiladigan o'yinlar tomoshabinlarning ko'nglini ochibgina qolmay, kishilardagi ayrim nuqsonlar ustidan goh yumshoq, goh qahrli kulgan.

Nayrangbozlik, ko'z bog'lash XV asrdayoq katta yutuqlarga erishgan. Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida o'z davrining nayrangbozlari tajribalari asosida quyidagi ajoyib misralarni bitgan:

Musha'bidlar sipehri bevafo son,  
O'g'urlab muhra ko'k tosidan oson.  
Chu aylab la'b har nayrang sozi,  
Falak har lahza yeb o'n qatla bozi.  
Qilib tunni yorug', kunni qorong'u,  
Suvdin o't yondurib, o'tdin sepib suv.

Ko'kartirib shu'laliq o'tdin sipandon,  
Osib o'rgamchi tori birla sandon.

Nayrangboz-bor narsani g'oyib va yo'q narsani paydo qiluvchi, bir narsani tamomila boshqa narsa hosil etuvchi "sehrgar". Ilgari odamlar nayrangbozning har qanday ishini sehr u jodu deb tushunganlar. Aslida nayrangbozlar o'yinida sehr ham, mo'jiza ham bo'lmagan. Nayrangbozlik, chaqqonlik, diqqat, tomoshabinni rom qilish, kimyo va fizikaning elementar qonunlarini bilish mahsulidir.

Asrimiz boshida ham O'zbekistonning bircha shaharlarida nayrangbozlar bo'lgan. Chunonchi, Buxoroda asr o'rtalarida Tillaxon "pista dahan" degan mashhur nayrangboz o'tgan. U o'z hunarini o'g'li Marmarxonqa o'rgatgan. Biz Marmarxon to'g'risida to'laroq ma'lumotga egamiz.

Marmarxon bilan bir maddoh va shogirdi birga yurgan. U gavjum joyga kelib, yerga sholcha tushab, nayrang xo'rjunidan asboblarini ola boshlagan. Hash-pash deguncha odam yig'ilib, davra hosil bo'lgan. Nayrangboz xizmatga tushgan. Marmarxon juda ko'p murakkab nayranglarni bilgan. To'nkarilgan mis kosalar bilan soqqa o'ynagan, jag'iga temir xalqa solib torttirgan, suv ichib olov purkagn, og'ziga qog'oz, uvada tiqib, rangli ip va lentalar chiqargan, "sehrli kosa"ga buyruq qilib, suv ulashtirgan, "kashmir kitob"ining oq sahifalarida turli yozuv hamda suratlar paydo qilgan, tuproqdan palov pishirgan....

Etnograf N.S.Likoshin o'zining 1916 yilda bosilib chiqqan "Turkistonda o'tgan yarim umr" kitobida nayrangbozlar ijrosida qayd qilinganlardan tashqari yana bir talay o'yinlar ko'rganini yozadi. Xanjar yutish, shogird quloqlaridan ip o'tkazish, quyon, qarg'a va ilon o'ynatish shular jumlasidandir. Nayrangboz goh hayratga solgan, goh kuldirgan. Chunonchi, u shogirdiga xurjundagi qazini olib berishni buyurgan, shogirdi qazi o'mida ilonni tutamlab chiqib, qo'rqqan kishi bo'lib baqirib yuborgan. Tomoshabin bandan mazza qilib kulgan.

Muallaq (akrobatika) ham xalq sirkining yaxshi rivojlangan turlaridan biri, toblangan tana harakatlari bilan chiroqli shakllar yasash san'atidir. Muallaqchilar odatda 2-3 kishi bo'lib tomosha berishgan. Ular orqa va yon bilan kamalak shaklida sakrash, ikki qo'lda, bir qo'lda, boshda muallaq turishdan boshlab, murakkab o'yinlarga o'tishgan. Bunga chaqqonroq, yengilroq mualliqchining sheringining turkisi bilan havola ikki-uch marta umbaloq oshib tushishini, aylanib u yelkadan bu yelkaga qo'nishini, sheriklarining oyog'i, qo'li, boshi, yelkasida muallaq turishini, uch o'yinchining bir-biriga payvand bo'lib g'ildirashini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ayniqsa, besuyak deb ataluvchi muallaqchilarning tomoshalari qiziqarli bo'lgan. Tana egiluvchanligini kamolga yetkazgan besuyaklar murakkab shakllarni niyoyatda mohirlik bilan bajarishgan. Chunonchi, besuyak orqasiga yergacha egilib kelib, boshini oyoqlari orasidan oldinga chiqarib, "toshbaqa" surat bo'lib olgan: oyoqlarini

bo‘yniga chalishdirib qo‘li bilan yurgan va xokazo. Ammo besuyakning eng zo‘r o‘yini egilib, koptok bo‘lib, og‘zi yoki qovoqlari bilan yerga qadalgan kumush tangani olishidir.

Yog‘och oyoqni ham muallaqchilikning bir turi desa bo‘ladi. Yog‘och oyoq o‘yinchining tajribasi va yoshi hisobga olingen holda bir metr dan besh metrgacha bo‘lishi mumkin. Lekin ko‘proq ikki yarim-uch metr yog‘och oyoqda o‘ynalgan. O‘yinchi qizil yoki zangori mato bilan o‘ralgan va qo‘ng‘iroqlar shodasi osilgan yoki chirmanda chalib, sho‘x kuylar ritmida qayroqlar bilan o‘yinga tushgan, yelkasiga bola ko‘tarib davra aylangan, og‘zidan olov chiqargan. Bundan tashqari, u gap va harakatlar bilan chopayotgan tuyu, do‘mbira mehribon buvi, it talagan kampir taqlidlarini ham ko‘rsatgan. Ba‘zan ikki, uch yog‘och oyoqchi chiqib, ular o‘rtasida sodda syujetlar hosil qilingan.

Xalq sirkchilarining turli buyumlar bilan ko‘rsatiladigan o‘yinlari bo‘lgan. Pichoq o‘yin (kordbozlik), lagan o‘yin, chinni o‘yin bunga misol bo‘ladi. Shundan chinni o‘yin jonglyorlikning xuddi o‘zginasidir. Unda o‘yinchi cho‘p uchida chinni kosa yoki likopcha aylantirgan; uni peshonasiga, burniga qo‘yib, otib qayta cho‘pga tushirgan; ikki qo‘lida cho‘pda kosa aylantirib o‘tirgan, aylanib o‘rnidan turgan. Pichoq o‘yin bilan lagan o‘yinda raqs muhim rol o‘ynagan. Lagan o‘yinda artist tog‘oraga, tovoqqa o‘xshash idishlarni peshonasidan boshiga, undan bo‘yniga tushirib, u yelkasidan bu yelkasiga keltirib so‘ng beliga tushirib va peshonasiga qaytarib o‘ynagan, qo‘llaridagi qayroqlar bilan o‘ziga ritm berib turgan. Mana shu o‘yinlarning barchasida qo‘qonlik Mahmud G‘ofurov (1883-1970) mohir bo‘lgan ekan.

Muallaqchilar, yog‘och oyoqlar, kordbozlar, ko‘zaboz va chinnibozlar tana, qo‘l, oyoqlarining chaqqonligi va bejirim harakatlari bilan, harakatlarini hamisha tezkor ritmlarga bo‘ysundirib turishlari bilan xalqni mammun qilib kelganlar.

Shunday qilib, xalq sirki bir qator mukammal tur va janrlarga ega edi.

Mullaboy Mansurov asli toshkentlik bo‘lib, o‘z davrida oddiy charxpalakdan tortib sirkkacha bo‘lgan tomoshalarini uyuştirishda dong chiqargan. U o‘zining tolmas va o‘tkir tashkilotchiligi, xalq san‘atini yaxshi bilishi va unga bo‘lgan ulkan muhabbatli tufayli parokanda sirkchi to‘plarni muntazam truppagaga birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Truppada aka-uka Rahmon bilan Parzin Abduxalilovlar (uch xonali chig‘iriqda o‘ynagan, muallaq turgan), Muhammad (Chaqqon) Xo‘jaev bilan Qodir bola (akrobat), Karim Zarifov bilan Ortiq qiziq (bamruk:biri 4-5 metr yog‘ochni qorniga qo‘yib, ikkinchisi o‘sha yog‘och ustiga chiqib o‘ynagan), Muhiddin Shokirov (besuyak), Kal Shokir (jonglyor), Said afg‘on (qilichboz), Yusufjon qiziq, Sobir qori, Rafiq qiziq (qiziqchilar), Zokirjon Ovulov (jarchi), Ashirmat bilan Kenjaboy (surnaychi), Majit garng (kassir), arman yigit Xoisov

(xo'jalik mudiri) kabi yigirmadan ortiq kishi uyushgan. Mullaboy akaning o'zi boshliq, badiiy rahbar, ot o'ynatuvchi sifatida xizmat qilgan.

### Askiya

«Askiya» aslida arabcha so'z bo'lib, zakki, zehni o'tkir, hozirjavob, aqli odam ma'nosida keladi. Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon vodiysida suxanpardozlarning tortishuvularini "askiya" deb ham atashadi. Askiya degani- bu teskari gpirib yoki harifining "hujumi"ni hozirjavoblik bilan qaytarib, o'zi "hujum"ga o'tish demakdir. "Askiyami", "askiyami"- ikkala holda ham ikki yoki undan ziyod kishi yoki guruhning xalq yig'inlari (sayil, to'y), mehmonxona va choyxonalarda ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'zda tortishuvi tushuniladi.

Askiya o'zbeklar orasida ko'p asrlardan beri mayjud. Uning dastlabki shakli urug'chilik davrida maydonga kelgan, deb faraz qilish mumkin.

Askiya o'z rivojida shubhasiz bir qancha davrlarni bosib o'tgan. Keyingi tadqiqotlar balki bu masalaga ravshanlik kiritar. Hozircha shuni aniq e'tirof etish mumkinki, Alisher Navoiy davrida askiya shakllangan, keng tarqalgan va san'at darajasiga ko'tarilgan. XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan yozuvchi Zayniddin Vosifiy Hirotda askiya keng avj olganligi, Mir Sarbarahna, Mavlono Burxonlang, Hasan voiz, Muhammad Badaxshiy, Said G'iyosiddin sharfa, Mavlono Xalil Sahof singari o'nlab mohir askiyachilar borligi haqida yozadi. Shular orasida eng iste'dodlisi Mavlono Abdulvose' Munshiydir. XVIII-XIX asrlarda askiya ayniqsa Farg'onada vodiysi va Toshkentda rivojlandi.

Askiyaning san'at dedik, u kishilarning bir-biri bilan badiiy so'z to'qishda, so'z o'yinida, adabiy bahsda, aqlar musobaqasida ko'pchilik o'rtasida halol tortishuvidir. Askiyaning asosida harakatchan, sho'x va purma'no dialog bilan xilma-xil mazmunni ifoda etuvchi kulgilar yotadi. Shuningdek, "askiyada shaxslar bilan moddiy olamdagi buyumlarning munosabatlari, o'xshashlari, ravviyalari kutilmagan mahorat bilan bayon qilinadi." Taraflar ba'zan odamlar orasida, ba'zan qarama-qarshi o'tirgan, turgan yoki yurgan holda tez javob berish va javoblarini serma'no, latif, ta'sirli, jozibali taraf javob topishdi sustakashlik qilsa, mavzu, janr doirasidan chiqib ketsa yoki ularning ichki tartibi, mantig'ini buzsa, o'sha taraf yengilgan hisoblanadi. Tomoshabin o'z kulgisi, qiyqirishlari bilan taraflar hamda ularning javoblariga baho berib boradi, ma'nosi ko'p, serqochirim askiyalardan zavqlanadi, sayoz va qo'pollaridan ranjiydi. Askiyaning mazmunli, kulgili chiqishida ishtrokkhilarning hayotni bilishi, til, nutq madaniyatni, yuz, ko'z, qo'l, tana harakatlardan ustalik bilan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Mana shunday imkonli, katta davralarda tortisha oladigan kishilar askiyachi (askiyaboz) deb ataladi. Har qanday askiyachi badiiy so'z boyligini puxta egallagan, so'z o'yinlari, qochirimlari, o'xshatish, mubolag'a, masxara kabi vositalarni aktiv ishga soladigan bo'lishi lozim. Hozirjavoblik va mazmundorlik askiyaning asosiy shartlaridandir.

Askiya – chinakam xalq san'ati. Boshqa biror san'at yo'qki, u xalq ommasi orasida askiyadek ildiz otgan bo'lsin. U necha asrlar davomida o'zbekning dilkash do'sti, xayotiy yo'li bo'lib keldi. Xalq askiyasi xam boshqa san'atlar singari o'ziga xos spetsifik tasviriy vositalar bilan xalqning dunyoqarashi, donishmandligi, orzu umidi, milliy va davriy ruxini aks ettiradi. Xamisha quvnoq, sho'x, tetik va jangovor askiyachilarning mexnatlash xal ommasiga ta'siri katta bo'lgan. Ular o'zlarining optimistik chiqishlari bilan mexnatkashlarning ruxini ko'tarib, ularga ilxom baxsh etganlar, xayotni, moddiy olamni sevishni o'rgatganlar, badiiy so'z va kulgiga xavas xamda mexr uyg'otganlar.

Boshqa xalq san'atlarda bo'lganidek, askiyada xam xavaskorlar va professionallar bor. Xavaskorlar bir-birlari bilan yo'lda, cho'lda, choyxonada, ulfatda, to'yxonada tortishib ketaveradilar, ularning tortishuvlarida odatda ma'lum mavzu bo'lmaydi – askiyaning barcha turlarini aralashtirib aytaveradilar. Biroq shu narsani ayтиб o'tish zarurki, xavaskor askiyabozlar xam xozirjavob, obektga qaratilgan ayrim so'zlarni chertib gapirishga, askiyaviy kulguga usta bo'ladilar. Askiyachi degan nomga ega bo'lguncha ular xam ancha mashq va tajriba yo'llarini bosib o'tadilar.

O'zbekistonda juda ko'p professional askibozlar o'tganini va ayrimlari o'z san'ati bilan xozir xam xalqni mamnun qilayotganligini xamma biladi. Marg'ilonlik Jalil buqoq, Sulaymon qori, Mamajon qovoq, Mulla Muxammad buvi, qo'qonlik Mirzarakxim Quloq, Niyozboqi sichqon, Zoxid burun, Matxoliq askiya, Dexqrn yuzboshi, toshkentlik Abdulla fonus. Sayidaxmad askiya, Ismat askiya singarilar professional askiyabozlar jumlasidandir. Ularning an'analarini qo'qonlik askiyachilardan Erka Karimov bilan Mamayunus Tillaboev, marg'ilonlik Yusufjon qiziq Shakarjonov bilan Mulla Mamatbuvi Vaxobov davom ettirdi. Shuningdek askiyani rivojlantirishda Tursunbuva Aminov ("ijroqumbuva"), aka Buxor Zokirov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Shoqosim Shojalilovlarning xizmati katta bo'ldi. Ammo yuksak maxorati, madaniyati va xalq orasida topgan beqiyos shuxrati bilan boshqalardan keskin ajralib turuvchi Erka qori bilan Mamayunus askiyani aloxida tilga olib o'tgumiz bor.

Erka qori Karimov Farg'ona oblostining Tumor qishlog'ida (xozirgi frunze rayon teretoriyasida) kambag'al dexqon oilasida tug'ilgan. Bir yarim yasharligida bechora Erka chechak kasaliga yo'liqadi. Kambag'al ota –ona – Karim aka bilan mushtupar Shodmonbibi uni davolashga chora topolmaydilar, natijada Erka beshikdayoq ko'zidan ajiraladi. Ota-ona erkani 10 yoshgacha tarbiya qilib, keyin Qo'qondagi Madrasai Mirning bir xujrasida istiqomat qiluvchi pochchasi Mamat qori Ixtiyoriga beradilar. Pochchasi tarbiyasida Erka tez orada "qur'on"ni yod olib qorilik unvoniga ega bo'ladı. Ammo uni din "ilmi"ning bilimdoni, targ'ibotchisi bo'lish qiziqtirmadi. 15-16 yoshlarida unda muzikagap, xofizlikka, askiyaga, umuman qorilikka tubdan qarama-qarshi bo'lgan "yolg'on dunyo" san'atiga nisbatan ishqibozlik boshlandi.

Erka qori bolaligidan juda sezgir bo'lib o'sdi. Uning sezish, xis etish qobiliyati nixoyat darajada taraqqiy etgan, zehni, xotirasi o'ta kuchli edi. U har qanday ashulaning kuyini ham, so'zini ham bir eshitishdayoq yodlab qolgan. Oradan ko'p vaqt o'tmay baland va shirali ovoz egasi Erka qori xalqqa tanilib qoldi. U 20 yoshlarida "Katta ashula" ning atoqli va mohir ijrochilari davrasidan o'rinni oldi. San'atchilar davrasiga tashlagan bиринчи qadamidayoq u askiyada ham jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdi. Ashulalari bilan mehnatkash xalqni og'ir turmushi, lirik tuyg'ulari, orzu istaklarini bayon etsa, askiyalari ila shu elni ruxiy birdamligi, quvnoqligi va sho'xligini, doimiy optimistik kayfiyatini ifoda qildi. U askiyani oddiy kishilarga tushunarli shaklda olib borishga intildi. Uni askiyasi shunday serma'no, serqochirim, quvnoq bo'lganki, har qanday toshyurak va badqovoq kishini ham chehrasini ochib yuborgan. Uni har bir askiyaviy chiqishi og'izdan-og'izga, qishloqdan-qishloqqa o'tib, tez fursatda xalqqa yoyilib ketar ekan.

Uni bilgan keksalarni e'tirof etishicha, Erka qori Karimov sira yengilmagan askiyachidir. Uni o'tkirligini quyidagi fakt yaqqol tasdiqlaydi. U 1939 yilda Qo'qon shahrini Muqimiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida Qizil choyhonada Mamayunus aka Tillaboev bilan "avtomobil" mavzuida chandishib qoladi. Bu tortishuvda, bunday qaraganda g'alaba qilish uchun barcha imkoniyat avtomobilni ko'zi bilan ko'rgan, uni qismlarini uncha muncha biluvchi Mamayunus tomonida bo'lgan. Biroq natija boshqacha bo'lib chiqadi. Erka avtomobilni hyech qachon ko'rmagan bo'lsa ham, odamlardan eshitganlaridan xosil qilgan tasavvuri asosida, tilini o'tkirligi va aql -idrokini kuchliligi bilan bu tortishuvda xarifi Mamayunus akani mot qilgan.

Mamayunus Tillaboev Erka qorini askiyadagi asosiy qurdoshi xisoblangan. Ular 1900 yil boshlarida sayilgohlarni birida bir-birlari bilan tanishib, umrlarini so'ngigacha ajralmas do'st va ijodiy hamkor bo'lib qolganlar.

Professional askiyavozlar to'g'risida gap ketganda shu narsani alohida qayd qilib o'tish kerakki, ularni ko'pchiligi ayni vaqtida qiziqchi, mashshoq yoki xofiz ham bo'lган. Nomi butun respublikaga tanilgan qiziqlar- Yusufjon Shakarjonov, Orifjon Toshmatov, Po'latjon Normatov, Aka Buxor Zokirov, Oxunjon Xuzurjonov; xofizlar-Mulla To'ychi Toshmuxammedov, Domla Xalim Ivodov, Jo'raxon Sultonov kabilar shular jumlasidandir. Bular askiyani qiziqchilik va xofizzxonlik bilan bog'lab olib borganlar. To'y, gashtak, ziyofat yoki sayil tantanasi askiya bilan boshlanib, davrani doimo qiziq xolda saqlash maqsadida qiziqchilik, ashula va raqs nomerlari orasida ham askiyadan foydalanishga xarakat qilingan.

Aksiyani xillari ko'p. Shundan payrov askiyani eng murakkab shakli xisoblanadi va u, asosan, moxir askiyachilar orasida xukmron. Payrov askiyada askiyachilar tanlangan ma'lum bir temadan chetga chiqmay, bir-birlari bilan tortishadilar. Agar askiyachi mavzudan chiqib, "o'tlab" ketib qolsa yoki xarifini xujumiga o'sha

zaxotiyiq javob bera olmasa, yengilgan bo‘ladi. Payrovda olingen mavzu to‘la to‘kis yechilishi, javoblar biri ikkinchisini to‘ldirib, rivojlantrib borishi, mazmunli, nafis va pishshiq bo‘lishi lozim. Askiyachilar jamiyat xayotini besh panjaday bilishdan tashqari, bir-birlarini fe'l atvori, turmushlaridagi nuqson va noo‘xshovliklaridan ham yaxshi xabardor bo‘lishgan. Ular, masalan, “xandalak” payroviga tushib ketishsa, bir-birlarini xandalak urug‘ini yerga eqilishidan tortib, uni so‘yib yeyishgacha xolatlarga taqqoslab, o‘xshatib, o‘sha o‘zlariga ma'lum bo‘lgan ijtimoiy va shaxsiy kamchiliklar ustidan kuladilar.

Askiyani qofiya deb ataluvchi turi ham bor. U sheriyatdagi qofiyadan farq qiladi. Aytishuv qofiyasi sheriy misralar, oq she'r, oxirgi so‘zлari qofiyadosh mazmundor gaplar vositasi bilan askiya qilish demakdir. Qofiyabozlik askiyachi oldiga katta talablar qo‘yadi. Qofiyaboz xarifining har xamlasiga darxol qofiyali shaklda munosib javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu esa donolik va xozirjavoblikdan tashqari qofiya talabalarini yaxshi bilishni, tez, mazmunli qofiyali misralar, gaplar to‘qishda pishigan, usta bo‘lishni taqazo qiladi. Askiyaviy chiqishlar tinglovchilarni, birinchidan, mazmuni bilan, ikkinchidan, o‘tkir va o‘ynoqi qofiyasi bilan jalb etib kelgan.

Samarqand, Buxoro va Surxandaryo viloyatlarida askiyani shirinkorlik degan turi mashxurdir. Xazilkash, chaqchaqchi, bag‘ri ochiq, qiziqchi, xar to‘g‘rida gapirib odamlarni kuldirib yuruvchilar shirinkor deb ataladilar. Shirinkor so‘zini o‘zi suxbatni shirin qiluvchi ma’nosini beradi. Shirinkor kishilar to‘plangan har joyda xazil mutoyiba qilib ketaveradi. Ikki shirinkor duch kelib qolsa, tortishadi. Kishilarni yomon ko‘radigan narsalari, tasodifiar va sarguzashtlarni mavzu qilib olish shirinkorlik uchun xarakterlidir. Shunningdek, shirinkorlar askiyachilardek kishilarni boshqa narsalarga o‘xshatib ham kuladilar. Shirinkorlikda ko‘pincha humor xukmron bo‘ladi.

Askiya mazmunli bo‘lib, shakllari ko‘payib bormoqda va yosh askiyachilarni butun bir avlodи yechib chiqmoqda. Biroq bu soxada xali qiladigan ishlар ko‘p. Ayrim soxta askiyachilar borki (ayniqsa, yoshlar orasida), ular askiyani mantiqsiz gaplar tizmasi va zo‘raki kulgidan iborat deb o‘ylaydilar, shekilli, bo‘lar-bo‘lmasga bir-birlariga pala partish gap aytib, shaqirlab kulaveradilar. Tomdan tarasha tushganday otilgan bu gaplar, kekirdakka zo‘r bergen bu kulgilar na “askiyachilar” ni o‘zlariga, na tomoshabinlarga estetik zavq beradi, aksincha, ular kishini ko‘nglini ranjitadi, aqlini xira qiladi, xolos. Eski vaqtarda axloqiy betayin ishlarni didiga moslashib ish tutgan askiyachilarni tortishuvlardagi ma’naviy suyuqliklar bizni davrimizda uchramasligi kerak.

### Qarsak o‘yin

O‘zbek xalq raqs san‘atining qadimiy ko‘rinishlaridan biri “Qarsak o‘yin” deb ataladi.

Qarsak chalib ritm-usul hosil qilish va unga mos harakatlar topib o'ynash "Qarsak o'yin"ning xarakterli belgisidir. Bundagi qarsakni doira usuli bilan qiyos qilsa bo'ladi. Raqsda uning roli juda muhim. Qarsakchilar o'yinni boshlagan, o'yinchiraqqosga kayfiyat tug'dirgan, qarsak usulini o'zlashtirish bilan o'yin harakatlarini yangilab, boshqarib borgan. Eng muhimi, ular usul berish bilangina qanoatlanmasdan, o'yinga bevosita aralashganlar, bir vaqtning o'zida ham usulchi, ham o'yinchi, ba'zan qo'shiqchi sifatida ham ko'ringanlar. Qarsak chaluvchilarning "qarsakboz" deb atalishi ham ko'nikma va mahorat talab qilgan. Zotan qarsak har xil tezlikda, xilma-xil usul bilan urilgan: goh uchtalab, goh beshtalab chalingan. Bir damda uriladigan qarsaklar soni ko'paygan sari uning texnikasi murakkablashib boradi. Shu sababli faqat qarsakbozlargina bu xilma-xil ritmlar texnikasini va "Qarsak o'yin" harakatlarini yaxshi bilishgan. Mashhur olim va mutaffakir Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining "Kitob ul-musiqo al-kabir" ("Muzika haqida katta kitob") traktatida qarsakni muzika ijrochiligi turlaridan biri sifatida talqin etadiki, bu muayyan ritmik qonuniyatlarga bo'ysinuvchi qarsakning, birinchidan, kelib chiqishga ko'ra qadimiyligidan dalolat bersa, ikkinchidan, uning muzika va raqs olamida alohida qimmatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Qarsaklar ritmida o'ynaladigan ko'pgina o'yinlar va raqlar mavjud bo'lgan. Ammo, afsuski, ular haqida hamon san'at ishqibozlari u yoqda tursin, baletmeysterlar va raqs merosimizning katta bir bobini tashkil etuvchi, necha asrlik taraqqiyot yo'llini bosib o'tgan mazkur raqlar ilmiy rekonstruksiya qilinsa, tiklansa, zamonaviy raqs san'ati taraqqiyotiga xizmat qilgan bo'lardi.

U asosan, ikki yirik bo'limdan—"Besh qarsak" va "Mayda qarsak" dan iborat.

"Mayda qarsak" ham o'z navbatidan uch bo'limga bo'linadi: "Yakka qarsak", "Qo'sh qarsak", "Tez" (ayrim joylarda "Uzma" deyiladi). Yana boshqa turlar ham uchrab turadi. Chunonchi, Samarqand oblast Urgut tuman G'o'z qishlog'ida yuqorida ko'rsatilgan turlar bilan bir qatorda qarsak bilan ijro etiluvchi Sarboz" degan qarsak o'yini ham bor. "Sarboz"da maqom kuylari va klassik shoirlarning she'rлaridan foydalaniladi.

"Mayda qarsak" hozir ham juda keng tarqalgan. Ayniqsa, Samarqand oblastining Urgut va Jizzax oblastining Forish rayonlarida har qanday ma'raka "mayda qarsak" yallalari va raqlarisiz o'tmaydi. Unda qarsak-usul, kollektiv tomonidan bir ovozda aytildigan yallalar va raqs, ya'ni san'atning bir necha turi birlashadi. O'yin har joyda har xil tashkil qilinadi. Ko'p joylarda ijrochilar yonma-yon turgan yoki o'tirgan holda davra yoki yarim aylana hosil qiladilar, o'yinchi o'ttada o'ynaydi. Bunda odatda hyech qanday cholg'u asbobi ishlatilmaydi. G'o's qishlog'ida esa u boshqacha o'tkaziladi. Unda xoh erkaklar, xoh xotin-qizlar ma'rakasida bo'lsin, o'yinchilar yarim davra hosil qilib saf-saf va g'uj bo'lib, terilib o'tiradilar. O'yinni boshlovchi "sarkarda" patnis bilan o'ttada o'tiradi. Biroq davrami, yarim davrami, ikkala

ko‘rinishda ham, tomoshani o‘yinboshi –“baytchi” boshlab beradi. U bayt aytadi, boshqalar naqorat bilan unga jo‘r bo‘lishadi.

“Mayda qarsak” bo‘limlarining hammasi ham kuy va qo‘sish bilan ijro etiladi. Shunisi xarakterlikni, bo‘limlar bir-biridan ajratilmasdan butun bir siki shaklida olib boriladi. Har bo‘limda o‘nlab kuylar bo‘ladi. Biroq hammasi bir xil qarsak usulida olib boriladi. Har bo‘limda o‘nlab kuylar bo‘ladi. Biroq hammasi bir xil qarsak usulida olib boriladi. Ikkinci bo‘limga o‘tgach, kuy hamda qarsak ritmi o‘zgarib raqs harakatlarini yangilaydi. Bu o‘yinlarda yalla qanday o‘ringa ega bo‘lsa, raqs ham shunday o‘ringa ega. Davra o‘rtasidagi o‘yinchigina emas, balki qarsakchi-yallachilar ham usulga mos chayqalib, tebranib turishadi.

Qarsak o‘yinlarida o‘rtaga chiqish-ancha ma’suliyatli, har kimning qo‘lidan kelavermaydigan ish. chunki o‘yinchi o‘zining butun harakatlarini qarsak usullariga moslashi kerak. “Mayda qarsak”da ikki turli raqs borligi aniqlandi. Biri bosiq harakatlar bilan ijro etiladi. Unda raqschi qo‘llarini kamon qilib beliga tiragan holda eshilib, kiftlarini navbat bilan egib, titratib o‘ynatadi.

Qarsak usuliga binoan o‘yinchining, asosan, qo‘l va bosh harakatlari o‘zgarib turadi. O‘yinchi faqat oyoq uchida ikki qo‘lini pastga tashlab, ko‘tarib, ko‘krakka kamalak qilib, bosh silkitib, yelka uchirib o‘ynaydi.

Ammo “Besh qarsak” turkumdagи boshqa o‘yinlardan keskin farq qiladi. U quyidagi tartibda olib boriladi. O‘yinchilar sho‘x va shodiyona bir kayfiyatda bir-birini tortib davra hosil qilgach, baytchi yakka qarsak usulida rechtaivsimon kuya solingan quyidagicha bir yoki ikki band bayt aytadi:

Eshik oldi qayrag‘och,

Bolta ursam tagi tosh.

Bir yostiqqa ikki bosh,

Ikkoviyam qalam qosh

Yoki:

Ariq labi muzlama,

Qo‘y go‘shtini tazlama.

O‘z yoring uyda turib,

Begonani ko‘zlama.

Bayt tugagan zahotiyoyq besh qarsak uriladi, qarsak bir ko‘tarilib keyin tushiriladi, so‘ngra yana bayt aytildi, yana qarsakka o‘tiladi va hakazo.

Shunday qilib, “Besh qarsak” yonma-yon turib davra hosil qilgan holda ma‘lum temp va usulda uriladigan qarsaklar, ayrim qiyqiriqlar vositasi bilan o‘ynaladigan ommaviy raqsdir. Uning katta davralarida 20 va undan ziyod kishi ishtirot etadi. Ular bir tempda qarsak urib turish bilan birga u yon-bu yonga chayqalib, o‘tirib-turib va ayni vaqtida o‘ng tomonga yon bilan aylanib o‘ynaydilar. Shunisi xarakterlikni, guruh o‘z harakatlari, imo-ishoralari bilan o‘rtada o‘ynab turgan yakkaxon raqsching

muqomlariga o‘z munosabatini bildirib, uni qizitib turadi, yangi-yangi harakatlar o‘ynab topishiga yordam beradi. O‘z navbatida solist ham davradagi o‘yinchilarni yangidan-yangi ritmik usullar va jilvalar to‘qishga undaydi. Oadtda davra o‘rtasidagi o‘yinchichining harakatlari shiddatli, jo‘sinqin va jangovar bo‘ladi. U ko‘proq qo‘l, bel, yelka, ko‘krak harakatlarini ishlataladi, yuzida son-sonoqsiz ifodalar hosil qiladi, goh bukilib, goh g‘oz turib, goh tiz bukib, goh cho‘kkalab o‘ynaydi. “Besh qarsak” da ham umumga, ham yakkaxonga taaluqli bo‘lgan ikki xususiyat alohida ko‘zga tashlanadi: biri qanday holatda bo‘lmasin,-ko‘krak kerib va yelkalarni sal orqaga tashlab o‘ynash; ikkinchisi, asosan, tizzalarni bir oz bukkan holda harakatlanishdir.

“Besh qarsak” o‘yinlarida an'anaga aylangan muayyan kompozitsiya, plastik, pantomimik va mimik harakatlar majmuasi, davra bilan solistning o‘zaro yarashgan munosabati kabi xislatlar mavjud, albatta. Ammo “Besh qarsak” ustasi bo‘lish uchun mana shu barqaror asosni maxsus va mukammal egallashning o‘zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun “besh qarsakchi” yana katta badihago‘ylik qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Zero, bunda hamma: baytchi, jo‘sib, to‘lib-toshib, ko‘tarinki ruh va ehtiros bilan, o‘yinga nihoyatda berilib, ba’zan hatto jazavaga tushib o‘ynaydi. Mana shunday bir ijodiy ehtiros sharoitida son-sanoqsiz yangi raqsiy harakatlar, holatlar, imo-ishoralar va raftorlar maydonga keladi. Ishtirokchilar bir-birlarini yaxshi tushunishlari, bir ikkinchisining yangi harakati, kayfiyati, ba’zan hatto ko‘z ilg‘amaydigan jilvalarini payqab, tezda javob berishi, topilmalarni quvvatlash va riaojlantirish bilan birga o‘zi ham yangilarni ijod qilish lozim. “Besh qarsak” o‘yinlari mana shunday ijodiy musobaqa tarzida o‘tadi. Ayniqsa, o‘rtada o‘ynovchi solist kuchli badihago‘y bo‘lishi kerak. U ba’zan yangi, qiziqarli harakat qilganda, davradagi ko‘z ostiga olgan ishtirokchiga ro‘baro bo‘lib, uni tortishuviga chorlaydi. Shunda davra o‘rtasida bir-biri bilan kuch sinashuvchi ikki o‘yinchi paydo bo‘lib, umuman raqsning jo‘sinqinligi yanada kuchayib ketadi. Ba’zi katta to‘y va sayllarda “besh qarsakchi” larning bir emas, bir necha davrasi hosil qilinib, ular o‘rtasida ijodiy tortishuv o‘tkazilgan.

Hozircha Jizzax oblastining Forish rayonida mavjudligi aniqlangan “Tevarak o‘yin” ham davra hosil qilib o‘ynalishi va qarsak ishlatilishi bilan “Qarsak o‘yin”ga yaqindir. “Tevarak” so‘zi “childirma” va “davra” ma’nosini beradi. Binobarin, “Tevarak o‘yin”ni childirma o‘yin yoki davra o‘yin deb tushunish lozim. Buning ikkalasi ham to‘g‘ri, chunki “Tevarak o‘yin” davra bo‘lib childirma chalib o‘ynaladigan umumiyoq raqsdir.

“Tevarak” o‘yin

Forishda xotin-qizlar orasida tarqalgan. Hozir ham xotin-qizlarning har qanday yig‘ilishi bu o‘yinsiz o‘tmaydi. “Tevarak o‘yin”ning tartibi quyidagicha bo‘ladi: ma‘rakadagi qobiliyatli xotin-qizlarning hammasi davra shaklida tizilishadi. Ular orasida yonma-yon 2-3 ta childirmachi bo‘lib, o‘yinni shular boshlab beradilar: biri

bayt aytadi, qolganlari childirma chaladi. Davradagi boshqa barcha xotin-qizlar “yakka qarsak” yoki “qo’sh qarsak” bilan usul berib, shu usul maqomida yon bilan o’ng tomonga harakatlanib turadilar. Baytchi almashib, kuy yangilanib turadi. O’rtadagi o‘yinchilarning harakatlari qotishiga qarab, davradagi boshqa bir kishini tortib chiqaradi. Qarsakchi, baytchi, childirmachi, usulchi almashib turganligidan o‘yin uzoq davom etadi.

Bu o‘yinda “Gulbog”, “Omonyor”, “Duranjon” singari o‘nlab xalq qo’shiqlari aytildi. Ularning kuylari sodda, nafis, yoqimli, so‘zlari esa o‘zbek xotin-qizlari orasida keng tarqalgan an‘anaviy qo’shiqlardan bo‘lib, sevgi, sadoqat, do’stilik, hijron va nola mavzularini tarannum etadi.

Namunalar:

Sochim nega o’smaydi, gulboqqa, gulboqqa,  
Uchimda tumori bor, gulbog‘.

Yorim nega kelmaydi, gulboqqa, gulboqqa,  
Ko‘nglida gumoni bor, gulbog‘

Yoki:

Tomga sepdim sedana, omonyor,  
Yo‘rg‘alaydi bedana, omonyor,  
Seni(ng) ishqiningda yorim, omonyor,  
Men bo‘libman devona, omonyor.

“Tevarak o‘yin”ning o‘ziga xos maxsus o‘yinlar kam uchraydi. Ko‘p joylarda o‘rtada o‘ynovchi yakkaxon o‘yinchilarning harakatlari xotin-qizlar orasida boshqa vaqtlerda ham ijro etiladigan raqs harakatlaridan deyarli farq qilmaydi.

Shunday qilib, “Qarsak o‘yin” ovchilarning turli o‘yinlari va zardo’shtiyalar bilan bog‘liq holda maydonga kelib, ko‘p asrlik murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Katta evolyusiya davomida davrlar, ijtimoiy hayat ta’sirida u shaklan va mazmunan o‘zgarib, madaniylashib, xalq ommasi orasida e’tibori ortib borgan. “Qarsak o‘yin” o‘ziningt ilk ko‘rinishlarida boshqa mavjudodning qiyofasini yaratish mahoratini o‘yin bilan birga qo’shib olib borgani sababli ham teatr, ham raqs san’atiga aloqador edi. Uning halq aktyorlari va qishloq masxarabozlari repertuaridan o‘rin olganining boisi ham shunda. Ammo rivojlanish jarayonida “Qarsak o‘yin” teatr dan tobora uzoqlashib, tom ma’nodagi raqs san’atiga aylangan.

“Qarsak o‘yin” xalqimiz orasida doira shaklida aylanib, ashula va ritm yordamida kollektiv bo‘lib ijro etiladigan raqlarning qadim zamonlardan boshlab rasm bo‘lganini tasdiqlaydi: raqs san’ati tarixi bilan jiddiyroq shug‘ullanish ilmiy-nazariji jihatdangina emas, praktik jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekaniga e’tiborni jalb etadi.

1. Xalq tomosha san'atining qanday turlari mavjud?
2. Qanday o'zbek raqs turlarini bilasiz?
3. Raqs sanatining qanday o'ziga xos jixatlari mavjud?
4. Turfa o'yinlarga izoh bering.
5. O'zbek qiziqchilik san'ati qanday yo'llarni bosib o'tdi?
6. O'zbek askiya san'ati va uning namoyondalari haqida gapiring.
7. Qarsak o'yinini izohlab bering.

### **O'zbek xalq o'yinlari**

#### **Reja:**

1. O'zbek xalq o'yinlarini vujudga kelish tarixi.
2. Asrlar davomida xalq o'yinlarining shakllanib takomillashib borishi.
3. Xalq o'yinlari – Etnomadaniyatning tarkibiy qismi.
4. Xalq o'yinlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi.
5. Chorvachilik bilan bog'liq xalq o'inlari.

Dehqonchilik vujudga kelishi va rivojlanishi ikki an'ana: ya'ni baqorda meqnat mavsumiga kirish va kuzda qosilni yiqish yakuniga baqishlangan marosim-bayramlar-ni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yoz bo'yи meqnat qilib, mo'l qosil yetishtirgan deqqonlar xursand bo'lganidan o'ziga xos xirmon to'yini o'tkazib, unda meqnat jarayonlarini o'yin-lar orqali aks ettirishgan. Bu "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyatda, bayram qolatida o'tgan.

Shunday qilib, eng qadimiy davrdan boshlab inson qayotida termachilik, ovchilik, chorvachilik, deqqonchilik-ka oid meqnat tajribalari bilan birga o'yin-raqlar shakllana boshlaydi. Ongli meqnat va tajriba asosida turli o'yinlar paydotutadi. Chunki o'yinlar boshqalar tajribasidan, ilqor-lar yutuqidan, keksalar ibratidan, avlodlar merosidan samarali foydalanishga imkoniyat yaratgan. Shuni aloqida ta'kidlash kerakki, marosim, san'at, ijod kabi madaniyat turlarining vujudga kelishida va rivojlanishida o'yinlar o'ta muqim rol o'ynagan. Obraz-li qilibaytganda, o'yin ko'pgina qadimiy madaniy tur-larning, jumladan, raqs, teatr, sport kabilarning "onasi" qisoblanadi. Dastlab o'yin insonning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan bo'lsa, keyinchalik inson o'yinni ri-vojlantirdi.qar bir tarixiy davr o'z o'yinlarini yaratadi va bu o'yinlar o'z davri kishisini tarbiyalashda muqim o'rinn tutadi. O'yinlar odamlarda

yashash uchun eng zarur bo'lgan si-fatlarni shakllantiribgina qolmay, balki ularni qar to-monlama - ma'nnaviy, aqliy, jismoniy rivojlantirishda qam aqamiyatli bo'lgan. Lekin, asosiy etibor o'sha vaqt uchun juda muqim bo'lgan xususiyatlarga, masalan, itoat qilish, buyruqni bajarish, jangovorlik kabilarga qaratilgan. O'yinlarning shakli va mazmuni avvalo tabiiy sharoit-dan, shuqullandigan faoliyat, kishilar orasidagi o'zaro munosabat, ijtimoiy axloq, siyosiy vaziyat kabilardan kilib chiqkdn. O'yinlardagi "nizoli" qarakatlar ijtimoiy qayotdagi qarama-qarshiliklarning io^odusasi yoki o'ziga xos aksi sifatida vujudga kelgan.

O'yinlar xalq xayotining muqim qismi bo'lganligini Sharq allomaları -Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Maxmud qoshqariy, Kayqovus, Alisher Navoiy, Boburlarning asar-laridan qam bilsa bo'ladi. Chunki Firdavsiy - uioxJiap o'yinlari, Beruniy qadimgi xalqlar o'yinlari, Ibn Sino - o'yinning shifobaxsh xususiyatlari, Maqmad qoshqariy -turkiy xalqlarga oid ko'plab o'zin turlarining bayoni, qay-qovus - o'yinlarda qatnashish odobi, Alisher Navoiy - paq-lavonlik o'yinlarining badiiy ifodasi, Bobur - o'yinlar zavq-shavqi qaqlida jiddiy fikrlar izqor etganlar.

Tarixiy adabiyotlardan bilamizki, qadimgi va o'rta asrlar davridagi minglab o'yinlar ichida shunday musobaqa bo'lganki, bunda shaqarning ikki qism vakillari ora-sida "qilich jangi", "Tuya poygasi", "Tuyalar jangi", "Otiqlar poygasi" va qokazolar o'tkazilgan. Ularga sha-qar aqli yil davomida tayyorgarlik ko'rishgan. O'rta asr Sharq miniatyuralaridagi "Chavgon o'yini", ("qoboq o'yini"), "Chimto'p" kabi tasvir-o'yinlar katta qiziqish uyqotadi. Afsonaviy va tarixiy shaxslarning shakllanishida xalq o'yinlari muqim o'r'in tutgan. Masalan, Alpomishning al-pqomatl paqlavon bo'lishida menganlik, olishish, nayza otish, qilichbozlik, chavandozlik, ot, kurash kabi muso-baqa o'yinlari asosiy omil bo'lgan.

Soqibqiron Amir Temuring qar tomonlama kamol to-pishida xam o'yinlar xam katta rol o'ynagan. A.Temur yosh-ligida olishuv-kurash, ot o'yinlari, chavandozlik, poyga, menganlik, (tirandozlik), qilichbozlik, tosh ko'tarish, uzoqqa chopish kabi musobaqalarda qatnashib, chiniqkd. Yoshligidagi bu o'zin-mashqlar keyinchalik soqibqironga juda asqotgan. O'yinlarning eng muqim tomonlari shundaki, inson qayotida erisholmagan yoki o'ziga yetishmaydigan narsalar, qodisalarga o'zin yordamida erishardi. O'zin orqali inson (jismoniy, ruqiy, aqliy) kuchi rivojlantirilgan, uning yordamida, kerak bo'lsa, inson ortiqcha kuchini qam o'zidan chiqarib yuborgan, sarflagan.

Ma'lumki, barcha o'yinlar orasida turli kasb egalari-ning qam o'ziga xos o'yinlari bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha uloq (ko'pkari) o'zini chorvadorlar orasida keng tarqalgan ekan. Albatta bunday o'yinlar cho'pon-chorvador-larning eqtiyojlariga ko'ra vujudga kelgan. Ma'lumki, cho'ponlar o'z kasb xususiyatlari ko'ra kamroq qarakat qiladilar. Buning ustiga ular o'z kasb xususiyatlari ko'ra muloqotga qiziqarli o'yinlarga o'ch bo'lishadi. Cho'ponlar podani tashlab keta olmasliklari

tufayli o'sha atrofda o'ynash imkoniyatlarini izlaganlar. Buning uchun ular atrofidagi mavjud joy va vositalarning o'zi kifoya bo'lgan. Poda boqiladigan o'tloq o'yin uchun juda qulay bo'lgan, doim qo'ldan tushmaydigan cho'pon tayoqi esa "chavgon" vazifasini bajargan. To'pni esa qo'y (yoki mol) junidan oson-likcha yasab olingen. Shu tariqa cho'ponlarning "Podachi", "Poda to'p", "jun to'p", "Chim to'p", "Chavgon" kabi o'yinla-ri paydo bo'lgan. Tarixdan ma'lum bo'lgan "Chavgon" nomli o'yin dastlab podachilar, yilqichilar o'yini bo'lib keyin-chalik turli tabaqalar orasida, o'rta asrlarda esa otliq qarbiylar o'tasida keng tarqalgan Bunday o'yinlar Sharq mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib. ularni "Chim to'p" deb nomlangan. Bobur lashkarlari bu o'yinni qindistonda qam sevib o'ynashgan. Shu bilan bu o'yin u yerda qam ommaviy tus oladi. Inglizlar qindistonni bosib olgandan so'ng bu o'yinni ingлиз soldatlari Angliyaga olib o'tishadi. Shun-day qilib bu o'yin asosida yangi "Chim ustida xokkey" nomli o'yin dunyoga keng tarqaladi.

Tarixda xalq o'yinlari ayniqsa bayram, to'y, sayil kunlari avjiga chiqib, bu tantanalarning ko'rki qisob-langan va ular fayz kiritgan. Xalq o'tasida "Poyga", "Podachi", "Yostik o'yin", "Tosh o'yin", "Aqdarish", "Chavgon", "Ot poygasi" kabi o'yin va musobakalar aynan bayram kunlari avjiga chiqqan. Ayniqsa kurash, poyga, ko'pkari (uloq) kabilar mashqur bo'lgan. Shuningdek, bayram va dam olish kunlari turli xarakterdagи qimor o'yinlarini chunonchi, "suyak"("oshiq") o'yini, tuxum urishtirish, bedana, xo'roz, it va qo'chqor urishtirishlarni qam uchratish mumkin bo'lgan.

Shuni aloqida ta'kidlash kerakki, an'anaviy bayram kunlari qiziqarli ommabop xalq o'yinlari uchun o'ziga xos norasmiy jadval-kalendar xisoblangan. "Navro'z" va "qu-rultoy" kunlari o'yin ishtirokchilari qam, tomoshabinlar qam azaldan ma'lum joyga (saylgoqqa) e'lonsiz to'plana be-rishgan. Xalq o'tasida keng tarqalgan o'yinlar (ko'pkari-uloq, kurash kabilar) oddiy musobaqa-o'yin bo'libgina qol-masdan balki, ularni uyuştirish o'ziga xos marosimga ayla-nib qolgan. Masalan, to'y-tomosha va sayillarda uyuştirila-digan kurash musobaqalarining o'z an'analari mavjud bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, to'y kunlari o'ziga xos sport maro-simidan tashkil topgan: kurash musobakalarini tomosha qilish uchun yuzlab tomoshabin-ishqibozlar yiqilgan, obro'li kishilar va oqsoqollardan qakamlar qay'ati saylangan. Muso-baqa o'z tartibiga ega bo'lib, uning muqaddimasi ikki oqso-qolning ramziy bellashuvi bilan boshlangan. So'ng eng kichik "paqlavonlar" maydonga tushishgan. Birin-ketin (yoshga, so'ng gavdaga qarab) kurashchilar davraga tusha berishgan. Musoba-qanining avjida eng kuchli va dongdor paqlavonlar maydonga chiqishgan. qoliblar kurash tugashi bilan darqol moddiy raq-batlantirilgan, ularga qimmatbaqo sovrin (zot)lar beril-gan. Chunonchi, agar yosh kurashchiga belboq-do'ppi berilsa, eng mashxur polvonga qo'y, otlargacha berilgan. Ajdodlarimiz qayoti qozirgi qayotga nisbatan bir xil, monotonroq bo'lgan. O'yinlar esa bu qayotning ma'lum mud-datga bo'lsa-da

mazmunli, kizikarli va maroqli o'tishiga yordam bergan.O'yinlar kishilarni vaktinchalik real qayotdan, uning muammo, tashvishlaridan chalqitib, qaramaqarshiliklar-ni, qiyinchiliklarni yengish va muvaffaqiyat qozonish uchun shunday bir vaziyatni vujudga keltirardiki, buni shoira Nilufarning quyidagi xotiralari bilan ifolash mumkin: "Urush davrlarida xotin-kizlar qam-tashvishdan ezilgan, qiyngangan, och-naqor bo'lishlariga qaramay, o'yin uchun (kunduzgi oqir turmushdan keyin, kechqurun) maxsus joy va vaqt topa olganlar. O'yin orqali ular qisqa vaqt bo'lsa qam fojiali davrni unutdilar, to'planib yotgan qissiyot-lar o'zini ko'rsatar, ertangi meqnat uchun yangi "kuch" olar edilar. Urush davrlarida bu kam uchraydigan, ammo marokli daqiqalar qisoblanardi".

Shunday qilib, o'yin inson-ning chuqur ma'naviy, ruqiy va jismoniy ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlangan. O'yin juda qadim zamonlarda-noq kishilar shakllanishi va rivojlanishining muqim shakllaridan biri bo'lgan. Tarixiy rivojlanish jarayoni-da qar bir etnik guruq (qabila, uruq, elat, millat)ning qayotiy-tabiyyi ehtiyojlarasi asosida o'ziga xos o'yinlar va ma'naviy-ruqiy, jismoniy madaniyatni vujudga kelgan. Shuning uchun o'yin asoslarini va jumladan, boy va ser-qirra xalq o'yinlarini chuqur va qar tomonlama o'rganish muqim aqamiyatga egadir.

Ma'lumki, har bir xalq boy o'yin manbaiga ega. Uzbek xalqi ham bundan istisno bo'lmay, u juda boy o'yin mero-siga ega. Xalq baqrda minglab o'yinlar mavjud bo'lib, bu-larning orasida hammaga ma'lum o'yinlar bilan bir kator-da, ayrim mintaqalarga xos o'yinlar ham bo'lgan, ba'zan bir qishloq o'yinlari boshqa qishloq o'yinlaridan fark qilgan. Bulardan tashhari, o'zbek xalqining an'analari orasida turli yoshdagilar, turli jinsdagilar, yil fasl-lari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizimi ham bo'lgan.

O'zbek xalq o'yinlari orasida boshqotirma, so'z, qo'shiq, raqs-o'yinlar, voqeband, harakatlari o'yin turlari mashhur bo'lgan. Shuningdek, xalq hayotida to'y - bayram o'yinla-ri, jamoalar ishtirokida o'tadigan o'yinlar, zavq-shavq-li o'yinlarning ham o'ziga xos o'rni bo'lgan. Xullas, xalq hayotida minglab o'yinlar, o'nlab, yuzlab o'yin turlari mavjud bo'lgan. Biroq ilmiy adabiyotlarda hanuzgacha umum qabul qilingan tasnifni topish qiyin. Shunday bo'lsa-da, quyida biz o'yinlar va ularga xos ayrim an'anadarni quy-idagi guruqlarga bo'lib o'rganamiz.

### **1. Tabiiy-mavsumiy o'yinlar.**

Tabiatdagi o'zgarishlar yil fasllari asosida vujudga kelgan. Shu sababli doimiy o'tkaziladigan o'yinlar bilak birga har bir fasl o'yinlari ham mavjud bo'lgan. Masa-lan, baqorda daraxtlar uyqonib, tollar kurtak chihargan-da - "Tol bargak", dala gullari ochilganda o'ziga xos qo'shiq-li, raqsli, tez harakatlari "Yomqir yoqaloq", "Oq terakmi-ko'k terak" kabi o'yinlarga ehtiyoj tuq'ilgan. Yozda esa salqin joylarda, daraxtlar soyalarida, soy va ariq bo'ylarida kam harakat qiladigan o'yinlar o'ynalgan. Ayniqsa

suvda cho'milish vaqtida "Suvda quvlashish" ("quvlashmachoq"), "Tez suzish", "Suv ostida suzish" kabi o'yinlar avjga chiqqan.

Yoz oxiri - kuz boshi - pishiqlik, to'qchilik vaqtida da-nak, yonqoq o'yinlari, arqimchoq uchishlar sevilib o'ynalgan. Kech kuz - qishda yoqingarchilik boshlanib, yer yumshagan-da koziq, oshiq, tosh o'yinlari odatga kirgan. qor yoqqanda "korxat", "qorbo'ron"; yomqir yoqqanda "Yomqir yoqaloq"; kupli shamol esganda - "Bo'ronbo'ron" kabilarni o'ynash an'analari bo'lgan. Sovuq o'z kuchini ko'rsatganda barcha sandal atrofida yiqilib: "Topishmoq top", "Tez ayt", "Kim aytish", "Oyoqingni tort" kabi o'yinlar o'ynalgan.

Barchaga ma'lum, bo'lgan "Uloq" ham hamma vaqt o'ynala berilmagan. U kech kuzdan to baqor o'talarigacha o'tkazil-gan, chunki issiq yoz kunlari ot ham, chavandoz ham qattik qizib ketgan, bularidan tashhari baqordan to kech kuzgacha bo'lgan davr qishloq xo'jalik mavsumiga to'qri kelgan. Yozda issiq pasaygan, salqin kechada bolalar "Oq suyak" o'ynaganlar. "Oq suyak"ni nafaqat kechasi, balki qoronqu tunda ham o'ynash mumkin bo'lgan.

## **II. Xududiy va turli joylarga xos o'yinlar.**

O'zbekiston hududida umumxalq - hamma biladigan qizi-harli o'yinlar bilan birga har bir qudud, joyga xos o'yin-lar bo'lgan. Bir joyda ma'lum bo'lgan o'yin boshqa joyda-gilarga noma'lum bo'lgan. Buni o'qituvchi A.Vasilevning maqolasi tasdiqlashi mumkin. U 1909 yili bolalarning o'nlab harakatli o'yinlarini to'plab, yozib qoldirgan. Shu-lardan, "Chumchuq tushdi boshimga" o'yini Farqonada keng tarqalgan, lekin Toshkentda yashovchilardan so'ralganda birortasi bilmagan. Vasilevning xizmati shundan iborat-ki, u farqonaliklarning juda ko'plab o'yinlarini yozib qoldirgan. Bular "Botmon-botmoi", "qushning boshi", "Kapan", "Do'ppi tashlar", "Parr etdi", "Shayton-shayton" va boshqalar. Shaxar va qishloq o'yinlari orasida ham ma'lum farq-lar bo'lgan. Agar qishloq o'yinlarining ko'pchiligi keng dalalarda o'tkazilsa, shahar o'yinlari kichik maydonlar-da o'tqan. Masalan, toshkentlik qizlar orasida "Chigirik"- (joyida aylangan qolda koptok o'ynash), "Charak" (erda chi-zib qo'yilgan to'rtburchak chiziqlar orasida sakrash), "Arkon o'yin" (arqondan sakrab o'tish), "Tosh o'yin" (mayda tosh-chalar) kabi o'yinlar o'rinni egallagan. Shuningdek, kizlar o'ynash uchun navbat bilan bir-birlarining qovlilariga to'planganlar, bu an'anaviy shakl "qalfana" qizlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishda o'ziga xos uyushma qisoblangan.

Xullas, ko'p asrlar davomida tabiiy sharoit, atrof-muqit, ijtimoiy munosabatlар, turmush tarzi, hayot eqti-yojlari asosida xalq ma'naviy hayotining tarkibiy qismi sifatida bolalar va kattalar, shahar va qishloq, mavsu-miy va boshqa o'yinlarning o'ziga xos tizimi rivojlanadi. Umumxalq qududiy o'yinlari ham turli joy va muqit-da o'ynalgan. Masalan, uyda- sandal o'yin, boshqotirma va so'z o'yinlari; qovlida- tosh o'yinlari, arqon, chiziqli o'yinlar, bekinmachoq; maydonlarda- tortmachoq; boqda-

yonqoq, danak o'yinlari; suvda-suv ostida ko'p turish, su-zish bo'yicha musobaqlar, kuvlashmachoq; qatto qavoda- ar-qumchoq uchish; osmonda- varrak o'yinlari bajarilgan.

Xullas, har bir joyning o'z o'yini bo'lgan, qatto sar-doba, karvonsaroy, choyxona, meqmonxona kabi joylarning o'z o'yinlari bo'lgan. Karvon ketayotganda yo'lida bajarila-digan o'yinlar ham bo'lgan. Tuya, otta o'tirib kelayotgan yo'lovchilar dam olish bekatlarida oyoqini yozish, faoliyat almashtirish maqsadida arqon sakrash o'yinlari bilan shuqullanganlar. O'yin-musobaqlar o'tkaziladigan maxsus joylar bo'lgan. Ular o'yingoq yoki sayilgoq deb nom olgan. O'yingoq-larda bir necha tartibda yuzlab o'yinlar o'ynash mumkin bo'lgan.

### **III Turli yoshlarga xos o'yinlar.**

'Ma'lumki, o'yin insonning shakllanishida va ayniqsa yosh bolaning rivojlanishida o'ta muhim o'rinni tutadi. O'yinga ehtiyoj va qiziqish bola tabiatida bor. Bolaning birinchi faoliyati o'yin bilan boshlanadi. Bola hayotni avvaliga o'yin bilan o'rganadi, qis qiladi, tushunishga harakat qiladi. U o'yin yordamida katta xayotga tayyorgarlik ko'radi.har bir yoshning o'z o'yinlari bor. Turli yoshlarga oid xarakter, fazilatlar o'yin shakli va mazmunini belgilab beradi. Masalan, chaqaloq yiqlamasligi uchun unga ovunchoq berishadi va uni ovutadigan o'yinlarga jalb etishadi. Un-dan so'ng, bola go'dak davrida manipulyasiyalı - o'yinchoq qo'qirchoq o'yinlarini xush ko'radigan bo'lib qoladi. Undan so'ng bolalar taqlid qilish va syujetli o'yinlarga, ya'ni uy-uy, ona-bola, ko'shni-qo'shni, ov-ov, ish-ish kabito'yin-larga duch bo'lishadi. Shu yoshdagi qizlar orasida, ayniqsa xola-xola, bola boqish, ovqat pishirish; o'qil bolalar o'rtasida esa ovga chiqish, urush-urush va qokazolar rivojlan-gan. O'smirlar va yoshlar orasida esa harakatli o'yinlar: bekinmachoq, oq terakmi-ko'k terak, chillak, yonqoq o'yini, tosh o'yini, suyak o'yini, do'ppi "telpak ketdi", podachi kabilar keng tarqalgan. Bolalar va o'smirlar hayotida o'yinning ahamiyati juda katta bo'lgan. Avvalo, shuni aytish kyorakki, bolalarning hayotini o'yinsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa 7 yosh-gacha bo'lgan bolalar orasida o'yin asosiy mashqulot qisob-lanadi. Keyinchalik o'yinlar o'rnini o'qish va asta-sekin ish va meqnat egallay boradi. O'yinlar bolalar uchun "hayotga tayyorlanish maktabi" bo'lib, ularning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. O'yin bola ongi, tafakkurini o'stirib, xotira, diqqat, irodasini mustaqamlaydi, jismoniy, ruhiy, hissiy (Emosional-)taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'yin bo-lani katta hayotga tayyorlashda mashq vazifasini baja-rib, kelajakda hayotda duch keladigan turli qolatlarga ma'naviy tayyorlaydi. Agar bola o'yinda halol o'ynasa, keyinchalik hayotda ham halol bo'ladi yoki bola o'yiniga harab, uni qanday odam bo'lishini aytish mumkin, degan naqllar bekorga aytilmagan bo'lsa kerak. qisqa qilib aytganda, o'yin bolalarda ijodiy faollik, tashabbuskor-lik, tashkilotchilik va boshqa ko'nikmalarni rivojlan-tirishda muhim vosita hisoblanali. O'yinlarda bolalar-ni o'rab

turgan dunyoni tushunish va unga;ta'sir qilish eqtiyoji shakllanadi, aqliy, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari shakllanadi, bir so'z bilan aytganda o'yin yordamida inson tarbiyalanadi, shaxe shakllanadi.

O'yinlar nafaqat bolalar, balki katta yoshdagilar hayoti-da ham muhim o'rinn tutadi. Agar o'yinlar bolalarning ru-qiy va jismoniy rivojlanishi, xayotga tayyorlanishi uchun kerak bo'ladigan bo'lsa, katta yoshdagilar uchun ular bo'sh vaqtlarini mazmunli va qiziharli o'tkazish, qordiq chiqqa-rish hamda balki o'zlarining soqliqlarini mustaqkamlash, chiniqish, insoniy madaniy shakl va mazmunni saklash uchun lozim bo'ladi. Agar bolalar ko'proq o'zlari uchun (tomosha uchun emas) o'ynasalar, kattalar o'yinlarining muayyan qis-mi (eng iqtidorli o'yinchilar - qavaskor va professional-lar ishtirokida) tomoshaviy musobaqa, tadbir sifatida tashkil qilinadi.

Iste'dodli o'spirin-yoshlar orasidan asta-sekin professional o'yinchi-sportchilar yetishib chiqqa boshlaydi. Ularning kasbiy mashquloti o'yin-musoboqa bo'lib qoladi.

#### **IV-Turli jinsdagilar uyinlari.**

Xammabop o'yinlar bilan bir qatorda bolalar va qiz-lar o'yinlari, keyinchalik esa erkak va ayollar o'yinlari bo'lgan.

O'qil va qiz bolalarga xos instinkt 2-3 yoshdan namoyon bo'la boshlar ekan. Masalan, yosh qizlarda qo'qirchoq o'yini-ga moyillik sezilsa, o'qil bolalar esa ish va urush quroq-lariga o'xshash o'yinchoqlar tanlab o'ynashadi.Yosh bolalarning umumiy o'yinlari bo'lsa-da, taxminan 13 yoshdan so'ng qizlar va yigitlaraloqida o'ynashadi.Natijada yigitlarning: podachi, chavandoz, oq suyak, oq tayoq, ko'rpa yopindi, tepa kurash, yelka da kurash, qirq tosh, soqqa, qulqoq cho'zma kabi o'yinlari shakllangan.qizlar esa: durra, chori-chanbar, tortishmachoq, bolq-on-bolqon, anakiy, chekintosh, qoz-qoz kabi o'yinlar o'ynash-gan.

Katta yoshdagagi erkaklarning uloq, kurash(olishish), chavgon kabi sport turlari bo'lsa, ayollarning esa ko'proq so'z, raqs, qo'shiqli o'yinlarni o'ynashi odat bo'lgan.

qozirgi katta sportda ham erkaklar qatnashadigan bar-cha o'yinlar (masalan, boks, tosh ko'tarish

kabilar) bo'yicha ayollar o'rtasida musobaqalar o'tkazilmaydi.

#### **V. Mashqulot. mexnat faoliyati bilan boqlik bo'lgan uyinlar.**

Tarixiy jarayonda, termachilik, ovchilik, chovrachilik, deqqonchilik, qunarmandchilik, tikuvchilik kabi ish faoliyati bilan boqliq o'yinlar shakllangani bizga ma'lum. Masalan, termachilikda (daraxtga chiqib, meva terish, mo'ljalga tayoq va tosh otish musobaqa o'yinlari); ovchilik-da: (ov o'yini), kamondan otish, uchar nishon (kiyik ovi), chovrachilikda: (podachi, cho'pon va oqsoq bo'ri); deqqonchilikda: (mashoba, xirmon-xirmon); qunarmandchilikda: (sar-tarosh, kovushim, kashtachi, terimchi) kabi o'yin odat bo'lgan.harbiylarning ham o'z mashqulotlariga moe keladigan urush-urush, asr olish, qal'ani egallash kabi o'yinlari mashhur bo'lgan.

## **VI. Vokeband o'yinlar.**

Teatrlashtirilgan (syujetli) o'yinlar tarixiy voqealarni, hayotning ta'sirli, qiziharli daqiqalarini badi-iy-ijodiy io^xedalaydi. Bunday o'yinlarga: podsho vazir, ov o'yin, urish o'yin, a sir olish, echki-cho'pon, bo'ri-qo'ylar va boshqalar miso bo'la oladi.

## **VII. Xarakatli uyinlar.**

Ephillik, chaqqonlik, ko'pchilik musobaqasi sifatida bir necha tomonlar o'rtasida o'tkaziladi.

Bularga misol qilib, tepa kurash, qo'riqchi, aylanib tep, qirq tosh, chir-kash (yoki chiri kas) kabilarni ko'rsatish mumkin:

1. Bir kishili o'yinlar (masalan, qoziq o'yin, sakra kabilar). Ular insonning xususiy, jismoniy

fazilatla-rini taraqqiy zttirishga ko'mak bergen.

2. Ikki kishili o'yinlar (masalan, kurash-olishuv, aqdarish, shaxmat kabilar). Ular yakkama-yakka kurashish, maqsadga erishish, qalaba qozonishga intilish qislarini shakllantirgan.

3. Guruq, jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlar (masalan, aylanma darra, sichqon-mushuk, cho'pon o'yini kabilar). Ular inoqlik, o'rtoqlik, do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik kabi xislatlarni vujudga

keltirishga xizmat qiladi.

4. Tarafma- taraf (komanda-komanda) bo'lib o'tadigan o'yinlar (masalan, oq terakmi-ko'k terak), botmon-botmon kabilar. Bu o'yinlar raqibga harshi halol kurashish va jamoa a'zolarini qurmat qilish, maqsadga hamjiqat bo'lib erishish kabi fazilatlarni tarbiyalagan.

## **VIII. Turli vositali uyinlar.**

Bu o'yinlarni ikkiga bo'lish mumkin: moddiy vosita -lar (ovunchoq, qo'qirchoq, o'yinchoq hamda tayoq, tosh, to'p, yonqoq kabilar) yordamida bajariladigan o'yinlar; - ma'-naviy, badiiy-ifodali vositalar (fikr, so'z, qo'shiq, raqs, teatr kabilar) yordamida amalga oshiriladigan uyinlar.

Moddiy vositalar bilan bajariladigan o'yinlarda to'p, tosh, tayoq, suyak (oshiq), arqon, belboq kabilardan foydalaniadi. Ko'pincha foydalaniladigan vosita o'yin nomini belgilangan. To'p yordamida poda to'p, qocharto'p, to'p devor, to'p o'yin, tosh yordamida chekintosh, bekki, uch tosh, besh tosh, qirq tosh, yuz tosh, lappar kabi, tayoq yordamida chillak, dastak, qadama tayoqkabi, yonqoq yordamida toqmi-juft kabi suyak yordamida oq suyak, oshiqa o'yin kabi, arqon yordamida arqon tortish, belboq yordamida bel-bog tortish, belboq ustida kurash kabi o'yinlar o'ynal-gan. O'yin kurollarini (atributlarini) tayyorlash - bola-larning rivoji uchun muhim bo'lgan, u meqnat va maqorat-ni talab qilgan. Masalan, to'pni - mol junidan, chilliq, yoqoch ot kabilarni daraxt novdasidan tayyorlash jarayoni bolalarda meqnatsavarlikni

rivojlaningan. Bolalar o'rtasida o'yin quollarini tayyorlash bo'yicha norasmiy musobakalar ham vujudga kelgan.

Ma'naviy, badiliy, ifodali o'yinlarda nomoddiy vo-sitalardan oyuydalanilgan. Masalan, agar o'yin aqlini, bosh qotirishni taqozo etsa - boshqotirma o'yin, agar o'yinda asosiy vosita so'z bo'lsa- so'z o'yinlari; agar o'yinda hayotiy qodisalar, voqealar, syujet, obraz orqali ifodalangan bo'lsa, ularni - Voqeaband (teatrlashtirilgan) o'yinlar; agar o'yinda qo'shiq asosiy vazifa bo'lsa, ularni qo'shiqli o'yinlar deb atash mumkin.

Asosiy vosita o'yin mazmuni, xarakteri, shakli, ko'pin-cha turi va nomini belgilab beradi. Shu sababli, ifodali vositali o'yinlar ichida so'zli, qo'shiqli, raqsli, voqeaband (teatrlashtirilgan) kabi o'yinlar aloqida o'r'in tu-tadi.

1. Boshqotirma o'yinlar. Bu o'yinlarga aqliy saloqiyat kerak bo'ladi, ular bolalarning miyasini

ishlatishga, akli-ni o'stirishga, mantiqli va tez fikr qilishga, farosat-li, dono, topqir bo'lishga xizmat qiladi. Masalan, taxta jang, chiziq o'yin, shaxmat, topqir kabi o'yinlarni boshq-otirmasdan o'ynab

bo'lmaydi.

2. So'z o'yinlari. Asosan, oqzaki nutqdan tashkil topib, ularga tez aytish, topishmoq top, qirq

yolqon, baxri bayt, guldir-gup kabilar kiradi. Bunday o'yinlarda aqliy fao-liyat asosiy o'r'in tutgani

uchun, ularni ba'zida aqliy uyinlar ham deyishadi.

3. qo'shiqli o'yinlar. Kuy va ashula, aytuv asosida vujudga kelib, ularga yak-yak, um-ufu, bo'shamma, kichkina, yuramana-yuraman, sidircha, yozi-kal, botmon-botmon, oq terakmi-ko'k terak kabilar kiradi.

4. Raqsli o'yinlar. Asosan, raqsli yoki pantomimali harakatlar asosida ijro etilib, ularga

beshharsak, cho'pon o'yin, xo'sh-xo'sh, lakka-lak va boshqalar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, vositali o'yinlar ko'pincha sof qolda, ya'ni turli yoshlilar turli jinsdag'i kishilar orasida yilning turli davrlarida ham o'ynaladi.

#### **IX. Xayvonlar ishtirokida o'tadigan o'yinlar.**

Bu qoldagi o'yinlar eng qadimgi hisoblanali. qadimgi odamlar avvaliga tabiatning o'zida qayvonlar jangini tomosha qilishgan. Keyinchalik qayvonlarni ushlab, ularni maxsus urishtirishgan. Natijada bedana urishtirish, xo'roz urishtirish, qo'chqor urishtirish, it urishtirish kabilar paydo bo'lgan. Xayvonlar ishtirokida o'tadigan boshqa o'yinlar ham bo'lgan. Ularda qayvonlardan vosita, ulov sifatida foy-dalanishgan. Jumladan, eshak va ot minib o'ynaladigan o'yinlar - eshak ko'pkari, uloq, ot poyga, aqdarish, chavgon va boshqalar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan.

Xullas, xalq hayotida minglab rang-barang uyinlar mavjud bo'lib, ular ming yilliklar ichida boyib borgan va ajdodlarimizning ma'naviy va jismoniy hayotida muqim o'rın tutgan. Ko'p asrlar davomida xalq o'yinlari avlodlarni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tagan. Ular ajdodlarimizning aqliy, jismoniy barkamol bo'lishida muhim o'rın tutib kelgan.

**Nazorat savollari:**

1. O'zbek xalq o'yinlarining vujudga kelish tarixi qaysi davrga borib taqaladi?
2. O'zbek xalq o'yinlarini qanday turlarga bo'lish mumkin?
3. Tabiiy va mavsumiy o'yinlar haqida ma'lumot bering.
4. Hududiy va turli joylarga xos o'yinlardan qaysi birlarini bilasiz?
5. Turli yoshlarga xos o'yinlarni sanab bering.
6. O'zbek xalq o'yinlarini tarbiyaviy ahamiyati nimada?

**Milliy xalq o'yinlarini tiklash va rivojlantirish**

Reja:

1. Milliy xalq o'yinlarini tiklanishi.
2. O'zbekistonda Milliy o'yinlarning rivojlanishi
3. O'zbek xalq o'yinlarining xalqaro nufuzi.

Xalq, o'yinlarining ta'qiqlanish sabablari ming afsuslar bo'lsinki, XX asrda, aniqroq sho'rolar davridan boshlab xalq o'yinlari hayotdan siqib chiqarila boshlandi. Buning sabablari ko'p. Birinchidan, xalq an'alarini ta'qiqlash totalitar tuzumning yashirin milliy siyosati natijasi edi. Bu siyo-satning asosiy maqsadi mamlakatda umumsovet xalqini vujudga keltirish edi. Biroq sho'rolar bu maqsadga tezroq va sun'iy yo'llar bilan erishishga intilishdi. Umumsovet xalqini vujudga keltirish uchun esa barcha millat va elatlarni bir-biridan ajratib turadigan xususiyatlarni, ya'ni milliy ong, milliy an'alar, milliy til va madaniyatini yo'q qilish lozim bo'ldi. Shuning bilan birga barcha uchun umumiyl bo'lgan ong, til, odatlar, o'yinlar joriy qilina boshlanadi. Bu siyosat natijasida etnik madaniyatning muhim qismi bo'lgan xalq o'yinlariga ham eskilik sarqti sifatida kurash olib borildi. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlari tomonidan maktablarga "o'quvchilar eski o'yinlarni o'ynamasin" degan ko'rsatmalar ham berildi. Yuqorida berilgan ko'rsatmalarga asosan xalq o'yinlari namoyandalari ustidan kulindi. Mabodo xalq o'yinlari tarafdoirlari, qimoyachilari paydo bo'lsa, ularni tezda maqv etishgan, qaqrat qilishgan, ularga millatchi va xalq dushmani degan yorliqlar yopishtirilgan. Ular eski hayotni qo'msovchi, ongsiz,

**tarsoqqiyotni to'xtatuvchi deb ayblanganlar.** Albatta, kim har - kim nohaq ekanligiga tarix o'z bahosini bermoqda.

Ikkinchidan, urbanizasiya natijasida kichik qishloqlar yo'qtildi, qir-adirlar o'zlashtirildi, o'yingoqlar va sargoqlar o'rniga paxta va boshqa ekinlar ekildi. Shahar o'yingoqlari o'mida baland-baland imoratlар qad rostladi. Yangi yashash joylarida o'yin maydonlari deyarli barpo etilmay qo'ydi. An'anaviy o'yingoqlarining yo'qolishi xalq o'yinlarining yo'qolishiga olib keladi.

Uchinchidan, bolalarga xalq o'yinlari o'rniga Yevropada qabul qilingan o'yinlar taklif etildi. Butun mamlakat maktablarida voleybol, basketbol, gandbol, futbol va hokazolar o'ynaldi. Xalq o'yinlari esa bir chetga surib qo'yildi. Bolalar o'ynashi mumkin bo'lган yagona joy matab sport maydonchalari yangi o'yinlar uchun moslashtirib qurilgan edi. Avlodlar o'zgardi. Qadimgi xalq o'yinlarini ko'zi bilan ko'rgan emas, balki otalar va bobolaridan faqat eshitib bilgan avlod vujudga keldi. Bir so'z bilan aytganda, yozuvimiz, tilimiz, urf-odatlarimiz qatorida xalq o'yinlari ham qatag'on qilindi.

XX asr o'rtalarida xalq o'yinlarini avloddan-avlodga o'tish an'analari buzildi, ko'plab o'yinlar unutildi. Minglab o'yinlar ichida bir necha xalq o'yinlari va musobaqalari (kurash, uloq, qiz quvdi, ot poygasi) kabilar ma'lum ma'noda saqlanib qoldi, xolos. Azaliy o'yinlarning ta'qiqlanishi xalq hayotiga katta zarar etkazdi, sholining ma'naviy va jismoniy kamolotiga to'sqinlik qildi, kishilarning salomatligini yomonlashtirdi, odamlar orasida kasallikni ko'paytirdi. Xolbuki, xalq o'yinlari ajdodlarimizga asrlar davomida aqliy, ruhiy, jismoniy kuch berib keladigan muhim manba edi. Eng asosiysi, bu o'yinlarga xalqda katta ehtiyoj bor edi. Zero eng yaxshi xalq o'yinlari, oddiy, sodda, hamma o'ynay oladigan, qiziharli, shu bilan birga kuchlilik, epchillik, mardlik, topqirlik, chidamlilik, kabi qimmatli insoniy sifatlarni rivolantirishga katta yordam berardi. Shu sababli xalq o'yinlarining tiklanishi zurur edi.

Xalq o'yinlarining tiklanishi. Forish tajribalari Ma'lumki, xalq o'yinlari ko'proq kishilar an'anaviy hayot tarzida yashovchi chekka joylarda saqlanib qolgan edi. Xalq an'analarini o'rganish maqsadida Vatanimizning chekka, uzoqroq joylarini kezdik. Ekspedisiyalar uyuştirdik. Xususan, Forish, Urgut, G'ijduvon, Qo'shrobot tumanlariga borib, u yerlarda dur axtargandek. Qadimgi xalq o'yinlarini izlay boshladik. Ayniqsa, xalq o'yinlari Forish tumanining tog'li joylarida yaxshi saqlanib qolgan ekan. Bu yerda 1985 yildan buyon ko'plab ishlar olib borildi. Avvaliga Birlashgan(Sarimsoq), hamish qishloqlari hariyalaridan 120 qadimiy o'yin yozib olindi, so'ng boshqa qishloqlarga ham o'ziga xos kichik ekspedisiyalar uyuştirildi. Vaqt o'tib xalq o'yinlarini tiklashga kelganda bir muncha qiyinchiliklar, to'siqlar vujudga keldi: o'yinlar unutilib ketgan, ularni tiklab bo'lmaydi. "O'yindan boshqa ishimiz ko'p"deydiganlar ham topildi. Chunki bu davrda (1986-88 yillarda) xalq

an'analarnini ta'qilash to'lqini yana qo'zqolgan edi. O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining kotibi R. Abdullaeva xalq odatlari va bayramlari jonkuyarlarini qanday jazolayotgani qaqidagi gaplar eng chekka joylargacha yetib bormoqda edi. Shu sababli bo'lsa kerak, 1987-1988 yillar Forish tadqiqotlari bir oz sustlashdi. "Qarama-qarshilik odamlarni chiniqtirdi" deganlaridek bu davrda yo'qolgan xalq marosimini saqlash qoyalari yanada sinaldi va kuchaydi. Natijada 1989 yil Forish tumanining o'nlab qishloqlarida (jurnladan, Sayyod, Osmonsov, Ilonchi, Ishma, Uchma va boshqa joylarda) uch yuzga yaqin o'yin yozib olindi va ularning ko'plarini tiklash yo'llari izlana boshlandi. 1989 yil avvalo, Birlashgan qishloqida, so'ng tuman markazi Yangi qishloqda xalq o'yinlari bayramini o'tkazishga intilishlar bo'ldi. Biroq bu ish amalga oshmadi. Shunday bo'lishiga haramasdan ozgina vaqtadan so'ng 1990 yil Sayyod va Birlashgan qishloqlariga teleekspedisiya uyuştirilib, uning natijalari televidenie orqali bir necha marta ko'rsatildi. Forish o'yinlarining O'zbekiston televideniesi orqali namoyish qilinishi, aholining xalq o'yinlariga qiziqishini oshirib yubordi va bu "Xalq o'yinlari" bayramini kengroq doirada o'tkazishga jiddiy zamin tayyorladi.

Nihoyat, 1991 yil O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, Jizzax viloyat ijroiya qo'mitasi, Forish tumani raqbarlari yordamida ilk bor Jizzaxda xalq o'yinlariga baqishlangan anjuman va Forishda xalq o'yinlari bayrami o'tkazildi. Forish xalq o'yinlari bayramining asosiy maqsadi - unutilayotgan xalq o'yinlarini tiklash va tarqib qilish edi. Unda tumandagi xo'jaliklar va 13 muktab jamoalari yuzlab o'yinlarini qayta tiklab, xalq oldida namoyish qildi. Chunonchi, Forish tumaninig 7-maktabi - Tan tosh, Anapay, Tikki, Otib qochar, Ko'rpa yellar, Krtdi kabi; 33-maktab - Ot arava, Oppon-Suppon, Ot o'yin, qidirib top, Janbil, Duvbozor o'yin, Che-kimtosh, O shik,, Danak, Yonqoq o'yin kabi; 5-maktab - Botmon-botmon, Bo'ta solay, Xatlamoqchi, Podsho-vazir, Momo-momo, Xo'roz urishtirish kabi; 19-maktab - Xo'roz-xo'roz, Bekki tosh, Boqliq ko'z, Tepa kurash, Piyoda va eshak, Piyoda ko'pkari va Eshak ko'pkari kabi; 55-maktab Cho'p ot, Pirmat eshak, Sajmin, Pir etdi kabi; 1-maktab - Taqir-tuqr qayraqoch, Oltin darvoza, To'qno-qich, Allambullam kabi; 2-maktab - Do'ppi yashir, Uch-poy (olopoy), Chavandoz, Yaqqol kabi; 30- maktab - qo'riq-chi, Doyer dan urib chihar, Osmon-osmon, Chunka shuvoq, Sakka, Urda, Mindi kabi; 6-qunar-teknika bilim yurti Podachi, Istandir, Tanki, Asr olish, Do char to'p, Tapir - to'pir, qoz-qoz, Chuvalashma, Mollar, Tovus, Da-xanaki jang kabi noyob o'yinlarni tiklab, namoyish etish-di. Shuningdek, qizilqum, Chimqo'rkon, Forish, Kivon nom-li jamoa xo'jaliklari, Uchma, Sayyod, Birlashgan qishloqlari vakillari ham bobolari sevgan an'analarga yangidan jon baxsh etishdi. Xullas, bu anjumanda xalq o'yinlarni tiklash, jonlantirish va tarqib qilish borasida Forish tumanida 5-6 yil ichida qilingan ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarning natijasi

**namoyon qilindi, 30 jamoa (13 maktab, 7 xo'jalik, 10 dan ortiq dastalar) yuzlab unutilgan xalq o'yinlarini tiklab ko'rsatishdi.**

Ilk bor Forishda bo'lib o'tgan "Xalq o'yinlari bayrami"ga Sobiq Ittifoqning turli joylaridan kelgan mutaxassis-olimlar qayta tiklangan o'zbek xalq o'yinlarining "shohi" - "Uloq" - "Ko'pkari"ga taklif etildi. Meqmonlar "qizil qir" otchopariga tashrif buyurishi bilan hayratda qolishdi: go'yo ular o'yingohga emas, "mo'jizagoh"ga tushib qolganday edi. Nega deganda, ular mingga yaqin otchavandoz qatnashadigan va ulkan tabiiy maydon - otcho-parda bo'ladigan bunday o'yinni xayoliga sig'dira olmas edilar. Ular o'zbek xalqida bunday buyuk o'yin bor okanligiga qoyil qolishdi, o'z vaqtida uloqning ta'qiqlanganini eshitib, afsus qilishdi va uni keng tarqib qilish lozimligini qayd etishdi. Mehmonlar chavandoz uloqchilarning mardonavor harakatlariga ham qoyil qolishdi. Ayniqsa, ko'pchilik diktatini Pushkin-polvon degan chavandoz o'ziga tortdi. Chunki bu chavandoz faqat o'z laqabi bilangina emas, balki o'zining maqorati, "alpomish" qomati, qolaversa otning go'zalligi va "uchqurligi" bilan barchani qoyil qoldirdi. Darqaqiqat, bu chavandozning asli ismi Naimjon bo'lsa, ham u Pushkinga o'xshagini uchun ham uni barcha "Pushkin-polvon" deb chaqirar ekan. Bu bekorga aytilmagan bo'lsa kerak. Chunki, har bir sohaning o'z "Pushkin"lari bor. Pushkin - poeziya darqalaridan biri bo'lsa, Naim- chavandozlar "Pushkin"i... Chunki, uning o'zida ham, otida ham, o'ziga xos poeziya bor. Naimjon o'zining uchqur va go'zal oti bilan ko'pkari chopganda, uloqni olib borayotganda va uni marraga olib kelayotganida polvonlik, chaqqonlik, mardlik bilan birga "chavandozlik poeziyasi"ni ham yaqqol his qilsa bo'lardi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, qadimdan chavandoz - polvonlar elning eng mashhur kishilari qisoblangan, xalq qahramonlari darajasiga ko'tarilgan, ular qaqida ko'plab ahsanolar, dostonlar to'qilgan. Keyingi yillar davomida esa biz boshqa ellardan o'tgan o'yin-musobaqa qoliblarini targ'ib qilish bilan ovora bo'lib, o'z xalqimizning amaliy o'yin-tomoshalari qahramonlarini unutib qo'ya yozdik. Xalqimiz orasida esa Naimjon (Pushkin)-polvon kabi hayotda kamtar, meqnatda tolmaydigan, maydonda jesur-mard o'qlonlar kam emas. O'z elining asl farzandi, qaqrmoni bo'lgan bunday mardu maydon, polvon-chavandozlarni yana e'zozlash vaqt kelganligini "Forish xalq o'yinlari bayrami" kuni yanada chuqurroq his qildik. Forish anjumanida bayram qatnashchilarining diqqatini ko'p azалий о'yinlar o'ziga tortdi. Quyida Forishda tiklangan xalq o'yinlarining yana biri qaqida fikr yuritamiz. qadimiy manbalarda "duk" nomli jang-musobaqa bo'lgan degan ma'lumotlar bor edi. Biroq, u butunlay yo'qolib ketgan deyilardi.

Lekin qachonlardir mashhur bo'lgan hodisalar butunlay yo'qolib ketmay, qondaydir iz qoldiradi. Biz uni topishga intildik. Saksoninchchi yillar o'rtalarida Forish tumanı Qamish qishloqida unutilgan xalq odatlari va o'yinlarini yozib olib

yurganimizda (o'tgan asrda tuqilgan) Shamsiy bobo: "Biz yoshligimizda "karate"ga o'xshagan tepish o'yiniga tushib turar edik", deb qoldi. Bu o'yinga qiziqib, Birlashgan, Ishmadagi maktab direktorlariga bu noyob topilma o'yin-olishuvni tiklashni iltimos qildik. Darqaqiqat, "Duk"- "Tepish"7 sharq xalqlariga xos bo'lган yapon "Karate"siga, Koreya "Taekvan-do"si, Xitoy "U-shu" olishuvlaridan qolishmas ekan.

Xullas, qadimiy jangovor o'yin "Duk", "Tepish" Ishma va Birlashgan qishloq maktablari direktorlari va o'quvchilari yordamida tiklandi. Bu o'yinning O'zbekiston televideniesi orqali ko'rsatilishi va "Xalq o'yinlari" bayramida ham namoyish qilinishi - ko'pchilikni lol qoldirdi. Xalqimizning tarixiy bisotida bu kabi o'nlab jang-o'yinlar bo'lganliklari shubqasiz. Chunki qozir "qulochlab urish", "bosh urush" kabi jang-o'yinlar ham bo'lganli-gi qaқida ma'lumotlar topdik.

Aytish mumkinki, Sobiq Ittifoqda o'tkazilgan xalq o'yinlarining bayramlari o'zbek ma'naviy va jismoniy madaniyat tarixida yangi va o'chmas saqifa bo'lib qoldi. Ilk bor Forishda o'tkazilgan "Xalq o'yinlari bayrami"da yongan "mash'al" respublikamizning ko'plab joylaridagi azaliy o'yin-tomosha an'analarini tiklashga imkoniyat yaratdi. Agar 1990 yil "Xalq o'yinlari" bayrami ikki qishloq - Sayyod va Birlashganda o'tkazilgan bo'lsa, 1991 yil Forish tumani darajasida o'tkazilgan bo'lsa, 1992-1993 yillar Jizzax viloyati darajasida bu xudud barcha tumanlarining faol ishtirokida uyuşhtirildi. Niqoyat 1994 yil Forish tajribasi yangi poqonaga ko'tarildi. Bu yerda 1-Respublika xalq o'yinlari olimpiadasi o'tkazilib, unda Va-tanimizning barcha viloyatlari va qoraqalpoqiston Respublikasi vakillari qatnashdi. Olimpiadada azaliy xalq o'yinlari Bo'ron, Chavandoz, Olib qochar, Chunka shivak, Yelka kurash, Qiriq tosh, Mindi, Tortishmachoq kabi turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, qoliblar taqdirlandi.

Forish tumanining "Qizil yer sayilgoqida o'tgan 1-Respublika "Xalq o'yinlari" Olimpiadasi dasturida: ochilish marosimi, tiklangan xalq o'yinlarining namoyishi, ko'rgazmali chiqishlar, ko'riktanlovlar, Respublika viloyatlari qoliblarining musobaqalari, qoliblarni takdirlash va qokazo tadbirlar o'z aksini topdi. Olimpiadada azaliy xalq o'yinlari Bo'ron, Chavandoz, Olib qochar, Chunka shivak, Yelka kurash, qirq tosh, Mindi, Tortishmachoq kabi turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazib, g'oliblar takdirlandi. 1996 yil esa II Respublika "Xalq o'yinlari" olimpiadasi ham Forishda bo'lib o'tdi. Anjumanlar 6 mayda qadimiy va navqiron Jizzax shaqrida boshsanib, 7 may kuni go'zal va azaliy an'analarga boy Forish tumanida avjiga chiqdi. Tog'li Forishning tabiat tomonidan yaratilgan "Kizil qir"sayilgoqida Respublikamizning turli burchaklaridan kelgan viloyat bellashuvlarining g'oliblari ajodolarimizning qadimiy va fayzli o'yinlari bo'yicha musoba-qalarida qatnashdilar. Bu anjuman xalqimizning tarixiy merosini, uzilgan tomirlarini tiklash va unga jon berishga xizmat qildi.

Millatimizning ma'nnaviy va jismoniy qadriyatlarini tiklashga xizmat qiladigan bu yirik anjuman madaniyatimiz tarixida yana bir yangi saqi-fa bo'lib, u xalqimizning ruhiy, aqliy, jismoniy barkamol bo'lishiga yo'l ochadi 1998 yil "Algomish" dostoni yaratilganining 1000 yilligiga baqishlanib Termiz shaqrida festival bo'lib o'tdi. Bu festival "Algomish o'yinlari" deb nomlanadi. U ajdodlarimiz tarixida muxim o'rinn tutgan Algomishdek xalq qahramonlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan "yoy otish", "kamondan otish", "nishonga urish", "olishish", "kurash" kabi o'yinlar-musobaqalardan tashkil topdi. Xullas, "Algomish"ga bag'ishlangan Respublika festivalining yushtirilishi Algomish davridagi dostonlarga ko'chgan xalq o'yinlarining tiklanishida muhim voqeа bo'ldi. 1999 yil - "Ayollar yili"ga baqishlanib, Jizzaxda "To'maris" qizlar o'yinlari festivali o'tkazildi. Agar To'maris jang maydonida - g'olib bo'lgan bo'lsa, bizning qizlarimiz sport maydonlarida g'olib bo'lishga intilishdi. "To'maris" festivali - o'zbek xotin-qizlarini sport sohasidagi "uyqu"dan uyg'otdi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu festival xalqimiz orasida To'marisdekk mard, jasur, kuchli, go'zal qizlar borligidan dalolat beradi.

O'zbek xalq, o'yinlarining xalqaro nufuzi. O'zbekistonda tiklangan azaliy o'yinlar nafaqat sobiq ittifoq (Leningrad, Moskva, Maxachkala shaxarlari) dan kelgan mutaxassislarini, balki dunyoning boshqa burchaklari - Amerika, Olmoniya, Turkiya, Eron, Yaponiya, Gollandiya kabi mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarni ham o'ziga maftun qildi.

O'zbekistan mustaqillikka erishgandan so'ng baqor kelib, tabiat uyg'onib, go'zallahib ketishi muqarrar bo'lganidek, xalq an'analariga bo'lgan e'tibor jonlanib ketdi. Natijada xalq o'yinlari qatnashchilarining geografiyasi (doirasi) kengayib bordi. 1996 yil Tailand poytaxti Bangkokda bo'lib o'tgan Butun dunyo xalq o'yinlarining "jahon milliy o'yinlari" guldasasida o'zining munosib o'rinn olishiga imkon yaratadi. Xalq o'yin musobaqalarining bir turi - kurashning xalqaro ahamiyati oshmoqsa. O'zbek kurashi bo'yicha jahon birinchiligi o'tkazilmoqda, ko'pgina mamlakatlarda kurash federasiyalari tuzilmoqda, dunyoda kurashchilarning soni ko'raymoqda. Kurash - jahon olimpiada o'yinlari safidan munosib o'rinn olish arafasida turibdi. Xalq o'yinlarining yana bir turi uloq (ko'pkari)ning ham Markaziy Osiyo geomuxitida obro'yi oshmoqda. An'anaviy tarzda turli joylar (Samarqand, Navoiy viloyatlari) da o'tkazilayotgan uloq musobaqalarida qo'shni-qarindosh davlat chavandozlari ham faol qatnashmoqdalar. O'zbek xalqi hayotida kurash, uloq kabi xalqaro darajaga chiqadigan o'yinlar kam emas. Ularni chuqurroq o'rganishimiz zarur. Bu borada xalq o'yinlarini (ko'plab turlariga baqishlangan olimpiada, festival, bayramlar) o'tkazish bilan bir qatorda, aniq bir turiga oid tuman, viloyat va respublika musobaqalarini o'tkazish lozim. Respublikamizda o'tadigan yirik musobaqalar, spartakiadalarga xalq o'yinlaridan ham qo'shish kerak. Afsuski, biz hozir faqat bir necha xalq o'yin yoki

musobaqasini, jumladan, "Kurash", "Uloq", "qiz quvdi" kabilardan foydalanmoqdamiz. Vaholanki, o'zbek xalqining tarixiy bisotida minglab rang-barang o'yinlar bo'lgan.

XX asr oxiri - XXI asr boshida o'yin madaniyati borasida ham ikki yo'naliш ko'zga tashlanmoqda. Birinchidan, milliy o'yinlar tiklanmoqda, ikkinchidan, yangi o'yinlar paydo bo'lmoqda. Keyingi davrda televidenie tufayli ko'pgina ommaviy hordiq chiqaruvchi o'yinlar (masalan, "Otam, onam, va men - sport oilasi", "quvnoq startlar", "Balli qizlar", "Balli yigitlar", "quvnoqlar va zukkollar"(KVN), "Nima, qaerda, qachon?", "Baxtli voqeа", "Mo'jizalar maydoni", "Oltin sandiq", "Charxpalak", "O'yla, izla, top") kabilar keng rivojlandi. Elektron texnika tufayli kompyuter o'yinlari, o'yin avtomatlari, teleo'yinlar, tetris, dendи, sega kabi o'yinlar, hatto elektron soat siferblatida ham o'yinlar paydo bo'lmoqda. Kelajakda ham yangi-yangi o'yinlar vujudga kelaveradi. Lekin pedagog-olimlarning fikricha, texnikaning rivojlanishi bir tomonidan bola aqlining o'sishi, ikkinchi tomonidan ular ruhiyatining buzilishiga olib keluvchi qarama-qarshi tendensiyalarni ham tug'dirishi mumkin ekan. Yangi o'yinlarning paydo bo'lishi bu tabiiy holdir. Biroq, asrlar davomida sinovdan o'tgan xalq o'yinlarini yana unutish mumkin emas. Ular bugungi kunimizdagina emas, balki kelajakda ham juda katta foya keltirishi mumkin. Chunki xalq hayotidagi o'yinlar egallagan joyni boshqa madaniy hodisalar, jumladan, sportning yangi turlari, elektron-kompyuter o'yinlari ham to'ldira olmaydi.

Xalq o'yinlarining inkor qilinishi xalq hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, kasallikni ko'paytiradi, asabiylikni kuchaytiradi. Zero, xalq o'yinlari qadim zamonlardan beri kishilarning o'zini davolashlari, kishilarning o'z eqтиyojlaridan ortiqcha (jismoniy, ma'naviy) kuchlarini sarflash, kerakli yangi quvvat yig'ish, hayotning mazmunli va maroqli bo'lismiga yordam berib kelmoqda. TT Tuning uchun ham ko'p ming yilliklar davomida vujudga kel-gan va vaqt sinovidan o'tgan xalq o'yinlarining saqlanishi, tiklanishi, rivojlanishi uchun barcha ishlarni qilmoqimiz lozim. Jumladan, joylarda ayniqsa, sport, madaniyat muassasalarida, maktablarda xalq o'yinlariga oid klublar, uyushmalar, kengashlar tuzish zarur. Shuningdek, "Xalq o'yinlari ixlosmandlari" ko'ngilli uyushmasini tuzib, unga xalq an'analarini yaxshi biladigan keksalarni hamda o'yinlarning ashaddiy ixlosmandi - bolalarni jalb qilsak yaxshi bo'lardi. Uyushma a'zolari quyidagi ishlarga e'tibor haratsa maqsadga muvofiq:

1) Joylardagi saqlanib qolgan xalq o'yinlarini izlab topish, eski qadimiy o'yinlarni qariyalardan yozib olish.

2) Xalq o'yinlarini tiklash va ulardan foydalanish haqida (anketa, og'zaki so'rash, suhbat kabilar orqali) jamoat fikrini o'rganish.

3) Xalq o'yinlaridan ta'lim-tarbiya muassasalarini (bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlari)da keng foydalanishga ko'mak berish

4) Aholining jumladan, bolalarning bo'sh vaqtida xalq o'yinlarini o'ynashga sharoit va imkoniyatlar yaratish.

5) An'anaviy xalq o'yinlarining musobaqa-ko'riklarini tashkil qilish.

6) Xalq o'yinlarini keng tarqib qilishga yordam beradigan "Xalq o'yinlari bayramlari"ni tashkil qilish.

Xullas, madaniy merosimizning bir qismi bo'lgan, avlod-ajdodlarimizga asrlar mobaynida ruh va sog'liq ato etib kelgan xalq o'yinlarini chuqur o'rganish, jondantirish milliy qiyofamizni saqlash demakdir. Unutmaylik, xalq o'yinlari ajdodlarimizning ming yilliklar davomida to'plagan ulkan tarixiy-madaniy boyligidir. Ularni ko'z qorachiqiday asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydalanish zarur. Agar ana shunday qila olsak, o'zimizning ham, kelajak avlodlarimizning xalq tilida aytganda, "jonu tani omon bo'ladi!".

#### *Nazorat savollari:*

1. Milliy xalq o'yinlariga sobiq ittifoq davrida qanday munosabatda bo'lingan?
2. Mustaqillik yillari o'zbek xalq o'yinlarini tiklash va rivojlantirish borasida qanday islohotlar amalga oshirildi?
3. O'zbek xalq o'yinlarini rivojlantirishga qaratilgan qanday qonun xujjalarni bilasiz?
4. O'zbek xalq o'yinlarini xalqaro nufuzi haqida nimalarni bilasiz?

#### **An'ana, urf-odat, marosim va udumlar**

##### **Reja:**

1. O'zbek xalq madaniyatida an'ana va urf-odat masalalari.
2. Marosim va udumlar, ularning mazmun mohiyati.

Tarixiy etnografiya fani etnografiyadan, ya'ni xalqlar turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatini tavsiflashdan boshlangan. XIX asr, XX asrning birinchi yarmida mutaxassis olimlar va tadqiqotchilar tomonidan asosan ma'lumotlarni yig'ish, to'plash ishlari bajarilgan. Ayniqsa, bunga aynan mazkur davrda dunyo bo'yicha olib borilgan mustamlakachilik siyosati ham bevosita ko'maklashgan bo'lib, bu siyosat mustamlaka mamlakatlarning madaniyati, turmush tarzi va umuman milliy xususiyatlaridan to'la xabardor bo'lishni taqozo etar edi.

Tadqiqotchilar tomonidan ma'lum darajada faktik materiallar yig'ilgandan keyin etnologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda to'plangan materiallarni umumlashtirish va ma'lum bir nazariy-metodologik konsepsiyaga suyangan holda tahlil qilish jarayoni boshlangan.

Zamonaviy etnologiya fanida tadqiqot mavzusi yanada chuqur-lashtirilgan holda dunyodagi eng yirik etnoslardan tortib, eng mitti xalqlarni yanada izchil o'rghanishga va ularning an'anaviy hamda zamonaviy turmush tarzi, madaniyatini bilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Umuman olganda, insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida turli-tuman madaniyatlar mavjud bo'lgan. Har bir madaniyat, shubhasiz, ma'lum bir etnos yoki etnik jamoa ta'sirida shakllanadi. Xilma-xil etnomadaniyatlar orasida olimlar an'anaviy madaniyatni alohida ajratab ko'rsatashadi. An'anaviy madaniyat deyilganda biz turli etnos namoyandalari, ya'ni bir necha avlod vakillari tomonidan asrlar mobaynida yig'ilgan va bir avlodning o'rgatilishi natijasida unutilib ketmagan urfatotlarni tushunamiz.

Har bir milliy-etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va o'ziga xoslik turli-tuman narsa, voqeа, hodisa, jarayonlarda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida ushbu madaniyatga xos asosiy o'zgarmas va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin.

An'anaviy milliy madaniyatni yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rghanish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqqash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyusiyasi va umumqabul qilingan madaniyat tasnididan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalariga e'tibor qaratamiz. Holbuki, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyat tizimining tarkibiy qismida: xalq donish-mandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaliga, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning tafakkur, g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqur bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo'ladi.

Xalq madaniyati deyilganda keng ma'noda etnos hayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham, uning tub ma'nodagi negazini xalq an'analari tashkil etadi.

Etnologiya fanida «marosim», «urf-odat», «anana», «bayram»lar fanning asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida keng qo'llaniladi. Chunki, har bir xalqning shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an'analar, urf-odatlar, marosimlar va bayram va sayillar shakllanib taraqqiy etadi. Ular kishilar turmush tarzining muhim bir bo'g'ini shaklida tarkib topib boradi.

Etnologiya fani shakllangan davrdan boshlab milliy an'analar, rasm-rusumlar va urf-odatlari xalq madaniyatining fenomeni sifatida o'rganish dolzarb muammolaridan biri hisoblab kelgan. Ayniqsa, respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma'naviy merosimizga davlat miqyosida etibor berilayottan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an'anaviy maro-simlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmaslik darkor. Bu borada qadimiylar tarixga ega bo'lgan milliy marosimlarning xalq turmushi va an'anaviy madaniyatida tutgan o'mi, ular genezisi va o'ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Lekin, hanuzgacha etnologiya, madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va xalq turmush tarzi bilan shug'ullanuvchi fanlar doirasida yuqorida terminlarning ta'rifi va tavsifi hamda farqli xususiyatlari borasida mukammal nazariy-metodologik qarashlar ishlab chiqilmagan. Shu bois ba'zi hollarda ayrim tadkiqotchilar tomonidan «marosim» va «urf-odat», «anana» va «bayram» kabi qator terminlarni sinonim tarzida ishlatalish yoki izchil farqlanmagan holda qo'llash holatlari ham uchramokda. Shubhasiz bu o'rinda "marosim", "urf-odat", "anana" va "bayram" atamalarining qanday o'xshashliklari va farqli xususiyatlari mavjud? — degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bizningcha, ushbu terminlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo bir-biridan keskin farq qiluvchi tushunchalardir.

"Av'ana" — tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdoddalar avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy hodisadir. Anana o'ziga xos ijtimoiy qoida sifatida kishilar ongiga singgan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi<sup>31</sup>.

Urf-odat tushunchasi esa o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini — oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim atamasi nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyuştiladigan namoyishlardan iborat<sup>32</sup>. Shuningdek marosim — inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqgisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgalarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va

yashaydi. Boshqachasiga, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir.

«Urf-odat» deyilganda kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasi tushuniladi. Demak, marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko‘rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o‘z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotning muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o‘zida bir shaxs yoki bo‘lmasa qo‘pchilik tomonidan bajarilishi majburiy qoida bo‘lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan xatti-harakatdir<sup>34</sup>. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko‘pchilikka kamchilikning salom berishi yoxud mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo‘ni qo‘shnilar holidan xabar olish kabi ko‘rinishlar o‘zbeklarga xos milliy urf-odatlardir. Milliy urf-odatlar bo‘lsa motam marosimida hasratli motam, sochlarini to‘zg‘itib qayg‘uli ahvolda motam aytimlarini aytib yig‘lash motam marosimida ishtirot etayotgan ayrim kishilarnigana vazifasiga kiradi. Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o‘zaro farqni ular ichidaga ramziy xarakatlarning qo‘llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o‘z ichiga ramziy va ramziy bo‘lmagan harakatlarni to‘la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagи hatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa, urf-odat muayyan xalq uchun asosan bir xil — o‘zgarmas qoida, norma bo‘lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo‘ladi<sup>35</sup>. Shuningdek, har qanday marosim o‘zi mansub bo‘lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mukin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda biroz boshqacharoq tarza folklorshunos B.Sarimsoqov ta‘biri bilan aytadigan bo‘lsak, har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo‘la olmaydi<sup>36</sup>. Tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘zbek marosimlari ikkita katta guruhga — oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlariga bo‘lingan. Biz mazkur ikki guruh marosimlar haqiqatdan ham marosimlarning asosiy uzvlaridan ekanligani rad etmagan va mazkur klassifikatsiya to‘g‘ri tasniflash ekanini e’tirof etgan holda marosimlar tasnifiga diniy marosimlarni ham kiritish lozim deb hisoblaymiz. Chunki marosimlarni mohiyatan tahlil qiladigan bo‘lsak diniy marosimlar alohida mustaqil turkumni tashkil etishini anglash qiyinemas. Insonning hayot yo‘li bilan bog‘liq holda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil etadi. Oilaviy-maishiy marosimlarni esa oilaning u yoki bu a’zosi hayotidagi muhim voqealarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quydagilarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

- oilada farzand tug‘ilishi va uning tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat va marosimlar;
- nikoh-to‘y marosimlari;

- oila a'zosini so'nggi yo'lga kuzatish, ya'ni dafn etish va ta'ziya bilan bog'liq urf-odat va marosimlar.

Marosimlar tarkibidaga ikkinchi katta turkum marosimlarga yilning turli fasllari bilan bog'liq mavsumiy marosimlar, ya'ni — qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar kiradi. O'z navbatida mazkur turkum marosimlarni quyidagacha ichki turkumlarga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. Qishki marosimlar. Bu turkum marosimlarga yas-yasun, gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o'tkazildagan «qor yog'di» kabi marosimlar kiradi.

2. Bahorgi marosimlar. Bunga dastlabki «shoxmoylar» — dalaga qo'sh chiqarish marosimi, yerga dastlabki urug'ni tilish marosimi, Navro'z, sumalak sayli, «sust xotin», loy tutish, hashar kabi marosimlar kiradi.

3. Yozgi marosimlarga «Choy momo», qovun sayli, uzum sayli kabi marosimlar kiradi.

4. Kuzgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga «Oblo baraka», shamol chaqirish va hosil bayrami kiradi.

◆ Diniy marosimlarga hayitlar, mavlud, bibimushkulkushot, bibiseshanba, bibichorshanba, zikr kabi marosimlar kiradi.

Ziyoratgohlarda o'tkaziladigan marosimlar.

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog'langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridan oq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o'z hayotlari davomida qo'plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar.

Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtida ushbu urf-odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos madaniyat mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalar natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma'naviy madaniyatda ham, jum-ladan, urf-odat va marosimlarda ham namoyon bo'ladi.

### *Nazorat savollari :*

1. O'zbek milliy an'anasi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzida an'analarning ahamiyati qanday?
3. O'zbeklarning qadriyat darajasiga yetgan qanday urf odatlari bor?
4. O'zbek marosimlari haqida ma'lumot bering?
5. O'zbek milliy an'ana va udumlari, marosimlarda ma'naviyat targ'iboti qanday namoyon bo'ladi?

Reja:

1. Farzand tug'ilishi va bola tarbiyasi bilan bog'liq marosim va urf-odatlarda qadimiy diniy e'tiqodlar izlari.

2. Nikoh to'yi marosimlarida afsungarliklar va qadimiy diniy e'tiqodlar simbiozi.

3. Motam marosimlarida arxaik diniy e'tiqodlar izlari.

Har bir xalqning boshqasidan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilardan biri uning marosimlari hisoblanadi. Marosim inson hayotida moddiy va ma'nnaviy talab va ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy xodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir.

Tug'ilish, nikoh va o'lim bilan bog'liq marosimlar-bu nainki tafakkurga yo'naltirilgan, balki hissiyot va ruh bilan bog'liq muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ularning ko'plari kelib chiqish asoslariiga ko'ra qadimiy e'tiqodlar va diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan. Mashhur ingliz faylasufi K. Dousonning ta'kidlashicha, qon-qarindoshlilik, nikoh va oila bilan bog'liq barcha institutlar va marosimlar diniy kelib chiqish tarixiga ega va ularning ko'plari diniy sanksiyalarda tasdig'ini olgan. Qolaversa mazkur jarayonlarda etnosga xos lokal milliy va diniy xususiyatlar birmuncha yorqin namoyon bo'lishi bois bu turkumga kiruvchi marosim va urf-odatlardan ma'lum bir xalq etnomadaniyati hamda etnik dunyoqarashi asoslarini tadqiq qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

O'zbeklar orasidagi ayolning homiladorlik davri bilan bog'liq urf-odatlarga ko'ra, ona o'z homilasini yovuz kuchlar xurujidan omon saqlashi uchun muayyan tartib-taqiqlarni bajarishi lozim bo'lgan. Bu qoidalarga yoki taqiqlarga muvofiq homilador ayolning qorong'ida (okshom) yolg'iz yurishi ma'n qilingan; homilador ayolga bolasi o'lgan yoki tug'maydigan xotinlar izini bosish taqiqlangan. Homiladorlik davridagi ona bilan bolani yovuz kuchlar ta'siridan saqlashga qaratilgan afsungarlik ko'rinishlari animistik e'tiqodlar asosida paydo bo'lgan. Chaqaloqning sog'lom va tetik bo'lib o'sishi uning ona qornidalik davridayoq balo-qazolar, yomon ruhlardan qanchalik mustahkam himoya qilinishiga bog'liq degan ishonch ana shu turdagiligi afsungarlik ko'rinishlari vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Chaqaloq tug'ilishi paytida bola va onaga turli ins-jinslar ziyon yetkazar ekan. Shu bois ajdodlar ruhiga bag'ishlab oq mato, bir kosa un va pul ko'tariladi hamda oq

paxta olinib, xomlador ayolning ustidan uch marta aylantirib qo'yiladi. Qolaversa uning to'lg'oq tutayotganligi hyech kimga bildirilmagan, hattoki qo'shnilar ham sezishmagan. Agar bu haqda boshqalar eshitib qolsalar tug'ish cho'zilib, qiyinlashadi degan tushuncha mavjud.

Tug'ilgan chaqaloqning kindigi doya momolar tomonidan umri uzun, rizqi butun bo'isin degan niyatda yuqoriga qarab kesilgan. Agar kindik pastga qaratib kesilsa go'yoki bola yo'lga yurgan paytda qora tovon kasaliga chalinib nobud bo'lar ekan.

Xorazm o'zbeklarida esa ancha vaqt bolasi turmagan ayollar farzandli bo'lganlarida chaqaloq kindigi xonodon ostonasiga qo'yilib bolta yoki o'roq bilan kesilgan. Odatda bunday holatda tug'ilgan chaqaloqlarga Ostonaqul deb ism qo'yilgan. Chaqaloq kindigini ostonaga qo'yib kesish odati qo'shni qozoq va tojik xalqlarida ham uchraydi. Turklarda kindikni kim kessa chaqaloq o'sha odamga o'xshaydi degan tasavvur bo'lganligi bois yangi tug'ilgan bolani kindigini piru badavlat ayollarga kesdiriladi.

Farg'ona vodisida chaqaloq kindigini kesgan doya momolar uni birorta oxorli matoga o'rab beshikning oyoq tarafi qasqoniga bog'lab qo'yanlar. Kindikni beshikka qo'yishda chaqaloq unib o'ssin, bevaqt nobud bo'lmasin degan magik niyat mujassamlashgan. Qolaversa bolaning kindigi beshikka osib qo'yilganda bola o'z jismidan ajralgan bo'lakni izlab yig'lamas ekan. Xalqimizda bola kindigi o'ziga xos himoya ostida bo'lgan. Chunki chilla davrida kindik yo'qolib qolsa bola turli kasalliklarga chalinadi degan qo'rquv bo'lgan.

Chaqaloqning kindigi ma'lum vaqt dan so'ng mevali daraxt tagiga ko'mib qo'yilgan. Mevali daraxtlar dunyo xalqlarida yaqin o'tmishta qadar qadiangi hosildorlik ma'budasining yorqin ramzi hisoblangan. Vodiyliklarning yuqoridagi odatlaridan ushbu kult marhamatidan bahramand bo'lishga qaratilgan harakat ko'rinishlari guvohi bo'lamiz.

O'zbek xalqining bola tug'ilish bilan bog'liq an'anaviy marosimlarini kuzatar ekanmiz, biz ushbu turkum marosimlarda nafaqat bolaning kindigi, balki yo'ldoshi ham magik himoya qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Namangan viloyatining Kosonsoy, Chust tumanlarida chaqaloqning yo'ldoshi tushmagunicha o'zgalarida bildirilmagan, chunki boshqalar bundan xabardor bo'lsalar, go'yoki yo'ldoshning tushishi qiyinlashar ekan. Xorazmda bolaning yo'ldoshi tushgan zahotiyiq uy eshigining kiraverishiga-ostonaga ko'milgan. Bunda agar ota-onal keyingi farzandlari o'g'il bo'lishini istashsa, oshiq bilan, agar qiz bo'lishini istashsa piyoz yoki matodan yasalgan qo'g'irchoq bilan qo'shib ko'mganlar. Bizningcha, bola yo'ldoshini ostonaga ko'mish odati ajdodlar e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, bu odat asoslari eneolit davridagi marhumlarni xonodon ostonasiga ko'mish odati bilan bog'liq bo'lsa kerak. O'z navbatida ta'kidlash kerakki, dunyoning ko'plab xalqlarida chaqaloqning yo'ldoshiga jonli mavjudot tarzida qaralgan va bolaning akasi, singlisi,

yoinki bolani himoyalovchi ruh unda joylashgan deb hisoblashgan. Vodiy hududiga kiruvchi Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyatining Olabuqa tumani qirg'izlarida bola yo'ldoshi tushishining qiyinlashishi yovuz kuchlar bilan bog'liq degan qarash mavjud bo'lган. Shunday vaziyatda onaning oldiga ukki olib kelingan. Chunki xalqona tessavvurga ko'ra, ukkinining sayrashi yovuz kuchlarga yoqmas va natijada ular bu yerdan ketar ekanlar.

Kishilarga ism qo'yish tarixi – totemizm, shomonlik, afsungarlik, ajdodlar e'tiqodi kabi qadimiy diniy e'tiqod va topinishlar bilan ham bog'liq. Ba'zi ismlar bolaga og'irlilik qiladi, degan mulohazaga ham borilgan. Hatto bola bu ulug', og'ir nomni ko'tara olmay baxtsizlikka uchrashi mumkin, deya irim qilingan. Umuman bunda mutanosiblik-munosiblik nuqtai nazariga amal qilingan. Shu bilan birga juda qadim zamonlardan bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Binobarin, chaqaloqqa muvafaqiyatlari tanlangan va berilgan nom uning taqdirini o'zida mujassam qiladi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonilgan. Natijada odamlar "xosiyatli" (qutli) va "xosiyatsiz", yaxshi va yomon ismlar bor, deb tasavvur qilganlar. Shu sababli chaqaloqning turli kasallarga chalinaverishi yoki oilada bolalarning nobud bo'laverishi, bola badanida turli nuqsonlarning mavjud bo'lishi, qolaversa farzandning kelgusi baxti uning ismiga bog'liq deb tasavvur qilinadi. Natijada chaqaloqqa beriluvchi ism odamni o'zarlo farqlash, atashgina emas, balki uni turli balo-qazolardan asraydig'an, muhofaza qiladigan, qutqaradigan vositaga aylangan. Shu tufayli ham Farg'ona vodiysi o'zbeklarida bolaga ism berish ishiga azaldan o'ziga xos mas'uliyat bilan yondashilgan.

Oilada farzand birin-ketin nobud bo'laversa farzandga Tursun, To'xtasin, O'lmas, Turdi, Turg'un, Turg'unoy, Ergash, Yo'ldosh, Mahkam kabi ismlar qo'yilgan. Qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga)-Oy, Kun (Quyosh) va boshqa osmon jismi kabi qudratiga sig'inish asosida Oyxon, Oyqiz, Yulduz, Hulkaroy, Cho'lponoy, Quyoshbek, Tangriberdi kabi ismlar paydo bo'lgan. Ba'zida muqaddas deb ulug'langan hamda sig'inilgan ba'zi hayvonlar, jonivorlar, qushlarning nomlaridan ham ismlar yasalgan. Bunday ismlar guruhiiga Bo'rivoy, Arslon, Lochin, Burgut, Qo'chqor, Sherzod kabi ismlar kiradi.

Ba'zi chaqaloqlar badanidagi qandaydir ortiqcha belgilar bilan: xol, toj, qizil tamg'a, ortiqcha barmoq va boshqa belgilar bilan tug'ilgan. Bu nuqson va belgilar bolalarga ism berishda hisobga olinmasa ular bolaning sog'ligiga, hayotiga, kelajak turmushiga xavf tug'diradi, deb tushunilgan. Bunday norasidalarni o'z nomi bilan tug'ilgan bola, deb hisoblashgan va ularga o'sha ortiqcha belgilar nomidan yasalgan ismlar qo'yilgan. Chunonchi Xolboy, Xolbib, Anor, Anorvoy, Anorxon, Toji, Tojixon, Tojigul, Ortiqvoy, Norboy, Norjon, Ochil va boshqalar.

**Farg'ona vodiysi o'zbeklarida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar va tojiklarda bo'lgani kabi muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarga nazr-niyoz qilinishi antijasida tug'ilgan chaqaloqlarga ham maxsus ism qo'yilgan bo'lib, ularga qo'yilgan ism bolani kelgusidagi hayotida turli balo-qazolardan himoya qilar ekan. Bunday tarzda tug'ilgan chaqaloqlarga ko'pincha Hazratqul, Pirimqul, Xo'jamberdi, To'ra qul, Pirmiyoz, Ishonberdi, Xo'jamberdi kabi ismlar qo'yilgan. Yuqorida ko'rib o'ttilganidek, o'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli ins-jinslardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan.**

Homilador ayloning homilasi surunkasiga turmasa yoki tug'ilgan chaqaloq oz fursatda nobud bo'lsa, chaqaloq tug'ilishi zahotyoq onasidan uzoqlashtiriladi. Yovuz kuchlarni aldash maqsadida "bolani sotib olish" nomli ramziy marosim o'tkazadilar. Bu marosimda bolani serfarzand, piri badavlat kishilar xonadonlariga olib boriladi va chaqaloqni ularning qo'lidan ramziy sotib olinadi. "Sotib olishda" tarozining bir pallasiga bolaning soch tolesi, ikkinchi pallasiga esa bolaning ota-onasi kumush tanga, hozirda esa pul qo'yadilar. Bunda tarozi pallalari tenglashgandan so'nggina pulni uy egasiga berilgan va go'yoki chaqaloq undan sotib olingan. Sotib olingan bolalarga ko'pincha ramziy ravishda Sotiboldi, Adashvoy, Sotqinoy, Jursinboy kabi ismlar qo'yilgan. Bolani ramziy "sotib olish" odati O'rta Osiyo xalqlaridan tortib Uzoq Sharq, Sibir va Sharqi yevropaning ba'zi bir xalqlarida ham mavjud bo'lgan.

Bu odat yovuz ruhlarni adashtirishga qaratilgan yashirish yoki aldash afsungarligi bilan bog'liq bo'lgan.

Xalq tasavvurida chaqaloq bilan uning onasini ins-jinslar ta'siridan eson-omon saqlash ularning chilla davri (chilla - forscha "chihil" - qirq degan ma'noni bildiradi.) tartib qoidalariga qanchalik rioya qilishlariga bog'liq bo'lgan. Chilla inson hayotidagi xatarli, eng og'ir va eng mas'uliyatli davrni anglatuvchi atama hisoblanadi. Odatda farzand tug'ilganda va kelin-kuyov turmushining nikohdan, marhumning vafotidan keyingi 40 kunlik davriga nisbatan chilla atamasи qo'llaniladi va bu davrda ma'lum tartib-qoidalar, magik rasm-rusumlar, cheklashlar va tabularga amal qilinadi. Samarqandda chillali xonadonni yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida bola yotgan uyg'a mevali daraxt shoxidan qoqib qo'yilgan. Chaqaloqni ko'rgani kirgan har bir kishi ushbu shoxni qo'li bilan ushlab ichkariga kirgan.

Kosonsoy tumani axolisida chaqaloqni ko'rgani kelgan mehmonlar chillali ayol bilan qo'l berib ko'rismaganlar. Bizningcha, ushbu tabu zamirida qo'l berib so'rashish orqali ona va bolani ko'rgani kelgan odamlarning ziyonidan saqlanish, muloqtolı afsungarlik (magiya) g'oyasi mujassamlashgan. Ona bola yotgan joyga yomon kuchlar, yovuz ko'zlardan himoya vositasi sifatida pichoq, ko'zgu (oyna), qalampir, kulcha turli-tuman diniy kitoblar qo'yilgan. Yag'nob tojiklari esa chaqaloqni yovuz ruhlar, jumladan alvasti ziyonidan asrash maqsadida xonadon ostonasiga katta pichoq qo'yishgan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy oila-turmush marosimlarini etnografik aspektda tadqiq qilish asnosida biz mazkur turkumga kiruvchi marosimlar nafaqat o'ziga xos aholisining bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan marosimlarida fetishizm, totemizm, animizm, ajdodlar e'tiqodi va boshqa ko'plab qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq ko'rinishlarni kuzatdik. Ayniqsa, qadimiy diniy e'tiqod izlarini bo'lg'usi onaning homiladorlik davrida, chaqaloq tug'ilgandan keyingi chilla davri urf-odatlari, qolaversa, bolaning keyingi rivojlanish davri bilan bog'liq bajariladigan marosim va urf-odatlarda ko'plab uchratdik. Xalqimizda homilaning sog'ligini saqlash uchun, o'z vaqtida dunyoga kelishini ta'minlash maqsadida og'iroyoq ayol tuya go'shtini yeishi ta'qiqlangan. Homilador ayol sovuq ma'rakalarga bormagan. Vodiy o'zbeklarida chaqaloqning fe'l-atvori tug'ilmasdan oldin shakllanadi, uning kelajakda qanday odam bo'lishi onasining xatti-harakatlari va ijtimoiy muhitga bog'liq degan magik qarashlar natijasida chaqaloq bilan bog'liq bir necha urf-odatlar shakllangan. Chaqaloqning chilla davrida ham ona va bolani yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida bir qator udumlar bajarilgan. Jumladan, chillali uyga bepusht ayollar, begona kishilar kiritilmagan, xonodon chirog'i o'chirilmagan va hokazo. Bolaga ism qo'yish ham totemizm, afsungarlik, shomonlik kabi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq. Qolaversa, chaqaloqqa beriladigan ism odamni o'zaro farqlash, atash uchungina emas balki, uni turli balo-qazolardan asrovchi magik vosita, deb qaralgan.

Nikoh to'yi marosimlari bilan bog'liq afsungarlik usullari bajarilishiga ko'ra xilma-xil bo'lib, bundan maqsad yangi oilaning xotirjamligi va farovonligini ta'minlash, kelin va kuyov, qaynota-qaynona va kelin o'rtasida iliq munosabatni yaratish bilan birga boshqa bir asosiy maqsad - bo'lg'usi avlodni davom ettirish - surriyot qoldirish maqsadi bo'lgan. Diniy tusdagi afsungarliklar ham kelin-kuyovning serfarzand bo'lishlarini tilab, ularni turli yovuz kuchlardan va yomon ko'zlardan saqlashga qaratilgan.

Fotiha to'yi marosimida ham ko'plab afsungarliklarni uchratamiz. Chunonchi, kuyov tarafidan kelinning xonadoniqa kelgan mehmonlarga dastlab "shirin suv" olib kelinadi. Bu odat har ikki tomon boshlagan ishning oxiri ham xuddi shirin suv kabi o'tsin, yoshlarning turmushi shirin, totli bo'lsin degan niyatda qilinadi.

Nikoh kuni bajariladigan "oyoq bosish", "oyna ko'rsatuv", "soch siypatar" kabi udumlar ham o'ziga xos afsungarliklar hisoblanadi. Nikoh to'yi marosimlarida yangalar ham o'ziga xos afsungarlik vazifasini bajargan. Chunonchi, ular yosh kelin-kuyovni yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan saqlovchi homiy bo'lgan.

Marosimlarda nafaqat odamlar, balki, narsalarda ham afsungarlik vazifalarini ko'ramiz. Jumladan, non, tuxum, shirin suv, sut, ko'zgu, pichoq singari buyumlar ham afsungarlik vazifasini o'tagan. To'ylarda ranglar ham shunday xossaga ega bo'lgan. Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida Farg'ona vodiysi nikoh to'yi

marosimlarida ko'plab afsungarlik ko'rinishlari bilan birgalikda totemizm, fetishizm, tabiatga va hosildorlikka sig'inish izlarini va turli xildagi demonologik tasavvurlar bilan yo'g'rilgan marosimlarni ham kuzatdik.

Farg'ona vodiysi motam marosimlarida ko'plab qadimiy diniy e'tiqod va toplinishlar mavjud. Jumladan, xalqimizning jon to'g'risidagi tasavvurlarida sodda animistik qarashlar ko'rinsa, jon berayotgan odamning og'ziga suv tomizib turish esa zardushtiylik odatidir.

Motam marosimlaridagi yig'i (bo'zlov, bo'zlash, marsiya aytib yig'lash) qadimiy zardushtiylik an'analarini bilan bog'liqligi tadqiqotlar jarayonida aniqlandi..

Namanganliklarda bola tug'ilganiga besh kun bo'lganda maxsus tarzda "besh hecha" marosimi o'tkaziladi. Ushbu marosim Konibodom tumani o'zbeklarida «beshmorak» deyiladi. Bunda bolani ilk bora cho'miltirish uchun maxsus suv tayyorlangan, ya'ni uy issiqligida iltilgan suvgaga *tuz, shakar, tanga va eski paxsa devor tuprog'i* solingan bo'lsa, Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxonan qishlog'ida bolaning boshiga dastlab *ona suti* surtilib cho'miltirilgan. So'ngra chaqaloqni tog'oraga o'tqazilib, maxsus tayyorlangan suv uning ustidan avval o'ng tarafidan so'ngra esa chap tomonidan qirq tomchidan quyilgan. Suvga solingan ahyolar xosiyati masalasiga e'tibor qaratsak, *tuz* gigienik jihatdan chaqaloq terisini qotirgan va turli toshmalar hamda kasalliklarning oldini olishi bilan birga to'kinsochinlik va rizq-nasiba ramzi bo'lgan; *shakar* esa chaqaloq hayotining dastlabki lehzalarini shirin o'tishiga qaratilgan magik niyada qo'shilgan; *tanga* bo'lsa boyliq, davlat ramzi bo'lgan: *eski paxsa devor tuprog'i* tanaga turli o'simtlar va tuklar chiqishining oldini olgan. Chaqaloq marosimiy tarzda cho'miltirilgandan so'ng hatto uni yuvintirishga ishlatilgan suv ham oyoq ostiga emas, balki biror bir mevali daraxt ostiga to'kilgan. O'z o'rniда ta'kidlash joizki, chaqaloqni birinchi marta marosimiy cho'miltirish uni nafaqat gigienik jihatdan poklanishini anglatgan, balki ramziy ma'noda uni bir olamdan ikkinchi olamga o'tishi, ya'ni uni «tabiat» olamidan insonlar dunyosiga o'tishini ham anglatgan. Bola marosimiy tarzda yuvintirilgandan so'nggina oilaning rasmiy a'zosi hisoblangan. O'z navbatida shuni ham ta'kidlash lozimki, Xuf vodiysi tojiklarida chaqaloq qirq kunlik bo'lganiga qadar unda bir "hayvon ruhi" bo'ladi va aynan qirqinchi kundan keyin uning o'rmini "inson ruhi" egallaydi degan qarash bo'lgan. Umuman olganda yuqorida ta'kidlangan mulohazalardan shunga amin bo'lish mumkinki, O'rta Osiyoning ko'plab xalqlarida, jumladan, o'zbek xalqi oilaviy marosimlarida ham 40 soni tasodifiy emas, u bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tish davri holatining miqdor-sifat ko'rsatgichini anglatgan. Aynan qirq kundan keyin chaqaloq tabiat olamidan insonlar olamiga o'tgan va ona marosimiy noplilikdan o'zining oldingi holatiga qaytgan. Qolaversa, motam marosimlarida aynan qirq kundan so'ng, vafot etgan odamning ruhi bu dunyonni butkul tark etar ekan.

O‘zbek xalqi orasida bolani beshikka belashda qarindosh-urug‘lar va mahallada hurmatli-e‘tiborli, uvali-juvali, nikoxi buzilmagan ayollar tanlangan. Bulardan biri doya momo (enaga) yoki o‘zining katta buvisi bo‘lishi lozim bo‘lgan. Bolani beshikka belashda “qo‘rgmas botir bo‘lgan, sog‘lom o‘sgin, uzoq yashagin!” deb turiladi. Shu tarzda bola beshikka belanib, qo‘l-oysog‘i bog‘langandan keyin atrofdagilar beshik ustidan turli shirinliklar hamda o‘rik, jiyda, pista, bodom kabi mevalarni sochilgan. Ushbu sochqilar marosim qatnashchilari tomonidan terib olinib, o‘z farzandlariga yaxshi niyatlar bilan ulashilgan.

Chaqaloqning dastlabki «qorin sochi»ni olish ham katta tantanaga aylangan. Ajdodlarimiz “Sochda odamning joni, kuch-qudrati, magik quvvati mujassamlashgan” deb tasavvur qilganlar. Ular bolaning qorin sochlarini olishdan cho‘chib, pиру badavlat, ko‘p farzandli, keksa yoshli onaxonlarimizga oldirganlar va uni asrab-avaylab mevali daraxt tagiga ko‘mganlar. Tojiklarda xam bolaning dastlabki olingen sochi asrab-avaylab matoga o‘ralib, mevali daraxt shoxiga (chaqaloq ham ushbu daraxt kabi hosil bersin degan niyatda) osib qo‘yilgan. Bunda biz inson sochi bilan jon tushunchasining bog‘langanligini, qolaversa sochni mevali daraxt tagiga ko‘mish bilan serpushtlik e‘tiqodini ko‘ramiz.

Qozoq elshunosi A.Toleubaev bolaning dastlabki sochini olishdagi o‘ziga xos g‘amxo‘rlikni parsional magiya bilan bog‘laydi. Soch bilan bog‘liq bunday odat dunyoning ko‘plab xalqlarida saqlanib qolgan. Dunyo xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda soch magiyasi bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi. Mashhur elshunos J. Frezerner yozishicha, ibridoiy odam o‘zining sochini tanasining ajralmas qismi, ya‘ni jonli narsa deb bilgan. Sochi olingen odam o‘zining magik qudratidan mahrum bo‘ladi, deb tushunilgan. Shu bois ular sochni asrab, avaylaganlar, uning oyoqosti bo‘lmasligiga harakat qilganlar. Qabila boshliqlari, kohin va shomonlar esa ba‘zan umr bo‘yi soch oldirishga haqlari bo‘lmagan, uzun sochli odam tangri nazari tushgan ulug‘ zot sanalgan. Taniqli o‘zbek folklorshunos olimi M.Jo‘raevning yozishicha, ana shunday mifologik qarashlar xalqimiz orasida soch bilan bevosita aloqador bo‘lgan «soch to‘yi», «kokil to‘yi», «haydar qo‘yish», «soch siypatar» singari magik xarakterdagi udumlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

Vodiylar o‘zbeklarida dunyodagi boshqa qator turkiy xalqlar singari bepusht, bolasi turmaganlar, ba‘zan esa o‘g‘li ko‘p bo‘lib, qiz ko‘rishni orzu qilganlar va nihiyat, aksinchalik qizlari ko‘p bo‘lib, o‘g‘il tilaganlarning tug‘ilgan farzandlarining «qorin sochlari»ni oldirganlarida muqaddas qadamjolarga, ziyoratgohlarga bag‘ishlab bir tutam “kokil” qo‘yish odati mavjud. Buning zamirida farzandimning umri uzun bo‘lsin, unga ziyon-zahmatlar ozor yetkazmasin degan ezgu niyat mujassamlashgan. Iqtisodiy imkoniyat bo‘lgan vaqtida o‘sha ayol qarindosh-urug‘lari bilan jonliq olib kelib qurbanlik qilgan. Qo‘yning o‘ng oyog‘ini farzand tilab bergen shayxga

**berilgan.** Bundan oldin shayx ayol bola kokilini olib qo'ygan. Ushbu kokil oldirish marosimida shayxga bir kiyimlik sarpo hadya qilingan. Bunday paytda farzand **bo'ryan** ayol shayxdan olgan kokilni qaytarib oladi. Farzandi kokilini tashlab **ketishni** istamagan ayol shayx ayoldan bolasi kokilini o'ziga qaytarib berishini so'rab **kokilga** atagan ma'lum miqdordagi pul bergen.

Vodiyya farzandalab ayollar sig'inadigan qadamjolar anchagina. Jumladan, **Mavlono** buva, Safedbulon, Idris buva, Qirqchilton, Baliqliko'l va xokazo. **Vodiyning** barcha hududlarida qabrular yoki mozor usti inshootlari hamda **qabristonlardagi** turli-tuman ashyolarga ikki qo'lini surtish yoki toshlar ustida yotish **trimlari** bajarilishini kuzatish mumkin. Bulardan tashqari mozor yoki qadamjo suviga **yuvinish**, atrofni yalangyoq holda uch marta aylanish, nazr niyatida daraxtlarga **lattaband** bog'lash vodiyning ko'pchilik qishloqlari uchun umumiyl bo'lgan. **Lattaband** ko'pincha bir parcha surp dastro'mol yoki belbog'dan bog'langan. O'z **libosidan** bir parcha yirtib olib mozordagi tut, dov-daraxt shoxlariga bog'lab qo'yish **natijasida** topinuvchi e'tiqod ob'ekti yoki inson bilan tabiat o'rtasidagi afsungarlik **muloqoti** o'rnatilganligiga ramziy ishorani ko'rish mumkin. Farg'ona vodiysi **hududiga** kiruvchi Tojikiston Respublikasi So'g'd viloyati Konibodom tumani **markazida** Anbar ona mozoriga faqat ayollar borib "is" chiqarishgan. Demak, Anbar **ona** bu yerda ham Xorazmdagi kabi ayollar homiysi bo'lgan, degan xulosa chiqarish mumkin.

Sunnat to'ylari Farg'ona vodiysida ham bolaning toq yoshlarida, ya'ni uch, besh, yetti, to'qqiz yoshlarida katta to'y-tomoshalar bilan o'tkazilgan. Buning sababi, **xatna** juft yoshlarda qilinsa, bolaga baxtsizlik keltirar emish. Sunnat to'ylaridagi **yoshning** toq bo'lishi, birinchidan, bolaning umri uzoq bo'lishini, ikkinchidan, **farzandni** sunnat qildirishdek baxt ota-onha uchun davomli bo'lishini anglatadi. Chunki toq narsa juftlikka to'lishga intiladi. Juftlikka to'lish esa kamolot va narsaning ma'lum ma'noda intihosini ham anglatadi.

Bola xatna qilinayotgan paytda u moyday yoqimli, dasturxonni to'kin bo'lsin degan niyatda onasi bir barmog'ini unga, ikkinchi barmog'ini yog'ga botirib turgan. Ona **bunday** afsungarlik amali bilan go'yo farzandidagi og'riqni yengillashtirishga yordamlashib yuborgan.

Xatna jarayoni ko'pincha qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar ishtirokida tor davrada o'tkaziladi. Barcha narsalarni ona, xotin-qizlar bajargani holda, aynan xatna **jarayonini** erkaklar amalga oshirganlar. Bu ham o'ziga yarasha ramziy ma'no kasb etgan.

Chaqaloqning dunyoga kelishi va undan keyingi chilla davrini o'rganish **jarayonida** ayollarning marosimiy "makruh" sanalganligi, ona va bola chilla paytida yomon ruhlar, yomon ko'zlar, yomon niyatli kishilarning zararli afsunlaridan

marosimiy tarzda himoya qilinganligi va bu davrda ko'plab afsungarlik urf-odat, marosimlariga amal qilinganligini kuzatdik.

Ushbu mavzu yakunida shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, sunnat to'yi tantanalari bilan bog'liq marosimlarda qatnashuvchilarning har biri ham o'ziga xos tarzda ma'lum darajada afsungarlik funksiyasini bajargan.

### *Nikoh to'yi marosimlarida afsungarliklar va qadimiy diniy e'tiqodlar*

O'zbek xalqi qadimiy rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush tarzi va falsafiy qarashlari, asrlar bo'yи jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlardidan biri-nikoh to'yidir. Xalqimizning qadimiy e'tiqodlari, madaniyat tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir.

Dunyodagi ko'plab boshqa xalqlar singari o'zbek to'ylari orasida nikoh to'ylari o'zining turli xildagi marosimlar, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi.

O'zbek xalqi nikoh to'y marosimlarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilik hisoblanadi. Sovchilar to'g'risidagi ilk ma'lumotlarni VII-VIII asrga oid O'rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi Tunyuquq (VII asr) bitiktoshida "sov" - kalimasi sab-so'z, gap ma'nosida ishlatilgan. Irq bitigi (fol kitobi) da esa "sab" - so'z, "sabchi" - xabarchi, so'z keltiruvchi ma'nosida qo'llanilgan. O'rta asrlar mashhur tilshunosi Maximud Qoshg'ariy bu xususda "sovchi - kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi" - deb yozgan. Demak, bundan yangi oilani paydo bo'lishidagi sovchilik udumi uzoq o'tmishda xam mavjud bo'lganligiga amin bo'lamicha.

Farg'ona vodiysi qipchoqlarida o'z davrida sovchilik qiluvchi shaxs oq va qizil ot mingan holda qiz yashaydigan xonadonga borgan. Sovchilar bu ezgu maqsadda hyech qachon qora otdan foydalanmaganlar. Chunki qora otta borish ish bitmasligiga sabab bo'ldi deb hisoblangan. Sovchilar ishni bitirib kelganlarida bo'lg'usi kuyovga "ish bitdi, endi kelunga sirg'a olib kel" - deyishgan. Ayollar qulog'iga taqadigan sirg'alar dastlab afsungarlik ahamiyatiga ega bo'lgan.

Metal buyumlarning qadimgi tasavvurlardagi ahamiyati haqida E.Taylor: "Sharq jinlari temirdan qo'rqedilar", - deb yozgandi. Vaqtlar o'tishi bilan sirg'a taqish odati turkiy xalqlarda ham yangi-yangi ma'no kasb etib borgan. Turkiy xalqlar hayotini o'rgangan V.V.Radlov "qadimiy turkiylarda balog'atga yetgan qizlarga sirg'a taqishadi va ular sirg'ali, ya'ni qayliq hisoblanishadi"-deb yozib qoldirgan.

Fotiha to'yi marosimida ham ko'plab afsungarliklarni uchratamiz. Chunonchi, kuyov tarafidan kelin xonadoniga kelgan mehmonlarga dastlab "shirin suv" olib kelinadi. Bu odat har ikki tomon boshlagan ezgu ish yakuni ham xuddi shirin suv kabi o'tsin, yoshlardan turmushi shirin, totli bo'lsin, degan niyatda qilinadi. Aynan fotiha

**to'yidan** boshlab, bo'lg'usi kelin-kuyovlar bir-birlarining qarindoshlariga uchrashib qolmaslikka urinib, ulardan o'zlarini tortib yuradilar. Ushbu odat ibtidoiy jamoa davri **Nikoh munosabatlari** qoldig'idir.

Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i o'zbeklari orasida fotiha to'yi **Jaryonida-** boshqa joylarda uchramaydigan "*qovurg'a sindirish*" nomi bilan **yuritiluvchi** o'ziga xos rasm-rasm mavjud. Bunga ko'ra kuyov tomondan uch-to'rt ayol bo'lg'usi kelinning uyiga maxsus "*kelin kuchi*"ni olgani boradilar. Bunda ushbu **kun** uchun marosimiy tarzda pishirilgan sho'rvada qo'y qovurg'asi solingan bo'ladi va ikki ayol ushbu kun shu xonadonda qolib "*kelin kuchi*"ni olib qaytadilar.

To'y marosimlarida keksa yoshli, ko'p farzandli kishilar ishtiroki zarur va o'ta **muhim** hisoblangan. Ular to'y marosimining ma'lum bosqichlarida o'ziga xos **afsungarlik** funksiyalarini bajarganlar. Biz buni bo'lg'usi kelinning sepini tayyorlash **Jaryonidan** boshlab kuzatishimiz mumkin. Odatda bo'lg'usi kelin-kuyovlarning **ko'rpa-to'shaklarini** tikish, ya'ni, "*ko'rpa soldi*" marosimida tikish-bichish ishlari **keksa** yoshli ayollar tomonidan boshlab berilgan. Bunda keksa yoshli, ko'p farzandli **ayollarning xususiyatlari** bo'lg'usi kelin-kuyovga ham o'tsin degan afsungarlik niyati **mujassamlashgan**.

"*ko'rpa soldi*" marosimida biz nafaqat keksa yoshli kishilar afsungarlik **xususiyatlari**, balki narsalarning ham afsungarlik xossalariiga bo'lgan ishonchni **uchratamiz**. Marosim oldidan keksa yoshli onaxonlarimiz kelin-kuyovning dastlabki **ko'rpalari** orasiga turli-tuman qand qog'ozlarini qo'shib tikkanlar. Bunda bo'lg'usi **ollaning** hayoti shirin, dasturxoni qut-barakali, to'kin-sochin bo'lsin degan niyati **mujassamlashgan**.

Nikoh kuni kechki payt kuyov o'z yaqin do'stlari bilan yasan-tusan qilib, **qutlovlari** ostida to'yxonadagi oqsoqollar duoi-fotihalarini olib, kelin uyiga "*kuyovnavkar*"ga boradilar. Kuyov o'z do'stlari qurshovida, karnay-surnay va turli qiyqiriqlar sadosi ostida yo'lga tushadi. Ushbu amallar to'y shodiyonasiningina **anglatib** qolmay yomon kuchlar, insu jinslardan saqlovchi afsungarlik vositasi ham **sanalgan**.

Kuyovnavkarlar yo'l bo'yi kuyov kelin xonadonga borayotganligini bildirish **maqsadida** jo'shib-jo'shib, ustma-ust hayqirib, jar solib borganlar. Ayrim hollarda yomon ko'zlar va yovuz kuchlar ta'siridan saqlanish maqsadida kuyov boshiga **chopon** yopilgan. Kuyovnavkarlar kelin xonadoniga yetib kelganlaridan so'ng maxsus tayyorlab qo'yilgan xonaga kirganlar. Uy ostonasiga poyandoz (oq rangli **mato** va qizil rangli belbog'ni bir-biriga qo'shib tikilgan) solinadi. Kuyov poyandozni **bosib** ichkariga kirganidan so'ng, uning do'stlari shunday kuyovlik bizga ham nasib qilsin degan niyatda poyandozni o'zarotib, parchalab oladilar. Biz bunda **poyandozning** o'ziga xos muqaddaslik xossasini ko'ramiz. Kuyovnavkarlar **dasturxoniga** turli noz-ne'matlar bilan birga bo'lg'usi oila serfarzand bo'lsin degan

niyatda tuxum ham qo‘yiladi. Ular dasturxon atrofida o‘tirganlardan so‘ng xonadon keksa kishisi duo fotiha qiladi. Shundan so‘ng kuyovga atalgan shirinchoy olib kelingan. Shirinchoyni dastlab kuyov, so‘ngra uning do‘satlari hayotlari shirin, toti bo‘lsin, degan niyatda ichganlar. Kuyovnavkarlar dasturxon atrofida o‘tirgan vaqtida mezbonlardan biri kuyovni yomon ko‘zdan, yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida isiriq tutatadi. O‘z navbatida kuyov va uning sheriklari minnatdorchilik ramzi sifatida isiriqchiga pul bergenlar. Biz bunda isiriqnning o‘ziga xos marosimiy afsungarlik xossasiga ishonch ramzini ko‘ramiz. Kuyovning do‘satlari ziyofatdan so‘ng kuyovga maxsus kuyovlik belbog‘larini bog‘laydilar.

Nikoh to‘yi kuni kechga yaqin kelin ayollarning o‘ziga xos “karvoni” bilan kuyov xonadoniga olib kelinadi. “Kelin karvoni” oldida albatta kichik yoshli o‘g‘il bolaning bo‘lishi va kelinning butun tana qismi kiyimda yoki paranji bilan to‘silgan bo‘lishi talab etilgan. Kelinni olib kelayotganlar kuyov uyi oldiga yaqinlashgach eshik oldida katta olov yoqiladi va kuyovning yangalari shakar solingen sut yoki qatiq va bir kiyimlik mato olib chiqadilar. Sut kelinchakka yaxshi niyatlar bilan ichkaziladi. Kelinga sut berishda yo‘li hayot sutday oydin, surriyotli va zotli bo‘lsin, degan magik niyat mujassamlashgan.

Qolaversa, qadimdan sut va sutli mahsulotlar turkiy xalqlarda eng muqaddas ashayolardan biri va aynan ma‘lum bir guruhning ramzi hisoblangan. Shu bois uni begona urug‘ vakillariga berish qat‘yan taqiqlangan. Vodiy o‘zbek-qipchoqlari orasidagi nikoh to‘yi tantanalarida kelinni sut bilan kutib olish bo‘lg‘usi kelining kuyov urug‘iga qo‘shilganligining ramziy alomati bo‘lsa kerak. Shundan so‘ng “kelin karvoni”ga qiz tomonidan hamrohlik qilib kelgan kelinning kichik yoshli o‘g‘il ukasi yoki jiyani tomonidan “pichoq” yoki “pichoq puli” talab qilingan. Bu odat Chortoq tumani Qoramurt, yangiço‘rg‘on tumani Poromon qishloqlari o‘zbeklarida *shop berish* deb nomlangan. Kuyov tomonidan tayyorlab qo‘yilgan pichoq, agar uni tayyorlashga ulgurilmagan bo‘lsa pichoq puli berilgan va kelinni qaynonasi ot yoki aravadan ko‘tarib tushirgan. So‘ngra kelin olov atrofida uch marta aylantirilib ichkariga olib kirilgan. Bunday odat nafaqat Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari orasida balki Respublikaning boshqa mintaqalarida yashovchi o‘zbeklarda, qolaversa tojik, qirg‘iz va turkmanlar orasida ham keng tarqalgan.

Kelinni yangalari tomonidan gulxan atrofida uch marta aylantirish odatida olovning kelinga hamroh bo‘lgan turli ziyonlar, insu jinslardan poklashga qaratilgan afsungarlik ko‘rinishi bilan birga olovning issiqligi-yu yorug‘ligi muqaddas kuch sifatida kelinga ko‘maklashib, unga kuch-qudrat bag‘ishlashiga ishonchni ko‘rishimiz mumkin.

Kelin kuyovning uyiga olib kirilgach, kelin va kuyov tarafidan bittadan yangalar uyning o‘ng tarafni yuqori burchagida chimildiq bog‘laganlar. Chimildiq kelinni yovuz kuchlardan va yomon ko‘zlardan asrovchi o‘ziga xos afsungarlik vositasi

**bo'lgan.** Chimildiq aynan shu sababga ko'ra kelinni ramziy himoya qilish funksiyasini bajargan. Qolaversa, yangi tug'ilgan chaqaloq uchun beshik singari **chimildiq** ham kelin-kuyovlarning yangi uyi, dunyosi hisoblangan. Shu bois **Marg'llonda** kelin-kuyov chimildig'iga oshiq (qo'yning oshig'i)ni osib qo'yish odati **bo'lgan.** Bu o'rinda shuni ham qayd etish kerakki, oshiq qadimgi turkiylar ilohi **Umayning** simvol (ramz)laridan biri bo'lgan. Shu bois oltoyliklar qo'yining oshig'ini **chaqaloqni** yovuz ruhlardan himoya qilsin, deb uning beshigiga bola kindigi bilan **birga** osib qo'yanlar. Marg'ilon o'zbeklarining nikoh to'yi marosimlarida kelin-kuyov chimildig'iga oshiq osib qo'yish odati zamirida ham yangi kelin-kuyovlarni **Umay** ona himoya qilsin degan magik niyat mujassamlashgan bo'lsa kerak. **Darvoqe,** vodiya chimildiqni bog'lagan yangalarning o'zлari ham kelin va kuyovga tahdid solishi mumkin deb tasavvur qilingan yovuz kuchlar va ins-jinslardan **ularni** himoya qiluvchi ramziy homiy hisoblanganlar. Shu sababga ko'ra to'yning **boshidan** oxirigacha yangalar zimmasiga yuklangan vazifalar juda ko'p bo'ladi. **Farg'ona** vodiysida yangalarni yanga, checha, oya, jengacha, kelinoyi deb nomlanadi. Yangalarni tanlashda ma'lum tartib-qoidalarga amal qilingan. Yangalar odatda **nafaqat** bir nikohli, serfarzand, shu bilan birga uddaburon, so'zamol, hayot **tajribalariga** boy bo'lishlari asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Nikoh marosimlari **boshlanishidan** to oxirigacha yangalar bir nechta afsungarlik vazifalarini bajaradilar. **Bo'lajak** kelinni nikohga yangalar tayyorlaydilar, kuyov va kuyovnavkarlar bilan **ham** yangalar muomafa qiladilar. Qolaversa, kelinni olov atrofida ham aynan **yangalar** aylantiradilar. Soch siypatar, qo'l ushlatar, oyna ko'rsatar, nikoh suvini **khirish** odatlarini ham yangalar bajaradilar.

To'y kuni serfarzand bir ayol yoki yangalardan biri kelinchakning sochini ikki **o'rim** qilib o'rib qo'yadi. Taniqli etnograf olim K. Shoniyofovning yozishicha, o'zbeklarda qizlar an'anaga ko'ra sochlarni maydalab, kelinchaklar va juvonlar esa **Juft** qilib o'rganlar. Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxona qishlog'ida nikoh kechasi kelin sut bilan boshini yuvadi.

Soch o'rimlarining oilaviy hayot, maishiy turmush bilan bog'liqligi turli **ma'nolarni** anglatishi bizning kunlarimizda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. **Qizlarning** ma'lum yosh guruhidan boshqa pog'onalariga o'tishlarida, ya'ni **yoshlikdan** qizlikka, qizlikdan xotinlikka-juvonlikka o'tish pallasida, so'ng o'rta **yoshli** davriga va nihoyat qarilikka o'tish pallasida har biriga mos soch o'rimi tartibi **saqlangan** va shu bilan birga o'zining qaysi yoshda ekanligini ham namoyish etgan. Jumladan, qirq kokil balog'at ramzi, ammo hali turmushga chiqmaganlik belgisi **ramzi** bo'lgan. Shu bois o'zbeklarda turmush qurmagan qizlargina sochlarni qirq **kokil** qilib o'rib yurganlar, turmushga chiqqan ayollar esa hyech qachon sochlarni qirq **kokil** qilib qilib maydalab o'rmaganlar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yangalar kelin-kuyovni yovuz niyatli kishilarning sehr-jodusidan ham himoya qilganlar. Yomon niyatli kishilar o'zlarining sehr-jodu amallarini ko'pincha nikoh marosimining yuqori bosqichi hisoblangan nikoh o'qish tantanasi paytida amalgalash uchun ekanlar. Bunday amallarni bartaraf etish qiyin afsungarlik usullarini talab qilgan va ba'zida esa bunday usullar ham natija bermas ekan. Vodiy nikoh to'yi marosimlarida yomon niyatli odamlar qulfni yashirgan holda nikoh o'qilayotgan joyga kirib yashirin ravishda kalit bilan qulfni qulflasla yoki nikoh tantanasi o'tkazilayotgan paytda qindagi pichoqni teskarai qilib qo'ysalar ushbu yoshlar baxtli bo'la olmas ekanlar. Shu bois nikoh o'qilayotgan paytda kuyov pichog'ini qinidan chiqarib olib pastga qaratib turgan. Bu bilan ular barcha yovuzliklarni chunonchi farzandsizlik, jinsiy ojizlikni bartaraf etar ekanlar.

Pichoq yoki yopilgan qulf bilan bog'liq ziyon keltiruvchi afsungarliklar dunyoning ko'plab xalqlarida uchraydi. J.Frezer o'z tadqiqotlarida bu xususda qiziqarli ma'lumotlar keltirgan. Uning yozishicha, XVIII asrgacha yevropada nikoh marosimi vaqtida qulfni kalit bilan berkitish yoki ipni tugun qilib suvga tashlash orqali yosh kelin-kuyovlarni baxtsiz qilib qo'yish mumkin, deyilgan. Ularning baxtlari toki qulflar topib ochilmagunicha, ip tugunlari yechilmagunicha ochilmas ekan.

Taniqli ingliz dinshunos olimining qarashlariga o'xshash holat Farg'ona vodiysi o'zbeklari nikoh marosimi bilan bog'liq udumlarda yaqin-yaqinlargacha mavjud bo'lgan. Vodiyda yomon niyatli kishilar tomonidan qilingan bunday qulflar va tugunlarni kuchli baxshilargina topib ochish va yechish qudratiga ega bo'lganlar.

Nikoh o'qilayotgan paytda o'rta dasturxon yozilib, unga non, qand, bir kosada suv qo'yiladi. Nikohdan kelin-kuyov so'ng kosadagi suvni bir ho'plamdan ichib, boshqa qatnashchilarga ham beradilar. O'rta dasturxon yozish, non, qand, suv qo'yishning boisini so'raganimizda, yoshlarning umri, turmushi hamisha to'qlik, to'kinlik va shirin o'tishi uchun shunday qilinajakligini aytadilar. Darvoqye, bu o'rinda shuni ham esga olish joizki, nikoh marosimida kelin-kuyov oldiga suv qo'yish odati nafaqat o'zbeklar va musulmon aholi orasida, balki musulmon bo'lmagan xalqlarda ham keng tarqalgan.

Nikoh kechasi kuyov chimildiqqa, kelinning oldiga kirgan zahoti kelin-kuyov o'rta dasturxon yozish, non, qand, bir kosada suv qo'yiladi. Bu jarayonni ikki tomon yangalari kuzatib turgan. Go'yoki bunda agar qiz birinchi bo'lib kuyovning oyog'ini bossa, oilada, turmushda uning mavqiei baland bo'ladi, aksincha bo'lsa kuyov xukmron bo'ladi, - deb hisoblanadi. Bizningcha, ushbu harakat turkiy xalqlardagi kelin va kuyovning o'zaro kurashib kuch sinashish udumining izi bo'lsa kerak.

Shundan so'ng kelin-kuyov birgalikda yangalar tomonidan berilgan ko'zguga (oynaga) qaraganlar. Bu "oyna ko'rish" udumi deyilgan. Biz shunga o'xshash udumni tojiklar, eronliklar, veda dinidagi hindlarning to'y marosimlarida ham uchratamiz.

Ko'zguning afsungarlik xususiyati Osiyo va yevropa xalqlarida ham qadimdan ma'lum bo'lgan. Oynaning marosimiy ahamiyati xususida qadimiy xitoy manbalarida ham ma'lumotlar keltirilgan. Arablarda temirli oynaga baxtsizlikka qarshi turuvchi kuch sifatida qaralgan.

"Oyna ko'rsatuv"dan keyin yangalardan biri kelin-kuyovning qo'llarini bir-birlariga ushlatib qo'yadi va ular ma'lum vaqtgacha bir-birlarining qo'llarini ushlagan holda turganlar. Bu udum ramziy ravishda kelin-kuyov tanishuvini bildirgan. So'ngra yanga kelin-kuyovning boshidan yovuz ruhlardan tozalash maqsadida qora chiroqni uch marta aylantirgan va kelinga yangi ko'ylik kiygizib yosh bolani uning oldiga o'tqizgan. Ushbu odat zamirida yoshlarning serfarzand bo'lishiga qaratilgan afsungarlik mavjud. Shundan so'ng yanga dastlab kelinga, so'ngra kuyovga qand bergan. Bunda kelin-kuyovning hayotlari qand kabi shirin bo'lsin degan ma'no yotadi. Kelin-kuyov qandni yeb bo'lishgach, piyolada nikoh suvidan olib kelingan. Ular suvdan bir qultumdan ichganlar. Odatga ko'ra bu suv hyech qachon yerga to'kilmaydi. Chunki suvni yerga to'kish baxtsizlik keltiradi deb hisoblanadi.

Nikoh to'yi udumiga ko'ra to'yning ertasiga kuyovning barcha yaqin kishilar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar kelinga atab sovg'alar olib kelganlar. Ushbu kun kelinning onasi boshchiligidagi kelin tomon ayollari kuyovning uyiga "Yuz ochdi" marosimiga kelganlar. Bu marosim Farg'ona vodiysida "Yuz ko'rsatar", "bet ochar", "ro'ykushon" (tojikcha ro'y - yuz, kushon - ochar) kabi nomlar bilan yuritiladi. Bu marosimda kelin yangalari yordamida yuziga oq ro'mol tashlangan holda yig'ilganlar huzuriga olib chiqilgan. Shundan so'ng xonodonning yosh bolasi tomonidan uning yuzidagi ro'mol ochilgan va uzoqroq joyga olib qochilgan. Biz ushbu marosimda ham ko'plab afsungarlik ko'rinishlarini uchratamiz. Jumladan, kelinning yuzini ochishda mevali daraxtning shoxidan foydalaniladi. Bunda mevali daraxtning serhosillik, serpushtlik xususiyati kelinga ham o'tsin, serfarzand bo'lsin, degan magik niyat bo'lgan. Qolaversa, yosh bola tomonidan kelin yuzining ochilishi ham ushbu jarayonning serfarzandlik e'tiqodi bilan bevosita bog'liq bo'lgan afsungarlik ko'rinishi ekanligini tasdiqlaydi.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida ham mintaqadagi qator boshqa xalqlar singari yosh kelin-kuyovning dastlabki qirq kunlik hayotini "chilla" davri deyiladi. Chilla davrida yoshlarni yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida xonodon chirog'i o'chirilmaydi. Chilla davrida kelin ham, kuyov ham nihoyatda pok, toza, sofdir, oq ko'ngil, bir-biriga va atrofdagilarga o'ta mehribon bo'lishlari talab qilingan. Chunki shu kunlari nimalarga odat hosil qilsalar, umrining oxirigacha shunday bo'lishi mumkin degan tasavvur keng tarqalgan. Shu sababga ko'ra mazkur kunlarda kelin-kuyov shomdan so'ng ko'chaga chiqmasligi, yolg'iz yurmasliklari lozim bo'lgan. Chunki chillali kishilarga ins-jinslar ayniqsa yovuz ruhlar - ziyonakashlar tez ta'sir etadi deb uqtirilgan. Bundan tashqari yovuz niyatli kishilarning issiq-sovuq qilishlaridan ham

qattiq qo‘rqilgan. Vodiya issiq-sovuq amallarini ko‘pincha kelinni olmoqchi bo‘lganu, lekin niyatiga yeta olmay qolgan olmagan ayollar yoki ushbu yoshlar va ularning oilalariga xusumatlari bor kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari farzandsiz ayollarning “chilla tushishidan” ham himoya qilingan.

Nikoh marosimlari bilan bog‘liq an‘analarda oq rang simvolini to‘ydan keyingi “kuyov chaqirdi” marosimida ham kuzatish mumkin. Kosonsoyda “kuyov chaqirdi” marosimga borgan kuyovning oyog‘i ostiga, xonadon ostonasiga oq poyandoz solinadi.

Nikohdan so‘ng kelin-kuyovlarga farzand tilab ziyoratgohlarga borilgan. Tojikiston Respublikasi So‘g‘d viloyati Konibodom tumanida avliyo Xo‘ja Ne‘matullo Vali ziyoratgohiga kelgan farzandalab kishilar bu yerdagi archa shoxlariga latta bog‘lagan holda farzand so‘rash odati bo‘lgan. Garchi bu odat Markaziy Osiyo hududi bo‘ylab garchi keng tarqalgan bo‘lsada mazkur mintaqada o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Konibodom o‘zbeklarida agar o‘g‘il so‘ralsa oq, qiz so‘ralsa qizil latta bog‘lanadi. Biz bunda oq rang o‘g‘il tomonni, qizil rang esa qiz bolaning ramzi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ranglarning marosimiy ahamiyati, ma’nosи (jumladan kiyimda) dunyo xalqlarining marosimlaridan bizga yaxshi ma’lum. Nikoh to‘yi marosimlarida hukmronlik qiluvchi oq rang bizningcha bugungi kunda odatdagiday xursandchilik, poklik va ularning kelajakda yorug‘ hayotlari timsolini bildirgan. Lekin qadimda oq rangdagi narsalar yosh oilaning kelajakdagи hayotini muvaffaqiyatini ta‘minlash yo‘lidagi o‘ziga xos afsungarliklar funksiyasini bajargan.

Umuman olganda, Farg‘ona vodiysi nikoh to‘yi marosimlari bilan bog‘liq afsungarliklarning ko‘plari bir biriga o‘xshash bo‘lib, ulardan asosiy maqsad serfarzand, mustahkam, farovon oilani yaratishga qaratilgan. Vodiya ham Markaziy Osioning boshqa hududlaridagi singari bepushtlik katta baxtsizlik deb qaralgan. Qolaversa xalqda bepushtlik Allohnинг bergen jazosi ham xisoblangan. Shu boisdan nikoh to‘yi marosimlarining eng mas‘uliyatli vazifalarida serfarzand ayollar ishtirokining o‘zi ham afsungarlik ko‘rinishlarining biridir. Nikoh marosimlaridagi afsungarlik usullarini tahlil qilish jarayonida biz shunga amin bo‘ldikki, nikoh tantalari bilan bog‘liq tarzda o‘tkaziluvchi marosimlarda afsungarliklar xilma –xil bo‘lib ularni ikkita katta guruhga –apotropeik afsungarlik, yoki boshqachasiga himoyalovchi afsungarlik va progoipeik, ya‘ni uyg‘otuvchi va birlashtiruvchi afsungarlik kabi guruhlarga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh, ya‘ni himoyalovchi afsungarliklarda kelin-kuyov turli yovuz kuchlar va yomon niyatli kishilarning turli “ilmu amal”laridan asralgan va bunga bo‘lg‘usi oilani himoya qilishga qaratilgan harakatlar va urf-odatlar kirgan. Ikkinci guruh afsungarlik usullari kelin-kuyovni o‘zaro birlashtirish yo‘lida bajariladigan qator urf-odatlardan iborat ekanligigini kuzatdik.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy nikoh to'yi marosimlarda ko'plab afsungarlik ko'rinishlari bilan birgalikda totemizm, fetishizm, tabiatga va hosildorlikka sig'inish izlari va turli xildagi demonologik tasavvurlar ham mavjud.

An'anaviy nikoh to'yi marosimlari to'y ramzları, ya'ni narsa-buyumlar va diniy afsungarlik ramziy ma'nodagi harakatlarda turli xo'jalik-madaniy tiplariga mansub bo'lgan etnoslarning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish mumkin. Jumladan, qadimdan o'troq turmush tarziga ega bo'lib, asosiy mashg'uloti dehqonchilik va hunarmandchilik bo'lgan vodiyning o'troq o'zbek, tojik va uyg'ur etnoslari nikoh to'yi marosimlarda islomgacha bo'lgan dehqonchilik udumlari va diniy e'tiqodlarda zardushtiylik izlari saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Jumladan, bunga nikoh marosimlarda ramziy ishlatiladigan bug'doy, anor, mayiz, qand-qurslar, un, asal, shirin choy yoki marosimiy pishiriqlar-chunonchi, tuxum va turli gurunchli taomlar tayyorlashni kiritish mumkin. Shuningdek, aynan bu guruhg'a tegishli kelin-kuyov ustidan shirinliklar, bug'doy va tanga sochish, birgalikda oynaga qarash, isiriq tutatish, ularning kiyimlarini ip bilan tikib qo'yish, kelin kuyovnikiga olib kelinganda marosimiy poklash uchun gulxan yoqish, kelinning yuzini ochishda mevali daraxtning shoxidan foydalanish kabi odatlarga amal qilingan. Eng muhim farqli tomonlardan biri shundaki ushbu guruhg'a mansub xalqlar an'anaviy nikoh marosimlarda oila-nikoh tarzini aks ettiruvchi *qalliq o'yin* kabi «marosimiy o'yinlar» o'tkazilmaydi va shuningdek kelinning onasi hyech qachon qizini kuyovnikiga birgalikda olib bormaydi. Shuningdek, vodiya an'anaviy mashg'uloti chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan yarimo'troq qipchoqlar, turklar bilan birga mintaqada yashovchi qoraqalpoqlar va qirg'izlar nikoh marosimlarda islomgacha bo'lgan *totemizm, shomonlik, animizm, fetishizm, afsungarlik* kabi diniy e'tiqodlar, *ajdodlar e'tiqodi va o'choq kulti* izlari saqlanib qolgan. Marosimlarda so'zga sodiqlik, baxt, serfarzandililik bilan bog'liq tarzda ko'plab afsungarlik harakatlari asosini chorva mollari, ayniqsa qo'y bilan bog'liq rasm-rusumlar tashkil etadi. Masalan, sovchilarning o'zaro kelishuvdan keyin qo'yning jigari va yog'idan marosimiy taom pishirib jo'natishi, kuyovnavkarga borgan kuyov va uning do'stlariga qo'yning to'shi qo'yilishi, marosimiy taom sifatida qo'yning go'shtidan sho'rva tayyorlanishi, qo'yning po'stagiga kelinni o'tirg'izish yoki yurgizish kabilar. Shuningdek marosimiy «to'qqiz» soni ham magik ma'noni anglatgan.

Nikoh va undan keyingi davrlarda kelin-kuyov yovuz kuchlar, insu jinslar, yomon kishilar xurujidan qattiq himoyalangan va kelin-kuyovlar o'zlarining chilla davrida ma'lum afsungarlik ko'rinishidagi tabular, cheklaqlarga amal qilgan.

#### *Motam marosimlarda arxaik diniy e'tiqodlar izlari*

Inson o'z hayotining ibtidosidan intihosigacha o'nlab turli-tuman marosimlarda ishtirot etadi. Uning yoshi, maishiy hayoti va oilaviy holatida biror bir o'zgarish yuz bersa, ana shu o'zgarishlar muayyan marosimlar vositasida rasmiylashtirilgan.

Ayniqsa, tug‘ilish va o‘lim turli tarixiy davrlarda va turli xalqlar madaniy an'analarida inson hayotining eng muhim bosqichi tarzida e’tirof etilgan va hozirda ham shundayligicha qolmoqda.

Motam marosimlariga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog‘liq, balki motam va u dunyo bilan bog‘liq tasavvurlar va magik urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbanliklar, metempsixoz g‘oyalar, marosimiylig‘ilar, qabr toshlar, aza marosimlari va kiyimlari ham kiradi. Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, mazkur turkumga kiruvchi marosimlar nafaqat tafsifiy jihatdan, balki tarixiy-nazariy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, deyish mumkin. Shu bois tadqiqotning ushbu qismida o‘zbek xalqi an'anaviy motam marosimlarida odat tarzida bajarilib kelinayotgan turfa xil urf-odatlar va rasm-rusumlar genezisi, aniqrog‘i, motam marosimlaridagi qadimiy diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ko‘rinishlarga e’tibor qaratishni va bu an’analarni batafsil tahlil qilishni joiz deb bildik.

O‘lim jonning chiqishi, ruhning inson tanasini tark etishidir. Xalqda jon odam tanasidan qora-ko‘kimir bug‘, dudga o‘xshab chiqib ketadi, uni har qanday kishi ko‘ra olmaydi, faqat botiniy hisga ega kishilargina ko‘radilar, degan tasavvur mavjud. Bu kabi qarashlar faqat Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarigagina xos bo‘lmay, balki barcha Markaziy Osiyo xalqlariga, qolaversa, butun dunyo xalqlariga xosdir. Mazkur xalqlar orasida ham “jon o‘lgan kishining tanasidan qush (kaptar, kapalak, parvona) shaklida uchib chiqishi” haqidagi e’tiqodlar keng tarqalgan. Bundan tashqari ayrim xalqlarda qush totemi ham bo‘lgan. Qadimgi odam nazarida inson tug‘ilishi totem ishtirokida ro‘y beradigan hodisa, o‘lim esa totemga aylanish jarayonidan iborat. Shu bois ham qadimgi animistik qarashlarda qush jon ramzi bo‘lib kelgan.

Shunday qilib, o‘lim bilan bog‘liq xalq e’tiqodlarida ibtidoiy dirlar ko‘rinishlaridan kelib chiqadigan xususiyatlar majmuini ko‘rishimiz mumkin. Bunda biz juda sodda shakldagi animizm tasavvurlariga duch kelamiz. Ularda jon va jonning birligi, jonning jismida bo‘lishi, jon tark etgach, ruh sifatida u dunyoda yashashi aqidasi qadimdan mavjudligi ko‘zga tashlanadi. O‘z navbatida kishi joni tananing qaysi qismida bo‘ladi, degan savol tug‘ilishi tabiiyidir. Bu borada ham qator qarashlar mavjud bo‘lib, ular orasida eng ishonarlisi, kishi joni uni qonida bo‘lishi to‘g‘risidagi xalqona qarashdir. Shu o‘rinda o‘zbeklar orasida keng tarqalgan “*qon chiqdi-jon chiqdi*”, degan iborani eslash o‘rnildir. Bunday qarash nafaqat Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida, balki respublikamizning boshqa mintaqalarida yashovchi o‘zbeklar, tojiklar va qirg‘izlar orasida ham keng tarqalgan. Bu holatni mashhur ingлиз олими J.Frezer tanadan qon chiqqanda uni yerga oqizishdagi o‘ziga xos qo‘rquv sababini qon va jon mujassamligi to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq deb izohlaydi.

Shu o‘rinda qon bilan bog‘liq qiziqarli misolni keltirib o‘tsak. Taniqli etnograf olim F.A. Filstrupning yozishicha, qirg‘izlarda islom kirib kelgunga qadar oila qurayotgan erkak va ayol qo‘llarining bosh panjasini yuqori qismini kesib bir-

birlarining qonini so'rganlar. Biz bundan shunga amin bo'lishimiz mumkinki, oila quayotgan ikki yosh nikohlarini o'zlarining qoni bilan tasdiqlaganlar va bu holat kelgusida ular hayoti va hatto jonlari ham bir bo'lishining ramziy ishorasi bo'lsa kerak. Demak, biz yuqoridagi misollardan qon va jon o'zaro aloqadorligi va qon jismoniy hayotning davomiyligini ta'minlovchi asos ekanligi haqidagi fikrlarni ko'rishimiz mumkin.

Inson tug'ilishi kabi uning o'limi ham o'ta muhim ahamiyatga molik voqyelikdir. Chunki inson o'limi uning bu dunyoni tark etishini, boshqa olamga o'tishini anglatgan va bu jarayon bilan bog'liq qator marosimlar bajarilgan. Qolaversa, vodiya biror kishi vafot etsa hozirda ham "*qaytish qildi*" ham deyiladi. Shu iboraning o'zi ham marhumning bir olamdan ikkinchi olamga o'tishini ifodalaydi.

Xalqimizda bemorning holati, ayrim harakati yoki shifokorlarning bergan ma'lumotlaridan bemorning non-nasibasi tugaganligi ma'lum bo'lib qolsa, qarindoshurug'lari va farzandlari odob saqlab buni unga bildirmaslikka harakat qiladilar. Biroq kishi jon berayotganda uning oila a'zolari, uy egalari ma'lum tayyorgarliklar ko'rganlar: uy hovlilarni tartibga solganlar, oyna, rasmlarni berkitganlar. Kishi jon berayotgan uydan oziq-ovqat, idish-tovoq olib chiqilgan yoki ularning usti yopib qo'yilgan. Chunki jon chiqishida go'yoki qon sachrab xonadagi barcha narsalar nopol bo'lar ekan. Shuni alohida qayd etish kerakki, har qanday tayyorgarlik o'ta yashirin tarzda bajarilgan.

Umr lahzalari tugab borgan sari qazo alomatlari sezilib boraveradi: bemorning yuzida ba'zi holatlар paydo bo'ladi: so'zlashga harakat qiladi, tovush chiqarish uchun sarflagan quvvat og'iz bo'shlig'idan chiqmasdan xalqumga kelib qoladi. Bunday holni vodiya "*sharsharog*" yoki "*g'arg'ara*" keldi, deb aytildi. Namangan viloyati Kosonsoy tumani o'zbeklarida kasal jon berayotganida jon chiqishiga halal bermaslik uchun boshi va yelkasi pastroq qilib bosib turiladi. Bu holatda jon berayotgan kishi quyosh nuri tushmaydigan uyg'a yotqiziladi. Jon berayotgan odamni quyosh nuri tushmaydigan xonaga yotqizish – quyoshga sig'inish odatiga asoslangan bo'lib, bunda quyosh nopol bo'lmasin, degan magik ma'no ifodalangan.

Jon berayotgan kishining ko'kragi, boshi yonida uning yaqinlaridan ikki kishi o'tirgan. Avval bemorning o'zi, agar u tildan qolsa, ulardan biri "Kalimai shahodat"ni o'qib turgan. Qolgan qarindoshlar esa jon cho'chiydi, deb alohida uyda gapirmsadan o'tirganlar. O'lim to'shagida yotgan odamning oldidan hayz ko'rgan, nifosli ayollar va junubli odamlar chiqarilgan. Bundan tashqari, bolalar va homilador ayollar qo'rqmasin, deb jon berayotgan kishining yoniga kiritilmagan.

Jon tanani erkin tark etishi uchun atrofdagilar ovoz chiqarmay o'tirganlar. Og'ir yotgan bemor uzilish oldidan hushidan ketishi mumkin. Uning issiqliidan og'zi qurib qolmasligi, og'izga nam beruvchi ichki bezlar (so'lak bezlari)ning faoliyati to'xtab qolmasligi uchun paxtani suvda xo'llab olib bemorning og'zi namlab turiladi. Shu

o'rinda bu odat haqiqatdan ham jon berayotgan kishining chanqog'ini qondiradimi yoki qandaydir boshqa sabab bilan bog'liqmi, degan savol tug'iladi. G.P. Snesarev bu hattiharakatni qadimiy zardushtiylik dinining dafn marosimlari bilan bog'laydi. Olimning ta'kidlashicha, zardushtiylikda jon berayotgan zardushtiy doimiy ravishda yovuz kuchlar timsoli Axriman tahdidi ostida bo'lgan. Shu bois jon berayotgan zardushtiyning oldida yovuz kuchlarни haydash uchun ikkita kohin shay turishi lozim bo'lgan. Ulardan biri olov oldida duo o'qib turgan bo'lsa, ikkinchisi og'ir yotgan odam og'ziga tetiklik bag'ishlash maqsadida obi hayot (muqaddas xaoma) sharbatidan yoki anor suvidan tomizib turgan. O'z o'mida ta'kidlash joizki, yuqoridagiga o'xhash odat zamonaviy zardushtiylarda ham mavjudligi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Zardushtiylik an'ana va marosimlari bilimdonlaridan biri ingliz olimasi M. Boysning yozishicha, zamonaviy zardushtiylar tartib-qoidalariga ko'ra jon berayotgan zardushtiy to'shamagi oldida ikki kohin bo'lishi zaruriy shartlardan hisoblangan. Ulardan biri yovuz niyatli devlar ziyon yetkazib qo'ymasin degan maqsadda tok novdasi bilan o'rab qo'yilgan aylana ichidagi olov yonida turgani holda duo o'qib turgan bo'lsa, ikkinchisi, jon berayotgan kishining og'ziga xaoma yoki anor suvini tomizib turgan. Demak, yuqorida ta'kidlangan fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, jon berayotgan kishining og'ziga paxta bilan suv tomizib turish, shuningdek, uning yonida albatta keksa yoshli ikki kishining bo'lishi qadimiy zardushtiylik dinining qoldig'idir.

Kishi vafoti bilan bog'lik ko'plab amallar bo'lib, ular dafn marosimlarida alohida xususiyat bilan ajralib turadi. Ushbu amallarning dastlabki xususiyati shundan iboratki, mazkur amallarni kechiktirmasdan tez bajarish kerak, chunki, agar kechiktirilsa murda a'zolari qotib qolishi mumkin. Ikkinci xususiyati shuki, murdani mahtal qilmasdan dafnga tayyorlash kerak. Bunda jon chiqqandan so'ng tezda mayitning engagi (iyagi) bog'lanadi, ko'zi yopib qo'yiladi, qo'llarining panjalari tekislanib, oyog'i uzatiladi va boshmaldoqlari bir-biriga tekkizib bog'lanib bedaning ustiga yotqizib qo'yiladi. Bu bilan mayitdan, o'likdan qo'rqish emas, balki hazar qilishdan kelib chiqadigan yana bir xususiyat ko'zga tashlanadi.

Motam marosimlarida yig'i (bo'zlov, bo'zlash, marsiya aytib yig'lash) alohida o'rin egallaydi. Dafn kunidagi yig'ida erkaklar va ayollar (ayniqsa ayollar) baland ovozda dod solib, marsiya aytib yig'laydilar. Vafot etgan kishiga marsiya aytib yig'lash dunyoning ko'plab xalqlarida uchraydi. Bu odat ildizlari ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Qadim zamonalarda ibtidoiy odamlar uchun o'lim hayotning yakunlanishi hisoblanmagan. Jonsiz ko'rinishda yotgan o'lik aslida fiziologik va ruhiy hayot bo'lib, eshitadi va ko'radi. Shuning uchun yaqinlarining dastlabki qayg'usi tabiiy ravishda marhum bilan ayrılıq nolasi, yakkalanishdan hasrat, ojizlik, marhumning mardona xatti-harakatlari va yaxshi amallarini madh qilish ko'rinishidagi baland ovozli bo'zlash shaklini olgan.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida marhumning yaqin qarindoshlari (erkaklar) dafn marosimi kuni yangi, oxorli to'n, do'ppi kiyib, bellarini belbog' bilan bog'lab, qo'llariga hassa (aso, yangi qirqilgan qora tol novdasidan) olib, unga suyangan holda marhum qo'yilgan xona atrofida aylanib marsiya aytib yig'laganlar. Farg'ona vodisida bunday maxsus yig'ichilar-go'yanda deb nomlangan. Islom dinida yig'lab aytuvchilar-marsiyachilar - noix va noixa deyilib, motam marosimida marhum uchun yig'lash navha solish deyiladi.

«Yig'ichi»lar guruhi motamga marhumning yoki uning oila a'zolari va qarindoshurug'larining hurmati uchun kelgan kishilar hisobiga ko'payib borgan. Ular bu yerda g'annok kayfiyatdan ta'sirlanib, o'zlarining boshdan o'tgan yo'qotishlarini eslab, yig'iga jo'r bo'ladi. Marhumning eng yaqin qarindoshlari hassaga suyanib yig'lash odati vodiy bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hassaga suyanib yig'lovchilarni *hassakashlar* deb nomlanganlar. Hassaga suyanib yig'lash odati nafaqat vodiy o'zbeklari orasida, balki tojik, qozoq va xakaslar orasida ham uchrashi xususida ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, erkak kishi vafot etganda hassaga suyanib yig'lashda hassa nafaqat suyanchiq vazifasini, balki ushbu xonadonning ustunidan ayriganliklarining ramziy belgisini ham ifodalagan. Qolaversa, xalqda qancha ko'p hassa suyanib yig'lansa, marhumga shuncha yengil bo'ladi, degan tushuncha bo'lgan. Vodiyda oldinlari "hassa"lar qabrga qo'shib ko'milgan.

Ayollar yig'isi erkaklar yig'isidan o'ziga xos tomonlari bilan farqlangan. Ayollar davra qurib (erkaklardan ajralgan holda) baland ovozda o'lgan kishiga marsiya aytib yig'laganlar. Agar marhum uylanmagan yoki turmushga chiqmagan bo'lsa, u yotgan uyga chimildiq teskari tarzda tutilib, xotinlar ta'sirli tarzda hasratli motam "yor-yor"larini aytadilar. E'tiborli jihat shundaki, vodiydag'i o'zbeklar motam marosimlarida nikoh to'yi marosimlaridan farqli tarzda marhumning yuziga tutilgan matoni yosh chaqaloq tomonidan mevali daraxt novdasi bilan ochganiday emas, balki keksa ayol qurigan daraxt novdasi bilan ochadilar. Bunday odat respublikaning boshqa hududlarida deyarli uchramaydi. Aynan mazkur odatda qurigan daraxt o'lim ramzini anglatishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, bu borada vodiy o'zbeklarida hovlida qurigan daraxt bo'lishi behosiyatlilik alomati bo'lib, o'lim olib kelishi mumkin deb hisoblangan va shu boisdan ham daraxt qurigan zahoti kesib tashlangan.

Vodiyning aksar yerlarida erkaklar asosan marhum dafn etilgan kunda yig'laydilar. Qashqadaryo vohasida yashovchi qo'ng'irot o'zbeklarida erkaklar dafn kunidan boshqa kunlarda uch kundan yetti kungacha tong mahalda yig'laganlar. Kosonsoy, Chust, Yangiqo'rg'on, Pop tumanlarida marhumning yaqin qarindoshlari bellarini bog'laganlar. Bel bog'lashda asosan ko'k mato ishlatilgan, u azadorlar tomonidan «ko'k kiydi» marosimida azadorlik belgisi sifatida kiyiladi.

Bundan tashqari, utmishda vodiyning juda ko‘p shahar va qishloqlarida professional «yig‘ichi», «go‘yanda»lar bo‘lgan. Ular uvali-juvali, obro‘li shaxslar vafot etganlarida taklif qilingan. Vodiya bunday «yig‘ichi»lar bugungi kunda uchramaydi.

O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish lozimki, dod solib baland ovoz bilan sochlarini yoyib, o‘zini urib yig‘lash odati nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo‘lib, uning ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Qadimgi turkiy xalqlarda nafaqat marhumning bevasi, balki yaqin qarindoshlari ham marsiya ayтиб, сочларни ўлуб, ўзларини ва қулоqlarini tilib yig‘laganlar. Bu borada xitoy manbalarida yozilishicha, yaqinlari vafot etgan turkiy xalqlar qurbanlik sifatida olib kelingan ot va qo‘ylarni o‘tov oldiga qo‘yib keltirib, otning ustida turgan holda yetti marta o‘tovni aylanganlar, so‘ngra o‘tovga kirishdan oldin pichoqlari bilan yuzlarini tilib ovoz chiqarib yig‘laganlar. Ayollar yig‘isidagi soch yoyish, o‘zini azoblashning turli xil ko‘rinishlari Panjikent topilmalarida, Toq-qal’adan topilgan ostadondagi surat shakllarida ham aks etgan. Tarixchi Narshaxiy bu odatlarni "otashparastlar yig‘isi" deb yozgan. Darhaqiqat, bizningcha ham bu odat islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodiy qarashlar qoldiqlaridan bo‘lsa kerak, chunki islom dinida, shariatda ovoz chiqarmasdan, jimgina ko‘z yoshini oqizib yig‘lash lozimligi ta‘kidlangan.

Yuvishda maxsus o‘limlik uchun saqlab qo‘yilgan qozonda suv isitilgan. Qozon olib qo‘yilmagan bo‘lsa, xonadondagi ovqat tayyorlanadigan qozondan foydalaniłgan. Ushbu qozonni keyinchalik yuvib, qatron qilingach, xo‘jalikda qaytadan ishlatish mumkin bo‘lgan. Vodiya mayitni yuvishda ishlatiladigan suvga, behisht hidi keladi, deb rayhon yoki kamyob maxsar gulidan qo‘shilgan. Chust tumani Ariqbo‘yi qishlog‘ida marhum uyda yotgan paytda tagiga beda yoki rayhon to‘shalgan. Bu o‘rinda yuvishda ishlatiladigan suvga rayhon yoki maxsar guli qo‘shilishi yoinki uning tagiga rayxon, beda to‘shash odatlari qadimiyy mahalliy agrar kultlar bilan bog‘liqidir.

Vodiy qipchoqlarida «suyagimizni begonaga ushlatmaymiz» degan ma’noda mayitni yuvish bilan birga, uni kafanlash, lahadga qo‘yish kabi amallarni marhumning eng yaqin qarindoshlari suyak egalari bajaradi. Elshunos olima B.X. Karmishevning yozishicha, bu odat Farg‘ona turklarida ham bo‘lgan. Bizningcha, mazkur odat ildizlari qadimgi turkiylarning ajodolar va avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro qarindoshligiga oid tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Chunonchi, turkiy xalqlar orasida suyak iborasi urug‘-avlod ma’nosini ham bildirgan bo‘lib, o‘zaro shajaraviy bog‘lanish qon orqali emas, balki suyak orqali deb hisoblangan. Ularning tasavvurida aynan suyak odam vafotidan keyin saqlanib qoladigan tana a‘zolaridan biri hisoblangan va u orqali ajodidlardan avlodlarga o‘ziga xos ramziy hayotiy kuch ham o‘tgan. Odamlar tasavvurida bir urug‘ a‘zolarining suyaklari bir xil bo‘lgan. Shu bois turkiy xalqlar ajodolar va avlodlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish prinsiplarini

qondoshlik me'yorlari asosida emas, balki suyakdoshlik asosida deb bilganlar. O'z o'rnida shuni ham ta'kidlash kerakki, qadimda turkiylarda urug'chilik va qarindoshlikni tavsiflashda va ularning qismlari hamda funksiyalarini ko'rsatishda o'ziga xos anatomik koddan, jumladan, sook(suyak)-urug', boshliq-urug' yetakchisi kabi tushunchalardan keng foydalangan.

Respublikamizning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nurota, Qarshi, Urganch, Xiva kabi shaharlarida bo'lgani kabi vodiyning Marg'ilon, Xo'jand, Namangan, Andijon va O'sh kabi yirik shaharlarida professional g'assollar yashaganlar. Ularga bu kasb ajodolaridan o'tgan bo'lib, shogird tayyorlash usuli ham ana shu an'anaga asoslangan. Xorazmdan farqli tarzda vodiyy shaharlarida g'assollar alohida mahallalarda emas balki shahar aholisi bilan aralash holda, ya'ni qo'ni-qo'shni tarzda yashaganlar va ular nafaqat shaharliklarga balki shahar atrofi qishloqlarga ham xizmat ko'rsatganlar. Vodiyy g'assollarining respublikamizning boshqa hududlaridagi g'assollar kabi maxsus kiyim-boshlari bo'limgan. Lekin ularni oldinlari tashqi ko'rinishlariga qarab farqlash mumkin bo'ljan. Jumladan, Marg'ilon shahridagi g'assollar XX asr 50-60-yillariga qadar doimo o'zları bilan qovoqdan yasalgan cho'michlarini belidagi belbog'iga osib yurganlar. Aynan bunday turdag'i cho'mich va marhumlarni yuvishda ishlatalidigan xaltasimon bir just qo'lqop g'assollikning tashqi atributi hisoblangan.

Xo'jandda g'assollarni *maddohlar* (*madh qiluvchi kishi*), Konibodomda *so'gi*, Farg'ona viloyati Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlarda *pokchi*, vodiyning boshqa yerlarida esa *yuvuvchi* va *g'assol* deyishgan. Maxsus yuvvg'ichlar ishi an'anaviy «makruh» murda bilan bog'liq bo'ljanligi uchun odamlar ular bilan kam aloqada bo'ljan. Ular faqatgina o'zaro bir-birlari bilangina oila qurbanlar. Shaharliklar hyech qachon maddohlardan qiz olib qiz bermaganlar, ularni to'y va ma'rakalarga aytmaganlar. Maddohlarning asosiy mashg'uloti marhumlarni yuvish bo'ljan. Shaharliklar faqat yaqinlari vafot qilganlaridagina maddohlarga murojaat qilganlar.

Marhumni yuvishdan oldin marhum yotgan xonada g'assollar yoki keksa qariyalar tomonidan mayitga kafan bichilgan. Kafanni kim bichishidan qat'i nazar bir xil bichilgan, bichishdagi farq ayollar va erkaklar kafanida ko'zga tashlanadi. Kafanni bichish jarayonida qator afsungarlik odatlari qat'iy amal qilingan. Jumladan, aynan kafanni qaychida qirqish, uning pastki qismini qaytarib tikish va hatto u tikiladigan ip uchini ham tugib tikish qat'iy taqiqlangan bo'lib, bu odatlarga amal qilmaslik ushbu uyda yana bir bor motam marosimiga sabab bo'lishi mumkin, deb irim qilingan.

Kafan qadimiy liboslarning uzoq o'tmishga oid xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Vodiya kafan – *kafan*, *taypin* kabi nomlar bilan yuritilgan bo'lib, oldinlari Farg'ona vodiyisida kafan oq bo'zdan bichilgan. Elshunos olma B.X. Karmishevaning yozishicha, XX asr boshlaridan Marg'ilonda vodiyning boshqa yerlaridagidan farqli tarzda dokadan kafan tayyorlangan. Hozirda esa kafanlik uchun

asosan oq surp ishlataladi. Kafan vafot etgan erkak (bola) uchun 12 yoshdan, ayol (qiz)lar uchun 9 yoshdan bichilgan. Erkak mayit uchun o'n olti metrdan yigirma metrgacha, ayol mayit uchun yigirma metrdan yigirma to'rt metrgacha surp ishlataligan. Kosonsoyda kafanni bichishda qaychi o'rnida shisha yoki oyna sinig'idan foydalaniladi.

Mayit kafanlangandan so'ng tutilmagan ko'rpgaga o'ralib, boshining ostiga yostiq teskarli qo'yilgan holda tobutga solinadi va yotgan uydan chiqariladi. Chust tumani Arikbo'yi tumani o'zbek qipchoqlarida bir xonadonda surunkasiga uch marotaba dafn marosimi bo'lgan taqdirda uchinchi martasida marhumni eshikdan emas, balki alohida tuynuk ochib yoki deraza orqali chiqarilgan. Ushbu odat bu xonadondan yana qayta marhum chiqmasin, degan niyatda bajarilgan. Bu borada xalq orasida hatto eshikdan kirib teshikdan chiqsin, degan ibora mavjud. Bu xalqona qarashni rad qilib bo'lmaydi. Qolaversa, jahon etnografiyasida shunga o'xhash ko'plab misollar mavjud. Bunday ko'rinishlar shimoliy Amerika hindularida, Afrika xalqlarida, Hindistonda, Xitoyda ham mavjud. Etnograf V. Xaruzin marhum oldidagi qo'rquv g'oyasi mayitni uydan g'ayritabiyy yo'l bilan olib chiqishga sabab bo'lgan, bunda bir tomonidan, marhum chiqqan yo'l qolganlar uchun xavfli deyilsa, boshqa tomonidan marhum ruhining uyg'a qaytishining oldi olingen deb yozgan. Xorazmda marhum yuvilgan xonadan doimo oyoq tarafidan chiqarilgan. Bizningcha, bu udum zardushtiyarning o'likdan hazar qilish va animizm e'tiqodlarining qorishgan ko'rinishlaridan bo'lib, murdadan qo'rqish g'oyasidan kelib chiqqan bo'lsa kerak.

Tobutni xonadondan olib chiqib ketishda bu xonadonda qayta o'lim bo'lmasin, degan niyatda uch marta yerga qo'yib ko'targanlar. Yangiqo'rg'on tumani Cho'ngbag'ish qishlog'ida "*o'likning orqasi tinch bo'lsin boshi ostonaga tegib ketsin*", deb uch marta tobutning bosh qismi uy ostonasiga tekkizib ko'tarilgan. Kosonsoyda tobutni yetti qadamdan yetti marotaba ko'tarib borish savob deyilgan. Biz bunda marhumga bo'lган hurmat bilan birga yetti sonining muqaddaslash-tirilishini ko'ramiz.

Marg'ilon va unga yaqin qishloqlarda marhum kechki payt jon bergen bo'lsa, ertasiga qoldirmasdan qorong'ida chiroq yordamida dafn etilgan. Bunday shoshilinch xatti-harakat xalqda farishtalar - Munkar va Nakirning savollariga marhumning o'zi tezroq javob berishi lozim, deb izohlanadi. Elshunos G.P. Snesarevning yozishicha, bu faoliyat o'likdan qo'rqish, qadimiy zardushtiylik odati bilan bog'liq bo'lgan. Zardushtiylarda odamlar murdani marosimiyl makruh, degan fikrda uni tezroq dafn etishga uringanlar. Chunki murda vaqtida ko'milmasa, u ziyon yetkazadi deb qo'rqanlar.

Turk asotirlarida ta'kidlanishicha, kelib chiqishi turkiylardan bo'lgan shumerlar ishonchiga ko'ra, ruh inson vujudidan ayrilganda uchib ketadi, yer yuzida aylanib yuradi. Bu ruh Edimnu deb yuritiladi. Agar o'lik kech ko'miladigan bo'lsa, Edimnu

ham Xo‘rtloqqa aylanar, ya’ni yomon ruh holatiga tushar, mozordan ochiqlikka chiqib ketardi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun esa, inson o‘lganda o‘sha zahotiyog ko‘milishi kerak. Bu jihatdan qaraganda shumerlarda ham eng katta jazo va tahlika - ko‘milmaslikdir.

Ilk islom davrida o‘ziga xos (issiq iqlim) sharoitlari ham shunday zaruriyatni keltirib chiqqargan bo‘lishi mumkin. Bu odat o‘sha davrlarda o‘likni mahtal qilmaslik qoidasidan kelib chiqqan bo‘lsa kerak.

Marhumlarni qabrga qo‘yishda mayit kafanining og‘iz qismi ko‘tarib qo‘yilgan. Chunki mayit kafanini tishlab qolsa, butun avlodи qirilib ketar emish. Umuman olganda, motam marosimlarida ham ko‘plab afsungarlik urf-odatlari bajariladi va bu urf-odatlarning aksariyatida ushbu xonadonda qayta motam marosimlari bo‘imasligiga qaratilgan magik niyat mujassamlashgan.

Farg‘ona vodiysida marhum dafn etib kelingan kundan boshlab har kuni kechki payt uning oila-a’zolari, qarindosh-urug‘lari marhum yuvib poklanib chiqarilgan xonaga to‘planishib Qur‘on tilovat qilganlar va oila boshlig‘i tomonidan chiroq qo‘yilib marhum yuvilgan joyda kosada suv va behi novdasi suqib qo‘yilgan. Oldinlari bunday odat qirq kun davom etgan bo‘lsa, hozirda esa vodiyning ko‘p joylarida qirqta chiroq marhum dafn qilingan kunning o‘zidayoq qo‘yiladi. Marhum chiqarilgan xonaning o‘ng tarafiga odam bo‘yi baravarida devorga mix qoqib, ro‘mol o‘lchovidagi oq mato osib qo‘yilgan.

Juda ko‘p xalqlarda, jumladan, Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida ham qadimdan odam uch qismdan tashkil topganligi haqidagi tasavvur mavjud. Bu qismlar: tana, jon va ruh. Tana jon hamda ruh bilan tirik. Inson o‘lgach, uning tanasi yerda qoladi va chirib tuproqqa qo‘shiladi. Jon esa osmonga uchib ketadi. Ruh ham tanani tark etadi, ammo qush yoki boshqa jonzot sifatida tez-tez kelib turadi. Qolaversa, bunga o‘xhash qarashlar zardushtiylik dafn va motam marosimlarida ham uchraydi. Jumladan, zamonaviy zardushtiylar dafn marosimlarini tadqiq etgan Mahmud Katrianing yozishchicha, zardushtiylarda marhum vafotidan keyin uch kun mobaynida olamdan o‘tgan odamning ruhi o‘zining tanasiga qayta kirish maqsadida aylanib yurar ekan. Shuning uchun ham uning yaqin qarindoshlari marxum chiqqan uyda uch kecha-kunduz muqaddas olovni o‘chirilmaydi.

Rishton va So‘x tojiklarida behi novdasi o‘rniga o‘lik chakkasiga rayhon taqib qo‘yilgan va marhum dafn qilingan kundan keyin mayit yuvilgan joyga murdani yuvishda ishlatilgan ko‘zada suv qo‘yilgan. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Kaptarxona qishlog‘ida esa marhum vafotidan so‘ng marhum murda yuvilgan yerga kosada suv, bexi novdasi va bitta chiroq 40 kun mobaynida qo‘yiladi. Ko‘zadagi suv har kunlik Qur‘on tilovatidan so‘ng qirq kungacha yangilanib turilgan. Suv marhum ruhi ichib turishi uchun qo‘yilar ekan.

Respublikamizning boshqa xududlari singari Farg'ona vodiysi aholisining hozirgi kundagi oilaviy urf-odatlarida marhumlarga aza tutish, xotira marosimlari muhim o'rinda turadi. Aza arabcha so'zdan olingen bo'lib, musibatga sabr qilmoq, tasallli topmoq ma'nosini anglatadi. Aza marhumning izzat – hurmati va xotirasi uchun ma'lum vaqt (bir yilgacha) muntazam amal qilinadigan motam udumidir.

Marhumning oila a'zolari, qarindoshlari orasidagi ayollar marhumning qirqi chiqqunicha (ba'zi joylarda yigirma kun davomida) qattiq aza tutganlar. Ular qirq kun davomida marhum xonadonidan tashqariga chiqmasdan, bir qancha marsiya marosimlarini o'tkazganlar. Ular o'zlarining xonadonlariga faqat zarur bo'lib qolgan taqqidragina kechqurunlari borib qaytib kelganlar. Andijon viloyati Buloqboshi tumanida yashovchi o'zbek turklarda esa motam marosimlarida marhumning eng yaqin qarindosh erkaklari qirq kun davomida motam ramzi tarzida soch-soqollarini oldirmay yuradilar. Qirg'izlar azadorlik belgisi sifatida hatto tirnoqlarini ham olmaganlar.

Dafn marosimiga besh yoki yetti kun bo'lganda «kir yuvdi» marosimi o'tkazilgan. Yuviladigan narsalar ikkiga bo'lingan. Farg'ona viloyati Arabmozor qishlog'ida bularni oq kir va qora kir deb nomlaganlar. Oq kirga marhumning oila a'zolari uning vafotigacha kiygan kiyimlari, qora kirga esa dafn marosimi kuni kiyilgan liboslar kirgan. Qora va oq kirning hatto mag'zavasi ham bir-biriga qo'shilmaydi. Vodiyning aksariyat yerlarida marhumning kiyimlari handa yuvishda ishlatilgan qo'lqoplar va tobutning ustiga yopilgan mato alohida yuvilgan bo'lsa, Chust tumani Arikbo'y qishlog'ida qora kirga qo'shib birga yuvilgan. Ushbu kirlarni yuvishda ishlatilgan suv ham chekka joyga chuqurcha qilib ko'mib qo'yilgan. Vodiyning ba'zi joylarida marhumning eski kiyimlari yuvilmasdan ko'mib tashlangan.

Marhumni xotirlash marosimlari sirasiga "yigirmasi" va "qirqi" kabi marosimlar ham kirgan. Ushbu marosimlar nomi yigirma va qirq bo'lsa ham aslida marhum o'lgan kuniga o'n yetti yoki o'n to'qqiz kun to'lganda yigirmasi, o'tiz yetti yoki o'tiz to'qqiz kun bo'lganda qirqi o'tkazilgan. Vodiyning aksariyat yerlarida marhumning yigirmasiga ayollar, qirqiga esa erkaklar tashrif buyuradilar.

Marhumning "uchi", "yettisi", "yigirmasi" va "qirqi"ni o'tkazish yoki ruh (arvoh)larga atab qirqta chiroq qo'yish kabi etiqod va udumlar, aslida, sehrli raqamlar bilan bog'liq qadimiy xalq qarashlari asosida paydo bo'lgan.

Yuqoridagi qarashlardan nima uchun aynan shu kuni xotirlash marosimi o'tkaziladi, degan savolga bir yoqlama javob topa olamiz. Kosonsoylik Onaxon Boyjonovaning fikri bu masalaga ancha oydinlik kiritadi. Axborotchimizning ta'kidlashicha, marhum dafn etilgan kundan boshlab to bir yil o'tgunicha uning jasadida turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Chunonchi, marhum dafngaga uch kun to'lganda uning jag'i tushadi, yettinchi kundan boshlab jasad shisha boshlaydi, yigirmanchi kundan boshlab esa maddasi ortadi va qirq kun to'lganda jasad yoriladi.

Yil davomida esa tana tuproqqa aylanib ketadi. Shuning uchun ham marhumning qirqi marosimidan so'ng eng yaqin kishilaridan birortasi marosim taomi hisoblangan ataladan ozgina olib, marhum yuvilgan uya kiradi va marhum yuvilgan joyning pastki (oyoq) tarafiga chuqurcha qilib atalani quyadi va asta-sekinlik bilan igna sanchib qo'yadi. Ushbu amallar asosida marhum qattiq yorilib azob chekmasin, oyoq tarafidan oson yorilsin, degan magik niyat mujassamlashgan. Bu fikrlarni chuqur mushohada qilib ko'rsak, xalqimizning udumlari zamiridagi maqsadni payqashimiz mumkin. Ushbu amallar marhumni azobdan (yorilishdan) qutqarish va shunga o'xshash marosimlar orqali ular ruhiga is chiqarib, madad berish g'oyasi yotadi. Elshunos olima B.K. Karmisheva murdaning shishib yorilishidan saqlanishiga qaratilgan udumlarni alohida o'rganishga loyiq, deb ta'kidlaydi.

Farg'ona vodiysida dafn marosimiga bir yil bo'lganda yil oshi marosimi o'tkazilgan. Yil oshi o'tkazilgan kunning o'zida yoki yil oshidan so'ng azadorlar marhum xonadonida to'planishib "oq kiydi", tojiklarda esa "safed pushon" marosimlarini o'tkazganlar. Bunda azadorlarning tikib kelgan oq ko'ylak va ro'mollarini taklif qilingan kampirlardan kimdir, masalan, Rishtonda oqsoch xotin kiygizgan. Shundan so'nggina azadorlr taqinchoqlar taqishi, to'ylarga borishi, boshqa oilaviy bayramlar qilishi, qisqasi, o'ynab kulishi mumkin bo'lgan. Lekin ba'zi oilalarda ota-onasi vafot etganda (ayniqsa onasi) qizlari bir yoki ikki yil ko'k ko'ylak kiyganlar, yalangbosh yurmay, ko'k ro'mol o'ranganlar.

Marhumlarni xotirlash marosimlari Ramazon va Qurbon hayitlari kunlarda ham o'tkazilgan. Kosonsoy tumanida hayit kunlari barcha erkaklar qabristonlarga borib, o'tganlar ruhiga tilovat qilganlar va shu yerning o'zida hayit namozini o'qiganlar. Biz bunday odatni respublikamizning boshqa yerlarda uchratmaymiz. Hayit namozlari o'qilgandan so'ng, hayitlar orasida vafot etgan marhumlar xonadonlariga duoi fotiha qilgani borganlar.

Farg'ona vodiysi aholisining o'lim va dafn bilan bog'liq marosimlardagi turli-tuman urf-odatlar va rasm-rusumlar, garchi tashqaridan qaralganda islom dini shariat qoidalariga asoslangan ko'rinsa-da, tadqiqotimiz davomida biz marosimlarda Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelguniga qadar hukmon bo'lgan dinlar va e'tiqodlar izlarining o'ziga xos xususiyatlari saqlanib qolganligi guvohi bo'ldik. Bu xususiyatlар o'lim oldidan bajariladigan amallarda, marhumga bo'lgan munosabatda, marhum bilan aloqador bo'lgan "o'lik xizmatchilari" - g'assollar, yuvg'ichlar, go'rkovlarga bo'lgan munosabatda, atrofdagilarni o'likni nopol deb tushunib, kishilarni yer, suv va o'simliklarni ularning "nopol" ligidan asrashga qaratilgan, puxta o'ylab chiqilgan, asrlar bo'yi shakllangan udumlarda o'z aksini topgan. Biz yuqoridagilarga asoslanib shunga amin bo'ldikki, o'lim va dafn marosimlarda qadimiy zardushtiylilik, boshqa bir qator qadimiy diniy e'tiqodlar izlari hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Qolaversa, axborotchilarich, ushbu ma'raka-

marosimlar vafot etgan kishilar xotirasi uchungina emas, balki ulardan ayrilib qolgan ko‘zi yoshli, dili g‘amli tiriklar uchun, marhumning eng yaqin g‘ambardorlari uchun xotiraviy va zaruriy marosimlardandir.

*Nazorat savollari:*

1. O‘zbek xalqi oilaviy turmushida uchraydigan marosimlarni sanab bering?
2. O‘zbek xalqi oilaviy marosimlarida qanday diniy e’tiqod xususiyatlari namoyon bo‘ladi?
3. Farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar va urf-odatlarda qanday diniy e’tiqod izlari mavjud?
4. Nikox to‘yi marosimlari bilan bog‘liq afsungarlik va diniy e’tiqodlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
5. Motam marosimlarida qanday qadimiy diniy e’tiqod izlari mavjud?

**O‘zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va e’tiqodiy qarashlar**

Reja:

1. Turar joylar bilan bog‘liq urf-odatlarda qadimiy diniy e’tiqodlar
2. An'anaviy milliy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar va afsungarlik
3. Marosim taomlari va ularning mohiyati

Moddiy madaniyatning muhim qismlaridan birini uy-joylar tashkil qiladi. Tarixiy-ethnografik adabiyotlardan ma'lumki, an'anaviy uy-joylarni tiklash va jihozlash usullari mahalliy tabiiy shart-sharoitga, ko‘chmanchi, yarimko‘chmanchi, yarimo‘troq va o‘troq etnik guruhlari an'anaviy turmush tarzi, xo‘jaligi yunalishi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Har bir etnos o‘zining ma’naviy-estetik didi va milliy qadriyatlar asosida uy-joylarini jihozlaydi. O‘z navbatida turar joylarni tiklash va yangi uyga ko‘chib kirish bilan bog‘liq urf-odatlar va marosimlar negizida ma'lum bir e’tiqodiy, diniy-falsafiy qarashlar hamda milliy qadriyatlar mujassamlashgan. Bu esa o‘z navbatida ushbu urf-odatlarning qadimiyligidan, xalqning azaliy mafkurasi, uzoq ajodolarimiz e’tiqodlari taraqqiyoti tarixi hamda diniy qarashlarning yashovchanlik hususiyatlaridan darak beradi. Umuman olganda, uy-joylar bilan bog‘liq marosimlar va urf-odatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad nafaqat ushbu uyda, balki mazkur turar joy, hovlida yashovchi oilada

(ijtimoiy guruhda) ham bekami ko'st muhitni yaratishga qaratilgan. Shu bois mazkur turkum marosimlarda oila va uy-joy ajralmas bir butunlikni tashkil qiladi-deb hisoblash mumkin.

Turar joylar inson uchun makon, boshpana tarzda foydalana boshlangan davrlardan boshlab u bilan bog'liq ilk tasavvurlar ham shakllana boshlagan. Qadimgi uy-joylarning eng muhim xususiyatlaridan biri – ularning o'ziga xos xavfsizlik halqasiga ega ekanligidir. Insoniyatning ilk ajdodlari uy-joylarni yovuz kuchlar xurujidan muhofaza qiladigan o'ziga xos yopiq makon deb hisoblagan va u bilan bog'liq ilohiy tushunchalar tarqalgan. Bu borada fransuz etnologi A.Lerua-Guranning "Uya ramziy ma'no-mazmun berish orqaligina makonni o'zlashtirishdagi insoniyatga xos bo'lgan xususiyat (hayvonlarda mavjud bo'lgan «himoyalanish» instiktidan farqli tarzda) to'g'risida mulohaza yuritish mumkin», degan qarashiga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q.

O'zbeklarda yashash makoni hisoblangan uy-joy, xususan, ota-bobolar joyi muqaddas dargoh hisoblangan va unga mehr qo'yilgan. Qolaversa, ota-bobolar yerining muqaddasligi borasida juda ko'p hikmatli so'zlar, matal maqol va rivoyatlar mavjud.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida ham uy-joylarga o'ziga xos muqqaddas dargoh sifatida qaralgan. Vodiy o'zbeklari yangi quriladigan uyning joylashish o'miga alohida e'tibor berganlar va uylarini doimo xosiyatsiz joylardan - qabriston, ziyyaratgoh va aziz - avliyolar qabrlaridan uzoqroqda qurishga harakat qilganlar. Bu esa o'z navbatida mazkur turar joyda istiqomat qiladigan oila hayotining muvaffaqiyatli o'tishida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki aholi nazdida qabriston va ziyyaratgohlar marhumlar ruhi to'planadigan joy hisoblangan. Chunonchi, mahalliy aholi biror bir qabriston o'rniga yoki aziz-avliyolar mozorlari atrofiga turar-joy qurilsa "bezovta ruhlar" tufayli uy egalaridan kimgadir, ayniqsa, bolalarga tasodifan zarar yetishidan va oila a'zolari kasallanishidan qo'rqqanlar. Xalqona qarashlarga ko'ra, ruhlar ziyoni oila a'zolaridan birining xastalikka chalinishi yoki mazkur uyda yashovchilardan kimnidir biror bir baxtsiz voqyeaga duchor bo'lishi tarzida namoyon bo'lar ekan.

O'sh viloyati Qorasuv tumanidagi Uyg'urqishloqda eski uyni buzib yangisini qurishdan avval ushbu uyda yashab o'tgan ota-bobolar ruhiga bag'ishlab is chiqarilgan. «Is chiqarish» marosimidan avval ayollar tomonidan ushbu uyda yashab o'tganlar ruhiga atab maxsus taom – «o'yma» pishirilgan. Keksalarning ta'kidlashlaricha, tayyorlangan o'yma tiriklar tomonidan yejilishiga qaramay, uni pishirish jarayonida qizdirilgan yog' isidan o'tganlar ruhi bahramand bo'lar ekan. Ushbu marosimda o'tganlar ruhiga bag'ishlab maxsus marosimiylar taom tarzida palov pishirilgan va taklif etilgan mehmonlar ziyofer qilingan. «Is chiqarish»da uy egasi tomonidan qo'ni-qo'shnilar, mahalla erkaklari va mahalla mullasi ishtirokida

o'tganlar ruhiga bag'ishlab Qur'on oyatlari o'qilib duoi fotiha qilish orqali yangi uyni qurishga ramziy tarzda ruxsat berilgan. Aynan shundan keyingina uy egalari ustalar ko'magida eski uyni buzib yangisini qurishga kirishganlar. Bunday tasavvurlar boshqa xalqlar orasida ham keng tarqalgan. Jumladan, tojik etnografi I.M. Muhiddinovning yozishicha, Pomir tojiklarida eski uyni buzib yangisini qurishdan avval ushbu uyda yashab o'tgan ota-bobolar ruhiga bag'ishlab qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar va xalifa ishtirokida maxsus ziyofat uyuştirilgan. Agar kimdir bu odatga amal qilmasdan ota-bobolar ruhining roziligidiz yangi turar joy qursa bir yildan so'ng nafaqat uyni qurgan usta, balki uy egasining o'g'li yoki yaqinlardan biri yafot etar ekan.

Dunyoning ko'plab xalqlari singari vodiy o'zbeklarining ham yangi uyg'a ko'chib kirish oldidan bajaradigan turfa xil rasm-rusumlari va odatlari bo'lib, xalq tasavvurida ushbu amallarning bajarilishi ushbu oilada yashovchilarning kelgusida beziyon yashashlariga ko'mak berar ekan. O'z navbatida bunday tarzdagi qarash yangi uyg'a ko'chib o'tishda va unda yashash davomida xona qismlari bilan bog'liq turli odatlarning bajarilishiga sabab bo'lган. Jumladan, Namangan viloyati Chortoq tumani Peshqo'rg'on qishlog'i, Chust tumani G'ova qishloqlarida yangi uyni qurishdan avval uy poydevorini ko'tarish ishlari boshlanishida ota-bobolar ruhiga bag'ishlab qo'y so'yib qurbanlik qilingan. Shundan keyin so'yilgan jonliq go'shtidan maxsus taom-osh yoki sho'rva tayyorlanib, mahalla oqsoqollari va hasharchilar. Umuman olganda, dunyodagi ko'pgina xalqlarda uy-joylarni tiklash chog'ida jonliq so'yib qurbanlik qilish odati bo'lган. Sharqiyl slavyan xalqlarida ham uyning poydevorini o'rnatishdan oldin jonliq so'yilgan. Uning qoni poydevorning birinchi toshiga surtib olingan. Pomir tojiklarida esa poydevor toshi ostiga qimmatbaho buyumlar: tilla yoki kumush uzuk va taqinchoqlar, tilla yoki kumush tangalar va boshqalar ko'milgan. Bu oilaning mo'l-ko'ichilikda va baxtiyor hayot kechirishida muhim ahamiyatga ega bo'lган.

Yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdiki, eski uyni buzib yangisini solish o'ziga xos mas'uliyatli jarayon hisoblangan. Darhaqiqat, ko'plab xalqlar singari o'zbeklarda ham eng qadimgi davrlardan boshlab o'tgan ota-bobolar, ajdodlar ruhi hurmat qilingan va unga kult darajasida sig'inilgan. Qolaversa, xalq orasida uy-joylar bilan bog'liq mifologik tasavvurlar ham keng tarqalgan va hatto qadimda turar joylarni asrovchi maxsus ilohlar, kultlar ham bo'lган. Jumladan, zardushtiylik dinida uy-joylarni ham asrovchi maxsus iloh Nmanyah deb atalgan. Qolaversa, Nmanyah «Avesta» matnlarida uy ma'nosini ham anglatgan. O'z o'mida shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoning mahalliy o'troq aholisi, ayniqsa, o'zbeklar orasida u yoki bu qadimiyl qal'a, shahar qurilishi borasida so'z yuritilganda dev obrazi paydo bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, dev qiyofasi - avvalo quruvchi siymosini aks ettirgan. Taniqli dinshunos G.P. Snesarevning yozishicha, aynan devlar

yordamida afsonaviy Xorazm hukmdorlari o'zlarining mashhur qal'alari va shaharlarini bunyod qilganlar.

Xorazm rivoyatlarida ayrim devlarning nomlari ham saqlanib kolgan. Ko'plab joylarda Ufrid, Hamza, Oqsuluv, Qoraxon kabi devlar nomlari mashhur bo'lgan. Xorazmning eng mashhur va qadimiy shaharlaridan biri Xazorasp shahar-qal'asi Samandun va Qaus nomli devlar tomonidan barpo etilgan degan rivoyat mavjud. Xalq orasidagi boshqa bir rivoyatga ko'ra, Xorazmning qadimiy qal'asi Qiyot shahri Solgan nomli dev tomonidan bir kechada qurilgan ekan. Taniqli etnograf O.A. Suxarevaning yozishicha, o'zbeklar orasida Hazrati Xizrga shaharlar homiysi deb ham qaralgan.

Odatda, uy qurish ishlari dastlab uning poydevorini tiklashdan boshlangan bo'lib, xalqona tasavvurga ko'ra, bu ishga haftaning xayrlı va omadli kunlari dagina kirishilgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari uy qurilishidagi dastlabki ishlar boshlangan. Chunki aynan mazkur kunlar xosiyatli kunlar hisoblangan.

Yangi uyni qurish jarayonida uning dastlabki yog'ochlari ko'tarilgandan so'ng uy to'sini yoki xarisini ko'tarishda ajoyib bir udum bajarilgan. Odatda, usta uylarning to'sin yoki xarisini o'rnatish chog'ida uy egasidan biror bir narsa (odatda ko'yak, qiyiq va shu kabilar)ni ehson qilishni so'ragan. Bu narsa aholi orasida *keskilik* deb atalgan. Agar ustaga *keskilik* berilmasa, keyinchalik u(usta)ning ishi yurishmay, og'ir kasalga chalinib qolar ekan. Ustachilikning piri Ibrohim Halilulloh hisoblanadi. Chunki bu payg'ambar insonlar ichidan birinchi bo'lib imorat qurgan kishi sanaladi. Ayrimlar Nuh (a.s.) odamlar orasida eng birinchi bo'lib yog'ochdan qayiq yasagan inson bo'lganligi sababli uni yog'och hunarmandchiligi piri sifatida tan oladilar.

Farg'ona vodiysining azaliy o'troq o'zbek va tojik xalqlari orasida uyning ayrim qismlari - to'sin, ustun, eshiklari o'rnatilishida ramziy ma'nolarga ega bo'lgan va aynan mazkur qismlar bilan bog'liq qator diniy-semantic urchodatlarga amal qilingan. Jumladan, vodiy o'zbeklarida ham, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari, xona shiftiga qo'yiladigan to'sinlar soni doimo toq, ya'ni 5,7,9,11 tadan bo'lib, xona turi va hajmini belgilovchi o'ichov bo'lib kelgan. Xalqona qarashlarga ko'ra, ayrim joylarda to'sinlardan bittasini, ya'ni juft bo'lmagani Allohg'a bag'ishlangan deyilsa, boshqa joylarda bitta to'sin vazifasini xonodon erkagi o'tagan, deb tushunilgan. Shu o'rinda Xorazmda uy to'sini bilan bog'liq o'ziga xos ramziy odatga amal qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz. Taniqli etnograf olima M.V. Sazonovaning yozishicha, Xorazmning ayrim tumanlarida biror xonadonda ketma-ket o'lim yuz berganda, shu oila a'zolaridan qolganlarining umrini saqlab qolish niyatida xonaning o'lim sodir bo'lgan qismidagi tomonning ikki to'sini yoki tomonning to'g'ri kelgan joyidan ikkita to'sin, ayrim tumanlarda esa shiftning barcha to'sinlari butunlay almashtirilgan.

Yangi qurilayotgan uy devorini ko‘tarish, tom yopish bilan bog‘liq, shuningdek, ayni vaqtida ko‘p ishchi kuchini talab etadigan ishlarda mahalla erkaklari ishtirokida maxsus hashar uyuştirilgan.

Uy-joylar bilan bog‘liq urf-odat va rasm-rusmlarning talay qismi yangi uy tiklab bo‘linganidan so‘ng ham o‘tkazilgan. Qoramurt o‘zbeklarida yangi uygaga *dushanba* va *juma* kunlari ko‘chib kirish xayrli hisoblangan.

Yangi qurilgan uygaga ko‘chib kirish jarayonida ham ko‘plab magik urf-odat va marosimlar bajarilgan. Namangan viloyati Chortoq tumani Oqsuv G‘ovozon qishlog‘i o‘zbeklarida yangi uygaga ko‘chilganda «ushbu uyda yashovchilarining kelgusidagi hayotlari misoli do‘lanaday mustahkam bo‘lsin», degan niyatda uyning to‘rt burchagiga do‘lana shoxi qoqib qo‘yish odati bo‘lgan. Shuningdek, ushbu uy doimo rizqli, barakali bo‘lsin, degan niyatda uygaga dastlab tuz olib kirilgan.

Markaziy Osiyoning ko‘plab mintaqalarida, jumladan, Voxanda (Tog‘li Badaxshon) yangi uygaga birinchi bo‘lib ayol kishi kirgan. U xona ustunlari va shiftiga un sepib chiqqan. Xorazmda ham uygaga birinchi bo‘lib uy bekasi o‘zining onasi bilan kirgan. Ertasi kuni, yangi uygaga ko‘chib o‘tish to‘yi-“joy to‘yi” berilgan. Darhaqiqat, yangi uygaga ko‘chib o‘tish bilan bog‘liq odat ko‘p joyda ayollar tomonidan bajarilgan. Ayol obrazi qadimdan nasldorlik ramzi sifatida gavdalangan. Jumladan, qadimiy hind qo‘lyozmalaridan biri «Atxarvaveda»da yangi uygaga ko‘chib o‘tish marosimi bayon etilgan. Unda ham birinchi bo‘lib ayol kirgan va majusiy suyuqlikka botirilgan yog‘ni xona qismlariga surtib chiqkan. Shuningdek, ustunga qarab ot, sigirlar ko‘payib, boy bo‘lishini tilab duo o‘qilgan. Duo o‘qish paytida ustunning to‘rt tomoniga qo‘l tekkizishgan. So‘ng uydan chiqib, osmonga (tangriga) iltijo qilib, to‘rt tomoniga qarab qo‘yishgan.

O‘zbeklarda uyning turli joylari, ayniqsa, ostonas, o‘chog‘i eng muqaddas joylardan biri hisoblangan va u bilan bog‘liq qator diniy-afsungarlik urf-odatlari hamda irimlari bajarilgan. Bu o‘rinda, avvalo shuni ham ta‘kidlash kerakki, halqning kundalik turmush tarzida ostona bilan bog‘liq qator naqllar ham mavjud. Chunonchi «*Ostonada turmushga chiqmagan qiz o‘tirsa baxtsiz bo‘ladi*», «*ostonada turib bo‘lmaydi, chunki biror bir kishisidan judo bo‘lgan odam ostonada turadi*», «*ostonada quloch kerib turib bo‘lmaydi, baraka to‘siladi*», «*ostonada turgan holda salomlashilsa, o‘rtaga sovuqlik tushadi*», degan naqllar bugungi kungacha xalqimizda saqlanib kelmoqda va ular hozirda ham omma orasida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Namangan viloyati Chortoq tumani Qoramurt kishlog‘ida marhum uydan oyog‘i bilan emas, balki boshi bilan olib chiqiladi va uni xonadan olib chiqishdan avval marhumning orqasi tinch bo‘lsin, ya‘ni uning orqasidan ushbu uyda boshqa ta‘ziya bo‘lmasin, boshi ostonasiga tegib ketsin, degan niyatda uyning ostonasiga tobutning bosh tomoni uch marta tekkizib ko‘tarilgan. Bunday udum nafaqat vodiy, balki

Xorazm o‘zbeklari, qoraqalpoqlar, tojiklar, beludjlar, kurdlar orasida ham bo‘lgan. Farg‘ona tumani Kaptarxonan qishlog‘ida homilador ayol to‘lg‘og‘i tutganda u ostonada turib uch marta sakratilgan. Bu odat zamirida «ikki yo‘l orasida turgan ayolni muqaddas bo‘sag‘a qo‘llab-quvvatlab tursin, osonlik bilan qutilib olsin», degan niyat mujassamlashgan. Qoraqalpoqlar uy-joylari bilan bog‘liq urf-odatlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan etnograf N.A. Tleuberganovaning yozishicha, qoraqalpoqlarda uy-joylar ostonasi ostiga yangi tug‘ilgan bolaning yo‘ldoshi ko‘milgan. Qadimda qoraqalpoqlarda agar bola yoshligida vafot etsa, uni qabristonga olib bormay, uyning ostonasiga ostiga ko‘mganlar. Faqat shundagina bola ruhi shu yerda qolib oila a‘zolarini ham turli balo-qazolardan asrab qoladi, deb qat‘iy ishonilgan. Boysun tumani qo‘ng‘irotlarida chaqaloqning dastlabki qorin sochi olinganda u uy ostonasiga «bo‘sag‘a hidoyat qilsin», degan niyatda osib qo‘ylган. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor qishlog‘i o‘zbeklarida esa chaqaloq tirmog‘i olingandan so‘ng ushbu uy ostonasiga ko‘mib qo‘yiladi. Chunki kishi vafotidan so‘ng uning yoniga Dajjal kelib so‘roq-javob qilganda, olingen timoqlar timoq o‘z egasini qal‘a bo‘lib to‘sib turadi deb hisoblanadi.

O‘zbek va tojiklarda kelinlikka mo‘ljallangan qiz yashaydigan xonadonga borgan sovchilar uyning ostonasini o‘z etaklari bilan yaxshi niyatda supurib qo‘yanlar.

Toshkent shahri o‘zbeklarida kelin kuyovning uyiga kelganidan keyin dastlab uy ostonasiga salom bergen va uning ustidan shirinliklar sochilgan. Samarqandda yangi kelin bo‘lib tushgan qiz kelinligining birinchi kuni tunda yuzini oq mato bilan berkitgan holda ostonada turib bu uyda yashab o‘tgan ajdodlar ruhiga salom bergen. Qorluqlarda qora uy bo‘sag‘asi muqaddas hisoblangan. Agar kimdir bo‘sag‘ani bilmasdan bosib olsa u uyga kirmasdan orqasiga qaytib bo‘sag‘ani uch marta tavof qilib kirgan. Mo‘g‘ullarda ham ostonani bosish gunoh hisoblangan. Slavyan xalqlarida esa uyni qo‘riqlovchi jinlarning yashash makoni ostonada bo‘ladi deb qaralgan.

Demak, yuqoridagi misollardan dunyoning ko‘p xalqlari orasida ostona bilan bog‘liq tasavvurlar va urf-odatlar keng tarqaganligi va uzoq tarixiy asosiga ega ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

Qadimda hindoevropa xalqlari tasavvurlariga ko‘ra uy, ibodatxona va shahar o‘ziga xos mikro olam, ostona esa ana shu mikro olamga tashqi dunyodan kirish joyi bo‘lgan.

Rivoyatlarga ko‘ra Afrig‘iyalar va Arshakiylar sulolasining asoschisi Siyovush ham Buxoroning sharqiy darvozasiga dafn qilingan. Mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ham XI asrda sug‘diylar turmush-tarzida ajdodlar e’tiqodi bilan bog‘liq qator urf-odatlar va marosimlar o‘tkazilganligi borasida ma‘lumotlarni keltirgan. Aynan shu sababga ko‘ra dunyoning ko‘plab xalqlarida marhum vafotidan

so'ng uni turar joyning asosiy eshididan emas, balki uyga kiriladigan yashirin yo'llar yoki derazasidan olib chiqilgan.

Uy va tashqi olamni xalq tasavvurida mikro va makro olamga bo'linishi "uy va uydan tashqari" kabi o'zaro qarama-qarshilikni paydo qilgan. Shu bois odamlar o'zlarining mikro olamini "xavfsizlik hududi" tarzida tashqi kuchlardan himoyalaganlar. Bunday tarzdagi himoyalanishlarga barcha xalqlar orasida keng tarqalgan xonadonga tashqi olamdan kiriladigan yo'llar va tirkishlarni turli-tuman qulf-kalitlar, zanjirlar, panjaralar o'rnatish bilan birga turar joyni afsungarlik yo'li bilan himoyalash, ya'ni uyning eshigi, bo'sag'asi, derazasi va darvozasiga magik himoya vositalari tarzida turli buyum va ashylarni osish yoqi qoqib qo'yish odati ham kirgan. Turar joylar egalari bu amallar orqali go'yo ushbu uyni nafaqat o'g'ri va qaroqchilar, balki yovuz kuchlar va zarar yetkazuvchi magiya uchun ham egallash mumkin bo'Imagan qal'aga aylantirganlar.

Qo'qon shahri o'zbeklarida juda qiziqrli bir odat mavjud. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, har bir uyning eshiklari quyosh chiqquniga qadar ochilishi va o'z navbatida kuyosh botishidan avval yopilishi lozim deb hisoblangan. Keksa kishilar ma'lumotlariga binoan agar eshiklar vaqtida ochilib, vaqtida yopilsa Xizr buva ushbu xonadonga baraka ulashib ketarkan. Agar buning aksi bo'lib, eshiklar shomdan keyin yopilmasa yoki tong yorishishidan avval ochilmasa Hazrati Xizr ushbu xonadonga in'om qilgan barakasini olib ketar ekan. Qolaversa, uy egalaridan kimdir biror bir uzrli sabab bilan uyga qorong'u tushgandan keyin kech qaytsa uyga kirishdan avval tashqaridagi mevali daraxtni quchoqlab, o'zi bilan birga ergashib kelgan turli-tuman ins-jinslarini daraxtga o'tkazgandan keyingina uyga kirar ekan.

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Kaptarxonha qishlog'i o'zbeklari tasavvurida, har bir odam kimsasiz uyga kirayotganda ham ostonadan salom berishi lozim deyiladi. Chunki aynan uyning ostonasida shu xonadonda yashab o'tganlar ruhlari va yomonlik hamda yaxshilikni yozuvchi farishtalar doimo hozir ekanlar. Shu bois agar kimunga nisbatan hurmatsizlik qilsa ziyon ko'rishi mumkin deb hisoblangan.

XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy turar joylari "ichkari" hamda "tashqari" hovlilarga bo'lingan. Ko'plab tadqiqotlarda bu jihat ayollarni nomahram kishilarning nazaridan chetda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan islomiy qarashlar bilan bog'liq deb ta'kidlanadi. Bunday qarash asosini butkul rad qilmagan holda shuni ta'kidlash joizki, o'zining ichki hayotini o'zgalar nazaridan chetda tutish o'zbeklarning azaliv xususiyati bo'lib, bu an'ana islomiy qarashlar bilan bevosita uyg'unlashgan va tasdig'ini topgan.

O'zbeklar orasida uy o'chog'i ostonasi bilan birga uyning eng muqaddas joylaridan bo'lishi bilan birga oilaning baxti ham hisoblangan. Qadimgi tasavvurlarga ko'ra o'choqda (otashkadada) ilohiy olov yongan, o'choqda taom olovi yongan,

o'choqda isinish olovi yongan. Demak o'choq hayotning diniy va ijtimoiy in'ikosi. Shu sababdan ham o'choq barcha dinlarda e'zozlangan.

Endi an'anaviy xo'jalik mashg'uloti chorvachilik bo'lgan xalqlar orasida keng tarqalgan ko'chma uy-o'tov va u bilan bog'liq ayrim diniy-falsafiy tasavvurlar, urfatlar tahliliga batafsilroq e'tibor qaratsak. Asosiy yashash joyi Dashtiqipchoq bilan bog'liq ayrim o'zbek urug'larida nikoh marosimida kelinga bag'ishlab maxsus uy - oq o'tov tikish odati bo'lgan. Aynan nikoh to'y i kuni tiklanadigan uy oq uy yoki o'tov deb atalgan. An'anaga ko'ra, turkiy xalqlar orasida oq rangdagi o'tov, asosan, o'g'il uylantirish vaqtida qurilgan. Yangi turmush qurban yosh kelin-kuyov ana shu oq uyda yashaganlar. O'g'uzlarning qahramonlik dostonlarida ta'kidlanishicha, Boyindirxon davrida o'g'uzlar orasida turli-tuman ziyofat va tantanalarni uyshtirib turish yaxshi bir an'anaga aylangan. Bunda xon buyrug'iga ko'ra kimningdir o'g'li bo'lsa, unga atab oq o'tov tikilgan. Agar qizi bo'lsa, qizil rangli o'tov, umuman farzandlari bo'lмаган beklarga esa qora o'tov tiktilgan. Bizningcha, yosh kelin-kuyovlar uchun oq rangli o'tov tiklanishida ramziy ma'no bo'lsa kerak. Chunki ko'plab xalqlarda oq rang poklik, baxt-saodat va ezgulikni bildiruvchi timsol hisoblangan. Oq kigizga ega bo'lмаган kambag'al oilalarda nikoh uyi qora rangli kigiz bilan qoplanib, uning ustti oq mato bilan yopilgan.

Qirg'iz, qurama va qoraqalpoqlarda o'tov eshigi shamol yo'nalishini e'tiborga olgan holda, ko'pincha janubga qaratib o'matilsa, qipchoqlarda har doim sharqqa qaratib qurilgan. Etnograf olim K. Shoniyo佐ov qipchoqlarda o'tov eshigini kunchiqar tomonga (sharqqa) qaratib qurilishini ularning qadimdan quyoshga sig'inganliklari bilan izohlaydi.

Farg'ona vodiysi qipchoqlarida XX asr 40- yillariga qadar, qirg'izlarda esa to hozirgi kungacha vafot etganlarga bag'ishlab maxsus o'tov tiklanadi va marhum aynan o'tovda yuvib poklanib, oxirgi yo'lga kuzatiladi. Qipchoqlarda, boshqa turkiy xalqlardagi singari, qora uyning to'ri eng e'tiborli qism hisoblanib, uy sohiblari yotib dam oladigan va ovqatlanadigan joy sanalgan. Chorvador aholi bu joyni jihozlashga alohida e'tibor qaratgan. Avvalo, bu joyga oilaning eng yoshi ulug' kishisi, hurmatli va aziz mehmonlar o'tkazilgan.

*An'anaviy milliy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar va afsungarlik*

Kiyim-kechaklar insoniyat turmush tarzi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq tarzda yuzaga kelgan. Qolaversa, insoniyat tarixidagi ilk eng muhim ixtirolardan biri aynan kiyim-boshlar hisoblanadi. Chunki insoniyatni hayvonot olamidan uning tafakkur qobilayati ajratib tursa, ushbu tafakkurning bir mevasi libosdir. Aynan kiyim odamlarni hayvonot olamidan ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan birdir.

An'anaviy milliy kiyimlar shakllanishi tarixiga nazar tashlar ekanmiz bir necha ming yillar mobaynida uning qator muhim funksiyalari tarkib topganligini ko'rishimiz mumkin. Kiyimning birinchi va asosiy vazifasi -tanani sovuqdan va

tabiatdagi turli boshqa noqulay vaziyatlar va ta'sirlardan himoyalashdan iborat bo'lgan. Kiyim-boshlar taraqqiy etib borishi va unga tashqi (tabiiy) muhit, xo'jalik mashg'uloti, e'tiqodiy qarashlar, ijtimoiy-madaniy yo'naliishlardagi o'zgarishlar, milliy va diniy qarashlarning bevosita ta'siri natijasida ikkinchi muhim vazifasi, ya'ni jinsiy va ijtimoiy bo'luvchi hamda marosimiyl-e'tiqodiy vazifasi ham paydo bo'lgan. Qadimgi davrga xos mifologik tasavvurlarga ko'ra har bir soha va predmetning o'ziga xos va mos ma'budasi bo'lib, Shumer-akkadliklar mifologik qarashlariga ko'ra Uyti nomli iloh kiyim-kechaklar ma'budasi bo'lgan.

O'z navbatida shuni ham qayd etish joizki, kiyim-kechaklar taraqqiyotining dastlabki bosqichida ularning jinslararo munosabatda tutgan o'rni biroz noaniqday ko'rindi. Chunki kiyimlar dastlab ikki tomonlama, ya'ni bir tarafдан tananing ma'lum bir qismini yopib turuvchi "*jinsiy tabu*" himoya vazifasini bajargan bo'lsa, boshqa jahatdan qarama-qarshi funksiya, ya'ni taqinchoqlar, tananing turli qismlarini ko'rsatish orqali boshqa jins vakilini o'ziga jaib etish vazifasini ham bajargan.

Farg'ona vodiysi o'zbelari orasida ham asrlar mobaynida o'ziga xos kiyinish madaniyati va an'analari shaklangan. Bu an'analarda vodiy aholisining bir necha ming yillik milliy va diniy qadriyatları ham o'z aksini topgan. Kiyimlar va ularning ayrim qismlari bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar hamda urf-odatlarni tahlili qilishdan avval aynan liboslarni bichib-tikish bilan bog'liq diniy-afsungarlik ahamiyatiga ega bo'lgan ba'zi rasm-rusumlarga e'tiborni jaib etsak.

Vodiy o'zbeklari orasida asrlar saqlanib kelayotgan an'anaga ko'ra kiyimlarni bichib-tikishda bichiqlichar matoni qaychi bilan kesmaganlar, balki qo'i bilan yirtib, ayrim qiyiq joylarini pichoq bilan kesganlar. Kiyimlar asosan bo'y, yeng va yon qiyiqlardan iborat bo'lib, avvallari ularning aksariyati qo'lda tikilgan. Bichiqlichi va tikuvchilar u yoki bu sarpo uchun olingan matodan iloji boricha qiyqim chiqarmaslikka harakat qilganlar. Chunki qadimgi matolar eni shuni taqozo etgan. Shu bilan birga, urf-odatlarga ko'ra, kiyim bichish yoki uning qiyqimlariga yomon ko'zli yoki «nazari bor» kishilar nigohi tushsa, o'sha libosni kiygan kishi kasallanadi, hattoki vafot etishi ham mumkin, degan qarashlar mavjud bo'lgan. Darhaqiqat, chevarlar ham o'z faoliyatları davomida qator afsungarlik urf-odatlariga amal qilganlar. Jumladan, vodiy chevarlari birovning oldida kiyim bichmaydilar. Chunki o'zga kishilar oldida kiyim bichilsa kimningdir ko'zi tegib qolishi va chevar kasal bo'lib qolishi mumkin,- deb hisoblangan.

Liboslarni bichib-tikuvchi chevarlar kiyimlarni bichish uchun hattoki haftaning ma'lum bir kunlarini tanlab olganlar. Xalq nazdida haftaning dushanba, payshanba, juma yaxshi, xosiyatli kunlar deb qaralgani bois shu kunlari kiyim bichilgan, seshanba, shanba kunlari xosiyatsiz deb hisoblangan va bu kunlarda kiyim bichilmagan.

Kiyimlar yuqorida qayd etilgan funksiyalardan tashqari shaxsning bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tishini, ham anglatgan ya'ni initsiativasi ahaliyat ham kasb etgan. O'z navbatida bu bilan bog'liq qator urf-odatlar bajarilgan. Jumladan, bola tug'ilganda chaqaloqqa, nikoh marosimida bo'lg'usi kelunga va motamda marhumga maxsus ko'yak kiydirilgan va bu ko'yaklar o'ziga xos umumiyliliklarga ega bo'lgan.

O'zbeklarda chaqaloq tug'ilganiga 3, 5, 7 kun bo'lganda unga ilk marta ko'yak, ya'ni «chilla ko'yak» kiydirish odati mavjud. Ushbu ko'yak Farg'ona vodiysida «chilla ko'yak», Toshkent, Samarqand, Buxoroda «it ko'yak» deb atalgan. Biz uchun bu o'rinda muhim chaqaloq chilla ko'yagini «it ko'yak» deb nomlanishidir. Ushbu ko'yakning «it ko'yak» deb nomlanishi borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim manbalarda chaqaloqqa chilla davrida zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha ziyor-zahmatlarni ko'yak orqali itga o'tkazishga qaratilgan magik niyat sabab bo'lgan, deyishsa, boshqa mualliflar «chaqaloq tug'ilganiga qirq kun bo'lgandagina uning tanasiga insoniy ruh kiradi. Qirq kun mobaynida u «hayvonot olami»ga tegishli deyilganligi bois ham ushbu ko'yakni «it ko'yak» deyilgan»- deb ta'kidlaydilar. Biz mazkur fikrlarni rad etmagan holda shuni ham ta'kidlaymizki, chaqaloqning qirq kunlik – chilla davri tugagandan so'ng xuddi kattalarnikiga o'xhash ko'yak kiydirilishi ham ramziy ravishda uning odamlar olamiga o'tishini anglatgan.

Nikoh marosimida ham kelin maxsus tikilgan oq rangdagi libos kiygan. Xalqimizda oq rang poklik, pokizalik timsoli hisoblanishi bilan birga ramziy ma'noda bo'lg'usi kelinni qizlik olamidan «ayollar» dunyosiga o'tayotganligini ham anglatgan.

Surxondaryoda nikoh to'yning ikkinchi kuni kelunga maxsus ayollik kiyimini kiydirish marosimi o'tkazilgan. Mazkur marosimda kelunga xalq orasida «kampir yoqali» ko'yak deb atalgan uzun tik yoqali ko'yak kiydirilib, sochi ikkita qilib o'rilgan. Odatga ko'ra, kelinlar oilada birinchi farzand tug'ilgunga qadar kelinlik liboslarni kiyganlar.

Markaziy Osiyo xalqlarida bo'lgani singari o'zbeklarda ham marhumga maxsus libos – kafan kiydirilib dorulfanodan dorulbaqoga kuzatiladi. Kafan asosan oq bo'z matodan tayyorlanadi. Kafan avval chap, so'ng o'ng tomonidan boshlab o'raladi, o'ng tomon ustida bo'lishiga alohida e'tibor qilinadi. Demak, ushbu fikr-mulohazalarga xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbeklarda inson hayotining muhim uch bosqichida ham maxsus libos kiydirilganligiga amin bo'lamiz. Ikkinchidan, ushbu har uch libos doimo oq rangda bo'lgan va uning ham pastki qismi umuman qayrilmagan. Uchinchidan, chaqaloq va kelin hamda mayitga birinchi libos doimo marosimiy tarzda kiydirilgan. Demak, chaqaloq va kelin hamda mayitga kiydiriladigan ushbu liboslarni inson bir bosqichdan ikkichi bosqichga o'tayotganligining ramziy ifodasi deb hisoblash mumkin. Darvoqye, bu borada ayollar ro'mollari ham ranggi, holatiga

ko'ra ular yoshi, oiladagi o'rniga binoan o'ziga xos tarzda o'zgarib borgan. Qizlar turmush qurganda, juvonlar birinchi farzand ko'rganda, o'g'lini xatna qildirganda va nevaralik bo'lganlarida bosh kiyim holati va rangini o'zgartirganlar. O'z navbatida bu jarayon, ya'ni yangi ijtimoiy guruhiga o'tish bilan bog'liq qator holatlar urf-odatlar tarzida aks etgan. Qadimgi odatga ko'ra, qizlar turmushga chiqqanlarida nikoh kunlari yoki to'ydan so'ng uchinchi kuni qizlik ko'yaklarini xotinlik ko'yaklariga almashtirganlar.

Vodiy o'zbeklari an'anaviy kiyimlarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayonida biz ko'plab milliy liboslar va ularning ayrim qismlari, jumladan, ko'yaklarga tikiladigan turli kashtalar, chirozlar ham kiyim egasini yomon ko'zlardan asraydi degan magik tasavvurlar mavjudligiga amin bo'ldik. Darhaqiqat, qadimgi odamlar tasavvurida kiyim va zeb-ziynatning magik quadrati, uni yovuz ruhlardan himoyalash fazilatlariga ega bo'lib bu borada etnografik adabiyotlarda ham ayrim mulohazalar bildirilgan. Qolaversa, to'yarda kiyiladigan sarpolar doimo just qilingan. O'z navbatida motam uchun qilinadigan kiyimlar toq bo'lgan bo'lib, ushbu amallar raqam magiyasi bilan bog'liqidir.

Belbog' o'zbek va tojik xalqlari tomonidan juda qadim zamonalardan beri e'zozlanib kelinadi va u milliy kiyimlarining qadimiy ajralmas qismi hisoblangan. Milliy belbog'lar kishiga kiyimlarning badanga yopishib turishini ta'minlovchi, qaddi-qomatini to'g'ri tutuvchi, ixcham va xushbichim bo'lishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Qadimda belbog' kishi yoshini ham ifodalagan. Belbog' uni bog'lovchi shaxsning er yigit, er kishi sifatida shakllanganligidan dalolat bergen. Vodiyda belbog'-belbog', qiyiq, qiyiqcha deb nomlangan. Ilk o'rta asrlarda turkiy tilda dastlabki lug'atni yaratgan mashhur olim Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, belbog' XI asrda «qur», «qurmaq» deb atalgan. Dunyo xalqlari moddiy madaniyat bilan shug'ullangan mutaxassislar belbog'ni an'anaviy milliy liboslarning muhim qismlaridan biri tarzida e'tirof etganlar. Chunonchi, Xitoyda Tan va Sun imperiyasi davrida fuqarolarning belbog' taqishlari davlat tomonidan aniq va qat'iy qilib belgilangan. Xitoy kiyimlari bo'yicha mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, belbog'lar ranggi, matosi, materiali va bezaklari turli darajadagi odamlar orasidagi o'zaro farqli jihatlarni anglatgan. Qolaversa xitoy tilidagi guanday (qalpoq va belbog') so'zi lavozimni anglatuvchi jumladan paydo bo'lgan ekan.

Xitoyda har bir guruh va tabaqaning ma'lum bir rangdagi va shakldagi kamari bo'lgan. 1-2 darajali davlat rahbarlari oltin qoplamali, 3-6 darajali shaxslar karkidon suyagidan, 7-9 darajalilar - kumushdan, oddiy fuqarolarga esa temir kamar taqish huquqi berilgan.

Turkiy xalqlar orasida ham qadimda belbog' an'anaviy milliy kiyimning muhim bir qismini tashkil etish bilan birga belbog' egasining jamiyatda tutgan o'rnini ham bildirib turgan. Kishining belidagi belbog'iga asoslanib uning qancha davlat va mol

dunyo egasi ekanligini anglash mumkin bo‘lgan. Beldagi belbog‘ning ko‘pligi shaxs mol – dunyosining shunchalik ko‘pligidan dalolat bergen.

Vodiya nikoh to‘yi tantanalari o‘tkaziladigan kun kuyov yaqin do‘sitlari bilan birga kelinning uyiga kuyovnavkarga boradi. Kuyovnavkarlar kelin silasi tomonidan maxsus ziyofat qilingandan so‘ng kuyov va uning ikkita eng yaqin do‘siti hamda kelinning yangalari ishtirokida “belbog‘ bog‘lash” marosimi o‘tkaziladi. Belbog‘ bog‘lash marosimida kuyov jo‘ralar kuyov uchun kelin va uning onasi tomonidan tikilgan belbog‘larni turli xil usullarda birin-ketin kuyovning beliga bog‘laydi. Belbog‘ bog‘lash jarayonida kuyovjo‘ralar belbog‘ tugunining mustahkamligini saqlab qolishni harakat qiladilar. Tugun qattiq mustahkamlining ramziy ma’nosи bo‘lib, kuyovning beli baquvvat ekanligiga ishoradir. O‘zbek xalqida tugun magiyasiga ishonch juda kuchli bo‘lgan. Aslida tugun yo‘l bog‘liqligi, chigallik, noilojlik belgisidir. Tugunlarni yechish esa yo‘l ochish, visolga yetishish, mushkul ahvoldan xolos bo‘lishning afsungarlik vositasi deb qaralgan.

Namangan viloyatidagi Chust tumanining Dam, Baymoq, Sho‘rbuloq, Arikbo‘yi qishloqlarida kelin kuyovning xonadoniga kuzatilayotgan paytda otasining oyog‘iga bosh qo‘yib, undan bergen non-tuziga rozilik so‘raydi. Ota o‘z navbatida qizini turg‘izib, unga rozilik bildirib, oq fotiha beradi. Shundan so‘ng kelinning boshiga “loki” bog‘lanadi. “Loki” bog‘lashda keksa serfarzand ayollardan biri kelinning boshiga bir juft non va paxta, qulf-kalit, taroq qo‘yib oq ro‘mol (doka) bilan bog‘lagan. Kelini yuzining XX asr boshlarida o‘ziga xos kashtalar bilan bejirim qilib tikilgan paranji bilan hozirda esa joynamoz yoki baxmal bilan yopadilar. Kelinchak to‘ydan so‘ng «Loki»ga qo‘yilgan paxtadan yovuz ruhlardan himoyalanish va serfarzand bo‘lish niyatida pilik qilib sochiga taqadi.

Kelinning boshiga bir juft non qo‘yishda serpushtlik ko‘rinishini ko‘rsak, paxta qo‘yish esa kelinchakning oq paxtaday bokira, pok ekanligini bildiruvchi ramziy magik ma’noni bildirgan.

O‘zbek milliy kiyimlarining muhim qismlaridan biri - do‘ppidir. O‘zbekistonning turli mintaqalariga xos mahalliy do‘ppilar – Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Shahrisabz, Toshkent, Buxoro, Boysun, Chust do‘ppilari mashhur bo‘lib, ularning «iroqi chorgul», «iroqi qurbaqa nusxa», «iroqi sanama», «tagdo‘zi», «yo‘rmado‘zi», «zamindo‘zi», «zardo‘zi», «tusippa», «baxmash», «munchoq gulli», «oqlar nusxa», «toj nusxa», «qahramon nusxa», «paxta gulli nusxa», «xurshid nusxa», «kandakori nusxa» kabi turlari uchraydi. Vodiya esa Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Namangan, Andijon, Shahrixon do‘ppilari mashhur bo‘lgan.

Do‘ppilarning ustki qismi va jiyagi guldar geometrik naqshlar bilan bezatilgan yaxlit tagdo‘zidan iborat bo‘lib, gohida to‘garaklar, gohida gul shoxlari shaklida tikilgan. Umuman olganda, do‘ppilar asosan astar, avra, jiyak va piltadan iborat

bo'lib, ularning har biri alohida tikilib, so'ng astar bilan avraning orasiga ingichka simga o'ralgan qog'oz pilta o'tkazilgan.

Farg'ona vodisi do'ppilar o'zining oq va qora ranglar uyg'unligida qampirnusxa va bodomnusxa gullari bilan ajralib turgan. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, sharq xalqlari an'anaviy moddiy ma'aniyatida, shu jumladan, kiyimlarda har qanday tasvir ma'lum ma'noga ega bo'lgan. O'z navbatida ushbu tasvirlar ajdodlardan avlodlarga o'tib keluvchi boy axborotni jamlagan. Falakiyotshunos olim S. Azizovning yozishicha, do'ppining oq-qora rangi tun-kun bilan, to'rt tomoni olamning to'rt tomoni bilan, to'rt tomonida uchtdan aylana dumaloq ko'rinishdagi jami o'n ikkita shaklni o'n ikkita zodiak burji bilan qiyoslash mumkin. Dumaloq do'ppi - samo gumbazi ifodasidir. Do'ppining jiyagi harakatni ifodalaydi. Do'ppidagi shakl alomatlari tuni-kun harakatidagi olamni anglatadi.

Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarmiz do'ppilarga juda ko'plab ma'no-mazmunni singdirgan bo'lib, do'ppidagi biror bir qism, biror bir nuqta unga shunchaki kiritilgan emas. San'atshunos M. Foziliy do'ppidagi tasvir avlodlar davomiyligini ta'minlovchi homila bilan bog'liq deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa do'ppidagi qalampirmunchoq tasviri do'ppi egasini turli balo-qazolardan va ins-jinslardan asrovchi magik himoya vositasi bo'lgan, deb ta'kidlaydi. Bizningcha, do'ppidagi tasvirlar qadim ajodlarimizning kosmogonik tasavvurlari asosida shakllangan bo'lish bilan birga magik himoya vositasi ham bo'lgan bo'lsa kerak. Aynan shu sababga ko'ra vodiyya erkaklarning do'ppisiz, yalangbosh yurishlari noaxloqiy alomat tarzida tushunilgan. Erkaklar har qanday holatda -ishda, ibodat paytida, ovqatlanishda, ko'chada, bayram va sayillarda va hatto uxlaganlarida ham boshlarida do'ppi bo'lishi lozim bo'lgan. Do'ppi go'yoki insonlarni tashqi olamning turli ta'sirlaridan, ins-jinslar va yomon ko'zlardan asrovchi o'ziga xos magik kiyim vazifasini bajargan. Umuman olganda xalq o'rtasida bosh kiyim eng muqaddas ashylardan biri hisoblangan va bosh kiyimga e'tiborsizlik odamning o'ziga e'tiborsizligi deb hisoblangan. Shu boisdan uni almashtirib kiyish, yerda qoldirish, ya'ni oyoq osti qilish taqiqlangan. Oldinlari ba'zi holatlarda to'y tayin qilinib, kuyov ma'lum bir sabab bilan o'z nikoh to'yida qatnasha olmasa, kelin uning *do'ppisi* yoki *pichog'iga* nikoh qilingan. Lekin davrlar o'tishi bilan bosh kiyimning asl ma'nosini unutilib, oddiy maishiy ma'nosigina saqlanib qolgan.

Taqinchoqlar ham xuddi kiyimlar singari uzoq asrlar davomida shakllangan bo'lib, ularning o'ziga xosligi milliy xususiyatlar, bir xalqning boshqa etnos yoki etnik guruuhlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalari, siyosiy tuzumning milliy madaniyatga ta'siri va boshqalarda namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, taqinchoqlarning asosiy vazifasi va ularni yasashdan maqsad bir tomondan kishilarga zavqu shavq bag'ishlash, estetik go'zallik bo'lsa, ikkinchi tomondan har xil balo-qazo, insu jinslardan asrovchi, kasallikdan xalos etuvchi, turli tashqi ta'sirlardan muxofaza qiluvchi, jamiyatda

kishining kimligi, uning mavqyeining belgisi deb tushunilgan. Bunday taqinchoqlar peshona, bo'yin, qulqoq, burun, qo'l va oyoq panjalariga taqilgan. Darvoqye, bu borada Markaziy Osiyo xalqlari milliy kiyimlari bo'yicha yirik mutaxassis O.A. Suxarevaning mulohazalari ham e'tiborga sazovordir. Muallifning yozishicha, xalqona milliy taqinchoqlar ikkita muhim – estetik va magik funsiyani bajargan. Magik funksiyani bajaruvchi taqinchoqlarni ham sharhti tarzda ikkiga, ya'ni yovuz kuchlarni bartaraf qiluvchi, ko'z tegishi va balo qazolardan asrovchi hamda baxt, omad, yoqimlilik, muhabbatga chorlovchi "tumorlar" ga bo'linadi.

Axreologlarning ta'kidlashlaricha, hunarmandchilik tarixida dastavval ayollar taqinchoqlari paydo bo'lgan, keyinchalik bu bezaklarni erkaklar ham taqishi urf bo'lgan. Bora-bora hayvonlarga, uylarga yoki biror buyumga ham taqinchoq taqish odatga aylangan. Bezaklardan foydalanishga talab kuchaya boshlagach, ularning turlari alohida mazmun-mohiyat kasb etgan. Ya'ni taqinchoqlar tur-turga bo'linib, insu-jinslardan asrovchi, kasalliklardan xalos etuvchi, turli tashqi ta'sirlardan muhofaza qiluvchi, jamiyatda kishining kimligini, uning mavqyeini belgilovchi deb tushinilgan. Bunday taqinchoqlar peshona, bo'yin, qulqoq, burun, qo'l va oyoq panjalariga taqilib, ular ko'zli yo ko'zsiz bo'lgan hamda xat va naqshlar bilan bezatilgan. Ilon ko'rinishidagi taqinchoqlar o'tmishda ayniqsa ko'p uchraydi. Zebigardonlar, chachvon, ro'mol, do'ppiga qadaladigan bezaklar, turli naqshlardagi tugmalar, ziraklarning xilma-xil shakllari va turli ranglar aslida olis o'tmishdan nusxa olib yaratilgan va bugungi kunlarimizda u tengsiz san'at darajasiga ko'tarilgan. Markaziy Osiyo xalqlari orasida so'zanalar, gilamlar va kigizlarni qo'chqor shoxi, ilon tasviri bilan bezash ham keng tarqalgan bo'lib, bu bezaklar ham ma'lum ma'noda ushbu buyum a'zosini turli-tuman balo-qazolardan ramziy himoya tarzida tikilgan.

Mahalliy aholi tomonida qulqqa taqiladigan taqinchoqlar «sirg'a», «sisirg'a», «baldoq», «zirak» kabi nomlar bilan atagan. O'zbekistonda hududiy belgilarga ko'ra sirg'alar Buxoroda «shibirma», Toshkentda «zirak», Samarqandda o'rtasiga katta yoqut ko'zli tosh o'rnatilgan, atrofi gulband durlar bilan bezatilgan sirg'a «bargak» deb ataladi. Farg'ona vodiyida sirg'aning tilla va kumushdan yasalgan yarim oy shaklidagi «oy boldoq» yoki "oy sirg'a" hamda «qashqarbaldoq» turlari keng tarqalgan. O'z navbatida mazkur sirg'alarning kelib chiqish tarixi qadimiy o'troq dehqonlar va chorvadorlar orasida ham keng tarqalgan samoviy (oy, quyosh, yulduzlar) kultlar bilan bog'liq bo'lgan. Umuman olganda astral (samoviy) kultlar mintaqaning qadimiy aholisi e'tiqodiy qarashlari tizimida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa "Avesta"da osmon yoritgichlarining marosimiy ahamiyati juda yaxshi bayon etilgan. Jumladan, "Avesta"ning Vendidot qismi ko'p o'rinalarda osmon yoritgichlari hisoblangan quyosh, oy va yulduzlarning poklash xususiyati to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Farg'ona vodiysi aholi orasida qadimdan ko'z tegishi, turli balo-qazolardan asrovchi vosita tarzida har xildagi tumorlarni taqib yurish odati bo'lgan. Tumorlar bugungi kunda ham vodiy ayollari an'anaviy libosining tarkibiy qismiga kirib, ko'z tegishidan saqlaydigan taqinchoq, bezak sifatida uni to'ldiradi. Bu borada vodiy ayollari orasida turli xil yomon ko'zlardan, suq va nazar tegishidan saqlanish maqsadida 7 dona sedona va qalampirmunchoq urug'idan olib tumor qilib taqib yurish odati ommalashgan. Shuningdek ayollar tomonidan taqiladigan tumorlarga boshqa o'simliklar urug'lari ham qo'shib tamomlangan. Umuman olganda, tumor rangli matodan tikilgan xaltacha bo'lib, unga chorahadan olingan 7 ta mayda tosh, 7 ta qalampir donasi, 7 ta sedana urug'i, 7 ta isiriq urug'i va 7 ta qovoq urug'i solinadi. Xaltacha bilan yonma-yon ikkita ikkita ko'zmunchoq va 2 ta dudona tikib ko'yiladi. Tumorga albatta tanga-chaqa, munchoq, ignachalar osib qo'yiladi.

Ko'zmunchoqlar inson tug'ilganidan boshlab to uning vafotigacha odamlarga hamrohlik qiluvchi qadimiy taqinchoq turi bo'lgan. Uning asosiy vazifasi insonni turli tuman balo-qazolar, suq, kinna va hasad, yomon ko'zlardan asrash hisoblangan. Aynan shuning uchun ham u insonning ko'ziga o'xhash munchoqlar ko'rinishida bo'lgan.

O'zbek xalqi tumorlari o'zining shakli va tuzilishi jihatidan ma'lum darajada bir-biridan tafovut qiladi. Jumladan, Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqdaryo va Toshkent viloyatlarda to'g'ri to'rt burchakli va uchburchakli tumorlar taqishni afzal ko'rilsa, xivalik o'zbeklar orasida silindrsimon tumorlar keng tarqalgan. To'rburchak va uchburchak shaklda tayyorlanadigan tumorlar farg'onaliq o'troq o'zbek va tojik aholi orasida keng tarqalgan edi. O'z o'mida shuni ham ta'kidlash joizki, tumorlar tananing qaysi qismiga taqilishiga qarab 3 guruhga - bo'yin tumor, ko'krak tumor va qo'ltiq tumorga bo'lingan. Shuningdek bosh kiyimga taqiladigan va ustki kiyimga taqiladigan (qadaladigan) tumorlar ham alohida guruhga kiruvchi tumorlar hisoblangan.

Darvoqye, tumorlar nimadan tayyorlanganligi va shakliga qarab bir necha xil bo'lgan. Yog'och, turli xil mevali daraxtlar danagi, munchoq va turli ko'rinishdagi tosh, ba'zi bir hayvonlar tishi hamda tirnog'idan tayyorlangan tumorlar o'tmishda xalq orasida ommalashgan.

Garchi tumorlardan foydalanish aholining barcha guruhlariiga xos xususiyat bo'lsada, undan ko'proq chaqaloq va bolalarmi asosiy «himoya» qilish vositasi sifatida foydalanilgan. Shu maqsadda bolaning beshigi, bo'yni va qo'liga hamda kiyimlariga, ayniqsa bosh kiyimiga ins-jinslardan ximoyalovchi vosita sifatida turli shakldagi tumorlar taqilgan. Avval qayd etganimizdek, fetishizm xarakteridagi bunday tumorlarning magik qudratiga ishonish odamlar orasida kuchli bo'lgan. Bunday ishonch vodiyning barcha etnik jamoalarida barqaror edi.

Mintaqada islom dini tarqalishi bilan ba'zi bir fetishistik tassavurlarga ham islomiylar berilganda boshlangan. Chunonchi, mahalliy ruxoniylar tomonidan arab imlosida Qur'ondag'i ayrim suralari bitilgan tumorlardan foydalanish bunga misoldir.

### *Marosim taomlari va ularning mohiyati*

Taomlar turli etnoslarga xos etnomadaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim elementlardan biri hisoblanadi. An'anaviy taomlar insoniyat kundalik turmush tarzi va hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ular bir necha yuz yillar mobaynida turli xalqlar oilaviy va taqvimiylar marosimlarining muhim uzvlaridan biriga aylangan. Natijada ma'lum bir an'ana va urf-odat bilan bog'liq tarzda tayyorlanadigan maxsus marosim taomlari paydo bo'lgan. Ular kundalik taomlardan farqli tarzda asta-sekinlik bilan bajarilayotgan urf-odatning tarkibiy qismi umumiylari ovqatlanish yoki magik harakat ob'ektiga aylanib borgan. Ayniqsa, marosimiy taomlar mazmun-mohiyatiga yil fasllari o'zgarishida, eski va yangi yil arafasida, qish bilan bahor oraliq'ida yoki dehqonchilik yumushlari boshlanishi hamda yakunlanishida katta e'tibor berilgan. Shuningdek, an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari, ya'ni ekin va mevalarni ekishda, ularni yig'ishtirish yoki chorvachilikda sut va sut mahsulotlarini qayta ishlashda ham marosimiy taomlar alohida ahamiyat kasb etgan. Ularni ilk marta iste'mol qilish ko'pincha marosimiy ko'rinish olgan. Ba'zida esa buning aksi tarzida ularni iste'mol qilish taqilangan va ovqat uchun qo'yilgan tabuni bartaraf etish ushbu taomning muqaddaslashtirilishiga ham sabab bo'lgan.

Xalq orasida oziq-ovqatlarning alohida turlariga, uning magik harakatlardagi o'rniga qarab ularning hosildorlik manbai, davolovchi, shifobaxshlik kabi ilohiy xususiyatlari namoyon bo'lgan. Shu boisdan ayrim oziq-ovqatlar ba'zi hollarda yil mobaynida saqlangan va yangi bir amalni boshlashdan avval yoki tabiiy ofatlar yuz berganda ular marosimiy taom tarzida iste'mol qilingan. E'tiborli tomoni shundaki, marosim taomlarini ko'pincha insonning biologik ehtiyojini qondirish maqsadida emas, balki balo-qazolardan asrovchi oziq-ovqat yoki marosimiy qurbanlik tarzida iste'mol qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, marosim taomlari nafaqat oilaviy marosimlar – beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh tantanalari va motam marosimlarida, balki Bibi Seshanba, Mushkulkushod, ashurlik, mavludlik kabi ayollar ishtirokida o'tkaziladigan maxsus diniy marosimlarda, ko'chirma va haqiqat kabi shomoniylilik marosimlarida ham tayyorlangan. Shuningdek, iydi ramazon va iydi qurban hayitlarida, Navro'z va sumalak sayli, guli armug'on va lola sayli kabi ommaviy xalq sayillarida- palov, sho'rva, chuchvara, shovla, xolvaytar, halim, sumalak, o'yma, atala kabi o'nlab maxsus marosimiy taomlar tayyorlash an'asasi bo'lgan. E'tiborli tomoni shundaki, aynan mazkur marosimlarda tayyorlangan taomlar qatnashchilarining ovqatlanishiga bo'lgan biologik ehtiyojini qondirish vazifasini

bajaribgina qolmay ular tayyorlanishi va iste'mol qilinishi jarayonida ma'lum bir jamoa, urug', etnos, jinsiy, ijtimoiy va diniy jamoaga vakillarining o'zaro ijtimoiy munosobatlari namoyon bo'lgan. Qolaversa, marosimiy tarzda tayyorlangan taomlarni birqalikda iste'mol qilish insonlar orasida do'stlik, hamkorlik va qarindoshlik aloqalari jadallahuviga, ayrim hollarda taomning o'zi do'stlik yoki qarindoshlik rishtalari paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

O'z o'rniда shuni ham qayd etish kerakki, taomlar odamlarni birlashtiribgina qolmay ba'zan ajratgan ham. Taomlar ijtimoiy muloqot vazifasini bajarish bilan birga ijtimoiy tabakalanish kabi qarama-qarshi vazifani ham bajargan.

O'zbek oilalarida o'tkazilishi rejalashtirilgan biror bir muhim tadbir, turli-tuman to'y-tantanalar oldidan, farzandsizlik yoki farzand tug'ilishida, oila boshiga biror bir musibat tushganda yoxud kimdir kasal bo'lib qolgan vaqtida ayollarning homiy kulti-Bibi Fotima sharafiga bag'ishlab mahalla ayollarli ishtirokida maxsus taom - *Bibi Seshanba oshi* tayyorlanadi. Mazkur marosim ko'plab turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, Turkiston mintaqasida *Bibi Seyshanba*, Turkiya turklarida *Peyshanbe -qorbi* deyilgan. Eronda esa ushbu marosim *Bibi Hur* va *Bibi Nur* deb nomlangan. Umuman olganda, bu O'rta Osiyoning o'troq aholi orasida ayollar ishtirokida o'tkaziluvchi marosim ekanligi ilmiy adabiyotlarda ta'kidlangan. Bu kun tayyorlanadigan maxsus taom o'zbeklarda *umoch oshi*, qipchoqlarda esa *atala* deyiladi. Marosimiy taom tarzida tayyorlanadigan ushbu ovqat asosan haftanining chorshanba kuni qilingan va uni tayyorlashda faqat ayollar ishtirok etganlar. Marosimiy taomni tayyorlashdan avval seshanba kuni umoch oshi yoki atala tayyorlashni niyat qilgan ayol yuzini yopgan holda qo'shnilaridan (toq xonadondan-uch yoki besh uydan) un so'rab yig'ishtirgan. Un tilashda ham ma'lum tartib-qoidalarga amal qilingan, un doimo uyning ostonasidan o'tmagan holda berilishi va uni beruvchi hamda oluvchi ham ayol bo'lishi lozim bo'lgan. O'z o'rniда qayd etish kerakki, sharq xalqlari ostonani azaldan bir olam bilan ikkinchi olam chegarasi deb hisoblaganlar, qolaversa un, don azaldan rizq, davlat ramzi bo'lgan. Shu sababga ko'ra odamlar ushbu xonodon rizqining boshqa bir uyg'a o'tib ketishini istamaganliklari tufayli uchun aynan ostonada turib tarqatilgan.

Atala tayyorlashning maxsus shartlaridan biri - uni faqatgina beva ayollargina pishirishi joiz bo'lgan. Eri bor ayolning atala qilishi qat'ian taqiqlangan. Ushbu taomni tayyorlash jarayonida dastlab xonodon suprasi yoyilib, unga bir piyolada *suv, tuz, xamirturush, quruq choy, isiriq, sham* qo'yiladi. So'ngra atala uchun ishlatalishi lozim bo'lgan undan o'yma pishiriladi. E'tiborli jixati shundaki, tayyorlangan o'ymadan bittasini uy egasi qo'ltig'iga qistirgan holda ostonaga o'tirib yeyishi lozim bo'lgan. Shundan keyin atala tayyorlovchi ayol uyning suprasida atala uchun qo'shnilaridan olingan unga suv aralashtirib umoch qilib, yumoloq holga keltirgan va sut quyilgan qozonga solib, taom tayyorlagan.

Bibi Seshanba taomini tayyorlashning ma'lum bir shartlaridan biri oldinlari yettita beva ayolning ishtiroki zarur bo'lsa, hozirda birligina pishiradigan ayolgina beva bo'lishi va marosimda qatnashuvchi ayollar soni yettita bo'lishi zarur, deb hisoblanadi. Lekin beva ayol tomonidan tayyorlangan umoch oshini asosan beva ayollar yoki qizlar ichganlar. Eri bor va homilador ayollarning atala ichishi qat'iy taqiqlangan. O'z navbatida, shuni ham ta'kidlash joizki, agar eri uzoq muddat safarga ketgan yoki qornidagi homilasi qiz ekanligi ma'lum bo'lgan ayollar ham atala ichishlari mumkin deb hisoblangan. Ba'zi hollarda agar biror ayol bilmasdan atalani ichib qo'ysa, u eri bilan bir oy muddat mobaynida jinsiy aloqa qilmasligi lozim bo'lgan. Odatda, uch chorshanba uch marta atala qilingandan keyin mushkulkushod qilingan. Demak, biz bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, mazkur marosimda pishiriladigan taom maxsus homiy ayol kulti sharafiga bag'ishlangan. Chunki aynan mazkur marosimda pishirilgan taomnigina erkaklar ichishi yoki homilasi o'g'il bo'lgan ayolning iste'mol qilishi taqiqlangan.

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Do'sti xudo ziyoratgohida ayollar ishtirokida bahor kirib kelish vaqtida respublikamizning boshqa yerlarida uchramaydigan arg 'uvongul yoki mahalliy aholi tilida *guli armug'on* deb ataluvchi sayl o'tkaziladi. Bahorning erta yoki kech kelishiga qarab mart yoxud aprel boshlarida ushbu gulning pushti rangda ochilishi marosimiy tarzda bayram qilingan va qishloq ayollarini tomonidan aynan mazkur marosimiga xos taomlar tayyorlangan. Marosimda dastlab undan tayyorlanuvchi *chalpak*, *holvaytar*, so'ngra *sho'rva*, *palov* pishirilgan. ushbu marosimda tayyorlangan taomlar, asosan, ayollar tomonidan iste'mol qilingan. har bir taom tanovul qilish vaqtida otin ayollar tomonidan qur'on oyatlari o'qilgan. Shuningdek, Bu kun aynan ayollar davra bo'lib «*zikri jahr*» (suhbat ham deyishadi) tushganlar. «*Zikri jahr*» yarim soat mobaynida aytilgan. shundan so'ng guli armug'on atrofida ayollar niyat aytib aylanishgan. Marosim oxirida do'sti xudo mozori ziyorat qilinib, o'tgan ajdodlar va do'sti xudoga bag'ishlab duoi fotiha o'qilgan.

Islom dini O'rta Osiyoga kirib kelgach, Anaxitaning vazifasi musulmonlar orasida muqaddaslashtirilgan. U Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) qizlari Bibi Fotima va mahalliy xalq orasidan chiqqan Anbar ona nomi bilan mashhur bo'lgan ayollarning homiysiga bevosita o'tib ketgan.

Farg'ona vodiysining mahalliy musulmon aholisi orasida ham diniy bayramlar tarkibiga kiruvchi iyi Ramazon va iyi Qurbon hayitlari o'ziga xos katta tantana bayram tarzida nishonlangan. Bu bayramlar munosabati bilan maxsus marosimiy shirinliklar va taomlar pishirilgan. Ayniqsa vodiy ahli tomonidan mazkur hayitlardan bir kun avval arafa kechasi barcha xonadonlarda marosimiy taom tarzida palov tayyorlash yaxshi bir an'anaga aylanib ulgurgan. Ushbu kun xar bir xonadonda palov tayyorlanib, qo'ni-qo'shnilar va yaqin qarindoshlar orasida o'zaro almashilgan. Udamga ko'ra arafa kuni faqatgina yaqinda kimdir vafot qilgan xonadonlarda palov

tayyorlanmagan va bu kun o'tgan ajdodlar ruhiga bag'ishlab o'yma, chavati, holvaytar kabi marosimiy taomlar tayyorlanadi.

Ushbu marosimiy taomlar xususida gap borganda shuni ham qayd etish o'tinlik, o'zbeklar orasida haftaning ma'lum bir kunlariiga bag'ishlab maxsus taomlar pishirish odati ham keng tarqalgan. Jumladan, Toshkent shahri o'zbeklarida seshanba kuni marosimiy taom tarzida *surgurunch* pishirilgan va otinoyi chaqirilib kur'on o'qitilgan. Shuningdek, aynan mazkur kunda *holvaytar* tayyorlangan va besh yoki yetti qo'shnilarga tarqatilgan. *Holvaytar* odatda qovurilgan unga shakar shinnisini qo'shish orqali tayyorlangan. Vodiya esa motam marosimlarida marhum ruhiga bag'ishlab *holvaytar* tayyorlangan va u motam marosimiga tashrif buyurgan ayollargagina tarqatilgan. Elshunos olima B.X. Karmishevanning yozishicha, Farg'ona viloyati Oqshoh qishlog'i o'zbeklarida yalang oyoq holda bilmasdan peshob qilib qo'yan odamga holvaytar narigi dunyoda kafil bo'ladi, degan qarash bo'lgan.

Holvaytarning qadimiylari marosimiy taom ekanligi borasida yozma manbalarda ham ayrim ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy so'g'diyilar f-g-kan oyining ikkinchi kunida (so'g'diyilar taqvimining yettinchi oyi) M-n-i-d-Xvara bayramini o'tkazganlari va ushbu kun ular olov ibodatxonasida yig'ilganlar hamda tariq uni, yog' va shakar qo'shib tayyorlangan ovqat yeydilar, deb yozgan. Bizningcha, Beruniy tomonidan zikr etilgan ushbu taom ayollar tomonidan tayyorlanadigan holvaytar bo'lsa kerak.

O'zbeklarda "chorshanba - murodbaxsh kun", "chorshanba - ziyyarat kuni" degan tushunchalar ham mayjud. Ya'ni «chorshanba kuni boshlangan ishning oxiri bordir», yoki «bu kun nima niyat qilinsa, ijobat bo'ladi» deb qaralgan. "Bibi Chorshanba"ni "Bibi mushkulkushod" deb atashlari ham shu qarashlar bilan bog'liq. Aksariyat ayollar o'sha kuni Mushkulkushod marosimi o'tkazib, unda qur'on tilovat qiladilar. Shu o'rinda «Mushkulkushod» so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor beraylik. «*Mushkul*» - *qiyin, dushvor ma'nosini, «kushod» - ochuvchi, ya'ni qiyinchiliklarni yenguvchi, mushkullik va bandlarni yechuvchi* ma'nosini bildiradi. Bu o'rinda "yechish", "ochish" iboralari diniy-magik ma'no ham kasb etgan va ko'plab qadimiy xalqlarga xos bo'lgan. Mashhur dinshunos olim Mirella Eliadening yozishicha, Hindiston va Eronning qadimgi dinlarida tugun kasallik va o'llimdan saqlovchi magik simvolika hisoblangan.

Vodiylar o'zbeklarida chorshanba kuni marhumlar ruhiga bag'ishlab o'yma pishirilib, «is» chiqariladi. Toshkent o'zbeklarida esa o'yma o'mida bo'g'irsoq qilinadi. Umuman olganda, chorshanba mushkullardan xalos bo'ladi kuni hisoblangan. Shu bois aynan chorshanbada oiladagi barcha muammolar yechilsin deb «*tugun oshi*» tarzida *chuchvara* pishiriladi. Ushbu kun pishiriladigan chuchvara uchun xamir zuvalasini oxirigacha pishirilgan 5 yoki 7 qo'shniga tarqatilgan. Ba'zi hollarda esa 5 yoki 7 qo'shni ayollar xonadonga chorlanib, ularga ziyofat berilgan.

Tugun oshini tayyorlash jarayonida oxirgi 5 ta yoki 7 ta chuchvarani tugunlari yechilib ketsin deb tugilgan joyidan yechib qozonga solingan.

Payshanba kuni Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida *marhumlar kuni* deyilgan. Bu kun o‘tgan ajdodlar, arvoqlar haqiga deb palov tayyorlanib qur'on oyatlaridan o‘qilib, is chiqariladi va chiroq yoqiladi. Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi o‘zbek-turklarda esa bu kun marosimiy taom tarzida “*qora osh*” (“*qora osh*” borasida biroz keyinroq batafsil to‘xtalib o‘tamiz) qilinadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalqona animistik tasavvurga ko‘ra marhum vafotidan so‘ng uning ruhi vaqtı-vaqtı bilan, ayniqsa, payshanba kuni o‘zi yashagan uyg'a tashrif buyurib turadi. Agar bu kun is chiqarilib biror bir marosimiy taom pishirilsa va o‘tgan ajdodlar ruhiga bag‘ishlab qur'on oyatlari o‘qilib, duoi fotiha qilinsa arvoqlar shod bo‘lib ketadi, deyiladi. Agar buning aksi bo‘lsa, marhumlar ruhi bezovta bo‘lib ushbu uydagi yaqinlaridan biriga zarar yetkazishi mumkin, deb hisoblangan. Tojik etnografi O. Murodovning yozishicha, o‘zidan keyin biror yaqin kishini qolmagan ayol marhumlar ruhining och qolishi natijasida ular yovuz, tiriklarga zarar yetkazuvchi ruhlarga aylanar ekanlar. Toshkent shahri o‘zbeklarida bunday tarzda qilingan islik va duoi fotihadan qarg‘ishga qolgan odamlar arvohi hamda nikohsiz tug‘ilgan kishilar ruhlari bahramand bo‘la olmaydi, degan qarash mavjud bo‘lgan.

Shanba kuni chiltonlar haqqiga deb *shavla* pishiriladi va uch dona chiroq yoqiladi. Toshkent o‘zbeklarida shavлага 3-5 dona o‘rik, qozoqlarda esa lavlagi solib pishiriladi. O‘sh viloyati Qorasuv tumanidagi Qashqarqishloqda yashovchi uyg‘urlarda nikoh marosimlari tarkibiga kiruvchi sep yoydi marosimi kuni marosimiy taom tarzida shavla pishiriladi.

Marhumning eng yaqin qarindoshlariga uning vafotiga qirq kun bo‘lguniga qadar tuxum yeyishlari taqiqlangan. Agar ular tuxum iste’mol qilsalar ushbu xondondondan yana o‘lik chiqishi mumkin, deb hisoblangan. Tuxumga serpushtlik ramzi sifatida qaralgan. Shu bois nikoh marosimlarida kelin-kuyovga chimildiqda beriladigan taomlar orasida albatta tuxum bo‘lgan.

Shu o‘rinda nima uchun motam marosimlari oziq-ovqatlarga bunday taqiq bo‘lgan? - degan savol paydo bo‘ladi. Xorazm o‘zbeklari an'anaviy turmush tarzidagi qadimiy diniy e’tiqodlar qoldiqlarini maxsus tadqiq etgan olim G.P. Snesarevning yozishicha, marhum chiqqan xonadonda uch va undan ortiq kun mobaynida olov yoqib ovqat tayyorlashga bo‘lgan taqiq marhumning marosimiy nopligi bilan bog‘liq bo‘lib, uning ildizlari zardushtiylik diniga borib taqaladi. Darhaqiqat, zardushtiylik konsepsiyasiga ko‘ra inson vafotidan so‘ng marosim noplak xisoblangan. Jumladan, Vedivdotda kishi vafotidan keyin uning yaqinlari qachon taom pishirib yeyishi mumkin? - degan savolga marhumni uydan olib chiqib ketilgandan keyin degan javob qaytarilgan. Lekin qancha muddat o‘tgandan keyinligi no‘malum. Biroq keyingi davrdagi zardushtiylar marosimlarini tadqiq qilgan

mualiflarning yozishlaricha, zamonaviy zardushtiylarda marhumning uyidagilar va dafn marosimiga tashrif buyurgan yaqin qarindoshlarning uch kun mobaynida go'shtli taomlarni tayyorlab yeyishlari taqiqlangan. Marhum yotgan uydasi uch kecha-kunduz, aniqrog'i uchinchi kecha o'tmaguncha har qanday go'tshni qurbanlik tarzida olib kelish taqiqlangan. Bu borada faqatgina pishloq, mevalar, tuxum, shirinliklar yeyish sut ichish mumkin bo'lgan va har qanday hayvon go'shtini iste'mol qilish qat'iy taqiqlangan.

Vodiy o'zbeklari va tojiklarida faqatgina marhum chiqqan uydasi uch kun davomida issiq ovqat tayyorlashga bo'lgan taqiq saqlanib qolgan. Qo'ni-qo'shnilar va yaqin qarindoshlar tomonidan olib kelingan issiq ovqat, shu jumladan, go'shtli ovqatni ham uch kun mobaynida yeyish mumkin bo'lgan. Shu bois bu odatni butkul zardushtiylik bilan bog'liq odat deb talqin qilib xam bo'lmaydi. Chunki, birinchidan, o'z yaqinidan ayrilib qolgan marhumning eng yaqin kishilari uchun bu kunlar taom tayyorlash ruhiy jihatdan og'ir bo'lsa, ikkinchidan, bu aynan mazkur uyning marosimiy noplari bo'lganligi, ya'ni jon berayotgan odamning go'yo qon sachratib uyni marosimiy noplari qilishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Farg'ona vodiysida yashovchi turklar, qipchoqlar va qirg'izlarda o'troq o'zbeklar va tojiklardan farqli tarzda marhum dafn etilmasdan avval qo'y so'yib marosimiy taom - *sho'rva* tayyorlanadi. Lekin tayyorlangan *sho'rva* marhumni qabristonga dafn etib kelingandan so'ng ichilgan. Bu taom xalq orasida "qora osh" deb ham yuritilgan.. "Qora osh" deganda motam marosimida marhum dafn qilingan kun tayyorlanadigan marosimiy taom tushunilgan. Qora oshning oddiy oshdan farqi shundaki, unga oddiy oshdagiday piyoz solmasdan pishiriladi. Chunki piyoz achchiq mahsulot bo'lganligi bois agar qora oshga qo'shilsa sovuq marakaga yana achchiqlik qo'shilib ketishi mumkin, deb o'ylangan.

Farg'ona viloyati Kaptarxona qishlog'ida marhumning qirqida marosimiy taom tarzida 5 xil - *atala*, *holvaytar*, *tolqon*, *o'rik sharbati* va *shavla* tayyorlanib marosimga kelganlarga tarqatilgan.

Vodiying boshqa hududlarida yashovchi o'zbeklarda marhumning qirqi o'tkaziladigan kun marosimiy taom tarzida *holvaytar* tayyorlash udumi keng tarqalgan. Qolaversa aynan mazkur marosim ishtiroychilari uchun *chuchvara*, *moshkichiri*, *shavla* kabi yengil ovqatlar tayyorlangan va o'rik qoqi suvda qaynatilib *sharbat* tayyorlangan. Keksa kishilarning ta'kidlashlaricha, o'rik sharbatining hidi qabristongacha yetib borar va undan marhum ruhi ham bahramand bo'lar ekan.

Vodiy o'zbeklarda an'anaviy taomlar kundalik iste'mol mahsuloti vazifasini bajaribgina qolmay ma'lum bir ramziy ma'noni ham anglatgan. Jumladan, vodiyyagi o'zbek-qipchoqlarida turmushga chiqadigan qizning uyiga katta sovchilar kelganda pishirilgan taomdan qiz tomonning roziligi yoki rozi emasligini ham anglab olish mumkin bo'lgan. Agar qiz tomon kelgan sovchilarga rozi bo'lsalar, ular olib kelgan

mahsulotdan palov tayyorlangan, yoki buning aksi bo'lsa, qizning onasi sovchilar olib kelgan mahsulotni ishlatmagan va o'zining uyidagi masalliqlardan sho'rva tayyorlangan. Bunda kelgan sovchilar pishirilgan taomdan ham qiz tomonning roziligini yoki rozi emasligini taomga qarab ham bila olishlari mumkin bo'lgan. Biz bu o'rinda an'anaviy taomlarning yana bir funksiyasini, ya'ni ramziy xarakter kasb etishini ko'rishimiz mumkin. O'z o'rnida shuni ham qayd etish joizki, vodiy o'troq o'zbeklari nikoh marosimida marosimiy taom tarzida palov pishirilsa, qipchoqlar, turklarda sho'rva tayyorlangan.

An'anaviy nikoh to'yi tantanalarida taomlar marosimiy ahamiyat kasb etibgina qolmay qator afsungarlik vazifalarini ham bajargan. Jumladan, Namangan shahri o'zbeklarida nikoh kechasi yosh kelin-kuyovlarga kelgusi hayotlari asalday totli bo'lsin, deb asal yalatilgan, yoki "kelin-kuyov hayoti kelgusida moshday bir-biriga qorishib ketsin", "*moshday serhosil va serfarzand bo'lsin*" deb kelin tushirib kelinganda dasturxonga turli noz-ne'matlar bilan birgalikda moshkichiri tortilgan. Ushbu moshkichirini faqat shu yerda o'tirgan ayollargina iste'mol qilganlar. Odatga binoan ushbu taom erkaklarga berilmaydi. Bunda, yangi kelin-kuyovning uyida mosh-guruchdek aralashib ketsin, moshkichiridek muloyim, yuvosh va kirishimlik bo'lsin, degan afsungarlik niyati mujassamlashgan. Darvoqye, moshkichirining afsungarlik xususiyati borasida so'z yuritganda shuni ham qayd etish joizki, motam marosimlarida pishiriladigan taomlar orasida hyech qachon bu taom bo'limagan. Chunki moshkichiri qilinsa ushbu uyda yana bir bor motam bo'lishi mumkin deb irim qilingan.

Xalqimiz orasida nafaqat suv, balki ayrim hollarda bir taom yoki oziq-ovqatlar ham o'z tarkibiga ko'ra ham «issiqlik» va «sovuqlik»ka bo'lingan. Jumladan, vodiy o'zbeklarida tuxumning oqi «sovuqlik», sarig'ini esa «issiqlik» deyilgan. Xalq tabobatida kun (quyosh) urib issig'i chiqqan bolalarga sovuqlik tarzida tuxumning oqi, qatiq va achchiqtosh bo'lagi berilgan, yoki aksincha «sovug'i» oshgan bemorlarga tuxumning sarig'ini qo'rda pishirib yeish tavsiya etilgan. Shuningdek, qorni og'rigan chaqaloqlarning orqasiga ilitilgan tuxum latta yoki paxtaning ustiga qo'yilar ekan. Biz buning natijasini tahlil qilishimiz orqali ajoyib bir manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, agar chaqaloqning sovuqligi oshgan bo'lsa, bola organizmi tuxumning sarig'ini, issig'i oshgan bo'lsa oqini tortib olar ekan.

Farg'ona vodiysidagi o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlar orasida nafaqat atrofdagi narsalar, balki insonning o'zi ham ikkiga bo'lingan. Jumladan, ular odatda doimo erkaklarni o'ng, ayollarni chap tomonga ajratganliklari bois, o'tov ichida yoki oila davrasida o'tirilganda davraniing o'ng tomoni doimo erkaklar, chap tomoni ayollar joyi hisoblangan. Shuningdek, nikohning birinchi kechasida yosh kelin-kuyovning yangalari kuyov doimo o'ng, kelin chap tomonda yotishi lozimligini uqtirganlar. O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarda bo'lgani singari vodiyya ham tug'ilajak farzand

jinsini oldindan aniqlashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan. Vodiy qipchoqlarida homila o'ng tomonda bo'lsa o'g'il, agar buning aksi bo'lsa qiz tug'iladi deyiladi. Bu faktning biz uchun ahamiyatlari tomoni bu yerda o'g'il bola o'ng, qiz bola esa chap tomon bilan bog'langanligidir. Darvoqe, vodiyda tug'ilajak farzandni homilador ayolning iste'mol qiladigan ovqatlaridan ham aniqlash mumkin deb hisoblashgan. Bunga ko'ra homila o'g'il bo'lsa ona doimo sovuqlik, yoki aksincha, agar u qiz bo'lsa ayol ko'proq issiq taomlar yer ekan. Bizningcha, issiq mijoz bo'lgan o'g'il bola doimo o'ziga sovuqlikni talab qilgan yoki aksincha bo'lgan.

Farg'ona vodisi o'zbeklari marosimiy taomlarining muhim komponentlaridan biri non hisoblangan. Non qadimdan insonlar uchun asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo'lganligi bois unga bo'lgan hurmat, uni qadrlash borasida aholi orasida, ayniqsa, Markaziy Osiyorning o'troq xalqlarida qadimdan o'ziga xos munosabat shakllangan. Jumladan, zardushtiyarda d'rvana - oq non mazdoparastlar marosimi chog'ida iloh Surushga niyoz keltirilgan. Suvli suyuq taomlardan tashqari ilohlarga tortiq qilinadigan barcha taomlar - go'sht, meva, non va boshqalar Avestayi lug'atda «mazda» deyilgan.

Darhaqiqat, non qadimdan qadrlangan va barcha oila turmush marosimlarining tabarruk muqaddas ne'mati bo'lgan. O'zbek oilalarida farzandlar bolalik davridanoq nonni e'zozlash, uni isrof qilmaslik ruhida tarbiyalangan. Non hyech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og'ir gunoh hisoblangan. Dasturxonga tortilgan non oila boshlig'i tomonidan sindirilgan. Nonni pichoq yoki boshqa kesuvchi buyumlar bilan ushatish ushbu muqaddas ne'matga hurmatsizlik sifatida baholangan. Motam marosimidan tashqari deyarli barcha marosimlarga kelgan mehmonlar o'zlar bilan non olib borganlar va o'z navbatida, ushbu tantanalardan non olib qaytganlar.

Vodiy o'zbeklari va tojiklari orasida keng tarqalgan odatga ko'ra qiz ota-onasi tomonidan rozilik alomatlari olingach, yigit tomon bir necha kundan so'ng, ko'pincha sovchilarining uchinchi marta kelishlarida alohida dasturxon va sovg'a-salomlar qilib keladilar. Dasturxon atrofida har ikki tomon to'y to'g'risida maslahatlashadilar. Shundan so'ng davradagilar orasidan keksa yoshli, ko'p farzandli, bir nikohli kishi yigit va qiz taqdirining mustahkam bog'lanishi haqida duoil fotiha o'qib, qo'liga qiz tomonidan dasturxonga qo'yilgan va yigit tomonidan olib kelingan nonlardan bittadan olib juft qiladi va nonni yuza tarafiga qaratib teng qilib sindiradi. Ushbu udum xalqimizda non sindirish, deb nomlangan. Non sindirish udumi tojiklarda ham keng tarqalgan.

Kosonsoy tumani o'zbeklari va tojiklari orasida oilada biror bir notinchlik yuz bersa hazrati Bahouddin haqqiga deb 7 don kulcha pishiriladi va devonalarga sadaqa sifatida beriladi. Chunki Hazrati Bahouddin 7 raqamini tabarruk deb yaxshi ko'rар ekan. O'zi ham yettinchi oyda tavallud topib, yetti yoshida Qur'oni yod olib, yetmish yoshida bu olamdan o'tgan ekanlar. Darhaqiqat, vodiy o'zbeklari marosim

taomlarida ham raqamlar simvolikasiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, muqaddas joylarni ziyyorat qilishda yoki oiladagi biror bir diniy tadbirdardan avval chalpak pishirilgan va u doimo toq, 3, 5, 7, 11 ta bo'lib, bu borada o'ziga xos qarash bo'lgan. Jumladan, 3 raqami Xizr payg'ambar, 7 raqami Bahouddin Naqshband, 11 raqami esa G'av sul A'zam va o'n bir Ahmad kulti bilan bog'liq deb qaralgan.

Vodiylarida ham Respublikamizning boshqa mintaqalarida yashovchi o'zbeklar va tojiklar singari bahor faslidagi Navro'z tantanalari arafasida maxsus marosim taomi tarzida sumalak tayyorlash, chalpak yopish kabi udumlar keng tarqalgan.

Sumalakni tayyorlash marosimi ayollar, ayniqsa, uy bekalarining ruhiy-ma'naviy ehtiyoji manbai bo'lgan. Ular bu yerda o'z muammolariga yechim topadilar, axborot almashadilar, niyatlarining bajo bo'lishini tilaydilar. Ma'lumotlarga ko'ra, sumalak tayyorlash vaqtida ham befarzand ayollar 3,5,7 dona yong'oqni «kelasi yil yanagi sumalakka qadar farzand ko'ray», deb sumalak pishirilayotgan qozonga tashlaganlar va sumalak pishgach shu yong'oqlarni olib chaqib yeganlar. Axborotchilar ning bergen ma'lumotlariga ko'ra, sumalak bir xonadonda yetti marta pishirilsa savobi ko'p bo'lar ekan. Shuningdek, sumalakka tashlangan toshni xosiyatli deb bilganlar. Sumalak toshini «serhosil bo'lsin» deb daraxt ostiga ko'mganlar, ba'zilar esa toshchalarni xonadondan qut-baraka arimasin degan niyat bilan saqlab qo'yganlar. Ko'riniib turibdiki, sumalak pishirish bu ayollarga xos odat bo'lib, uni tayyorlashda o'choqqa o't yoqishdan tashqari barcha ishlar ayollar tomonidan bajarilgan.

Farg'ona vodiysi ayollar turmush tarzini o'rgangan er-xotin Nalivkinlar sumalak marosimining kelib chiqishini quyidagicha izohlaganlar: qishda don saqlash usullari yaxshilanmaguncha kishilar bug'doy saqlashga qiyngalganlar, qish oxirida o'rada saqlangan don nishlab qolgan. Shunda bug'doydan un hosil qilmoqqa uringanlar. Natijada shirin bir taom hosil bo'lgan. Bu haqda qo'shnilarga ham ma'lum qilingan. Hosil bo'lgan taom ularga ham manzur bo'lgan. Non va don uzilishi paytida shunday bo'lishi tabiiy edi. Shu tariqa sumalak marosimiga aylangan. Bu qarashdan shunday xulosa qilish mumkinki, taom tayyorlash ayollar marosimi bo'lgani uchun ham sumalak ayollar marosimiga aylanib ketgan. Garchi hozirda sinfdoshlar, kasbdoshlar kabi biror umumiyl jihatga ega kishilar guruhi tomonidan ham sumalak pishirish odat tusiga kirayotgan bo'lsa-da, sumalak ayollar ishtirokida o'tkaziluvchi marosim tarzidagi xususiyatlarini to'la to'kis yo'qotmagan.

*Nazorat savollari:*

1. Turar joylar bilan bog'liq urf-odatlarda qadimiy diniy e'tiqodlar qanday namoyon bo'ladi?
2. An'anaviy milliy kiyimlarda qadimiy diniy tasavvurlar qanday namoyon bo'ladi?
3. O'zbek marosimlari xaqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbek marosim taomlarini sanab bering.
5. O'zbek xalqi marosimlari va ularning mazmun-moxiyatini so'zlab bering?
6. O'zbek xalqi milliy marosimlarida hududiy xususiyatlarning umumiy va xususiy jihatlar qanday?

**O'zbek milliy mentaliteti**

Reja:

1. Milliy mentalitet tushunchasi.
2. Mentalitetni shakllanishida zardushtiylik dinining tutgan o'rni.
3. O'zbek mentaliteti o'zgarishlari.
4. Mafkura milliy mentalitetni anglatuvchi kuch.
5. Milliy mentalitetning ma'naviyat bilan bogliqligi.

Mamalakatimizda barqarorlik muxitining qaror topganligi, mentalitet o'zgarishlari va ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik xolatlaringin uzlusiz amal qilishi xalqimizning bunyodkorlik jarayonlarda faol ishtiroy etishini ta'minlamoqda. Shuni qat'iy ishonch bilan aytish mumkinki, bugun O'zbekistonda isloxoatlar muqarrar tus oldi, endi ularni ortga qaytarib bo'lmaydi, eng muximi yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, yashayotgan odamlar ularning tafakkuri, mentaliteti, xayotga uz atrofida yuz berayotgan barcha voqealarga bulgan munosabati uzgarmoqda.

Mustaqillik tufayli mazkur tarixni xolisona urganish imkoniyatiga ega buldik. Ittifoq davrida bir tomonlama talqin etilgan masalalar endi atroficha yoritilmoqda. Ijodini urganish taqiqlangan allomalar me'rosi qayta tiklanmoqda. Shaxs ma'naviyatini yuksak ruxda, tarixiy xaqiqatdan ogox etib tarbiyalash mustaqil O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyoti va kelajagini

belgilaydi. Ma`naviyat aql—zakovatl madaniyatli avlodni tarbiyalay olsakgina, oldimizga quyilgan ezgu maqsadlarimizga erisha olamiz.

Milliy mentalitetni shakllanishida Zardushtiylik dinini o`ziga xos tutgan o`rni mavjud bo`lib, Zardushtiylik dini fanda zaroastrizm, otashparastlik deb atalib, O`rta Osiyo va Qadimgi Eronda miloddan avvalgi X-XI asrlarda paydo bo`lgan din. Zardushtiylik quldorlik va ilk feodalizm davrida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjonda keng tarqalgan din bo`lib, Zardushtiylikning asosiy g`oyalari-dunyodagi xamma narsalar, tartiblar, yaxshilik va yomonlik, yorug`lik va qorongulik, xayot va o`lim o`rtasidagi kurashga bog`liq deb tushuntiradi. Olamdagи hamma yaxshiliklarni -Axuramazda, barcha yomonliklarni-AnxraMan`yu vujudga keltiradi deb ishontiradi. Zardushtiylik Markaziy Osiyoda buddaviylik, xristian, lamaizm, bilan birga to`arablar Markaziy Osiyoga Islom dinini olib kelgunlariga qadar rivojlanib, taraqqiy etib kelgan asosiy dinlardan biri xisoblanadi.

Zardushtiylik dinida inson yaxshilik va yomonlik urtasidagi kurashda uyinchok emas, balki tanlash erkinligiga ega bulgan, uz faolligi bilan adolat tantanasiga ta`sir eta oladigan shaxs sifatida e`tirof etiladi. Ana shuning natijasida zurdushtiylikka kattalarni xurmat qilish, kichiklarga izzatda bulish, xayr-saxovatl bulish, uz qabila boshliqlarini maslaxatlariga suzsiz amal qilish yoruglikka intilib yashash asosiy g`oya xisoblangan. Zardushtiylik marosimlarida to`rt unsur- suv, olov, er, xavoni uluglash ancha xarakterlidir. Uzbek xalq milliy mentalitetining shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy etishida ana shu to`rt unsur muxim axamiyat kasb etadi.

Suv-bu unsurni e`zozlash, xurmat qilish, zardushtiylik dini ta`sirida Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuriga singib boradi.

Zardushtiylikni asosiy qonunlar kitobi xisoblangan «Avesto» kitobida «Xavarazm» va «Yaksart» daryolari suvi muqaddas ekanligi, shuning uchun bu suvlarni xurmatlash zarurligi bayon qilib berilgan.

O`zbek xalqi svjni muqaddas bilishi, uni tejab-tergab, isrof qilmay ishlatishga asosan ana shuning uchun qarashlar ta`sir ko`rsatgan.

Ikkinci unsur bu- Olov insonlarni juda ko`p kulfatlardan, balolardan asrab qolgan. O`rmonlarga tushgan olovlar ta`sirida inson pishgan go`sht eyishni, narsalarni pishirishni o`rgangan.

Xayotni mayjudligi olov-quyosh bilan degan g`oyaga asoslangan zardushtiylik o`tni muqaddas sanab, xayotni asosi quyosh deb e`tirof etadi. Shuning uchun Zardushtiylik otashparastlik xam deb ataladi. Olovni muqaddas deb sanash bugun uz kuchini yuqotgan bulsada, tuy kunlari kelin-kuyov uchun o`t yoqish, ularni olov atrofida 3 marta aylantirish odati saklanib qolgan.

Er-otashparastlikda uchinchi muqaddas unsur sanaladi. Shunga binoan zardushtiylar erni avaylab bosishni xudojuylig xisoblashgan. Erni xaydash gunox

xisoblangan, shu sababli otashparastlar kuchmanchi xayotni afzal kurganlar. Erni chopib ekin ekin xuquqiga ma'lum bir toifa ega bulgan xolos.

Turtinchi muqaddas xisoblangan unsur-bu xavodir. Otashparastlar e'tiqodiga kura inson yashash uchun nafas olayotgan xavo mu'tabardir. Shu bois uni bulgamaslik zarur.

Murdalar jasadini yoqib ifloslantirish gunoh hisoblangan. Shu sababli maxsus maydonlarda qurilgan minoralarga olib chiqilib quyilgan. Toki uni qushlar eb ketsin deyilgan.

Milliy menjalitetning shakllanishida zardushtiylik nixoyat darajada muxim rol' uynagan xatto milliy mentalitetning poydevori bulgan degan xulosa chikarish ham mumkin bo'ladi.

Avesto-asli otashparastlikning muqaddas kitobidir. Avesto Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarini qadimdag'i davrda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam tugrisidagi tasavvuri, urf-odatlari, ma'naviy-madaniyatini urbanishda muxim omil xisoblanadi.

Fanda Avesto 3 tarixiy qatlamga ajratiladi:

1. Eng qadimgi qismi mil.avvalgi III-II ming yilliklar oxirida vujudga kelgan Yashtlar (ba'zan gotlar)
2. Gotlar-mil.avvalgi IV asrda yashagan Zaratushra (zardusht ijodi deb hisoblanadi)
3. Mil.avvalgi V asrda yakka xudolik va ko'p xudolik g'oyalari o'rtaida kurashni aks etiruvchi qism (mazdakiylik ta'limoti).

Avesto juda katta kitob bo'lganligi bois kundalik faoliyati uchun «Kichik Avesto» yaratishgan. Unda «Katta Avesto»dan olingen boblar tanlab olingen. Hozir fanga ma'lum bo'lgan Avesto Yasht, Visparat, Videvdot, Yasnadan tashkil topgan. Zardushtiylik ta'limoti barcha dinlarga ta'sir ko'rsatgan. Uni mentalitetimizga ko'rsatgan ta'sirini ba'zi tabarruk joylardagi daraxtlarga in, ot elini bog'lab quyish, osib qo'yish, shamchiroq, sham yoqib qo'yish, tuproqni yuzga surtish, tanga pul sochish odatlari saqlanib qolganligidan bilish mumkin bo'ladi.

O'zbek mentaliteti o'zgarishlari tizimidagi yana bir muhim jihat — aholi turli tabaqalari ijtimoiy — madaniy va siyosiy sa'y — harakatlari jarayonlarini me'yoriy va ongli boshqarishdan iboratdir.

Ma'lumki o'zbek xalqi tabiatan yaxshiga havasli, ibratga moyil, kattaga ehtiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik mayli kuchli xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik ibratga moyillik hislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni vatan ravnaqiy yo'liga safarbar etish, bu fazilatlarimizni nopol kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muxofaza etish, g'animlarning g'arazli kirdikorlariga qurban bo'lishdan asrash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz I.Karimov uqtirishlariga ko'ra, boshqarish jarayonlari dastavval aholini e'tiqodlar, qiziqishlar va boshqa o'lchamlar asosida tashkillashtirish ishlarini tizimli yo'lga solishni talab etadi. Tashkillashtirish jarayonlarini esa, muayyan guruqlar tarkibidagi yetakchilar, lider shaxslar atrofida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, ergashuvchalik tabiatи ergashtiruvchilik omiliga doimiy ehtiyoj sezib turadi.

Ommani maqsadli boshqarish va bu jarayonlarni milliy manfaatlar va umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalga oshirish mamlakatning umumiy intellektual—estetik ijtimoiy—iqtisodiy taraqqiyotgiga, siyosiy va axloqiy barqarorligigi mustahkam zamin yaratadi. Jamiyatni maqsadli boshqarish xalqimiz tabiatiga o'tmishdan salbiy meros sifatada o'tgan irratsionalistik kayfiyatlardan, ya'ni vogelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o'zgarishlarni, tashqi va ichki havflarni anglab etmasdan g`aflatda yashayverishdan ishonchli muhofaza etadi. O'zbek mengalitetida o'zgarishi zarur bo'lgan yana bir jihat — bu xalq tabiatidagi jamoaviylik va individualizm omillarining nisbatidir. Ma'lumki, g`arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa inson ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati, shaxsiy hayotiga mutlaqo aralashmaydi. Sharqda esa, jamoa asosan insonni ijtimoiy nazorat ongida tutib turish, shaxsning jamoalardagi muntazam ishtiroki uning umumiyligi axloqiy me'yorlar doirasida ish tutayotganligining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ayricha ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida qaraladi. Ammo jamoaviylik nisbatining mutloqlashtirilishi shaxs erkinligi va ozodligiga xavf tug'dirish mumkin, Shu boisdan ham o'zbek mentalitetda jamoaviylikka me'yoriy bog'liqlik fazilatini saqlagan holda uning bir qadar individuallashuvi, javobgarlik hissini rivojlantirishga, o'zi uchun o'zi hisob bera olishi, mustaqil ish tutush, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarini yanada takomillashtirish zarurdir. Ammo shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson fe'lida individualistik tabiantning kuchayishi uni urf—odatlar, marosim va an'analar bilan boshqarish samaradorligini pasaytiradi. Inson o'ziga bevosita naf keltiruvchi udumlar, rasm — rusumlar bilan yashashga o'ta boshlaydi. Darhaqiqat, har qanday odatlar, marosimlar kishilarga foydali bo'lganliga uchun ham yashovchadir. Odamlar hayotini og'irlashtiruvchi, ularni qiyin iqtisodiy, moddiy — ma'naviy holatlarga solib qo'yuvchi rasm — rusumlar esa jamiyatning nechog'li rivojlanishiga ko'ra asta—sekin barxam topa boradi. Jamiatning intellektual—ma'naviy darajasi qancha yuqori bo'lsa, qonunlarning o'mi va roli muttasil orta boradi. Shu boisdan ham atoqli nemis sotsiolog Zimmel', odamlarni ularning taraqqiyot darajasiga ko'ra uch xil boshqarish mayjud. Ba'zilarni deydi u, — shaxsiy namunalar, ko'rsatmalar bilan, boshqalarni urf—odatlar, rasm—rusum va an'analar bilan boshqarish, eng rivojlanganlarini esa, faqat qonunlar vositasidagina boshqarish mumkin.

Darhaqiqat rivojlanga g`arb mamlakatlarda xalq an`analari, urf —odatlari faqat maishiy turmush doiralarida amal qilib, bir qadar cheklangan bo`lib, fuqarolarning keng ko`lamlardagi hayot tarzi davlat va jamiyat tuzilmalari, ijtimoiy munosabatlar tazimi shaxsan qonunlar vositasida boshqariladi. Yuksak rivojlangan an`anaviy sharq mamlakatlari — Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ham xalq odatlari, an`analarning jamiyat hayotadagi mavqeiga nisbatan qonunlar ta`sirining salmog`i juda yuqoridir. Shunday ekan, mamlakatimizda ham umumiy iqtisodiy, texnologik va ma`naviy taraqqiyotimiz darajasi nechog`li yuqorilab borishi bilan jamiyat hayotida qonunlarning o`mi va roli shunchalik ortib borishi tabiiy holdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, huquqiy davlat qurish, qonun ustuvorligini o`rnatish, yalpi ma`naviy tiklanish jarayonlari, fuqaroviy jamiyat va komil inson shaxsini tarkib toptirish vazifalari birinchi navbatda millat mentalitetini bugungi kun talablari bilan muvofiqlashtirish zaruratini kun tartibiga qo`yadi. O`zgarayotgan O`zbekiston kelajagi ozod va ongli fikrlovchi fuqarolarning erkin tafakkur tarzi, ularning yangilikka tashna bunyodkorlik ruhi hamda faqat o`zgargan o`zbek mentaliteti vositasida yaratilishi shubhasizdir.

Shu boisdan ham, Prezident I.Karimov ilgari surgan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyata ozod va ongli shaxs ma`naviyatini tarkib toptirish dasturlari pirovard natijada yurtimizda qonun ustuvorligi ruhini mustahkam qaror toptirish, aholini milliy istiqlol yo`lidan maqsadli boshqarish orqali amalga oshadi.

Insoniyat tarixi – g`oyalalar tarixidir.

G`oya – inson tafakkuri maxsuli, milliy g`oya esa millat tafakkurining maxsulidir. Milliy g`oya inson va jamiyat hayotiga ma`no mazmun baxsh etadigan, ezgu-maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmuidir.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, qatlam. Millat, davlat, xalq va jamiyat ehtiyojlarini, maqsad-muddaolarini, manfaatlari orzu-intilishlari nufuzida mujassam etadigan g`oyalalar tizimidir. Muayyan bir g`oya dastlab biron bir shaxsnинг ongida paydo bo`ladi, u ijtimoiy mazmunga ega bo`lsa, umuminsoniy xaqiqatga aylanadi.

Masalan, o`rta asrlarda g`arbiy Evropada jaholat va inkvizitsiya to`siq bo`lib turgan paytda Polyak olimi Nikolo Kopernik yerning quyosh atrofida aylanishiga doir nazariyani olg`a surgan. Dastlab bu g`oya bir shaxs qalbidagi intilish bo`lgan bo`lsa, keyinchalik butun dunyoda e`tirof etildi.

Butun dunyo taraqqiyotiga o`zlarining nazariya ta`limotlari bilan katta xissa qo`shgan ulkan aql-zakovat, iste`dod va ulkan tafakkur egalari, Suqrot va Platon Konfutsiy va Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Maxatma Gandhi kabi mutafakkirlar faoliyati buni yaqqol tasdig`idir. Tarixdan ma`lumki, dunyoda ikki kuch – bunyodkorlik va buzg`unchilik g`oyalari hamisha o`zaro kurashadilar. Bunyodkor g`oya insonni ulug`laydi, uni ruxiga qanot bagishlaydi. Soyibqiron Amir Temurning

parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan. Buzg'unchi g'oyalar esa xalqlar boshiga mislsiz kulfatlar keltirdi. Bunga yaqin va olisdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'rta asrlardagi salib yurishlari, fashizm va ateizm, diniy fanatizm, bolshevizmga asos bo'lgan gayriinsoniy g'oyalar shular jumlasidandir. Yovuz g'oya mafkuralarning eng ko'p tarqalgani sharq aqidaparastlaridir. Bunday mafkuralar muayyan davrlarda G'arbda ham, Sharqda ham hukmronlik qilgan. XXI asrga qadam qo'yilayotgan hozirgi davrda ham dunyoda tinchlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda. O'rta asrlarda G'arbda aqidaparastlik mafkurasi bo'lgan inkvitsiya cherkovining mutloq hukmronligini o'rnatib hurfikr rivojiga jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lgan. Galiley va Kopernik kabi yuzlab aql va zakovat sohiblari aqidaparastlik ta'qibiga uchradilar. Jordano Bruno ilmiy qarashlari uchun jaholat qurbanbi bo'lgan. Sharqda esa Imom Buxoriy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar turli tazyiqlarga duchor bo'lganlar. Mansur Xalloj, Nasimiy, Boborahim Mashrab kabi xurfikrli zotlar qatl etilgan. Dunyoda bunyodkorlik taraqqiyotiga intilish bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi. Buzg'unchi g'oyalarning vujudga kelishiga vayronkor intilishlar sabab bo'ladi. Shunday ekan, ularga kurashga tayyor turish, xushyor va ogoh yashamoq kerak.

Insoniyat tarixi turli g'oyalarni egzilik va yovuzlik, ozodlik va iste'dod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lganligidan dalolat beradi.

Ibtidoi jamoa tuzumi davrida mifologiyaga asoslangan diniy iloxiy qarashlar totemizm, animizm, fetishizm kabi g'oyalar tizimi shaklida bo'lgan.

Keyingi bosqichlarda Xinduizm, iudaizm, konfutsiychilik kabi diniy mafkuralar shakllangan, yaponlar esa o'zlarining milliy dini – sintoizmni yaratgan. Rim imperiyasi shakllangan dastlabki davrlarda xristianlik mafkurasi vujudga kelgan.

Olamning vujudga kelishi, mayjudlik qonuniyatları, uning asosini nima tashkil etgani kabi masalalarни falsafiy talqin qilinishi natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm, materializm singari oqimlar vujudga kelgan.

Muayyan davrda milliy diniy mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarildi.

XIX asr boshlarida Napoleon shaxsiga siginishni boshlab bergan uning ofitseri Shoven nomi bilan bog'liq shovistik g'oyalar vujudga keldi. Napoleon shaxsini mutloqlashtirdi. Mafkuraviy aqidaga aylandi.

Yangi bosqinchilik, birovlar xisobidan boyish, tajovvuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarshi o'laroq ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalariga asoslangan adolat g'oyalari maydonga chiqib xalqlarning muzaffar bayrogiga aylandi.

Insoniyat tarixiga xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishga etaklagan yoki ularni tanazzul va xalokatga mahkum etgan g'oyalar ta'sir utkazib kelgan.

Milliy g'oya va mafkura uzida gumanizm talablarini, xalqning xoxish va irodasini aks ettirsa jamiyatni birlashtiradi.

Masalan, XX asrda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingen Yaponiya taraqqiyot modelini olaylik. Yaponiya milliy mafkurasi "milliy davlatchilik tizimi", "fuqarolik burchi", "yapon ruxi", "tadbirkorlik", "unumlilik", "fidoiylik", "Vatanparvarlik", "Jamoaga sadoqat", "Modernizatsiya" kabi g'oyalar mamlakat erishgan yutuqlariga poydevor bo'ldi.

G'oyaviy zaiflik, mafkuraviy beqarorlik davlat qudratiga putur etkazadi. M: Chingizxon istilosi Rossiya bosqini sabab ayrim xukmdorlarning xalqni birlashtirib, kurashga safarbar etolmagani edi.

Ana shuday mafkuralardan biri kommunistik mafkura ham gayriinsoniy va gayriimliy mohiyati sababli tanazzulga yuz tutdi.

Jahon tajribasi shuni ko'sratdiki, ayrim buzgunchi mafkuralar xalqni aldab makr bilan xukmron bo'lib olishi ham mumkin. Masalan, XX asr 30- yillarda Italiya va Germaniyada fashizm galaba qozondi. Bu dunyodagi millionlab insonlarni boshiga cheksiz kulfat soldi. Bugungi kunda dunyodagshi taraqqiyiparvar va gumanistik kuchlar bunday fojeali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjixat bo'lib kurash olib bolmoqdalar.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaxolatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi – tarixning o'zgarmas qonuniyatidir.

Xitoy xalqi taraqqiyoti yulini asoslab bergan Konfutsiy va Lao Szining ta'limotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi.

Bu ta'limotlar asrlar mobaynida mamlakatning milliy mafkurasi bulib kelgan.

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga kutariladi. Bunga bashariyat tarixida uchmas iz qoldirgan Imom Buxoriy, Muso Xorazmiy, Imom Motturidiy va A.R.Beruniy, Imom Gazzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziyy va Abu Nasr Forobi singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat kursatgan davr misol bula oladi.

Bunday jarayon hozirgi kunda dunyoda amaliyot falsafasi va yayot falsafasi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misol bula oladi.

Hozirgi kundagi ilmiy – texnika taraqqiyoti inson aql–idrokini imkoniyatlariga, kelajakka ishonch orttirayotgan bulsa, ikkinchi tomonidan Xirosima, Nagasaki, Chernobil' fojealari, ommaviy qirgin qurollari, ekologik halokatlari, muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bu fan texnika taraqqiyotidan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga soglon g'oya, soglon mafkura kerak.

Plyuralizm, fikrlar xilma-xilligiga asoslangan muayyan haqiqatni turlicha tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslangan jamiyat mafkurasi ilgor, kuchli va xayotbaxsh buladi, bunday mafkura xech qachon erkin fikrga tusqinlik qilmaydi.

Yakka hokimlikka intilgan, mutloq haqiqatni davo qiladigan mafkurani esa istiqboli yuq. Kommunistik mafkuraning tanazzuli bunga misol bula oladi.

Muayyan guruh yoki partianing g'oyalari xukmron mafkuraga aylansa, vijdon erkinligi, fikrlar xilma xilligi cheklanadi.

Plyuralizm tamoyili erkin saylov, erkin matbuot demokratiyaning asosiy shartlaridan biridir.

Erkin fikrni ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlarni uzining aniq va ravshan, asosli qarashlariga ega bulishi kerak. Ammo bu fikrlar jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlariga, axloqiy mezonlariga zid bulmasligi lozim.

Mafkura bulmasa odam, jamiyat, davlat uz yulini yuqotishi muqarrar. Har qanday mafkura quyidagi asosli maqsadlarni kuzda tutadi.

- muayyan g'oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar etish;
- ma`naviy ruxiy ragbatlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- xarakat dasturi bulishi;

Mafkura uz oldiga quyilgan shu maqsadni bajara olsagina amaliy samara berishi mumkin.

Ma`naviyat suzi asli arabcha bulib uzbek tiliga tarjima qilinganda ma`nolar majmuasi yoki kishilarining Falsafiy, xuquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui degan ma`noni anglatadi. Ma`naviyat suzi mafkura, tafakkur tushunchalarga yakin va ular bir birini uzaro tuldiradilar va taqozo etadilar.

Odamzod paydo bulib kup ming yillik taraqqiyot jarayonida uzini urab olgan tabiat, turli xodisalar, voqealar, xayotiy tajribalarini kuzatgan. Ularning sabablari va qonuniyatlar tugrisida mushoxada qilgan. Turli tasavvur va tushunchalar xosil qilib kelgan. Ma`naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qushadigan, idrok va akl zakovatini kengaytiradigan mustaxkamlaydigan vositadir. Ma`naviyat va ma`naviy boyliklar qadriyatlar davlatning, xalqning, millatning, jamiyatning ayrim shaxslarning bebaxo xazinasi va taraqqiyot manbaidir. “Ma`naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yuq joyda xech qachon baxtsaodat bulmaydi” deb ta`kidlaydi Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

Ma`naviyat xar bir fuqaro uz mamlakati, xalqi, millatning ajralmas bulagi ekanligini anglashi milliy ma`naviyat va ongning tarkibiy qismidir. Ammo bu oddiy xaqiqatni tushunish va tushuntirish nechoglik murakkab ekanligini shundan xam anglasak buladiki "Uzbek tilining izoxli lugati" ga (1981) "O'zbekcha ruscha lugat"ga (1988) ma`naviyat suzi umuman kiritilmagan. "O'zbek sovet entsiklopediyasi"ning 7 jildida xam bu suzning talqinini topa olmaymiz. Yaqin utmishda xukmron bulgan kommunistik mafkura ma`naviyatni umuman nokerak nourin va umuman zararli deb qaragan. Chunki xar bir millatning uz ma`naviyatini anglashi, bilishi va uz aql-farosatining, ongingin tarkibiy qismiga aylantirishi millatni mustaxkamlayji uning uziga bulgan e'tiqod va qadr xissini boyitadi. Bu esa istibdod davridagi xukmron mafkuraga zid edi. Ana shu sababli "Ma`naviyat suzi tilimizdan majburan chiqarib tashlashga maxkum etilgan edi.

O'zbek xalqi mentalitetining yaxlit tizimida boy arab madaniyati va ma`rifatning urni beqiyosdir. VIII asrda Markaziy Osiyo xalqlari xayoti va faoliyati mazmuniga islam dini e'tiqodlarining singdirilishi, Olloxning yagona va boqiy ekanligini anglash, Markaziy Osiyodan arab dunyosi va Garb mamlakatlariga yul solinishi, il-fan, madaniyat va san`atning gurkirab rivojlanishiga turtki berdi. Islom dini moxiyat-e'tiboriga kura xar bir kishiga uz-uzini poklash, kamol toptirsh, faoliyat va ijodiy xarakatdan tuxtatmaslik, boshqalarga gamxur bulish, Vatanga va yurtboshilarga sadoqatda bulishga undovchi progressiv aqidalar majmui bulganligi bois xalqimiz uni uz ma`naviyatiga jobajo qila oldi. Islomning mamlakatimizga yoyilishi, mustaxkam arabiyye e'tiqodni singishi bilan xalqimiz mentalitetida ilmga tashnalik, dinga chuqur e'tiqod, ulug maqsadlarga sabot va sabr orqali, katta mexnat tufayli erishi fazilatlari chukur ildiz ota oldi. Ilmga intilish, dinga yul ochish borasida ulkamiz allomalar xatto arab muxaddislarini xam ortda qoldirib ketdilar. Ulug turk eliga xos barcha jabxalarda birinchi bulish ortda yurmaslik, mashakkatlarni jangovar engib utish fazilatlari, islomiy dinga e'tiqodda ayniqsa yorkin namoyon buldi. Islom dini va Evropa mamlakatları madaniyatini anglash yulida arab tilining yoyilishi ilm-fanning gurkirab rivojlanishi Axmad al-Frgoni, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Ulugbek singari buyuk zakovat soxiblarining etishib chiqishi, Imom al-Buxoriy, Imom Termizi, imom Zamashshariy, imom Moturuddiy, Baxouddin Naqshband, Axmad Yassaviy, Abduxoliq Gijduvoni, Xakim Termizi singari ulug din alloma va arboblarini butun islam olamida uchmas iz qoldirganlaridan xam bilsak buladi. Bularning barchasi mentalitetimizga xos bulgan birinchilikka intilish, goliblik va muzaffariyatga albatta va muqarrar erishish yulidagi qat'iyat va sabotning bir kurinishidan uzga narsa emas.

1. Mentalitet nima?
2. O'zbek mentalitetining o'ziga xususiyati nimada?
3. O'zbek mentalitetida insonparvarlik xususiyati?
4. O'zbek milliy mentalitetida jamoaviylik xususiyati nimada?
5. Mentalitet tushunchasining ilmiy talqini qanday?
6. Milliy mentalitetning nomoddiy madaniy meros bilan aloqadorligi nimada?

### **O'zbek xalqi an'anaviy madaniyati**

Reja:

1. Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy islohotlar negizida milliy qadriyatlarning tiklanishi.
2. An'anaviy xalq madaniyatining mohiyati va xususiyati.
3. An'anaviy xalq ijodi.
4. Xalq an'analari

Mustaqillikka erishgan har bir davlatning ma'naviy poydevori mustahkam bo'lgandagina, u baquvvat bo'lib, keng ko'landa rivojlana oladi. Buning uchun esa ajdodlar ming yilliklar ichida yaratgan bebaho meros — xalq madaniyati an'alarini yanada joyovjantirish, taraqqiy etlirish va ulardan aql-idrok bilan foydalanish lozim bo'ladi. Biroq ma'naviy merosni chuqur, har tomonlama o'rganmasdan turib, bu bebaho boylikni liklash, ayniqsa, rivojlantirish aslo mumkin emas.

Ayonki, sobiq sho'ro hokimiysi davrida, mamlakatda tezroq yagona sovet xalqini shakllantirish maqsadida milliy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlар, milliy ong, ruhiyat, xalq odatlari, an'anaviy madaniyat kabi hodisalar rasmiy-norasmiy taqilandi.

Mustaqillikka erishgan har bir millat, avvalo, o'zligini tiklashga harakat qiladi. Chunki istilochilar, eng avval, o'z mustamlakasidagi xalqning ma'naviy o'zligini yo'q qilishga intiladi. Millatning ma'naviy o'zligini esa milliy ong, ruh, an'alar, til, din, adabiyot, axloq, ilm-fan, ma'rifat kabi ma'naviy qadriyatlар vujudga keltiradi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng eng dastlabki ishlardan biri, bu — tarixiy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash bo'ldi.

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib keligan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi»,

deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli amalga oshirilgan tarixiy buyuk ishlardan biri - bu xalqimizning ma'naviy merosini tiklana boshlagani bo'ldi.

Ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta. U, eng avvalo, mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan tarixiy ehtiyojlar asosida ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlar zamirida sodir bo'lmoqda. Ma'naviy sohadagi islohotlar doirasida muhim ishlar amalga osbirila boshladi. Eng muhimi, Respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» Kengashi tuzildi va uning markazlariga yuklatilgan vazifalar yurtimizda ma'naviyat masalalarini yuksaltirishga qaratildi.

Ma'naviyatni rivojlantirish — davlatning bosh vazifasi deb qarash sohaning jiddiy taraqqiy etishiga zamin bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining avvaldag'i «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi» (1996-y) farmonida «Ma'navly-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'naliishi deb hisoblansin», — deb qayd qilindi.

«Ayrim katta-kichik rahbarlar... - deyiladi ushbu farmonda, - ma'naviyatning asl ma'nosini tushunib yetmaslik tufayli, unga ikkinchi darajali ish sifatida qarashmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bo'lgan bunday e'tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro'yobi uchun mutloqo ziddir».

Farmonagi bu fikrlar turli darajadagi rahbarlarni xalq ma'naviyatiga jiddiy e'tibor berishga undadi.

Milliy mafkuraga bag'ishlangan (6-aprel 2000-yilgi) anjumanda Prezidentimiz rahbar xodimlar, eng avvalo, ma'naviyat, mafkura, madaniyat bilan shug'ullanishi darkor ekanligini ta'kidladi.

Barcha darajadagi rahbarlar ma'naviyat bilan bevosita shug'ullana boshlashi keng ko'landa ma'naviyatni jonlantirishga imkoniyat yaratmoqda.

Ma'lumki, ilgari, jumladan, sobiq sho'rolar davrida ma'naviyat bilan uchinchi rahbar (yoki rahbarning uchinchi o'rinnbosari) ideologlya ishining bir qismi sifatida shug'ullanar edi. Ko'pgina mustaqillikka erishgan davlatlarda hozirham shunday bo'lib qolmoqda. Bizning Respublikamizda esa Prezidentimiz Farmoni asosida joylarda ma'naviyat bilan bog'liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat shaxsan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat shahar va tuman hokimlari, respublikamizdag'i barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi rahbarlarining zimmasiga yuklatildi. Prezidentimiz esa barcha rahbarlarga shaxsiy namuna ko'rnalib, «ma'naviyatning bosh homisi va himoyachisi» sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yirik nufuzli tashkilotlarda ma'naviyat bo'yicha bosh mahbarning birinchi o'rinnbosari lavozimi joriy etilishi, darhaqiqat, barcha ishlar orasida ma'naviyatning birinchi o'ringa ko'tarilganiga amally isbot bo'ldi. Ayniqsa, olyi va o'rta maxsus

bilim yurtlarida rektor va direktorlarining, endilikda esa hatto tuman, viloyat hokimlarining ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha 1-o'rinnbosari lavozimlari joriy etilishi yurtimizda ma'naviyat sohasiga bo'lgan davlatimiz siyosatini yana bir bor ko'rsatib turibdi.

Tarixiy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash millatni tiklash demakdir. Xalq madaniyati an'analarini tiklash bu boradagi muhim ishlardan biridir. Chunki an'anaviy xalq madaniyati - ajdodlarimiz merosining tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida muhim o'rinn tutib kelgan va hozirgi davrda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirishda katta ahamiyatga ega.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy meroslarni tadqiq qilishga keng yo'l ochilishi natijasida, sho'rolar davrida taqiqlangan tarixiy meros, ma'naviy qadriyatlар, xalq madaniyati an'analarini va ulardan foydalanish masalalariga doir qator izlanishlar paydo bo'la boshladi. Ayniqsa, bu borada Jabborov, N.Komilov, Q.Nazarov, S.Otamurodov, Sh.Rizayev, A.Erkayev, E.Yusupov kabi olimlar ishlari diqqatga sazovordir. Shimingdek, xalq turmushi, ijodi, san'atini o'rganishda folklorshunoslar, etnograflar, san'atshunoslar va pedagoglar ham faoliyk ko'rsata boshlashdi.

Mazkur muammoga diqqat jalb qilish uchun, eng avvalo, adabiy, ilmiy, qomusiy va boshqa manbalardagi «xalq madaniyati» tushunchasiga izoh berish lozim. Agar mavjud manbalardagi bu atamaga oid turlicha izohlar umumlashtirilib, qisqa bayon qilinshi, unda «xalq madaniyati», birinchidan, muayyan joy (hudud)agi aholi madaniyali; ikkinchidan, oddiy xalq va keng mehnatkash omma madaniyati; uchinchidan, etnos (ya'ni urug', elat, millat)lar madaniyati kabi ma'nolarda tushuniladi. (Aynan, uchinchi ma'no etnomadaniyat tushunchasiga to'g'ri keladi). *Endi* ma'naviy merosning asrlararo shakllangan, avloddan aylodga o'tib, odalga aylanib qolgan qismi — «an'anaviy xalq madaniyali» tushunchasiga ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy xalq madaniyati — etnosiarning tarixiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan, ularning aqliy-yodiy faoliyati natijasida taraqqiy etgan, ming yilliklar mobaynida ajdodlar o'gitlari, tajribalari, orzu-istiklari, an'analarini va qadriyatlarni o'zida birlashtirgan, avloddan avlodga o'tib asrlar osha sayqallanib, murakkablashib borgan bebafo meros hamda jamiyatimizni axloqiy sog'lomlashtiruvchi va insonparvarligini barqaror etuvchi xalqning ma'naviy kamol topishiga xizmat qiladigan *muhim* omildir.

An'anaviy o'zbek xalq madaniyatiga yaxlit ijtimoiy-ma'naviy hodisa va xalq turmushining tarkibiy qismi sifatida qarash madaniyatshunoslik fani doirasida «Etnomadaniyat konsepsiysi»ni yaratishga imkon beradi. Bu konsepsiya an'anaviy xalq madaniyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Mustaqillik sharoitida ko'pgina fan tarmoqlarining *mazmuni*, *shu* jumladan, madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalarini ham qaytadan ko'rib chiqish lozim bo'Imoqda. Ayniqsa, «xalq madaniyati», «milliy madaniyat», «an'anaviy madaniyat», «etnomadaniyat» atamalari yangi izofani talab qilmoqda. Hanuzgacha kam o'rghanilgan «etnomadaniyat» (yoki «etaik madaniyat») tushunchasi yuqoridagi boshqa atamaiarni tushunishga qulayliklar yaratadi.

«Etnomadaniyat» tushunchasi tarixiy jarayonda urug', elat, millat madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini aks ettiradi. «An'anaviy xalq madaniyati» tushunchasi esa aynan etnik madaniyatning tarixiy jarayonda shakllangan, sinalgan va an'anaga aylangan, avloddan avlodga *meros* bo'lib o'tayotgan muhim qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Agar etnomadaniyatning tarixiy-madaniy xususiyatlarini belgilaydigan bo'lsak, u quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

- a) etnoslar tabiiy va tarixiy ma'naviy ehtiyoj asosida vujudga keladi;
- b) o'z mohiyati va xususiyati, *mazmuni* va shakliga ega bo'lib, boshqa hayotiy sohalar bilan chambarchas bog'lanib ketadi;
- c) xalq hayotida o'z o'mini topib, turmushning tarkibiy ajralmas qismiga aylanadi;
- d) ma'naviy - tarixiy ehtiyoj sifatida avloddan avlodga *meros* bo'lib o'tadi va davrlar osha taraqqiy etadi;
- t) jamiyatning barkamol bo'lishiga xizmat qiladi.

Etnomadaniyatning asosiy ko'rinishlari (shakllari). An'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolutsiyasi va umum qabul qilgan «madaniyat» tasnididan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalarini aniqlashga intildik. Etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyati tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqa-rashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy *mazmuni* qanchalik chuqur bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo'lar ekan.

Xalq madaniyatining asosiy ko'rinishlarini aniqlash natijasida o'ziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniqlash ham katta ilmiy qiymatga egadir.

Xalq pedagogikasining yillar davomida qaror topib, yuzlab avlodlarni tarbiyalash jarayonida vujudga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalar, tajribalar va usullarni o'zida umumlashtirgani uchun, u faqat tarixiy madaniyat qadriyatları sifatida namoyon bo'libgina qolmay, balki hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, xalq pedagogikasi qadriyatlaridan foydalanan zamonaqiy ta'lim-tarbiya, madaniyat tizimi faoliyatining samaradorligini oshirib, ijtimoiy hayotda insonparvarlikning yanada kamol topishiga zarur imkoniyatlar yaratib beradi. Xalq pedagogikasiga oid tajribalar, an'analami o'rganish natijasida tarbiyaviy jarayonning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi «Tag maqsad (tag ma'no), - podsel», salbiy tarbiyaviy jarayonni keltirib chiqaruvchi «Xufiya tarbiya» - «tenovaya pedagogika» hamda katta qimmatga ega asrlar osha sinalgan «ustoz-shogird» an'alariga alohida o'rinn berish muhim sanaladi.

Mustaqillik sharoitida xalq ommasining ijodiy an'alarini saqlash va rivojlantirish, jumladan, xalqning og'zaki, musiqali, amaliy, teatr-tomoshaviy deb atalgan ijod turlari va janrlarini tiklash va kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xalq og'zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgi-hikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula, marosim qo'shiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy ansamblar, folklo elnografik guruqlar, xalq havaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomosha ijodining masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik; xalq amaliy-bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, o'ymakorlik, zardo'zlik, zargarlik, to'qimachilik kabilarini; tabiat bilan bog'liq bo'lgan ijodning rang-barang tur va janrlarini tahlil qilishi asosida shunday xulosaga kelindiki, ular avlodlar ongini, badiiy tafakkurini, esletik qarashlarini taraqqiy ettiribgina qolmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqning o'z tarixini o'ylashga, bunyodkorlik qilishga undagan. Shuning uchun ijodiy merosni tiklashi va kamol toptirish xalqning barcha ijtimoiy-madaniy sohalaridagi faolligini oshirishda muhim omil bo'ladi.

Mustaqillik sharoyitida o'zbek xalq ijodining tiklanish va ravnaq topish jarayoni jadal sur'atlar bilan amalgalashmoqda. O'zbekiston Respublikasida bu soha islarini rivojlantirishda «Respublika xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar markazi»ning xizmati kattadir, Xalq ijodiga oid ma'naviyatimiz durdonalarini aniqlash va ularga tegishli ko'mak berish borasida respublikamizda amalgalashmoqda oshirilayotgan diqqalga gazovor tadbirlarga murojaat qilamiz:

— xalq hunarmandchiligi, amaliy va tasviriy san'at, havaskor ijodkorlar ko'rigi, savdo-ko'rgazmalarini amaliy san'at ixlosmandlarini rag'batlantirib, ularning ilhomiga ilhom qo'lib yubordi.

— «Alla» ijrochilarining Respublika ko'rik-tanlovlari bola kamolotida muhim o'rin tutadigan Ona shaxsini e'zozlashga oid ko'plab qo'shiqlarning yuzaga kelishiga imkon berdi.

— folklor jamoalarini Respublika seminar-kengashi faoliyati xalq ijodiyoti sarchashmalarini aniqlash, tiklashi va targ'ib qilishda folklor-etnografik ansamblaning muhim o'lin tutishini namoyon etdi.

— oilaviy ansamblar, katta ashulla, lapar ijrochilarini Respublika ko'rik-tanlovlari o'zbek xalq ijodining barcha tur va janrlariga Xalqaro darajada ham katta qiziqish bilan qaralayotgonligidan dalolat berdi.

— «Chashma» Respublika Folklor ko'rik-tanlovi xalq ijodi bitmas-tuganmas va boy ma'naviy «bulloq» ekanligini ma'lum qildi va ayni chog'da bu sohadagi qator muammolarni davlat miqyosida ijobji hal etilishiga turtki berdi.

— maqomchilar Respublika ko'rik-tanlovlari bu mumtoz san'at dovrag'i ni yanada keng yoylb, ko'plab iqtidorli iste'dodlarni yuzaga chiqardi.

— mashhur xalq baxshilarini yubileyлari baxshilik san'ati hozirgi kunda qaysi yo'llar, janrlar va qaysi ijodiy maktablar doirasida ravnaq topayotganligini namoyon qildi.

— «Oilaviy ansamblar Respublika ko'rik-tanlovleri» vatanimizda oilaviy ijodni targ'ib qilishda va ommalashishida muhim omil bo'ldi.

- «Turkiston — umumi uyimiz!» ruknida Markaziy Osiyo baxshi-shoirlarining ko'rik-tanlovi o'z atrofiga 100 dan ortiq baxshilarini yig'ib, mintaqalarda ko'lamida Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Qoraqalpog'iston baxshilarining o'zaro ijodiy boyishiga xizmat qildi.

— dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati va qo'girchoq teatri jamoalarining Respublika ko'rik-festivali bu qadimiy san'atga yanada jiddiyroq va har taraflama e'tibor berishimiz lozimligi masalasini kun tartibiga qo'ydi.

— «qadimgi qo'shiqlar, urf-odatlari, an'analar, marosimlarni o'rganish va targ'ib qilish» bo'yicha uyuştirilgan respublika ilmiy ekspeditsiyasi xalqimiz tarixiy-madaniy meroesining ko'pgira namunalarni saqlab qolishga ko'mak berdi.

— Milliy qadriyatlarga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari bu soha muammolarining hal qilinishida muhim amaliy yo'llarni belgilab berdi.

— «Oilaviy ansamblar»ning navbatdagi Respublika ko'rik-tanlovi xalqimiz ruhiyatiga mos mazkur o'ziga xos ijodiy yo'lga katta e'tibor berish zarurligini ko'rsatdi.

— qadimgi qo'shiqlar, urf-odatlari, an'analar va marosimlarni o'rganish, targ'ib qilish maqsadida Jizzax viloyatiga uyuştirilgan ilmiy-amaliy ekspeditsiya ham ko'pgina ijodiy an'analarini asrash va targ'ib qilishga ko'mak berdi.

Xalq ijodini tiklash va ravnaq toptirish bo'yicha amalga oshirilayotgan bu tadbirlar mustaqillik sharoitida Respublikamiz miyosida xalq ma'naviyati, boy ijodiy an'analariga qay daraja e'tibor berilayotganiga guvohlik beradi.

Xalq ijodi sohasida respublikamizda o'tgan Xalqaro nufuzli anjumanlardan biri BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan Toshkentdag'i Milliy bog'da (1997, 24-25-oktabr) «Barhayot an'analar» nomli xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi yarmarkasi bo'ldi. Bu yarmarka o'zbek xalq amaliy san'atiga xalqaro darajada bo'lган qiziqishni yana bir marta namoyon qildi. Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'ona amaliy san'at ustalari o'ziga xos an'anaviy ijodlari bilan barcha kishilarni lol qoldirdi. Yarmarka yakunida xalqimizning amaliy ijod turlari barhayot an'analarga aylanishi uchun har bir noyob kasb egasi bo'lган iste'dodli ustozga o'ziga 5 tadan shogird tayyorlashga oid huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratib berildi.

YuNESKO tasarrufida uyuşhtirilgan «Boysun bahori» xalqaro folklor festivali o'zbek og'zaki va nomoddiy madaniyati durdonalarini jahon tan olganligining isboti bo'ldi. Festival doirasida bo'lib o'tgan folldor jamoalar ko'rige, baxshi qo'shiqchilar tanlovi, yosh modelerlar ko'rige, folklorga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman va yakunlovchi folklor tomoshasi o'zbek an'anaviy nomoddiy madaniyati boy va serqirra ekanligini yaqqol namoyish qildi.

O'zbekistonda xalq amaliy san'ati va hunarmandchilagini ravnaq toptirish uchun 1997-yil 31-martda Respublika Prezidentining maxsus farmoni chiqdi va unga binoan respublikamizda bu boradagi barcha ishlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus markaz tuzildi. Bunday e'tibor natijasida xalqimizning ko'plab ijod turlari tiklanmoqda. Respublika xalq amaliy san'ati markazi rahbari Shoxalil Shoyoqbovning ta'kidlashicha, agar mustaqillikgacha xalq hunarmandchiligining 10 ga yaqin turi saqlanib qolgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng hozirgi vaqtga kelib, uning 50 ga yaqin turlari qayta tiklangan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

O'z navbatida, o'zbek folklori jahonga tanilmoqda, ko'plab folklor jamoalar xorijiy mamlakatlarga chiqib xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodirsan'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Quyida mustaqillik yillari xorijiy mamlakatlarga chiqib, o'bek xalq ijodini jahonga tanitib kelgan ba'zi folklor jamoalari haqida qisqa ma'lumollar keltiramiz:

Toshkentning «Kamalak» folklor-etnografik ansamblı, Andijonning «Sumalak» xalq raqs ansamblı, Xorazm viloyati xalq ijodiyoti markazi qoshidagi «Meros» bolalar namunali folklor-etnografik jamoasi, Respublika op'quvchilar saroyi qoshidagi "Chaman" folklor guruhi, Quvaning «Anor» xalq ashula-raqs ansamblı, Navoiy viloyat qo'shma folklor jamoasi Misr, Turkiya, AQSh, Fransiya, Pokiston, Yaponiya kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro folklor festivallari va boshqa tadbirlarda ishtirot etib, vatanimizga ko'plab nufuzli sovrinlar olib kelishgan.

Chet ellarda o'zbek xalq ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda.

Keyingi yillar milliy madaniyatimiz o'tmishi va bugungi kunini uzvyi bog'laydigan festivallar safi kengayib bormoqda. Madaniyat va san'at Forumining yangi keng qamrovli loyihasi — «Asrlar Sadosi» festivali ham xalqimizning an'analari, amaliy san'ati va milliy taomlari, xalq og'zaki ijodi kabilarning boy va rang-barang ekanligini namoyon etmoqda. Ushbu festival har yili mamlakatimizning turli madaniy va tarixiy maskanlarida mutaxassislar, olimlar va xorijiy mehmonlar ishtirokida xalqaro darajada YuNESKO hamkorligida o'tkazildi.

2008- yilda Festival Kitob tumanida, 2009- yilda esa Parkent tumanida o'tkazilgan «Asrlar sadosi» festivalida folklor va teatr guruhlari, xonandalar, musiqachilar, raqqoslar, xalq baxshilari, masxarabozlar, liboschi dizaynerlar, rassomlar, amaliy san'alning atoqli vakillari, mohir oshpazlar ishtirok etishdi. Festival dasturi, shuningdek, xalq o'yinlari, ko'pkari (uloq), kurash, dorbozlar chiqishi, mamlakatning, turli viloyatlaridan kelgan oshpazlar tanlovini ham o'z ichiga olgan. Foslival amaliy san'at yarmarkasi doirasida kulolchilik, kandakorlik, kashlachilik, miniatura, o'ymakorlik ustalari ham o'z mahoratlarini namoyish etdilar.

Festivalga 50 ming nafarga yaqin tomoshabin, 15 mingga yaqin mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular orasida Rossiya, Fransiya, AQSh, Turkiya, Koreya, Italiya, Yaponiya, Xiloy, Sheiysariya, Bolgariya, Avstriya kabi davlatlardan 100 nafardan ortiq madaniyat va san'at arboblari, olim va tadqiqotchilar, nufuzli xalqaro OAV vakillari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar xodimlari bor edi.

Respublikamizda muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan turli xil ko'rik-tanlovlar, Respublika miqyosidagi tadbirlar o'zbek milliy san'at turlarining rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda. Milliy dorbozlar va an'anaviy sirk san'ati jamoalarining Respublika ko'rik-festivali, Askiyachi va qiziqchilarning an'anaviy Respublika ko'rik-festivali, "O'lan aytgani keldik" nomli an'anaviy folklor san'ati bayrami, Yosh kulollarning Respublika ko'rgazmasi, Qo'girchoqbozlik san'ati bayrami, Xalq ashula va raqs ansamblarining Respublika ko'rik-festivali, "Barhayot navolar" turkumidan milliy cholg'u sozlar ijrochilarining Respublika ko'rik-festivali mamlakatimizning ko'plab viloyatlarida iqtidorli ijrochi yoshlarni kashf etmoqda.

Joylarda milliy qadriyatlar, xalq ijodiyotini targ'ib qilish maqsadida 2006-yildan buyon "Xalq ijodiyoti poyezdi" tashkil etilmoqda. Bu poyezd yordamida respublika ko'rik-tanloviar, festivallar g'oliblarining chekka qishloqlar aholisi bilan ijodiy uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Madaniyat poyezdi aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatib, xalq ijodiyotining noyob durdonalari (o'lan, lapar, askiya, baxshichilik va foklor san'ati turlari)ni keng omma o'rtaida targ'ib etib bormoqda.

Mustaqillikning birinchi yillardanoq milliy qadriyatlar, xalq an'analarni tiklash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifaga aylandi. Darhaqiqat, milliy an'analarni tiklash borasida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarimizning qamrovi juda kengdir. An'analarni - xalqning tarixiy shakllanishi va

rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy boyligi hisoblanadi. Milatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchidir. Ajdodlarimiz an'analarini barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bonyodkorlari - yoshlarimiz ongida barqarorlashtirish lozim. Yoshlar tomonidan ajdodlar an'analarini qadrlanmay qo'yilishi avlodlar o'rtasida ma'naviy uzilishni vujudga keltiradi.

Eng qadimiy xalqlardan biri hisoblangan o'zbeklarning an'analarini tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan, zamon chiqriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Biroq avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq an'analarini sobiq sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham, o'zbek xalqi mustaqillikka erishgandan so'ng, ularga ehtiyoj kuchayib, qayta tiklana boshlandi. Buning natijasida ilgari norasmiy nishonlangan an'analar jiddiy tadqiqot obyektlariga aylanib, milliy an'anaiar haqida qator kitoblar chop etilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki an'analar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyat, tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Xalq an'analarini, marosimlar jarayonida namoyon bo'layotgan odob-axloq, mehr-oqibat, izzat-ikrom kabi xislatlar yoshlar ma'naviyatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Etnos-millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchiga aylangan. An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqeа bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istiklalini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladи. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida «Navro'z», «Ro'za hayiti», «Qurban hayit»lari rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladи. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan bayramlar «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O'z navbatida, O'zbekiston rahbariyati sho'ro davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni taqiqlamadi. Ular orasida umurninsoniy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonning asosiy davlat bayramlari asosan shakllangan bo'lsa-da, azaliy bayramlarni tiklash jarayoni tugagan, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bu borada hali bajariladigan ishlar ham kam emas. Bir tomondan, azaliy bayramlar bilan birga ularga xos odatlar va an'analar tiklanishi darkor. Ikkinchи

tomondan, mustaqillik davrida paydo bo'lgan tarixiy - ma'nnaviy qadriyatlar bilan ham boyitilmog'i lozim.

Xalq an'analarlarga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: insonning tabiiy-hayotiy ehtiyojlar asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlar asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulo'lalarining mahv etilishi, hukmdorlar, istilochilarning kelib-ketishlari, hattoki, hududdagi aholi tarkibiy o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchisini turkum bayram-marosimlar esa malum vaqtadan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Uchinchi guruh marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki hukmdorlarning xohish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng barham topadi.

Oilaviy marosimlar. Ma'lumki, oilaviy marosimlar o'zbek xalq an'analarining asosiy va muhim qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning aksariyati bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlangani uchun ham yoshlarning ma'nnaviy kamol topishida muhim o'rinni tutadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi — to'y parast xalq. U to'y qilaman, dasturxon yozib, el duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman, degan maqsadda yashaydi. Shuning uchun to'y o'zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi. Biroq sobiq sovet davrida o'zbek oilaviy marosimlarning bir qismi taqiqlandi, taqiqlash mumkin bo'limganlari (masalan, «Nikoh to'yisi») yangicha umumsovet an'analar asosida o'zgartirila boshlandi.

Mustaqillik sharoitida bu holatlarni to'g'rilash maqsadida oilaviy marosimlarning asosiy tadbirlari, chunonchi, «ismlash» odati, «chilla» udumlari, «soch to'yisi», «tish to'yisi», «beshik to'yisi», «sunnat to'yisi», «muchal yoshi», «nikoh to'yisi» kabilarni tiklash uchun yo'l ochildi. Oilaviy qadriyatlarning tiklanish jarayoni milliy-ma'nnaviy tiklanish jarayonidagi muhim hodisa bo'ldi. Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, bir iqtisodiy holatdan ikkinchisiga o'tish paytida oilaviy marosimlarga oid muammoli hodisalar ham ko'zga tashlanmoqda. Masalan, ko'pgina iqtisodiy baquvvat oilalar ortiqcha dabdbabali, haddan tashqari ko'p xarajatlar bilan isrof garchilikka yo'l qo'yib to'y o'tkazsalar, kam xarajatlari oilalar bolalarning rizqini qiyib, qarzga botib to'y qilishmoqda. Ko'pgina marosimlar, masalan, «Beshik to'yisi», «Sunnat to'yisi» oila, qo'ni-qo'shni va qarindoshlar o'rtasida o'tkazilishi o'miga, dabdbabali bayramga aylantirib yuborilmoqda.

Nikoh to'yiga oid «non sindirish», «kelin ko'rdi», «kelin chorlar», «kuyov chaqirdi» kabi odatlar alohida-alohida tadbirga aylanib ketmoqda. Ular ortiqcha dabdaba va katta xarajatsiz, ixcham shaklda, oila a'zolari, yaqin qarindoshlar ishlironida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Joylarda katta to'yga aylanib

ketayotgan «Tug'ilgan kun», «Beshik to'y», «Sunnat to'y», «Payg'ambar yoshi» kabi marosimlar ham kichik, ixcham, oilaviy tadbir sifatida yaqin qarindosh va qo'niqo'shnilar ishtirokida nishonlashni taqozo etadi. Hozirgi davrda egalari o'z boyliklarini targ'ib qiladigan - «Kiyim ko'rди», «Sarpo yozdi», «Tugun qaytdi», «Eshik ochdi» kabi ortiqcha marosimlardan voz kechish kerak bo'ladi. To'yning moddiy tomoniga emas, balki ma'naviy jihatlariga alohida urg'u berish lozim bo'ladi.

To'y-bazmlarni mazmunli, fayzli, yaxshi badiiy saviyada o'tkazishga ham jiddiy e'tibor berraoq lozim. Joylarda shahar, tuman, xo'jalik rahbarlari yosh kelin-kuyovlarga rnoddiy va ma'naviy yordam berish keraldigini sira ham unutmasligi lozim. Xullas, oilaviy marosimlarga oid muammolar ko'p. Ularni hal qilish uchun joylarda — tuman, shahar, qishloq mahallalarida nuroniy otaxonlar, nufuzli va obro'li kishilardan tashkil topgan oilaviy to'y komissiyalari ishlab turgani ayni muddao bo'lmoqda. Bu kengashlar mahalliy sharoitdan va iqtisodiy ahvoldan kelib chiqib, joylardagi oilaviy marosimlarni munosib rivojlanishiga yordara berishi tabiiydir.

So'nggi vaqlarda o'zbek odatlaring ijobiy tomonlariga ko'proq diqqat jalb etilib, bu sohada paydo bo'layotgan salbiy asoratlari e'tibordan chetda qola boshlagan edi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov bunday salbiy illatlarning oldini olish maqsadida (1998-yil 28-oktabr) maxsus farmon chiqardi. Unda aytishicha, keyingi vaqlarda to'y-hashamlar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda mamlakatimizning ko'p joylarida shuhratparastlik, dabdababozlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yish, el-yurt odatlari va an'anarini mensimaslik, o'zini ko'z-ko'z qilish, atrofda yashayotgan odamlarning hol-ahvolini inobatga olmaslik kabi eskidan qolgan asoratlarga yo'l qo'yilmoqda, manmanlikka berilib ketgan havoyilarning nomaqbul harakatlari mahallalarda, istiqomat joylarida sog'lom muhit buzilishiga sabab bo'lmoqda, oddiy odamlarning nafsoniyatiga tegmoqda, ularning adolatga, umuman, davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchiga ziyon yetkazmoqda.

Farmonda keng jamoalchilikning bu boradagi e'tirozlari bisobga olinib, bunday soxta xo'jako'rsinlik, shuhratparastlik odatlari o'rniga, ehtiyojlaridan ortiq mablag'larini xalqimizning azaliy odatlari amal qilib, xayr-ehson, mehr-muruvvat ko'rsatish, muhlojlarga, beva-bechoralarga yordam berish, turarjoylarini obod qilish, yo'llar, ko'priklar qurish, ishlab chiqarishga sarf qilish — shunday oliyanob sa'y-barakatlar orqali el-yurt oldida o'zlariga haqiqiy obro' orttirish kabi takliflar va maslahatlar berilgan.

Oddiy mehnatkash xalq ommasi madaniy-ijodiy faoliyat bilan asosan ishdan tashqari, ya'ni bo'sh vaqlida mashg'ul bo'ladi. Endilikda hanuzgacha deyarli o'rganilmagan an'anaviy dam olish madaniyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'lmoqda. Shu sababli xalq orasida mashhur bo'lgan mavsumiy dam olish an'analari («Gul sayili», «Suv sayili», «Tog' sayili», «Bog' sayili», «Gap-gashtak» kabilalar)ga hamda turli tarixiy jarayonlarda madaniy - ma'rifiy hordiq chiqarish maskanlari

(Erkaklar uyi, Otashxona, Iydgob, Sherda, Madaniy bog'lar, Tarobxona, Tomoshagoh, Sayilgoh, o'yingoh, Choyxona kabilalar) tajribasi diqqatga sazovordir.

Xalq o'yinlari. Xalq an'anaviy madaniyati borasida so'z borganda, yoshlardan kamolotida muhim o'r'in tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Buning sababi quyidagilardan iborat:

birinchidan, o'yinlar — ajdodlarimizning eng qadimiy tarixiy qadriyati, ko'pgina madaniyati shakllari chashmasi — raqs, teatr, sport, marosimlar kabilalar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda o'yinlar ajdod-avlodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan;

ikkinchidan, ota-bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan;

uchinchidan, o'yinlar ma'nnaviy merosgina bo'lib qolmasdan, zamondoshlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamol bo'lishida o'ta muhim o'r'in tutadigan manbadir.

Biz shunga alohida e'tibor berib, Forish tumanida 1985-yildan boshlab unutilgan xalq o'yinlarini o'rganish (1985-1986-yy.), tiklash (1987-1991-yy.) va targ'ib qilish (1991-1993-yy.) bo'yicha tajribalar olib bordik. Buning natijasida, 100 ga yaqin o'yinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an'anaga aylanib, har yili o'tkazilib kelinayotgan «Xalq o'yinlari» bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Tajriba asosida xalq o'yinlarini tiklash va rivojlantirish yo'llari belgilandi.

Respublikamizda xalq o'yinlarining tiklamshida ham aynan Jizzax viloyati Forish tumanining tajribasi diqqatga sazovor boidi. Bu yerda avvaliga bir maktab, qishloq, keyin tuman, so'ngra viloyat va nihoyat, respublika darajasida tiklangan xalq o'yinlari bo'yicha musobaqalaruyushtirildi. Forishda 1994-1996-yiliarda Respublika I-II Olimpiadalari o'tkazilishi o'lkamizning turli joylarida azaliy xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi.

1996-yil Tailand poytaxti Bangkokda bo'lib o'tgan Butun dunyo xalq o'yinlari festivalida O'zbekiston delegatsiyasining qatnashishi, o'zbek xalq o'yinlarining «jahon milliy o'yinlari» guldastasida o'zining munosib o'r'in olishiga imkon yaratdi.

Boysunda «Alpomish»ga bag'ishlangan anjumanlar doirasida o'zbek xalq o'yinlari Respublika musobaqa-tomoshalari festivalining uyushtirilishi Alpomish davridagi dostoilarga ko'chgan xalq o'yinlarini tiklanishida muhim voqeа bo'ldi.

Shu narsani quvonch bilan qayd etish kerakki, o'yinni jon-dildan sevadigan yoshlarimiz ajdodlarimizning o'yinlariga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Forishda o'tkazilgan olimpiada musobaqalarining ishtirokchilari, asosan, o'spirin-yoshlardan tashkil topdi. Bu esa XX asr o'rtalarida unutilgan an'analar asr oxirida tildanganidan dalolat beradi.

Xalq o'yinlarini tiklash jarayonida ham o'ziga xos muammolar yo'q emas. Masalan, azaliy musobaqalarning sportga yaqin turlariga ko'p e'tibor berilmoqda. Biroq o'yinlarning harakatli tomoniga e'tiborni kuchaytirib, urg'u berib, ruhiy tomoni unutilib qo'yilmoqda. Holbuki, sharq o'yinlarida oldingi o'rinda ruhiyat, keyin jismoniyat turgan. Ajdodlarimiz foydalangan so'z o'yinlari, aqliy, raqsli o'yinlar, sujetli teatrlashtirilgan o'yinlar ham diqqat talab qiladi. Xalqimizda insonni har tomonlama barkamol qiladigan an'analar, o'yinlar, musobaqalar yaratilgan, ulardan nafaqat saralab, balki an'anaviy o'yinlar tizimidan yaxlit shaklda foydalanmoq ham kerak.

Madaniy merosimizning uzviy va ajralmas qismi bo'lgan, avlod-ajdodlarimizga asrlar mobaynida ruh, jon va sog'liq ato etib kelgan xalq o'yinlarini tiklash va ulardan foydalanish milliy qiyofamiz, ma'naviyatimiz va qadriyatimizni yuksaltirish demakdir. Ularni ko'z qorachig'idek asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydalanish - mamlakatimiz har bir fuqarosi uchun muqaddas ishdir. An'anaviy xalq madaniyatini va uning asosiy ko'rinishlari (xalq donish-mandlligi, e'tiqodi, pedagogikasi, an'analar, ijodi, dam olish madaniyati, o'yinlari kabilalar) insoniyatning tarixiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, xalq hayotida o'zining munosib o'rnini topgan, avloddan avlodga meros boiib o'tgan, takomillashib, ijtimoiy taraqqiyotda muhim o'rinni tutgan. Ular hozirgi zamonda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ajdodlarimizning bu bebafo merosini yanada chuqurroq o'rganishimiz, tiklashimiz va kamol toptirishimiz uchun aql, kuch va g'ayratimizni ayaraasligimiz lozim.

Xullas, asrlar osha shakllanib, avloddan avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib, rivojlanib kelgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni saqlamasdan milliy tiklanish jarayonini amalga oshirish qiyin. Shu sababli bu borada jiddiy ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, Respublika, viloyat, tuman, shaharlar miqyosida milliy an'analarini saqlash, tiklash va rivojlantirish kengashlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'lardi. Ular milliy an'analar muammolarini muntazam ravishda hal qilib borishga o'z hissalarini qo'shib boradilar.

Xalq madaniyatiga oid vazifalar. Ma'lumki, hayot o'z joyida bir maromda turmaydi. Taraqqiyot xohlasmizmi-yo'qmi, oldimizga muayyan muammolarni qo'yib turadi.

Albatta, ijtimoiy-ma'naviy sohalarning biri — xalq an'analarini doirasida ham yutuqlar bilan birga o'ziga xos muammolar mavjud. Ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan masalalarni hal qilmasak, ular borgan sari kattalashib va murakkablashib boraveradi va taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Quyida ma'naviyat sohasining eng muhim masalalariga to'xtalamiz.

Birinchisi: madaniyat amaliyotini ravnaq toptirish uchun, eng avvalo, bu sohaning ilmini rivojlantirish lozim. Shunday qilsak, madaniyat ilmi bu soha amaliyotida

vujudga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilishga ko'mak beradi. Gap shundaki, madaniyat muammolarini bevosita tadqiq etadigan maxsus markaz hozirgaclia respublikamizda yo'q. Bu sohaga yaqin tashkilotlar, muassasalar (masalan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi markazlari, Respublika madaniy-ma'rifiy ishlari va xalq ijodi ilmiy-metodik markazi, Ta'lim markazi, San'atshunoslik instituti, Til va adabiyot instituti va boshqalar) asosan o'z yo'nalishida tashkiliy va taig'ibot ishlari, milliy g'oya va maskura, ma'naviyat targ'iboti masalalari, san'at, adabiyot, til, xalq ijodi bo'yicha xususiy tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lib, ular bevosita madaniyat muammolari bilan maxsus shug'ullanilmaydilar. Bu ish ularning vazifalariga kirmaydi ham. Xullas, madaniyatning umumiy va o'ziga xos muammolari bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy-tadqiqot markazi tuzilsa, u xalq madaniyatining amaliy ravnaq topishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

Ikkinchisi: muammo ma'naviyatning moddiy zaminini mustahkamlash bilan bog'liq. Ayonki, madaniyatsiz (chunonchi, uning tarkibiy qismlari — ilm, fan, ma'rifat, axloq, din, san'at kabilarsiz) moddiy hayotni taraqqiy etishi qiyin bo'ladi. O'z navbatida, madaniyat ham moddiy zaminsiz yashay olmaydi. Agar ma'naviyatning moddiy «tomiri» bo'sh bo'lsa, u yaxshi ravnaq topa olmaydi. Har bir ma'naviyat sohasidagi mutaxassis o'z kasbiqa yengil qarasa, natijada ma'naviyat taraqqiy etmasligi ma'lum. Ma'naviyat yaxshi taraqqiy etmasa, moddiy sohada ham rivojlanish bo'lmaydi. Shunday ekan, ma'naviy qadriyatlar bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar moddiy va ruhan qadrlab turilsa, ularning asosiy vaqt va harakati ma'naviyat taraqqiyotiga sarflanadi.

Shuning uchun ham respublikamizda ma'naviyat sohasi mutaxassislarini moddiy va ma'naviy rag'batalnirish ishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Uchinchi muammo mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan bog'liq. Malumki, fuqarolarni ma'naviy kamol toptirish uchun madaniyat maskanlari tizimidan mahorat bilan foydalanish kerak. Bunday tizim hali mukammal bo'lmasada, biroq mavjud teatr, konsert zallari, klub, madaniyat uylari, muzey, kutubxona, istirohat bog'lari kabi maskanlar insonni ma'naviy kamol toptirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Ammo joylarda ularga kerakli darajada e'tibor berilmayotganligi uchun ular faoliyatsizlanib qolmoqda. Ko'pgina teatr, klub, kutubxona va boshqa maskanlarga odamlar deyarli kirmay qo'ygan. Xullas, joylarda aholining ma'naviy kamol topishiga ko'maklashish uchun, bir tomondan, madaniyat maskanlari tizimini mukaminallashtirish, ikkinchidan, mavjud madaniy maskanlar imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz darkor.

Vazirliklar, hokimiyat kabi joylarda mutaxassislardan tashkil topgan maslahatchi kengashlar tuzilsa, ayni muddao bo'lar edi. Ayniqsa, bunday maslahatchi kengashlar ma'naviyat sohasiga juda zarur.

Tarixiy jarayonda ziyoli-mutaxassislar ijtimoiy hayotni taraqqiy ettrishda asosiy o'rין tutgani barchaga ma'lum. Ajdod-bobokalonlarimiz — Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Fitrat kabi buyuk ma'naviyat darg'alari jahonga mashhur ishlarni amalga oshirib, nafaqat vatanimiz, balki butun insoniyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Bugungi kun ziyolilari ham mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga o'z munosib hissalarini qo'shadilar, deb umid qilamiz.

An'anaviy xalq madaniyatini kamol toptirish yo'llari. An'anaviy madaniyatni tadqiq qilishdan asosiy maqsad, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan beba ho merosni asrash va taraqqiy ettrishdan iborat. Shuning uchun tadqiqot natijalari asosida xalq manfaniyati an'alarini tiklash va rivojlantirishga oid asosiy yo'nalishlar, shoxobchalar va ijtimoiy madaniy uslubiyatlardan tashkil topgan tendensiyalarni aniqlashga intildik.

An'anaviy xalq madaniyatini tiklash va taraqqiy ettrish tendensiyalari tarkibida uch bosh yo'nalish mavjud:

Birinchi yo'nalish — odamlar istiqomat qilayotgan joylarda, oilalarda beba ho qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish;

Ikkinci yo'nalish — davlat madaniyat muassasalari - klub, madaniyat uyi, kutubxona, muzey, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniy markazlarda ma'naviy merosni tiklash va taraqqiy ettrish;

Uchinchi yo'nalish esa xalq madaniyati an'alarini yuqori pog'onalarda — tuman, viloyat, respublika va xalqaro miyosda targ'ibot qilish yo'llarini takomillashtirish.

Uch yo'nalish ham, o'z navbatida, uch asosiy shoxobchaga bo'linadi. Ularning zaminida umumiy ijtimoiy-madaniy uslubiyat ishlab chiqildi. U to'rt pog'onali jarayondan tashkil topdi.

Xullas, an'anaviy xalq madaniyatini saqlash, tiklash va kamol topdirish uchun quyidagi pog'onalarda ish olib borish lozim:

1. Xalq madaniyati durdonalarini tarixiy-ma'naviy mero sifatida, asl holida, an'anaviy shaklda asrash;

2. Zamonaviy (jumladan, boshqa xalqlardan o'tgan) madaniy shakllarni an'anaviy elementlar hisobiga boyitish;

3. Xalq an'alarini asosida o'ziga xos zamonaviy milliy madaniyat shakllarini bunyod qilish;

4. Kelajakda xizmat qiladigan, istiqbolli, yangi etnomadaniyat durdonalarining yaratilishi uchun sharoitlar hozirlash.

Mazkur jarayon an'anaviy xalq madaniyatini keng ko'lamda taraqqiy ettrishga samarali xizmat qiladi.

*Nazorat savollari:*

1. O'zbek xalqi an'anaviy madaniyati nima?
2. O'zbek xalqi an'anaviy madaniyati rivojlanishida davlat isloxo'tchilik faoliyati qanday?
3. An'anaviy xalq madaniyati asosiy yo'nalishlari qanday?
4. O'zbek madaniyati va ma'naviyati darg'alarining an'anaviy madaniyat xaqidagi qarashlari qanday?
5. O'zbek xalqi an'analarida madaniyat elementlari qanday namoyon bo'ladi?
6. Etnomadaniyat nima ?

Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Din, tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar shu muazzam daraxtning shoxlari, xalq ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlari esa uning ildizidir.

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud g'oyat xilma-xil diniy e'tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzları tutashgan mintaqasi hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Nomoddiy madaniy meros bu xalq ijodi zamonaviy san'atining bitmas-tuganmas chashmasi hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros mehnatkash xalq yaratgan omma orasida keng tarqalib, og'izdan-og'izga , ustozdan – shogirdga, avloddan – avlodga o'tib, takomillashib sayqal topib , taraqqiy etgan ijod maxsulidir. Unda xalqning mehnat faoliyati, ijtimoiy va maishiy hayoti, turmush tabiatini to'g'risidagi tushunchalari, madaniyati , e'tiqodi, orzu – istaklari va ideallari , xis-tuyg'ulari va tafakkurining boy olami baxtli va adolatli zamon haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi.

Nomoddiy madaniy meros durdonalari mehnatkash ommanning qobiliyati vakillari tomonidan ijod etiladi. Og'izdan - og'izga ko'chib boshqalar ham bu asarlarni ijro etadilar,uning boyib borishiga o'z xissalarini qo'shadilar. Natijada, Nomoddiy madaniy meros xalq ijodiyotining eng yaxshi namunalari o'lmas an`analarga aylanadi va asrlar davomida o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini namoyon etib keladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
4. Karimov I. A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lismiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan 2012-yil 7-dekabrdagi tantanali marosimdag'i ma'ruzasi.
5. Karimov I. A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yil yakunlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasida so'zlagan ma'ruzasi. 2013 yil 19-yanvar.
6. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 31b.
7. Karimov I. A. Jayxun sohilidagi abadiy shahar // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 56 b.
8. Karimov I. A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatining shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotininng asosiy mezonidir. 19- jild. – T.: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
9. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O'qituvchi, 2011. – 144 b.
10. Karimov I. A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – T.: O'zbekiston, 2012. – 312 b.
11. Karimov I. A. Mustaqillik – barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.
12. Karimov I. A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. O'zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
13. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 9- may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan so'zlagan nutqi. O'zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.

- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
- 15.Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqodlari va marosimlari. -T. 2007.
- 16.Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. -T.: Yangi asr avlod, 2004.
- 17.Imomov K. Mirzayev T.Sarimsoqov B. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «O'qituvchi», 1990.
- 18.Madayev O. Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «Sharq», 2001.
- 19.Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat.-T.:Adolat, 2003.
20. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan, 2008.
- 21.Ashirov A. Atadjanov Sh. Etnologiya. - T. 2007.
- 22.Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. -T.: O'qituvchi, 2003.
- 23.Farg'onha vodiysi etnografiyasi va etnik tarixining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Namangan, 2003.
- 24.Qoraboyev U. Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. -T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.
- 25.Hasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T.: O'qituvchi, 1993.
- 26.Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. –T.: «Fan», 1991.
- 27.Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
- 28.Imomov K. Mirzayev T.Sarimsoqov B. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «O'qituvchi», 1990. 48-83-betlar.
- 29.Madayev O. Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «Sharq», 2001, 159-262-betlar.
- 30.Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.:2008, 24-40-betlar.
- 31.O'zbek folklori ocherklari. 1-jild. – T.: «Fan», 1988. 25-35-betlar.
- 32.Oltin olma. Hayotiy ertaklar. 1-kitob. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966.
- 33.Gulpari. Namangan ertaklari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969.
- 34.Asutirlar va rivoyatlar. 1- kitob. To'plab nashrga tayyorlovchilar Malik Murodov, Muhamarram SHayxova. – T.: 1990.
- 35.Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – T.: «Fan», 1995.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
“Nomoddiy madaniy meros” kursiga kirish .....	5
Folklor va uning o’ziga xos xususiyatlari.....	10
Qadimgi davr folklori va uning yozma manbalari.....	19
Bolalar va o’zbek marosim folklori.....	25
O’zbek xalq maqollari va topishmoqlari.....	34
O’zbek xalq qo’shiqlari va termalari.....	39
O’zbek xalq ertaklari. Afsona va rivoyatlar.....	46
Latifalar va loflar.....	55
O’zbek xalq dostonlari.....	58
Xalq tomosha san’ati.....	65
O’zbek xalq o’yinlari.....	93
Milliy xalq o’yinlarini tiklash va rivojlantirish.....	102
An’ana, urf-odat, marosim va udumlar.....	109
An’anaviy oila - turmush marosimlarida qadimiy diniy e’tiqodlar.....	114
O’zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va e’tiqodiy qarashlar.....	140
O’zbek milly mentaliteti.....	164
O’zbek xalqi an’anaviy madaniyati.....	173
Xotima .....	189
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	190

